4-rasm. Kun davomida sovutish tizimi qo‘llanilgan va qo‘lnanilmagan fotoelektrik modulda (150 mm sellyuloza-qog‘oz list) harorat o‘zgarishi

Tajriba natijalariga ko‘ra, sovutish tizimi qo‘llanilgan va qo‘llanilmagan fotoelektrik modullarda o‘rtacha harorat farqi 15 °C gacha o‘zgargani va uzatilayotgan havo harorati deyarli barqaror holda 34 °C atrofida barqarorlashgan, tashqi havo harorati esa 37–46 °C oralig‘ida o‘zgarishi aniqlangan.

Gofrlangan sellyuloza-qog‘oz list qalinligi 150 mm gacha oshirilganda bug‘lanish orqali sovitish tizimining samaradorligi oshishi kuzatildi. Qalinlikning ortishi natijasida havo va suv o‘rtasidagi kontakt yuzasi kengayib, bug‘lanish jarayonining intensivligi taxminan 10–20 % ga ortishi mumkin. Bu esa fotoelektrik modulning orqa yuzasidan issiqlikni samaraliroq olib chiqilishiga xizmat qiladi. Natijada sovutish tizimi qo‘llanilgan fotoelektrik modul haroratining qo‘shimcha ravishda 3–6 °C ga pasayishi, ya’ni o‘rtacha qiymatning taxminan 49,2 °C dan 43–46 °C oralig‘igacha kamayishi kuzatildi. Shu bilan birga, uzatilayotgan havo harorati nisbatan barqaror holda 30–32 °C diapazonda o‘zgarishi kuzatildi.

ISSN 3030-3907

FEMda sovutish tizimi qo‘llanilganda ishlab chiqarish quvvati kun davomida izchil ortib borib, tushlik paytida 108 Vt maksimal ko‘rsatkichga erishildi.

Kun davomida quyosh radiatsiyasi o‘rtacha 855 Vt/m² bo‘lganida, sovutish tizimi qo‘llanilgan va qo‘llanilmagan FEMda ishlab chiqarish quvvati o‘rtacha 98,7 Vt va 86,5 Vt ga o‘zgarishi kuzatildi.


FEMning elektr samaradorligini hisoblashda quyida keltirilgan formula asosida aniqlanadi. [5].

$$\eta = \frac{P}{G \cdot S} \cdot 100\ \% \qquad (1)$$

FEMning elektr samaradorligining nisbiy yaxshilanish darajasi quyida formula yordamida aniqlanadi [6-7].

$$\Delta\eta = \frac{\eta - \eta_s}{\eta_s} \cdot 100\ \% \qquad (2)$$

Bu yerda η — sovutilgan FEMning samaradorligini, η_s esa sovutilmagan FEMning samaradorligini ifodalaydi.



5-rasm. Kun davomida sovutish tizimi qo‘llanilgan va qo‘lnanilmagan fotoelektrik modullarda samaradorligini o‘zgarishi

Birinchi holatda tizim samaradorligining ortishi vaqt davomida deyarli barqaror saqlanib, uning maksimal qiymati taxminan 9,3 % ga yetgani kuzatildi. Bu natija jarayonning nisbatan turg‘un va muvozanatli rejimda kechayotganini hamda samaradorlik ko‘rsatkichlari vaqt omiliga sezilarli darajada bog‘liq emasligini ko‘rsatadi.

Ikkinchi holatda esa tizim samaradorligining oshish darajasi yanada yuqori bo‘lib, maksimal qiymat 14,9 % ni tashkil etdi. Mazkur natija ushbu rejimda qo‘llangan usul yoki parametrlarning tizim ishlashiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatganini anglatadi. Taqqoslash natijalari shuni ko‘rsatadiki, ikkinchi holatda kuzatilgan samaradorlik ortishi birinchi holatga nisbatan ancha yuqori bo‘lib,

ISSN 3030-3907

tizimning umumiy ish unumdorligini yaxshilashda samaraliroq ekanligi aniqlandi.

XULOSA. FEMning orqa qismiga sellyuloza-qog‘oz asosidagi maxsus list o‘rnatildi, havo–suv issiqlik almashtirgichi esa bug‘lanish orqali sovutish kanalining kirish qismiga joylashtirildi. Mazkur konstruktiv yechim tizimning issiqlik almashinuvi jarayonini samarali tashkil etish hamda sovutish unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Tizimning asosiy vazifasi FEMning ishchi haroratini me’yoriy darajada ushlab turish, uni barqaror elektr energiyasi bilan ta’minlash va ichki muhitda issiqlik qulayligini yaratishdan iborat bo‘ldi. Jarayon davomida havo issiqlik almashtirgich va namlovchi qatlam orqali o‘tkazilib, sovutilgan hamda namlangan holatda tizimga uzatildi. Natijada, nafaqat FEMning qizib ketishi kamaytirildi, balki atrof-muhit sharoitlarini yaxshilash orqali umumiy energiya samaradorligini oshirishga ham erishildi.

FEMning orqa qismiga qalinligi 100 mm bo‘lgan sellyuloza-qog‘oz qatlam o‘rnatilishi natijasida bug‘lanishli sovutish tizimining samaradorligi sezilarli darajada oshdi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, mazkur tizim FEM ishchi haroratini o‘rtacha 16 °C ga pasaytirishga erishdi, maksimal harorat kamayishi esa 20,4 °C ni tashkil etdi. Bu esa FEMning qizib ketishini sezilarli darajada kamaytirib, uning barqaror ishlashi hamda elektr energiyasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Bug‘lanishli sovutish tizimining qo‘llanilishi natijasida FEMga kiruvchi havo harorati taxminan 10 °C ga pasaytirildi. Shu bilan birga, tizim FEM haroratini maksimal 27,7 °C gacha kamaytirishga erishdi. Olingan natijalar sovutilmagan FEM bilan taqqoslanganda, haroratining umumiy hisobda 36 % ga kamayganini ko‘rsatdi. Mazkur harorat pasayishi FEMning issiqlik rejimini yaxshilab, uning barqaror ishlashi va elektr energiyasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alami A.H., “Effects of Evaporative Cooling on Efficiency of Photovoltaic Modules.,” *Energy Convers. Manag.*, vol. 77, pp. 668–679, 2014.
2. Bayrak F., Abu-Hamdeh N., Alnefaie KA., Öztop HF., “A review on exergy analysis of solar electricity production,” *Renew Sustain Energy Rev.*, vol. 12, no. 3, pp. 755–770, 2017, doi: 10. 1016/j. rser. 2017. 03. 012.
3. M. Chandrasekar and T. Senthilkumar, “Experimental demonstration of enhanced solar energy utilization in flat PV (photovoltaic) modules cooled by heat spreaders in conjunction with cotton wick structures.,” *Energy*, vol. 90, pp. 1401–1410, 2015, doi: 10.1016/j.energy.2015.06.074.
4. K. Z. Haidar ZA., Orfi J., Oztop HF., “Cooling of solar PV panels using evaporative cooling,” *J Therm Eng*, vol. 2, no. 5, pp. 928–933, 2016.

ISSN 3030-3907

5. K. A. Sardarabadi M., Hosseinzadeh M. and Passandideh-Fard M., “Experimental investigation of the efects of using metaloxides/ water nanofuids on a photovoltaic thermal system (PVT) from energy and exergy viewpoints,” *Energy*, vol. 138, no. 6, pp. 82–95, 2017, doi: 10. 1016/j. energy. 2017. 07. 046.
6. Kongfu Hu., Ken Chen.., Siyan Chan., Zikai Chen., Yunfei Xu., “Gang PeiExperimental and numerical simulation analysis of spectrally selective photovoltaic/thermal system with phase change materials,” *Energy Convers. Manag.*, vol. 347, no. January, p. 120554, 2026.
7. K. Sudhakar., Tulika Srivastava., “Energy and exergy analysis of 36 W solar photovoltaic module,” vol. 29, no. 9, pp. 51–57, 2013, doi: 10.1080/01430750.2013.770799.
8. Nasrullayev Yu.Z., Qo‘ziyev O.A., Boboqulov Z.A. Fotoelektrik tizimlar energetik ko‘rsatkichlarining quyosh nurlanishi intensivligining o‘zgarishi va iqlimiy omillar ta’siriga bog‘liqligini tadqiq qilish// O‘zbekistonning innovatsion taraqqiyotida yoshlarning o‘rni, mavzusidagi Respublika ilmiy amaliy anjumani. – Qarshi: QarMII, 2023, 6-10-betlar.
9. Komilov A.G‘., Nasrullayev Yu. Z., Ahmadov X.S. Binoga integratsiya qilinadigan fotoelektrik modulni tadqiq qilish stendida eksperimental va simulyatsion natijalarni taqqoslash // “O‘zbekistonning innovatsion taraqqiyotida yoshlarning o‘rni yosh olimlar va iqtidorli talabalarning mavzusidagi Respublika ilmiy – amaliy anjumani. - Qarshi: QarMII, 2024-yil 5-6-iyun, 4-8 bet.
10. Nasrullayev Yu.Z., Allamuratov A.X. Fotoelektrik modullarni binoga integratsiya qilish usullari va texnologiyalarini tadqiq qilish. Muqobil Energetika ilmiy-texnika jurnali. - 2023. -№1, 63-69 betlar.

ISSN 3030-3907

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

Буронова Гулнора Ёдгоровна
Бухарский государственный университет
Зоирова Азиза Иргашевна
Бухарский государственный технический университет

Аннотация. В статье рассматриваются современные подходы к развитию исследовательских компетенций обучающихся посредством использования дидактических средств и инновационных образовательных технологий. Раскрываются сущность исследовательской деятельности, педагогические основы её организации и значение в повышении качества образования. Особое внимание уделено возможностям проектного и проблемного обучения, интерактивных методов, цифровых образовательных ресурсов и современных информационных технологий в формировании у студентов самостоятельного мышления, критического анализа и навыков научного поиска. Представлены эффективные методы организации исследовательской деятельности в условиях модернизации образовательной среды.

Ключевые слова: исследовательская деятельность, исследовательские компетенции, дидактические средства, инновационные технологии, цифровое образование, интерактивные методы, проектное обучение, проблемное обучение, педагогические технологии.

Annotation. This article examines contemporary approaches to the development of students' research competencies through the application of didactic tools and innovative educational technologies. The study explores the essence of research activity, the pedagogical foundations of its organization, and its role in improving the quality of education. Particular attention is paid to the potential of project-based and problem-based learning, interactive teaching methods, digital educational resources, and modern information technologies in fostering students' independent thinking, critical analysis, and scientific inquiry skills. Effective methods for organizing research activities within the context of the modernization of the educational environment are also presented.

Keywords: research activity, research competencies, didactic tools, innovative technologies, digital education, interactive methods, project-based learning, problem-based learning, pedagogical technologies.

Annotatsiya. Maqolada didaktik vositalar va innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

Tadqiqotchilik faoliyatining mohiyati, uni tashkil etishning pedagogik asoslari va ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Talabalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil va ilmiy izlanish ko‘nikmalarini shakllantirishda loyiha va muammoli ta’lim, interaktiv usullar, raqamli ta’lim resurslari va zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratilgan. Ta’lim muhitini modernizatsiya qilish sharoitida tadqiqot faoliyatini tashkil etishning samarali usullari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tadqiqot faoliyati, tadqiqot kompetensiyalari, didaktik vositalar, innovatsion texnologiyalar, raqamli ta’lim, interaktiv usullar, loyiha asosida o‘qitish, muammoli o‘qitish, pedagogik texnologiyalar.

ВВЕДЕНИЕ.

Современное общество характеризуется стремительным развитием науки, техники и цифровых технологий, что предъявляет новые требования к подготовке специалистов. Сегодня востребованы профессионалы, способные самостоятельно анализировать информацию, критически оценивать различные явления, принимать обоснованные решения и эффективно решать нестандартные задачи. В связи с этим особую значимость приобретает развитие исследовательских компетенций обучающихся как одного из важнейших компонентов профессиональной подготовки.

В системе высшего образования исследовательская деятельность рассматривается как неотъемлемая часть формирования конкурентоспособного специалиста. Она способствует развитию интеллектуального потенциала личности, формированию навыков научного поиска и готовности к непрерывному профессиональному развитию. Поэтому совершенствование механизмов развития исследовательских компетенций становится одной из приоритетных задач современной педагогики.

Эффективность данного процесса во многом определяется использованием современных дидактических средств и инновационных образовательных технологий. Традиционные методы обучения уже не способны в полной мере удовлетворить потребности информационного общества. Современное образование ориентировано на активную познавательную деятельность, самостоятельность обучающихся и развитие их творческого потенциала. В этой связи особую актуальность приобретает внедрение инновационных подходов в образовательный процесс.

Сущность исследовательской деятельности в образовании

Исследовательская деятельность представляет собой особый вид познавательной активности, направленный на поиск новых знаний, решение

ISSN 3030-3907

научных и практических проблем, а также получение объективных результатов. В образовательном процессе она способствует развитию самостоятельности, ответственности, аналитического мышления и способности принимать решения.

Основной целью исследовательской деятельности является формирование у обучающихся навыков научного познания, умения работать с различными источниками информации, осуществлять её анализ и обобщение, формулировать выводы и аргументированно отстаивать собственную позицию. Исследовательская работа расширяет кругозор студентов, стимулирует интеллектуальное развитие и формирует устойчивый интерес к научному поиску.

В условиях компетентностного подхода исследовательская деятельность приобретает особое значение. Современный специалист должен обладать не только системой теоретических знаний, но и способностью применять их в новых ситуациях, самостоятельно решать профессиональные задачи и быстро адаптироваться к изменяющимся условиям профессиональной деятельности.

Процесс исследования включает несколько последовательных этапов: выявление проблемы, определение целей и задач исследования, выбор методов, сбор и анализ информации, формулирование выводов и представление результатов. Каждый из этих этапов требует определённых знаний, умений и навыков, формирование которых должно осуществляться в ходе обучения.




Рисунок 1. Модель развития исследовательских компетенций в современном образовательном процессе.

Дидактические средства развития исследовательских компетенций

ISSN 3030-3907

Дидактические средства являются важным компонентом образовательного процесса и включают совокупность методов, ресурсов и инструментов, обеспечивающих эффективное усвоение знаний и развитие познавательной активности обучающихся.

В процессе формирования исследовательских компетенций особое значение приобретают средства, направленные на развитие самостоятельного мышления, творческого поиска и аналитической деятельности. К ним относятся учебные пособия, электронные образовательные ресурсы, мультимедийные материалы, научные публикации, виртуальные лаборатории, интерактивные платформы и современные цифровые технологии.

Одним из наиболее эффективных инструментов являются электронные образовательные ресурсы. Они обеспечивают доступ к значительным объёмам информации, способствуют организации самостоятельной работы студентов и формируют навыки поиска, анализа и обработки данных. Электронные библиотеки, научные базы данных и образовательные платформы позволяют обучающимся знакомиться с современными достижениями науки и техники.

Существенную роль играют мультимедийные средства обучения. Использование презентаций, видеоматериалов, анимаций и интерактивных моделей способствует визуализации сложных процессов и явлений, что облегчает понимание учебного материала и повышает познавательный интерес студентов.

Важным средством развития исследовательских навыков являются проблемные задания и исследовательские проекты. Их выполнение требует самостоятельного поиска решений, анализа различных подходов и выбора наиболее эффективных способов достижения поставленной цели. Проектная деятельность способствует развитию коммуникативных навыков, умения работать в команде и принимать коллективные решения.

Лабораторные и практические занятия также занимают важное место в подготовке студентов. Они позволяют применять теоретические знания на практике, проводить эксперименты, анализировать результаты и получать собственный исследовательский опыт.

В современных условиях всё более широкое распространение получают инновационные образовательные технологии, ориентированные на повышение эффективности обучения и развитие исследовательских способностей обучающихся.

Одной из наиболее результативных технологий является проектное обучение. Его сущность заключается в организации самостоятельной

ISSN 3030-3907

деятельности студентов, направленной на решение конкретной проблемы или создание определённого продукта. Проектная деятельность способствует развитию критического мышления, творческих способностей и исследовательских навыков.

Значительный потенциал имеет технология проблемного обучения. Её основой является создание проблемных ситуаций, стимулирующих познавательную активность обучающихся. В процессе поиска решений студенты учатся анализировать информацию, выдвигать гипотезы и делать аргументированные выводы.

Эффективным инструментом развития исследовательских компетенций является кейс-метод. Анализ реальных профессиональных ситуаций позволяет студентам совершенствовать аналитическое мышление, формировать навыки принятия решений и применять теоретические знания в практической деятельности.

Особую актуальность приобретают цифровые образовательные технологии. Использование онлайн-платформ, виртуальных лабораторий, дистанционных образовательных систем и инструментов искусственного интеллекта существенно расширяет возможности обучения и обеспечивает доступ к современным научным ресурсам.

Большое значение имеют интерактивные технологии обучения. Дискуссии, деловые игры, методы мозгового штурма и групповые проекты способствуют развитию коммуникативных компетенций, умения сотрудничать и коллективно решать профессиональные задачи.

Перспективным направлением является смешанное обучение, объединяющее традиционные и цифровые формы организации образовательного процесса. Такой подход позволяет повысить мотивацию обучающихся, развить их самостоятельность и создать благоприятные условия для формирования исследовательских компетенций.

Роль преподавателя в организации исследовательской деятельности

В условиях внедрения инновационных технологий изменяется и профессиональная роль преподавателя. Он выступает не только источником знаний, но и организатором, наставником, консультантом и координатором образовательного процесса.

Одной из важнейших задач преподавателя является создание условий, стимулирующих познавательный интерес студентов и их стремление к исследовательской деятельности. Для этого необходимо активно использовать современные педагогические технологии, поддерживать инициативность обучающихся и создавать возможности для самостоятельной работы.

ISSN 3030-3907

Современный преподаватель должен обладать высоким уровнем профессиональной компетентности, владеть инновационными методиками обучения и эффективно использовать цифровые образовательные ресурсы. Особое значение приобретает методическое сопровождение исследовательской деятельности студентов и оказание им необходимой консультативной поддержки.

ВЫВОДЫ.

Таким образом, дидактические средства и инновационные образовательные технологии являются важнейшими факторами развития исследовательских компетенций обучающихся. Их использование способствует повышению качества образования, развитию профессионального мышления и формированию готовности к научно-исследовательской деятельности.

Современные образовательные технологии превращают обучающихся в активных участников познавательного процесса, формируют навыки самостоятельного получения знаний и их практического применения. Цифровые ресурсы, проектное обучение, проблемные методы и интерактивные технологии создают широкие возможности для развития критического мышления, творческого потенциала и исследовательской активности.

Развитие исследовательских компетенций является необходимым условием подготовки конкурентоспособных специалистов, способных эффективно функционировать в условиях современного информационного общества. В связи с этим совершенствование дидактических средств и дальнейшее внедрение инновационных технологий в образовательный процесс остаются одними из наиболее актуальных направлений развития современной педагогической науки и практики.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Бонд М., Беденлиер С., Марин В. И., Хандель М. Экстренное дистанционное обучение в высшем образовании: анализ первого глобального онлайн-семестра // Международный журнал образовательных технологий в высшем образовании. – 2021. – Т. 18. – № 1. – С. 50.
2. Бозкурт А. и др. Глобальный взгляд на прерывание образования в условиях пандемии COVID-19: образование в период неопределенности и кризиса // Азиатский журнал дистанционного образования. – 2020. – Т. 15. – № 1. – С. 1–126.
3. Редеккер К. Европейская рамка цифровой компетентности педагогов (DigCompEdu). – Люксембург: Издательство Европейского Союза, 2017.

ISSN 3030-3907

4. Вогт Й., Фиссер П., Гуд Дж., Мишра П., Ядав А. Вычислительное мышление в обязательном образовании: перспективы исследований и практики // Образование и информационные технологии. – 2015. – Т. 20. – № 4. – С. 715–728.
5. Лакин Р. и др. Искусственный интеллект и будущее обучения. – Париж: ЮНЕСКО, 2022.
6. Селвин Н. Образование и технологии: ключевые вопросы и дискуссии. – 3-е изд. – Лондон: Routledge, 2022.
7. Минс Б., Бакия М., Мёрфи Р. Онлайн-обучение: что говорят исследования о том, как, когда и почему оно эффективно. – Нью-Йорк: Routledge, 2014.
8. Хэтти Дж. Видимое обучение: продолжение исследований. – Лондон: Routledge, 2023.
9. Фуллан М., Куинн Дж., МакИчен Дж. Глубинное обучение: вовлекая мир, изменяя мир. – Таузенд-Окс: Corwin Press, 2018.
10. Завакки-Рихтер О., Марин В. И., Бонд М., Гувернёр Ф. Систематический обзор исследований применения искусственного интеллекта в высшем образовании // Международный журнал образовательных технологий в высшем образовании. – 2019. – Т. 16. – № 1. – С. 39.
11. Полат Е. С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – Москва: Академия, 2021.

ISSN 3030-3907

SIMULYATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MUHANDISLIK TA'LIMIDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Bo'ronova Gulnora Yodgorovna
Buxoro davlat universiteti
Zoirova Aziza Irgashevna
Buxoro davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishda simulyatsion ta'lim texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Virtual laboratoriyalar, interaktiv raqamli platformalar va simulyatsion modellar yordamida talabalarning analitik tafakkuri, muammolarni hal etish qobiliyati hamda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, muhandislik ta'limi jarayonida simulyatsion texnologiyalarni qo'llashning metodik asoslari va ularni takomillashtirishning zamonaviy yo'nalishlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: simulyatsion ta'lim, muhandislik ta'limi, tadqiqotchilik kompetensiyasi, virtual laboratoriya, raqamli texnologiyalar, innovatsion pedagogika, kasbiy tayyorgarlik.

Аннотация. В статье проанализированы педагогические возможности симуляционных образовательных технологий в развитии исследовательских компетенций будущих инженеров. Рассмотрены вопросы формирования аналитического мышления, способности решать профессиональные задачи и исследовательских навыков студентов с использованием виртуальных лабораторий, интерактивных цифровых платформ и симуляционных моделей. Кроме того, освещены методические основы применения симуляционных технологий в инженерном образовании и современные направления их совершенствования.

Ключевые слова: симуляционное обучение, инженерное образование, исследовательская компетенция, виртуальная лаборатория, цифровые технологии, инновационная педагогика, профессиональная подготовка.

Abstract. The article analyzes the pedagogical possibilities of simulation educational technologies in the development of research competencies of future engineers. The article discusses the development of students' analytical thinking, problem-solving skills, and research skills using virtual laboratories, interactive digital platforms, and simulation models. The methodological foundations of the use of simulation technologies in the process of engineering education and modern directions for their improvement are also considered.

ISSN 3030-3907

Keywords: simulation education, engineering education, research competence, virtual laboratory, digital technologies, innovative pedagogy, professional training.

KIRISH.

Raqamlashtirish va globallashuv jarayonlarining jadallashuvi muhandislik ta’limiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Zamonaviy sanoat va texnologik tizimlarning murakkablashuvi mutaxassislardan nafaqat fundamental bilimlarga ega bo‘lishni, balki ilmiy izlanish olib borish, innovatsion g‘oyalarni ilgari surish hamda amaliy muammolarni samarali hal qilish qobiliyatini ham talab etadi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak muhandislarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

An’anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha nazariy tayyorgarlikka yo‘naltirilgan bo‘lib, murakkab texnologik jarayonlarning amaliy jihatlarini to‘liq namoyon eta olmaydi. Natijada talabalar kasbiy faoliyatga moslashish jarayonida qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Ayniqsa, katta xarajat talab qiluvchi yoki xavfli ishlab chiqarish jarayonlarini real sharoitlarda o‘rganish imkoniyatlari cheklanganligi sababli zamonaviy pedagogik yechimlarga ehtiyoj ortmoqda.

Bunday sharoitda simulyatsion ta’lim texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular real ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni virtual muhitda modellashtirish orqali talabalarga amaliy tajriba orttirish imkonini yaratadi. Simulyatsion muhitda talabalar turli texnik vaziyatlarni o‘rganish, tajribalar o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Simulyatsion ta’limning mohiyati va pedagogik imkoniyatlari. Simulyatsion ta’lim real obyektlar, jarayonlar yoki tizimlarning modellashtirilgan variantlari asosida tashkil etiladigan innovatsion ta’lim shaklidir. Mazkur texnologiya talabalarga xavfsiz va boshqariladigan muhitda tajriba o‘tkazish, xatolarni tahlil qilish hamda nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Muhandislik ta’limida simulyatsion texnologiyalar quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi: murakkab texnik tizimlarni virtual modellashtirish; laboratoriya mashg‘ulotlarini masofadan tashkil etish; texnologik jarayonlarni xavfsiz sinovdan o‘tkazish; real ishlab chiqarishdagi muammoli vaziyatlarni imitasiya qilish; ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan integratsiyalashgan o‘qitishni amalga oshirish.

Natijada talabalar nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash tajribasini egallaydilar va kasbiy tayyorgarlik darajasi ortadi.

Tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishdagi o‘rni. Bo‘lajak muhandisning kasbiy muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uning tadqiqotchilik faoliyatini

ISSN 3030-3907

samarali tashkil etish qobiliyatiga bog‘liq. Simulyatsion ta’lim ushbu yo‘nalishda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi:

Talabalar virtual modellar asosida ma’lumotlarni tahlil qilish, jarayonlarni taqqoslash va ilmiy xulosalar chiqarishni o‘rganadilar.

Muammolarni hal qilish ko‘nikmasi

Simulyatsion muhitda yuzaga keladigan texnik nosozliklar va murakkab vaziyatlarni mustaqil hal etish orqali amaliy tajriba shakllanadi.


Eksperimental faoliyat. Virtual laboratoriyalarda o‘tkazilgan tajribalar talabalarni ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan yaqindan tanishtiradi.

Mustaqil qaror qabul qilish. Turli simulyatsion topshiriqlar talabalarning innovatsion fikrlashi va mustaqil yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantiradi.

Nazariy tayyorgarlik, amaliy mashg‘ulotlar va ilmiy izlanishlarni yagona tizim sifatida tashkil etish talab etiladi. Virtual laboratoriyalar, sun’iy intellekt, 3D modellashtirish va interaktiv platformalardan foydalanish ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Kompetensiyaviy yondashuv. Ta’lim jarayoni talabalar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilishi, topshiriqlar esa real ishlab chiqarish vaziyatlariga moslashtirilishi lozim.

Muammoli ta’lim texnologiyalari. Muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan topshiriqlar talabalarni ijodiy va ilmiy fikrlashga undaydi.



1-rasm. Simulyatsion texnologiyalar asosida muhandislik ta’limida tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli

ISSN 3030-3907

Tadqiqot natijalari va muhokama. O‘tkazilgan tadqiqotlar simulyatsion texnologiyalardan foydalanish bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini tasdiqladi. Simulyatsion mashg‘ulotlarda ishtirok etgan talabalar murakkab texnik jarayonlarni modellashtirish, tahlil qilish va muammolarga ilmiy yondashish bo‘yicha yuqori natijalarni namoyon etdilar.

Virtual laboratoriyalar va interaktiv platformalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini yaratdi. Natijada talabalarda mustaqil fikrlash, eksperimentlarni rejalashtirish, natijalarni baholash hamda ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalari rivojlandi.

Tajriba guruhi talabalari nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga ega bo‘ldilar. Ular amaliy topshiriqlarni bajarishda faolroq ishtirok etib, innovatsion yechimlarni ishlab chiqishga intildilar. Bundan tashqari, jamoaviy hamkorlik, kommunikativ kompetensiyalar va raqamli texnologiyalar bilan ishlash malakalari ham sezilarli darajada rivojlandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, simulyatsion ta’limning asosiy afzalligi ta’lim jarayonining interaktiv va amaliy yo‘naltirilgan shaklda tashkil etilishidir. Talabalar virtual muhitda xatolar ustida ishlash orqali real ishlab chiqarish sharoitida uchrashi mumkin bo‘lgan muammolarni oldindan baholash va ularga yechim topish ko‘nikmasini shakllantiradilar.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlandi. Jumladan, ayrim oliy ta’lim muassasalarida texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, metodik ta’minotning cheklanganligi va pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini yanada oshirish zarurati kuzatildi.

XULOSA.

Simulyatsion ta’lim texnologiyalari bo‘lajak muhandislarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishda samarali va innovatsion pedagogik vosita hisoblanadi. Ular talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirib, ilmiy izlanish olib borish, innovatsion fikrlash va murakkab texnologik jarayonlarni tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantiradi.

Muhandislik ta’limiga simulyatsion texnologiyalarni keng joriy etish ta’lim sifatini oshirish, kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlash hamda zamonaviy mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Kelgusida sun’iy intellekt asosidagi adaptiv platformalarni simulyatsion ta’lim tizimlariga integratsiyalash ushbu yo‘nalish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilad

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Radianti, J., Majchrzak, T. A., Fromm, J., Wohlgenannt, I. Immersive virtual reality applications for higher education: Design elements, lessons learned, and research agenda // *Computers & Education*. – 2020. – Vol. 147. – 103778.
2. Lateef, F. Simulation-based learning: Just like the real thing // *Journal of Emergencies, Trauma and Shock*. – 2010. – Vol. 3, No. 4. – pp. 348–352.
3. De Jong, T., Linn, M. C., Zacharia, Z. C. Physical and virtual laboratories in science and engineering education // *Science*. – 2013. – Vol. 340, No. 6130. – pp. 305–308.
4. Makransky, G., Petersen, G. B. Immersive virtual reality and learning: A meta-analysis // *Educational Psychology Review*. – 2019. – Vol. 31. – pp. 1–25.
5. Ibáñez, M.-B., Delgado-Kloos, C. Augmented reality for STEM learning: A systematic review // *Computers & Education*. – 2018. – Vol. 123. – pp. 109–123.
6. Merchant, Z., Goetz, E. T., Cifuentes, L., Keeney-Kennicutt, W., Davis, T. J. Effectiveness of virtual reality-based instruction on students' learning outcomes // *Computers & Education*. – 2014. – Vol. 70. – pp. 29–40.
7. Clark, R. C., Mayer, R. E. *E-learning and the Science of Instruction: Proven Guidelines for Consumers and Designers of Multimedia Learning*. – Hoboken: Wiley, 2016.
8. Полат, Е. С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М.: Академия, 2010.
9. Роберт, И. В. Современные информационные технологии в образовании. – М.: ИИО РАО, 2014.

ISSN 3030-3907

UDK: 331.45:004.9:005.6

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MEHNAT MUHOFAZASINI RAQAMLI BOSHQARUV TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR TAHLILI

Kosimova Shaxnoza Erkinovna.
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada ishlab chiqarish korxonalarida mehnat muhofazasini an'anaviy boshqarish usullarining cheklovlari va zamonaviy raqamli texnologiyalar (IoT, Big Data, sun'iy intellekt, mashinaviy o‘qitish) asosidagi boshqaruv yondashuvlarining ustunliklari 20 ta xalqaro ilmiy manba tahlili asosida tizimli ravishda o‘rganildi. Safety 4.0 texnologik stackning 5 qatlamli arxitekturasi, an'anaviy risk baholash usullari (HAZOP, FMEA, FTA, Bow-Tie, JSA) va ularning cheklovlari, mashinaviy o‘qitish algoritmlarining bashorat aniqligi (XGBoost algoritmi 89% gacha), global IoT xavfsizlik bozorining dinamikasi (2024-yilda 35,60 mlrd USD, 2034-yilga qadar 383,11 mlrd USDgacha, CAGR 26,82%) tahlil qilindi. Rivojlangan mamlakatlar (Germaniya, AQSh, Xitoy), Rossiya Federatsiyasi va O‘zbekiston Respublikasidagi raqamlashtirish amaliyoti qiyoslandi. Tadqiqotning ilmiy gipotezasi — integratsiyalashgan raqamli boshqaruv algoritmlari baxtsiz hodisalarni 30–40% ga kamaytirishi — asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: mehnat muhofazasi, OHSMS, Safety 4.0, Sanoat 4.0, IoT, Big Data, mashinaviy o‘qitish, XGBoost, wearable sensorlar, raqamli boshqaruv, lagging va leading indikatorlar.

Annotation. The article systematically examines the limitations of traditional occupational safety management methods in industrial enterprises and the advantages of modern management approaches based on digital technologies (IoT, Big Data, artificial intelligence, machine learning), drawing on an analysis of 20 international scientific sources. The five-layer architecture of the Safety 4.0 technological stack, traditional risk assessment methods (HAZOP, FMEA, FTA, Bow-Tie, JSA) and their limitations, the predictive accuracy of machine learning algorithms (up to 89% for the XGBoost algorithm), and the dynamics of the global IoT safety market (USD 35.60 billion in 2024, projected to reach USD 383.11 billion by 2034, CAGR 26.82%) are analyzed. The digitalization practices in developed countries (Germany, USA, China), the Russian Federation, and the Republic of Uzbekistan are compared. The scientific hypothesis of the study—that integrated digital management algorithms can reduce accidents by 30–40%—is substantiated.

Keywords: occupational safety, OHSMS, Safety 4.0, Industry 4.0, IoT, Big Data, machine learning, XGBoost, wearable sensors, digital management, lagging and leading indicators.

Аннотация. В статье системно исследованы ограничения традиционных методов управления охраной труда на производственных предприятиях и преимущества современных подходов управления, основанных на цифровых технологиях (IoT, Big Data, искусственный интеллект, машинное обучение), на основе анализа 20 международных научных источников. Проанализированы пятиуровневая архитектура технологического стека Safety 4.0, традиционные методы оценки рисков (HAZOP, FMEA, FTA, Bow-Tie, JSA) и их ограничения, точность прогнозирования алгоритмов машинного обучения (до 89% для алгоритма XGBoost), а также динамика глобального рынка IoT-безопасности (35,60 млрд долл. США в 2024 году с прогнозом до 383,11 млрд долл. США к 2034 году, CAGR 26,82%). Сравнены практики цифровизации в развитых странах (Германия, США, Китай), Российской Федерации и Республике Узбекистан. Обоснована научная гипотеза исследования о том, что интегрированные цифровые алгоритмы управления способны снизить количество несчастных случаев на 30–40%.

Ключевые слова: охрана труда, OHSMS, Safety 4.0, Индустрия 4.0, IoT, Big Data, машинное обучение, XGBoost, носимые сенсоры, цифровое управление, запаздывающие и опережающие индикаторы.

1. KIRISH.

Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarida mehnat muhofazasini boshqarish tizimi (Occupational Health and Safety Management System — OHSMS) jiddiy transformatsiya arafasida turibdi. So‘nggi 40 yil davomida xalqaro amaliyotda ishlab chiqilgan an'anaviy yondashuvlar — OHSAS 18001, ISO 45001, HAZOP, FMEA, FTA metodologiyalari — Sanoat 4.0 davri talablariga to‘liq javob bera olmayotganligi ko‘plab tadqiqotlarda tasdiqlangan [1; 331]. Ushbu tizimlarning asosiy cheklovlari: reaktiv tabiat, sub'ektivlik, davriy monitoringning yetishmasligi va katta resurs talab qilishi hisoblanadi.

Shu bilan birga, so‘nggi o‘n yil davomida raqamli texnologiyalar — Narsalar interneti (IoT), katta ma'lumotlar (Big Data), sun'iy intellekt (AI), mashinaviy o‘qitish (ML), raqamli egizaklar (Digital Twins) va wearable qurilmalar jadal rivojlanib, mehnat muhofazasi sohasida "Safety 4.0" yoki "OHS 4.0" deb nomlanuvchi yangi paradigmani shakllantirdi [2; 2]. Scienedirect jurnalida nashr etilgan keng qamrovli tizimli sharh (2026) 713 ta maqolani o‘rganib, 2016–2024-yillarda nashr etilgan 331 ta peer-review tadqiqotni tanlagan va Safety 4.0 texnologik stack 5 qatlamdan iboratligini ko‘rsatgan [3; 5].

ISSN 3030-3907

Tadqiqotning maqsadi — mehnat muhofazasini boshqarishning an'anaviy usullarining cheklovlarini sistematik tahlil qilish, zamonaviy raqamli texnologiyalarning OHS uchun qo‘llanish imkoniyatlarini o‘rganish va O‘zbekiston sanoat korxonalari uchun raqamli boshqaruv algoritmlari asosidagi integratsiyalashgan tizim konsepsiyasini asoslab berish.

Tadqiqotning vazifalari: (1) an'anaviy risk baholash usullari (HAZOP, FMEA, FTA) va ularning cheklovlarini aniqlash; (2) Safety 4.0 texnologik stack arxitekturasini tahlil qilish; (3) mashinaviy o‘qitish algoritmlarining baxtsiz hodisalarni bashorat qilishdagi samaradorligini baholash; (4) IoT va wearable qurilmalar bozorining rivojlanish tendentsiyalarini o‘rganish; (5) turli davlatlardagi raqamlashtirish amaliyotini qiyoslash; (6) O‘zbekiston sharoiti uchun takliflar ishlab chiqish.

2. MATERIALLAR VA USULLAR.

Tadqiqotda keng qamrovli adabiyot sharhi metodologiyasi qo‘llanildi. Manba bazasi Scopus, Web of Science, MDPI, IEEE Xplore, Springer, Elsevier jurnallari hamda O‘zbekiston va MDH davlatlarining ilmiy nashrlaridan tanlandi. Jami 20 ta ilmiy manba tahlilga jalb qilindi, ularning 15 tasi Scopus va Web of Science bazalarida indekslangan xalqaro maqolalar, 3 tasi me'yoriy-huquqiy hujjatlar (ISO 45001:2018, OSHA OHS 3885, O‘zR Qonuni), 2 tasi ilmiy sharhlar (scoping/systematic reviews).

Kiritish mezonlari: (1) 2017–2026-yillarda nashr etilgan zamonaviy tadqiqotlar; (2) raqamli texnologiyalar va mehnat muhofazasi integratsiyasini qamrab olgan; (3) empirik yoki tizimli tahlil natijalarini o‘z ichiga olgan. Alohida ahamiyat berilgan manbalar: Chiarini A. va boshqalarning (2026) Safety 4.0 texnologik stack bo‘yicha tizimli sharhi [3], Alsharef A. va boshqalarning (2026) ML algoritmlari qiyoslash bo‘yicha tadqiqoti [4], Qiu L. va boshqalarning (2025) IoT xavfsizlik bozori prognozi [5].

Tahlil usullari: (1) qiyosiy tahlil — an'anaviy va raqamli yondashuvlarni solishtirish; (2) bibliometrik yondashuv — iqtibos darajasini baholash; (3) kontent tahlili — turli texnologiyalarning qo‘llanilish doiralarini o‘rganish; (4) meta-tahlil elementlari — ML algoritmlarining samaradorligini qiyoslash. Natijalar 4 ta jadval va 4 ta rasmli chizma ko‘rinishida tizimlashtirildi.

3. NATIJALAR.

3.1. An'anaviy risk baholash usullarining qiyosiy tahlili

An'anaviy mehnat muhofazasida risk baholash — markaziy jarayon bo‘lib, so‘nggi 70–80 yil davomida ko‘plab usullar ishlab chiqilgan. Bu usullar uch guruhga ajratiladi: sifatli (HAZID, HAZOP, Bow-Tie), yarim miqdoriy (FMEA, risk matritsalari, LOPA) va miqdoriy (FTA, Monte-Carlo simulyatsiyalari) [6; 3].

ISSN 3030-3907

1-jadvalda eng keng qo‘llanilayotgan an'anaviy risk baholash usullari va ularning cheklovlari qiyoslab tahlil qilingan.


1-jadval.

An'anaviy risk baholash usullarining qiyosiy tavsifi va cheklovlari

Usul	Ishlatilish sohasi	Asosiy cheklovlari	Vaqt talabi	Iqtibos
HAZOP	Kimyo, neft-gaz, farmatsevtika — murakkab jarayonlar	Sub'ektiv baholash, ekspertlar guruhini talab qiladi, uzluksiz emas	Yuqori (hafta)	[7; 68]
FMEA	Avtomobilsozlik, aerokosmos, mashinasozlik	RPN — sub'ektiv, tizim dinamikasini aks ettirmaydi	O‘rtacha (1-2 hafta)	[8; 3]
FTA	Murakkab texnik tizimlar, yadroviy energetika	Murakkab va qimmat; kombinatorial portlash muammosi	Yuqori (oylar)	[6; 5]
Bow-Tie	Neft-gaz, to‘siqlar boshqaruvi	Miqdoriy tahlil yo‘q; dinamik o‘zgarishlarga moslashmagan	O‘rtacha	[6; 7]
JSA	Individual ish joylari, qurilish	Faqat individual vazifalar uchun; katta ko‘lamda qo‘llashi qiyin	Past (1 kun)	[7; 67]

1-jadval tahlilidan ko‘rinadiki, an'anaviy usullar oltita asosiy cheklovga duch keladi: (1) sub'ektivlik — ekspertlar fikriga qattiq bog‘liqlik; (2) davriy xarakter — uzluksiz monitoring emasligi; (3) murakkab tizimlar uchun yetarli emaslik; (4) katta vaqt va resurs talab qilishi; (5) dinamik o‘zgaruvchan muhit sharoitlariga moslashishning sustligi; (6) inson omilini chuqur hisobga olmaslik [1; 332], [6; 2].

ISSN 3030-3907




1-rasm. Mehnat muhofazasini boshqarishdagi an'anaviy (reaktiv) va zamonaviy (proaktiv) yondashuvlarning qiyosiy tahlili

Lagging va leading indikatorlarning farqi. An'anaviy xavfsizlik boshqaruvida ishlatilayotgan ko‘rsatkichlar ikki asosiy guruhga bo‘linadi: lagging (orqada qoluvchi, reaktiv) va leading (oldinda yuruvchi, proaktiv) indikatorlar. Lagging indikatorlar — TRIR (Total Recordable Incident Rate), LTIFR (Lost Time Injury Frequency Rate), DART (Days Away Restricted or Transferred) — baxtsiz hodisadan keyin o‘lchanadi. Liang H. va boshqalarning (2018) tadqiqotida faqat lagging indikatorlariga tayanish samarasiz ekanligi isbotlangan [9; 1]. Nnaji C. va Awolusi I. (2021) leading indikatorlarning samaradorligi faqat zamonaviy raqamli texnologiyalar (IoT, AI) bilan to‘liq namoyon bo‘lishini ko‘rsatganlar [10; 3].

ISSN 3030-3907

3.2. Safety 4.0 texnologik stack arxitekturasi

Chiarini A., Belvedere V. va Grando A.ning (2026) Results in Engineering jurnalida nashr etilgan keng qamrovli tizimli sharhi Safety 4.0 texnologik stackning 5 qatlamdan iborat arxitekturasini aniqlab berdi (2-rasm) [3; 5]. Bu arxitektura an'anaviy OHSMSning ko‘pgina cheklovlarini bartaraf etishga imkon beradi.



(Chiarini A. va boshqalar, Results in Engineering, 2026 asosida)

2-rasm. Safety 4.0 texnologik stack: Sanoat 4.0 sharoitida raqamli xavfsizlik boshqaruvining 5 qatlami (Chiarini A. va b., 2026)

Qatlam 1 — Ma'lumot yig‘ish (Data Acquisition). IoT-sensorlar, wearable qurilmalar, aqlli kaskalar va kamera analitikasi yordamida real vaqtda ma'lumot yig‘iladi. Formisano F. va boshqalarning (2024) Smart PPE prototipi gazlar (VOC, CO_2, CO, O_2), chang zarrachalari (PM), harorat, namlik va xodim joylashuvini real vaqtda monitoring qiladi [11; 4993].

Qatlam 2 — Ma'lumot integratsiyasi. Edge computing, cloud platformalar, SCADA tizimlari va 5G tarmoqlari bir-biriga bog‘lanib, to‘plangan

ISSN 3030-3907

ma'lumotlarni qayta ishlaydi. de Moura E.S. va boshqalarning (2026) taklif qilgan IoT-helmet va edge computing yechimida xodim holati haqidagi ma'lumotlar darhol jamlanadi [12; 2].

Qatlam 3 — Tahlil va modellashtirish. Mashinaviy o‘qitish algoritmlari (Random Forest, XGBoost, neyron tarmoqlar), Big Data analytics va Digital Twin texnologiyalari xavflarni bashorat qilishga imkon beradi [3; 6], [4; 3].

Qatlam 4 — Qaror qabul qilish. Generative AI (GPT modellari), prescriptive analytics va ekspert tizimlari asosida avtomatik xavfsizlik qarorlari qabul qilinadi. Yoo B. va boshqalarning (2026) tadqiqotida fine-tuned GPT modeli an'anaviy ML usullariga taqqoslash darajasida yoki undan yuqori aniqlikka erishgani ko‘rsatilgan [13; 2].

Qatlam 5 — Inson-tizim interfeysi. AR/VR, mobil ilovalar, dashboardlar va ogohlantirish tizimlari xodim bilan tizim o‘rtasida muloqotni ta'minlaydi [14; 3].

3.3. An'anaviy va raqamli yondashuvlarning qiyosiy tahlili

An'anaviy va raqamli yondashuvlarning asosiy farqlari 2-jadvalda tizimlashtirilgan. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, raqamli yondashuv an'anaviy yondashuvga nisbatan barcha asosiy mezonlar bo‘yicha ustunlikka ega.

2-jadval.

An'anaviy va raqamli (OHS 4.0) mehnat muhofazasini boshqarish yondashuvlarining qiyosiy tavsifi


Mezon	An'anaviy yondashuv	Raqamli yondashuv (OHS 4.0)
Asosiy xususiyati	Reaktiv — hodisadan keyin choralar	Proaktiv — oldindan bashorat va bartaraf etish
Xavfsizlik indikatorlari	Lagging (TRIR, LTIFR, DART)	Leading (near-miss, audit score, IoT-sensor ma'lumotlari)
Monitoring chastotasi	Davriy (oylik, choraklik, yillik)	Uzluksiz (real vaqtda, 24/7)
Ma'lumot manbai	Qog‘oz hujjatlar, statik hisobotlar	IoT-sensorlar, mobil ilovalar, kamera analitikasi
Tahlil usuli	Ekspert bahosi, sub'ektiv	ML-algoritmlar, Big Data, bashorat modellari
Inson omili	Xodim xatosi — asosiy muammo manbai	AI qo‘llab-quvvatlashi — xatolarni kamaytirish

ISSN 3030-3907

Xarajatlar	Yuqori (hodisa natijasida)	Boshlang‘ich investitsiya, keyinchalik past
Samaradorlik	Cheklangan, statistik noaniqlik	Yuqori — baxtsiz hodisalarni 32–45% kamaytirish

3.4. Mashinaviy o‘qitish algoritmlarining baxtsiz hodisalarni bashorat qilishdagi samaradorligi

So‘nggi yillarda mashinaviy o‘qitish algoritmlari ishlab chiqarish korxonalaridagi baxtsiz hodisalarni bashorat qilishning asosiy vositasiga aylandi. Scientific Reports jurnalida nashr etilgan Saudi Arabistonning qurilish sohasidagi tadqiqot (Alsharef A. va boshqalar, 2026) 2018–2024-yillar davomidagi 203 ta baxtsiz hodisa ma'lumotlari asosida oltita ML algoritmi samaradorligini tahlil qilgan: K-Nearest Neighbor (KNN), Support Vector Machine (SVM), Decision Tree (DT), Random Forest (RF), Gradient Boosting (GB) va Extreme Gradient Boosting (XGBoost) [4; 3]. Natijalar 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Qurilish sohasidagi baxtsiz hodisalarni bashorat qilish uchun ML algoritmlarining qiyosiy aniqligi (Alsharef A. va b., 2026)


Tadqiqot natijalariga ko‘ra, XGBoost algoritmi eng yuqori bashorat aniqligini — 89% ni ko‘rsatdi (hodisa og‘irligi bashoratida — SOI, severity of incidents), qolgan beshta algoritm 60% dan yuqori aniqlikka erishgan. Rivas T., Sarkar S. va boshqalarning (2025) ensemble ML algoritmlari asosidagi tadqiqotida (XGBoost, LightGBM va MDT) zamonaviy yondashuvlar reaktiv xavfsizlik holatidan proaktiv va bashoratli rejimga o‘tishga imkon berishi ko‘rsatilgan [15; 3]. Yoo B. va boshqalarining (2026) tadqiqotida Generative AI

ISSN 3030-3907

(GPT) modellarining an'anaviy ML dan ustunroq natijalar bera olishi isbotlangan [13; 2].

3.5. IoT xavfsizlik bozorining dinamikasi va xalqaro amaliyot

Qiu L. va boshqalarning (2025) IET Information Security jurnalidagi tadqiqotiga ko‘ra, 2024-yilda global IoT xavfsizlik bozori hajmi 35,60 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan, 2025-yilda 45,15 mlrd USDga, 2034-yilga qadar esa 383,11 mlrd USDga yetishi prognoz qilinmoqda — yillik o‘sish sur'ati 26,82% (4-rasm) [5; 8]. Bu o‘sish kiberxavflar ta'siri va IoT tarmoqlariga bo‘lgan talab o‘sishi bilan izohlanadi.



4-rasm. Global IoT xavfsizlik bozori hajmining prognozi 2024–2034 yillarda (Qiu L. va b., 2025)

3-jadval.

Turli mamlakatlarda mehnat muhofazasini raqamlashtirish darajasi

Mamlakat	Raqamlash darajasi	Asosiy texnologiyalar	Iqtibos
Germaniya, Yaponiya	Yuqori (Sanoat 4.0/5.0)	IoT, AI, Digital Twins, Kobotlar	[3; 3]
AQSh	Yuqori	Wearable qurilmalar, ML/AI, dronlar, VR/AR	[16; 2], [4; 3]
Xitoy	O‘rtacha–Yuqori	IIoT, Big Data, AI monitoring	[5; 9]
Rossiya	O‘rtacha	SCADA, RiskProf, 1C:OT, PPE nazorati	[17; 1], [18; 1]
Saudiya Arabistoni	O‘rtacha	ML bashorat, IoT, neft-gaz monitoring	[4; 2]

ISSN 3030-3907

O‘zbekiston	Past–O‘rtacha	Asosan an'anaviy OHSMS, ayrim IoT pilotlari	[19; 18]

Rossiya Federatsiyasi tajribasi. RJD (Rossiyskiye jeleznye dorogi)da xodimlar holati va mehnat sharoitlarining kompleks raqamli monitoring tizimi faoliyat yuritadi, "Rosneft"da risklarni boshqarish va PPE nazorati uchun avtomatlashtirilgan platforma qo‘llaniladi, metallurgiya konsernlarida Big Data analytics joriy etilgan [17; 2]. "Rosatom"da "RiskProf" xizmati sinovdan o‘tkazilmoqda, "Polyus" kompaniyasida karer bortlari barqarorligini monitoring qilish uchun radarlar va AI yordamida ma'lumotlar tahlili qo‘llaniladi [18; 1].

O‘zbekiston amaliyoti. Yirik sanoat korxonalari ("O‘zMK", NGMK, Olmaliq TMK) muayyan darajada IoT monitoring va avtomatlashtirilgan xavfsizlik tizimlarini joriy etgan. Biroq kichik va o‘rta korxonalar (SME) sektorida raqamli mehnat muhofazasi texnologiyalari keng tarqalmagan. Asosiy to‘siqlar: (1) mutaxassis kadrlar yetishmovchiligi; (2) dastlabki investitsiya xarajatlarining yuqoriligi; (3) integratsiyalangan huquqiy asosning to‘liq emasligi; (4) raqamli infratuzilmaning mintaqaviy notengligi [19; 5], [20; 4].

4. MUHOKAMA.

Tadqiqot natijalari mehnat muhofazasini boshqarishda raqamli texnologiyalarning integratsiyasi sohaning samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga egaligini ko‘rsatmoqda. Mihajlović V. va boshqalarning (2025) MDPI Safety jurnalida nashr etilgan tadqiqotida aniqlanganicha, yirik tashkilotlar tuzilmaviy xavfsizlik boshqaruv doirasini qabul qiladilar, SMElar esa iqtisodiy va texnik cheklovlarga duch keladilar. Mualliflar tavsiyasiga ko‘ra, arzon narxli OHS yechimlari — sun'iy intellekt asosidagi xavfsizlik boshqaruvi va IoT-ga asoslangan hodisa hisobotlari — SMElarga moliyaviy yuk ostida qolmasdan yaxshi xavfsizlik natijalariga erishishga yordam beradi.

Raqamli yondashuvning asosiy ustunliklari. Safety 4.0 texnologik stackning 5 qatlamli arxitekturasi an'anaviy yondashuvning barcha oltita cheklovini bartaraf etish imkoniyatiga ega. IoT-sensorlar uzluksiz real vaqt monitoringini ta'minlab, sub'ektivlikni kamaytiradi; ML-algoritmlar (XGBoost aniqlik 89%) baxtsiz hodisalarni oldindan bashorat qiladi; Digital Twin texnologiyasi murakkab tizimlarni virtual muhitda sinash imkonini beradi. Natijada korxonalarda baxtsiz hodisalar soni 32–45% ga kamayishi mumkin [1; 331].

Raqamli yondashuvning potensial xavflari. Chan A.P.C. va boshqalarning (2024) Safety and Health at Work jurnalida nashr etilgan sharhida Industry 4.0 texnologiyalari ikki tomonlama xususiyatga egaligi ta'kidlangan. Bir tomondan, wearable texnologiyalar xodimlarga yordam beradi, boshqa tomondan, raqamli konnektorlikka ortiq bog‘liqlik kiberxavfsizlik risklari va kiber hujumlar

ISSN 3030-3907

uchun kirish nuqtalarini ko‘paytiradi [16; 1]. Shu sababli, raqamli tizimlarni joriy etishda kiberxavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur.

O‘zbekiston uchun takliflar. Rahmatullayeva D. va Karimova M. (2024) O‘zbekiston iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini tahlil qilgan. COVID-19 pandemiyasi raqamli iqtisodiyot o‘sishini tezlashtirdi [20; 2]. Abdullayev A. va hamkasblari (2023) AI texnologiyalari asosida robototexnikaning jadal rivojlanishi mahsuldorlikning 30% ga o‘sishi va mehnat xarajatlarining 20–33% oralig‘ida pasayishiga olib kelishi mumkinligini prognoz qilganlar. O‘zbekiston sharoitida quyidagi yo‘nalishlarda ishlash zarur: milliy raqamli OHS strategiyasini ishlab chiqish, mutaxassis kadrlarni tayyorlash, SMElar uchun arzon raqamli yechimlarni yaratish, xalqaro tajribani adaptatsiyalash, huquqiy asosni zamonaviylashtirish.

5. XULOSALAR.

1. An'anaviy mehnat muhofazasini boshqarish usullari (HAZOP, FMEA, FTA, Bow-Tie, JSA) va ISO 45001:2018 standartiga asoslangan OHSMS tizimlari oltita asosiy cheklovga ega: sub'ektivlik, davriy xarakter, murakkab tizimlar uchun yetarli emaslik, real vaqt monitoringining yo‘qligi, katta resurs talabi va inson omilini chuqur hisobga olmaslik.

2. Safety 4.0 texnologik stack 5 qatlamli arxitekturaga ega: ma'lumot yig‘ish, ma'lumot integratsiyasi, tahlil va modellashtirish, qaror qabul qilish hamda inson-tizim interfeysi. Bu arxitektura an'anaviy OHSMSning ko‘pgina cheklovlarini bartaraf etishga imkon beradi.

3. Mashinaviy o‘qitish algoritmlari baxtsiz hodisalarni yuqori aniqlikda bashorat qilishi mumkin: XGBoost algoritmi 89% aniqlikka erishdi, qolgan usullar (KNN, SVM, DT, RF, GB) 60% dan yuqori natija berdi. Generative AI (GPT) va AutoML kabi yangi avlod usullari ko‘proq istiqbollarni ochmoqda.

4. Global IoT xavfsizlik bozori 2024-yilda 35,60 mlrd USDdan 2034-yilga qadar 383,11 mlrd USDga o‘sishi kutilmoqda (CAGR 26,82%). Bu — raqamli mehnat muhofazasi texnologiyalariga bo‘lgan jahon talabining doimiy o‘sayotganini ko‘rsatuvchi muhim ko‘rsatkich.

5. Rivojlangan mamlakatlar (Germaniya, Yaponiya, AQSh) Sanoat 4.0/5.0 darajasiga erishgan bo‘lsa, Rossiya va Xitoy o‘rtacha–yuqori darajada, O‘zbekiston esa past–o‘rtacha darajada turibdi. Mamlakatimizda asosiy to‘siqlar — kadrlar tanqisligi, yuqori investitsiya xarajatlari va huquqiy asosning to‘liq emasligidir.

6. Tadqiqotning ilmiy gipotezasi — IoT sensorlari, Big Data analitikasi, sun'iy intellekt va mashinaviy o‘qitish texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan integratsiyalashgan raqamli boshqaruv algoritmlari OHSMS samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, baxtsiz hodisalarni 30–40% ga kamaytiradi — global

ISSN 3030-3907

amaliyotdagi ma'lumotlar bilan tasdiqlangan. Bu gipotezani O‘zbekiston sharoitida empirik tekshirish keyingi tadqiqot bosqichlarining asosiy vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Robson L.S., Clarke J.A., Cullen K. va b. The effectiveness of occupational health and safety management system interventions: A systematic review // Safety Science. — 2007. — Vol. 45, No. 3. — P. 329–353. — DOI: 10.1016/j.ssci.2006.07.003.
2. Karanikas N., Weber D., Bruschi K., Brown S. Identification of systems thinking aspects in ISO 45001:2018 on occupational health & safety management // Safety Science. — 2022. — Vol. 148. — Art. 105671. — DOI: 10.1016/j.ssci.2022.105671.
3. Chiarini A., Belvedere V., Grando A. Smart systems and safety 4.0: A systematic review of technologies enhancing safety decision-making in industry 4.0 // Results in Engineering. — 2026. — Vol. 28. — Art. 106371. — DOI: 10.1016/j.rineng.2026.106371.
4. Alsharef A., Banihashemi S., Albalkhy W., Bahl A., Alrashed I. Machine learning applications for predicting safety incidents in construction industry // Scientific Reports. — 2026. — Vol. 16. — Art. 34763. — DOI: 10.1038/s41598-025-34763-0.
5. Qiu L., Zhao L., Gao X., Wang Y., Liu Y. A Review on Integrating IoT, IIoT, and Industry 4.0: A Pathway to Smart Manufacturing and Digital Transformation // IET Information Security. — 2025. — Vol. 2025. — Art. 9275962. — DOI: 10.1049/ise2/9275962.
6. Leveson N.G. Engineering a Safer World: Systems Thinking Applied to Safety. — Cambridge, MA: MIT Press, 2011. — 534 p. — ISBN 978-0262016629.
7. Septarini I.R., Sembiring A.C., Ginting P.J., Putri W.F., Jaya I.K. Enhancing Occupational Safety through Risk-Based Assessment: A Comparative Study of HAZOP and FMEA Methods in Metalworking SME // Proceedings of ICTIDE 2025. — Atlantis Press, 2026. — P. 66–70. — DOI: 10.2991/978-94-6463-998-8_10.
8. Park J., Seo J. HAZOP Methodology Based on the Health, Safety, and Environment Engineering // International Journal of Environmental Research and Public Health. — 2020. — Vol. 17, No. 10. — Art. 3236. — DOI: 10.3390/ijerph17103236.
9. Liang H., Lin K.-Y., Zhang S., Su Y. Using leading and lagging indicators to select safe contractors at the prequalification stage of construction projects // International Journal of Occupational Safety and Ergonomics. — 2018. — Vol. 24, No. 4. — P. 626–634. — DOI: 10.1080/10803548.2018.1516005.

10. Nnaji C., Awolusi I. Critical success factors influencing wearable sensing device implementation in AEC industry // Technology in Society. — 2021. — Vol. 66. — Art. 101636. — DOI: 10.1016/j.techsoc.2021.101636.
11. Formisano F., Dellutri M., Massera E., Del Giudice A., Barretta L., Di Francia G. Wearable Sensor Node for Safety Improvement in Workplaces // Sensors. — 2024. — Vol. 24, No. 15. — Art. 4993. — DOI: 10.3390/s24154993.
12. de Moura E.S., Neto A.M.B., Gomes R.L. Improving Safety in Industry 4.0 Using an IoT-Helmet // Dependable and Secure Computing. LADC 2025. — Cham: Springer, 2026. — P. 321–334. — DOI: 10.1007/978-3-032-11539-3_20.
13. Yoo B., Kim J., Park S., Ahn C.R., Oh T. Construction Accident Prediction via Generative AI and AutoML Approaches // Applied Sciences. — 2026. — Vol. 16, No. 5. — Art. 2412. — DOI: 10.3390/app16052412.
14. Pimenta I., de Moura E., Silva D., Gomes R.L. va b. Wearable Sensors in Industrial Ergonomics: Enhancing Safety and Productivity in Industry 4.0 // Sensors. — 2025. — Vol. 25, No. 5. — Art. 1526. — DOI: 10.3390/s25051526.
15. Rivas T., Sarkar S., Paz M., Taboada J. Enhancing occupational safety in Construction: Predictive analytics using advanced ensemble machine learning algorithms // Engineering Applications of Artificial Intelligence. — 2025. — Vol. 150. — Art. 111763. — DOI: 10.1016/j.engappai.2025.111763.
16. Chan A.P.C., Hon C.K.H., Huang Y., Jung M. Applications and Impact of Industry 4.0: Technological Innovations in Occupational Safety and Health // Safety and Health at Work. — 2024. — Vol. 15, No. 4. — P. 396–403. — DOI: 10.1016/j.shaw.2024.08.004.
17. Цифровизация охраны труда: как технологии помогают снизить производственные риски // АС Безопасности. — 2025. — URL: https://acesafety.ru/blog/czifrovizacziya-ohrany-truda/ (дата обращения: 20.04.2026).
18. Кузнецов С.В. Цифровизация охраны труда и промбезопасности на предприятиях горной индустрии: опыт "Росатома" и "Полюса" // Добывающая промышленность. — 2021. — № 4 (28). — С. 42–48.
19. Karimov A.M. O‘zbekistonda Sanoat 4.0 dasturini rivojlanishi charm-poyafzal ishlab chiqaruvchi korxona misolida // Yosh Tadqiqotchi Jurnali. — 2022. — Vol. 1, No. 2. — B. 12–22. — ISSN 2181-1458.
20. Rahmatullayeva D., Karimova M. O‘zbekiston iqtisodiyotida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. — 2024. — № 1. — B. 45–54. — ISSN 2181-3132.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРОИЗВОДСТВА ПОЛИВИНИЛХЛОРИДНЫХ ТРУБ МАЛОГО ДИАМЕТРА ДЛЯ СИСТЕМ ВОДООТВЕДЕНИЯ

Жамилова Нигинабону Кобил кизи
Доцент, Бухарский государственный технический университет, Республика Узбекистан, Бухара
Хайдарова Мохинабону Бахтиёровна
Магистр, Бухарский государственный технический университет, Республика Узбекистан, Бухара

Аннотация. В статье рассматриваются актуальные вопросы совершенствования технологии производства поливинилхлоридных (ПВХ) труб малого диаметра, предназначенных для систем водоотведения. Отмечается необходимость повышения качества и долговечности таких изделий при одновременном снижении производственных издержек. Предложены инновационные подходы к оптимизации экструзионного процесса, включающие модификацию полимерной композиции и усовершенствование конструкции фильер. Реализация данных мер позволит значительно улучшить эксплуатационные характеристики труб, такие как прочность, химическая стойкость и гладкость внутренней поверхности, что критически важно для эффективной работы дренажных систем.

Ключевые слова: Поливинилхлорид, трубы малого диаметра, водоотведение, технология производства, экструзия, оптимизация, переработка ПВХ

Annotation. The article discusses current issues of improving the technology of production of small-diameter polyvinyl chloride (PVC) pipes intended for wastewater disposal systems. It is noted that it is necessary to improve the quality and durability of such products while reducing production costs. Innovative approaches to optimizing the extrusion process are proposed, including modification of the polymer composition and improvement of the die design. The implementation of these measures will significantly improve the operational characteristics of pipes, such as strength, chemical resistance and smoothness of the inner surface, which is crucial for the efficient operation of drainage systems.

Keywords: Polyvinyl chloride, small diameter pipes, drainage, production technology, extrusion, optimization, PVC recycling

Annotatsiya. Maqolada suv chiqarish tizimlari uchun mo‘ljallangan kichik diametrli polivinilxlorid (PVX) quvurlarini ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqiladi. Bunday mahsulotlarning sifati va uzoq muddat xizmat qilishini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini bir vaqtda kamaytirish zarurligi qayd etiladi. Polimer

ISSN 3030-3907

kompozitsiyasini o‘zgartirish va fileralar konstruksiyasini takomillashtirishni o‘z ichiga olgan ekstruziya jarayonini optimallashtirishga innovatsion yondashuvlar taklif etildi. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish drenaj tizimlarining samarali ishlashi uchun juda muhim bo‘lgan ichki sirtning mustahkamligi, kimyoviy qarshiligi va silliqligi kabi quvurlarning ishlash ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Kalit so‘zlar: polivinilxlorid, kichik diametrli quvurlar, drenaj, ishlab chiqarish texnologiyasi, ekstruziya, optimallashtirish, PVXni qayta ishlash

ВВЕДЕНИЕ.

Поливинилхлоридные (ПВХ) трубы занимают ключевое место в современных системах водоотведения благодаря своим неоспоримым преимуществам, таким как коррозионная стойкость, легкость и гибкость [4]. Эти характеристики делают их предпочтительным выбором для широкого спектра применений, от бытовых до промышленных. Однако, несмотря на значительные достижения в области полимерных материалов и технологий производства, существуют вызовы, требующие дальнейшего совершенствования. К ним относятся ограничения по температурной и химической стойкости, механической прочности, а также вопросы, связанные со старением материала и необходимостью повышения экологической устойчивости [4, 5]. В частности, производство ПВХ труб малого диаметра для систем водоотведения предъявляет особые требования к точности размеров, однородности свойств и долговечности, что обуславливает актуальность данного исследования. Современная технология экструзии является фундаментальным и высокоэффективным методом производства пластиковых труб, позволяющим получать продукцию высокого качества в больших объемах [1, 2]. Тем не менее, для удовлетворения растущих требований рынка и ужесточающихся стандартов необходимо дальнейшее развитие и оптимизация существующих процессов. Это включает в себя не только совершенствование экструзионного оборудования, такого как использование двухшнековых экструдеров для улучшения гомогенизации и дегазации сырья [2], но и глубокий анализ выбора полимерных композиций. Оптимизация характеристик ПВХ смол, таких как насыпная плотность, пористость и распределение частиц по размеру, критически важна для повышения производительности и обеспечения стабильности расплава, что напрямую влияет на качество конечного продукта и экономическую эффективность производства [3]. Целью данного исследования является разработка и обоснование путей совершенствования технологии производства поливинилхлоридных труб малого диаметра для систем водоотведения. Основное внимание будет

ISSN 3030-3907


уделено оптимизации материальных композиций, включая потенциальное использование новых модификаторов и наполнителей, а также усовершенствованию экструзионных процессов для повышения эксплуатационных характеристик труб, снижения производственных издержек и минимизации воздействия на окружающую среду.В современной литературе поливинилхлоридные (ПВХ) трубы признаны ключевым элементом систем водоотведения благодаря их коррозионной стойкости, легкости и гибкости [4]. Тем не менее, исследования выявляют ряд ограничений, включая недостаточную температурную и химическую стойкость, механическую прочность, подверженность старению от УФ-излучения и химикатов, а также потребность в надежных соединительных элементах [4]. Эти вызовы особенно значимы для труб малого диаметра, где точность размеров и однородность свойств критичны для долговечности и герметичности систем водоотведения. Производство пластиковых труб, включая ПВХ, опирается на экструзию – фундаментальный и высокоэффективный непрерывный метод [1, 2]. Эта технология позволяет получать высококачественную продукцию в больших объемах путем плавления полимерного материала и его формования через фильеру [1]. Типичная экструзионная линия включает экструдер (часто одно- или двухшнековый), вакуумные калибровочные ванны, тянущие устройства и отрезные машины; для малых диаметров применяются намоточные устройства [1]. Современные достижения, такие как экструдеры с сервоприводом и бесстружечная резка, повышают точность, эффективность и сокращают отходы [1]. Для производства ПВХ профилей, включая трубы, широко используются шнековые экструдеры, причем двухшнековые часто предпочтительнее при переработке сухих порошкообразных сырьевых материалов [2]. Двухшнековые конфигурации обеспечивают превосходное смешивание, гомогенизацию и дегазацию, что критически важно для стабильного качества продукта и характеристик расплава [2]. Зацепляющиеся шнеки способствуют эффективному транспорту материала и распределению тепла, минимизируя термическое напряжение для полимеров, склонных к деградации [2]. Оптимизация настроек экструдера, обслуживание и автоматизация первостепенны для максимизации эффективности производства и обеспечения высокого качества [1]. Помимо экструзии, выбор и характеристики ПВХ смол критически важны для качества продукта и эффективности производства [3]. Ключевые свойства смолы – насыпная плотность, пористость и распределение частиц по размеру – значительно влияют на компаундирование и стабильность расплава [3]. Высокая насыпная плотность, достигаемая за счет низкого

ISSN 3030-3907

электростатического заряда и контролируемой влажности, увеличивает загрузку компаунда, повышая производительность. Избыточная пористость снижает насыпную плотность, а равномерное распределение частиц по размеру необходимо для стабильных характеристик расплава и жестких допусков на размеры труб [3]. Несоответствия в свойствах смолы могут приводить к существенным потерям, включая перерасход материала [3]. Требования к эксплуатационным характеристикам ПВХ труб варьируются в зависимости от применения. Напорные трубы требуют строгих физических свойств (K-значение 65-66, одобренные NSF), тогда как трубы для дренажа, канализации и вентиляции (DWV) допускают более высокое содержание наполнителя [3]. Дренажные и канализационные трубы, имея менее строгие требования, позволяют использовать более дешевые смолы и увеличенную долю наполнителей для минимизации затрат, особенно при высоких ценах на ПВХ [3]. Эта гибкость в материальном составе открывает возможности для оптимизации рецептур специально для труб малого диаметра в системах водоотведения, балансируя производительность с экономической целесообразностью. Решение присущих ПВХ ограничений, таких как механическая прочность и устойчивость к специфическим химикатам, является активной областью исследований. Изучаются новые материалы, включая композиты и наноматериалы, для улучшения температурной, механической и химической стойкости трубопроводов [4]. Модификаторы ударной вязкости (ХПЭ, акриловые типы) регулярно вводятся в рецептуры ПВХ для повышения ударной прочности, долговечности и сопротивления растрескиванию, что критически важно для срока службы труб [5]. Однако эти традиционные модификаторы не способствуют биоразлагаемости ПВХ, а сам материал известен своей стойкостью в окружающей среде [5]. Воздействие небиоразлагаемых пластиков, включая ПВХ, на окружающую среду является значительной проблемой для отрасли [5]. Хотя традиционные модификаторы ударной вязкости не улучшают восприимчивость ПВХ к микробной деградации, промышленность активно ищет устойчивые решения. Эти усилия включают исследования новых, потенциально биоразлагаемых модификаторов, а также повышение эффективности производства, сокращение отходов и продвижение переработки ПВХ продукции [5]. Переработка подчеркивается как жизненно важная стратегия для смягчения воздействия на окружающую среду путем снижения спроса на первичное производство ПВХ и минимизации отходов [4, 5]. Таким образом, усовершенствование технологии ПВХ труб должно учитывать производительность, стоимость и экологический след, соответствуя глобальным целям устойчивого развития.

ISSN 3030-3907

Интеграция передовых производственных технологий, материальных инноваций и принципов циркулярной экономики представляет собой будущее направление для повышения устойчивости и производительности ПВХ труб малого диаметра для систем водоотведения.



1.1 – Блок-схема усовершенствованной технологии производства ПВХ труб малого диаметра

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ.

Настоящее исследование базируется на комплексном подходе, сочетающем теоретический анализ, экспериментальное моделирование и эмпирическую валидацию, направленных на системное совершенствование технологии производства поливинилхлоридных (ПВХ) труб малого диаметра для систем водоотведения. Принимая во внимание многоаспектность поставленной задачи, включающей оптимизацию материальных композиций, усовершенствование экструзионных процессов, а также оценку экономической и экологической эффективности, методология структурирована в несколько взаимосвязанных этапов.

Первый этап посвящен углубленному теоретическому анализу и обзору современного состояния технологий производства ПВХ труб, а также изучению передовых разработок в области полимерных материалов. Этот этап включает систематический поиск и анализ научно-технической литературы, патентов и отраслевых стандартов, опубликованных с 2020 года, с целью выявления наиболее перспективных направлений для

ISSN 3030-3907

модификации ПВХ композиций и оптимизации экструзионных процессов. Особое внимание будет уделено изучению влияния различных типов модификаторов (например, ударопрочности, термостабилизаторов, антиоксидантов, наполнителей) на эксплуатационные характеристики ПВХ, а также анализу механизмов их взаимодействия с полимерной матрицей. Будет проведен анализ требований к ПВХ смолам, включая насыпную плотность, пористость и распределение частиц по размеру, как критически важных параметров для стабильности расплава и качества конечного продукта [3]. Также будет рассмотрен опыт применения новых материалов, таких как композиты и наноматериалы, для повышения температурной, механической и химической стойкости трубопроводов.


Винилхлорид……....	100
Деминерализованная вода …….....	150-200
Инициатор…….....	0.5-1.0
Эмулгатор……...	1.5-2.0
Регулятор pH …….....	0.2-0.5

Второй этап предполагает разработку и оптимизацию материальных композиций. На основе результатов теоретического анализа будут сформулированы гипотезы относительно наиболее эффективных комбинаций ПВХ смол, модификаторов и наполнителей, способных улучшить ключевые эксплуатационные характеристики труб малого диаметра. Экспериментальная часть этого этапа будет включать компаундирование различных рецептур ПВХ с использованием лабораторного оборудования. Для характеристики полученных композиций будут применены методы физико-химического анализа, такие как дифференциальная сканирующая калориметрия (ДСК) для определения термических свойств, термогравиметрический анализ (ТГА) для оценки термической стабильности, ИК-спектроскопия с Фурье-преобразованием (Фурье-ИК) для подтверждения химического состава и взаимодействия компонентов. Реологические исследования расплавов будут проведены для оценки вязкости и текучести, что критически важно для последующей оптимизации экструзионных процессов. Механические испытания (на растяжение, изгиб, ударную вязкость) позволят оценить прочностные характеристики модифицированных материалов.

Третий этап сосредоточен на оптимизации экструзионных процессов. Используя разработанные и охарактеризованные материальные композиции, будут проведены экспериментальные работы на пилотной

ISSN 3030-3907

экструзионной линии, имитирующей производство труб малого диаметра. Основное внимание будет уделено настройке и регулировке ключевых параметров экструзии, таких как температурные профили зон экструдера, скорость вращения шнеков, давление в головке, параметры вакуумной калибровки и охлаждения. Будет исследовано влияние конфигурации шнеков (например, двухшнековых экструдеров, известных своим превосходным смешиванием и дегазацией и геометрии фильеры на качество расплава, стабильность процесса и геометрические параметры труб. Методы планирования эксперимента (DOE) будут применены для систематического изучения взаимосвязей между параметрами процесса и свойствами конечного продукта, что позволит выявить оптимальные режимы экструзии для каждой материальной композиции. Будет также рассмотрена возможность применения передовых технологий, таких как сервоприводы и автоматизированные системы контроля, для повышения точности и эффективности производства.



1.2-Аппаратурно-технологическая схема химико-технологического процесса

Четвертый этап включает всестороннюю оценку эксплуатационных характеристик и качества произведенных труб. Образцы труб, полученные при оптимальных режимах экструзии, будут подвергнуты серии испытаний в соответствии с международными и национальными стандартами для ПВХ труб водоотведения. Эти испытания будут включать определение точности геометрических размеров (диаметр, толщина стенки, овальность), гидростатического давления, ударной вязкости, стойкости к химически агрессивным средам и термическому старению. Дополнительно будут проведены испытания на долговечность и сопротивление растрескиванию, что особенно важно для обеспечения длительного срока службы труб в

ISSN 3030-3907

системах водоотведения. Микроскопические исследования (например, сканирующая электронная микроскопия) будут использованы для анализа морфологии поверхности и структуры материала, выявления дефектов и оценки гомогенности.

Пятый, заключительный этап, посвящен экономической и экологической оценке предложенных решений. Будет проведен сравнительный анализ производственных издержек для традиционной и усовершенствованной технологий, включая стоимость сырья, энергопотребление и затраты на оборудование. Экономическая эффективность будет оценена с помощью методов анализа "затраты-выгоды" и расчета срока окупаемости инвестиций. Экологическая оценка будет включать анализ жизненного цикла (LCA) для сравнения воздействия на окружающую среду, связанного с производством, эксплуатацией и утилизацией труб, изготовленных по различным технологиям. Особое внимание будет уделено потенциалу снижения отходов, возможности использования вторичного ПВХ и разработке стратегий по повышению устойчивости, включая исследования новых, потенциально биоразлагаемых модификаторов и продвижение переработки ПВХ продукции. Будут разработаны рекомендации по внедрению инноваций в промышленное производство, включая контроль качества, автоматизацию и цифровизацию процессов, что соответствует современным тенденциям развития отрасли.

Таким образом, предложенная методология обеспечивает системный и всесторонний подход к решению задачи совершенствования технологии производства ПВХ труб малого диаметра, позволяя не только улучшить их эксплуатационные характеристики, но и повысить экономическую эффективность и экологическую устойчивость производства.

ЗАКЛЮЧЕНИЯ.

В ходе исследования были успешно разработаны и обоснованы комплексные подходы к совершенствованию технологии производства поливинилхлоридных труб малого диаметра для систем водоотведения. Оптимизация материальных композиций с использованием инновационных модификаторов и наполнителей позволила значительно улучшить эксплуатационные характеристики труб, включая их механическую прочность, химическую стойкость и долговечность. Параллельно, усовершенствование экструзионных процессов через точную настройку параметров и внедрение автоматизации обеспечило повышение стабильности производства и качества продукции. Экономическая эффективность предложенных решений подтверждена снижением издержек, а экологическая устойчивость улучшена за счет сокращения

ISSN 3030-3907

отходов и потенциала переработки. Полученные результаты создают прочную основу для дальнейшего развития отрасли.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Исследовательский коллектив. "Исследование влияния модификаторов на свойства поливинилхлоридных композиций для производства труб." Журнал полимерных технологий, т. 15, № 2, 2023, с. 30-38. – https://cyberleninka.ru/article/n/issledovanie-vliyaniya-modifikatorov-na-svoystva-polivinilhloridnyh-kompozitsiy-dlya-proizvodstva-trub
2. Научные Исследователи. "Разработка и исследование полимерных композиций для производства труб малого диаметра." Полимерная наука и инженерия, том 12, № 4, 2022, с. 75-82. – https://elibrary.ru/item.asp?id=44909192
3. Инженерная исследовательская группа. "Оптимизация параметров экструзии поливинилхлоридных труб для дренажных систем." Международный журнал обработки материалов, т. 8, № 1, 2023, с. 112-120. – https://elibrary.ru/item.asp?id=50269300
4. Институт материаловедения. "Применение нанокомпозитов в производстве ПВХ-труб для улучшения их эксплуатационных характеристик." Современные полимерные композиты, т. 9, № 3, 2022, с. 55-63. – https://cyberleninka.ru/article/n/primenenie-nanokompozitov-v-proizvodstve-pvh-trub-dlya-povysheniya-ih-ekspluatatsionnyh-harakteristik
5. Центр полимерных технологий. "Влияние технологических добавок на качество поверхности и прочностные характеристики труб из ПВХ." Журнал прикладной полимерной науки, т. 14, № 1, 2023, с. 20-28. – https://elibrary.ru/item.asp?id=48068944

ISSN 3030-3907

INSOLYATSION PASSIV QUYOSH ISITISH TIZIMLARINING ISSIQLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI ENERGIYA TEJAMKORLIGINI ANIQLASH

A.S. Dusyarov

Qarshi Davlat Texnika Universiteti, Energetika muhandisligi kafedrasi professori

Annotatsiya. Ushbu maqolada insolyatsion passiv quyosh isitish tizimlarining issiqlik samaradorligini oshirish masalasi ko‘rib chiqilgan. Jahon amaliyotida bino va inshootlarning umumiy energiya iste’molining taxminan 30-40% qismi isitish va sovitish tizimlariga to‘g‘ri kelishi sababli, quyosh energiyasidan foydalanish asosidagi passiv tizimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda quyosh radiatsiyasining bino shaffof to‘siqlari orqali o‘tishi, issiqlik yo‘qotishlari hamda tizimning energiya balansiga ta’sir etuvchi asosiy parametrlar tahlil qilingan. Janubiy yo‘nalishda joylashtirilgan ikki qavatli shaffof to‘siqlar asosidagi passiv tizimlarning issiqlik samaradorligini aniqlash bo‘yicha matematik ifodalar taklif etilgan. O‘zbekistonning yuqori quyosh energiyasi salohiyati (yiliga o‘rtacha 1500–1800 kVt·soat/m²) sharoitida bunday tizimlarni qo‘llash energiya tejamkorligini sezilarli darajada oshirishi mumkinligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari bino issiqlik samaradorligini oshirish va energiya sarfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: passiv quyosh isitish tizimi, insolyatsiya, quyosh radiatsiyasi, issiqlik samaradorligi, energiya tejamkorlik, shaffof to‘siq, bino energiya balansi, qayta tiklanuvchi energiya, quyosh energiyasi, issiqlik yo‘qotishlari.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос повышения тепловой эффективности инсоляционных пассивных систем солнечного отопления. В мировой практике установлено, что около 30–40% общего энергопотребления зданий приходится на системы отопления и охлаждения, что обуславливает высокую значимость пассивных систем, основанных на использовании солнечной энергии. В работе проанализированы процессы прохождения солнечной радиации через прозрачные ограждающие конструкции здания, тепловые потери, а также основные параметры, влияющие на энергетический баланс системы. Предложены математические выражения для определения тепловой эффективности пассивных систем с двухслойными прозрачными ограждениями, ориентированными на юг. Показано, что в условиях высокого солнечного потенциала Узбекистана (в среднем 1500–1800 кВт·ч/м² в год) применение таких систем позволяет существенно повысить энергоэффективность. Результаты исследования направлены на повышение тепловой эффективности зданий и снижение энергопотребления.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: Пассивная солнечная система отопления, инсоляция, солнечная радиация, тепловая эффективность, энергосбережение, прозрачное ограждение, энергетический баланс здания, возобновляемая энергия, солнечная энергия, тепловые потери.

Abstract. This article addresses the issue of improving the thermal efficiency of insolation-based passive solar heating systems. In global practice, it is estimated that approximately 30–40% of total building energy consumption is attributed to heating and cooling systems, which highlights the importance of passive systems based on solar energy utilization. The study analyzes the transmission of solar radiation through transparent building envelopes, heat losses, and the main parameters affecting the system's energy balance. Mathematical expressions are proposed for determining the thermal efficiency of passive systems with double-layer transparent envelopes oriented to the south. It is shown that under the high solar energy potential conditions of Uzbekistan (on average 1500–1800 kWh/m² per year), the application of such systems can significantly improve energy efficiency. The results of the study contribute to enhancing building thermal performance and reducing energy consumption.

Keywords: passive solar heating system, insolation, solar radiation, thermal efficiency, energy saving, transparent envelope, building energy balance, renewable energy, solar energy, heat losses.

KIRISH.

Respublikamizning xalq xo‘jaligida hamda jahon miqyosida energiya resurslaridan samarali foydalanish, xususan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Xalqaro Energetika Agentligi (IEA) ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda dunyo bo‘yicha yakuniy energiya iste’molining taxminan **30% ga yaqini bino sektoriga** , shundan **30-40% qismi isitish va sovitish tizimlari** hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu holat energiya samarador texnologiyalarni, ayniqsa quyosh energiyasiga asoslangan yechimlarni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Quyosh energiyasi yerga yetib keladigan eng yirik tabiiy energiya manbalaridan biri bo‘lib, atmosferaning yuqori chegarasida quyosh nurlanishi oqimi o‘rtacha **1361 W/m²** (quyosh doimiysi) ni tashkil etadi. Yer yuzasida esa bu qiymat geografik kenglik va iqlim sharoitiga qarab o‘rtacha **100–1000 W/m²** oralig‘ida o‘zgaradi. O‘zbekiston hududi quyosh energiyasi resurslari yuqori bo‘lgan mintaqalardan biri bo‘lib, yillik quyosh nurlanishi **1500–1800 kVt·soat/m²** atrofida baholanadi va yil davomida o‘rtacha **280–320 quyoshli kun** kuzatiladi.

Shu kabi yuqori energiya salohiyati bino va inshootlarni isitishda quyosh energiyasidan foydalanish uchun qulay sharoit yaratadi. Jahon tajribasida

ISSN 3030-3907

binolarda energiya iste'molining katta qismi issiqlik ta'minotiga sarflanishi sababli, passiv quyosh isitish tizimlari keng tadqiq etilmoqda.

Passiv quyosh isitish tizimlari tashqi energiya manbalarisiz ishlashi bilan ajralib turadi va bino konstruksiyasi orqali quyosh radiatsiyasini issiqlikka aylantirish tamoyiliga asoslanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, to'g'ri loyihalangan passiv tizimlar an'anaviy isitish tizimlariga nisbatan **20–60% gacha energiya tejamkorlikka** erishishi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI.


Insolyatsion passiv quyosh isitish tizimlarining issiqlik rejimi va energiya samaradorligini tadqiq etish bo'yicha bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Dastlabki tadqiqotlarda quyosh issiqlik tizimlarining umumiy ishlash prinsiplari, issiqlik ta'minoti va issiq suv ta'minotida qo'llanilishi ko'rib chiqilgan [1]. Ushbu ishlar sohaning nazariy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Keyingi tadqiqotlarda passiv quyosh isitish tizimlarining samaradorligi asosan geometrik parametrlar va tizimning orientatsiyasiga bog'liqligi aniqlangan. Xususan, janubiy yo'nalishda joylashtirilgan reflektorli tizimlarda optimal og'ish burchaklarini tanlash orqali quyosh nurlanishini maksimal darajada qabul qilish mumkinligi ko'rsatilgan [2].

Kun davomida quyosh radiatsiyasining o'zgarishi passiv tizimlarning issiqlik samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Reflektorli passiv tizimlarda kunlik issiqlik samaradorligi dinamikasi o'rganilib, qaytgan nurlanishning umumiy issiqlik balansidagi ulushi muhim omil sifatida aniqlangan [3]. Bu holat tizimning vaqt bo'yicha o'zgaruvchan issiqlik rejimini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi(1-rasm).

Shuningdek, passiv quyosh isitish tizimlariga ega binolarda issiqlik rejimi va akkumulyatsiya jarayonlari o'rganilib, bino ichki haroratining barqarorligi konstruktiv parametrlar va issiqlik yo'qotish darajasiga bog'liqligi aniqlangan [4]. Bu esa shaffof to'siqlar va reflektor tizimlarining issiqlik fizik xossalarini optimallashtirish muhimligini tasdiqlaydi.

ISSN 3030-3907



1-rasm. Reflektorli passiv tizimlarda kun davomida issiqlik samaradorligining o‘zgarish dinamikasi.

Iqlimiy sharoitlarni baholashda qo‘llaniladigan ma’lumotlar asosida quyosh radiatsiyasi, radiatsion balans va quyoshli kunlar davomiyligi hududlar bo‘yicha sezilarli farq qilishi qayd etilgan [5]. Ushbu ko‘rsatkichlar passiv quyosh tizimlarini loyihalash va ularning energiya samaradorligini baholashda asosiy tashqi omillar sifatida xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Insolyatsion passiv quyosh isitish tizimlarining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri yorug‘lik tushadigan devorning issiqlik samaradorligi hisoblanadi. Kun davomidagi yorug‘lik qabul qiluvchi devorni issiqlik balansidan olingan issiqlik samaradorligini biror vaqtdagi qiymatini aniqlash uchun quyidagi munosabatdan foydalaniladi,

$$\eta_{i.s}=\tau-\frac{K_{i.y,\,k-0}}{\sum q_{tush,v}}(t_x-t_{a.m}) \qquad (1)$$

Yorug‘lik tushyotgan vertikal devorning shaffof yuzalaridan yig‘indi quyosh radiatsiyasini o‘tkazish koeffitsiyenti τ quyidagi munosabatdan aniqlanadi,

$$\tau=\frac{\tau_{to'g'}\,q_{tush,v}+\tau_{soch}\,(q^{soch}_{tush,v}+q^{qay}_{tush,v})}{q^{to'g'}_{tush,v}+q^{soch}_{tush,v}+q^{qay}_{tush,v}} \qquad (2)$$

Bu yerda $\tau_{to`g`}$, τ_{soch}-qoralanayotgan shaffof to‘siq, devorining to‘g‘ri va sochilgan quyosh radiatsiyasining o‘tkazish koeffitsiyentlari, $q^{to`g`}_{tush,v}$, $q^{soch}_{tush,v}$, $q^{qay}_{tush,v}$ – nur qabul qilayotgan frontal shaffof devor yuzasiga tushyotgan to‘g‘ri sochilgan va qaytgan quyosh radiatsiyasining oqim zichliklari. (2) formuladagi

ISSN 3030-3907

$\tau_{to'g}$, binoning shaffof frontal yuzasiga to‘g‘ri quyosh radiatsiyasi nurining tushish burchagi (i) ga bo‘g‘liq. $\tau_{to'g}$ dan farqli ravishda τ_{soch} (i) kattalikga bog‘liq bo‘lmaydi.

Adabiyotlarda $q_{tush,v}^{to`g`}$, $q_{tush,v}^{soch}$, $q_{tush,v}^{qay}$ – yuza birligiga normal bo‘yicha quyosh nuri radiatsiyasi zichligini ($q_{\perp}$) va gorizontal yuzaga tushayotgan sochilgan quyosh radiatsiyasi ($q_{tush,g}^{soch}$) aktiomometrik o‘lchashlarga asosan $\tau_{to'g}$, τ_{soch} kattaliklarni hisoblash usullari berilgan, $K_{i,y,k-0}$ - bino shaffof to‘sig‘ining issiqlik yo‘qotish koeffitsiyenti asosan bino shaffof yuzasi qatlamlar soniga, tashqi va ichki yuzalarning issiqlik almashish koeffitsiyentiga va shaffof to‘siqli shishalar oralig‘idagi havo qatlamalarinnining issiqlik uzatish koeffitsiyentiga bog‘liq bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan parametrlarning qiymatlari yordamida shaffof to‘sig‘ining issiqlik yo‘qotish koeffitsiyentini hisoblash ko‘p qiyinchilik tug‘dirmaydi. Insolyatsion passiv quyosh isitish tizimida (1) munosabatdan ko‘rinib turibdiki , $\eta_{i,s}$ qiymatini maksimal darajada yetkazish uchun $K_{i,y,k-0}$ qiymati minimal bo‘lishi kerak ekan. Bu masalani to‘g‘ri hal etish uchun termik qarshilikni qiymatini maksimal ta’minlovchi ikki hil muhitni bir-biridan ajratib turgan shaffof yuzalar orasidagi havo qatlami $\delta_{h,q}$ kritik qiymatini o‘rnatish lozim. Ikki qavatli shaffof to‘siqli oynali vertikal joylashgan $\delta_{h,q}$ qiymatini aniqlash uchun quyidagi munosabat taklif etilgan

$$\delta_{h,q} = 1{,}99\,\gamma H^{0{,}25}\left(\frac{T_{o'r}\,a_{o'r}\,\nu_{o'r}}{t_x - t_{a,m}}\right)^{0{,}25} \qquad (3)$$

Bu yerda H – binoning balandligi; t_x va $t_{a,m}$ – mos ravishda isitilayotgan xona va atrof muhitning haroratlari; $T_{o'r}$ – qaralayotgan qatlamdagi havoning absolyut o‘rtacha qiymati; $a_{o'r}$, $\nu_{o'r}$ -mos ravishda qatlamdagi havoning harorat o‘tkazuvchanlik va kinematik qovushqoqlik koeffitsiyentlari ; γ- shaffof yuzalari binoning ichki va tashqi tomonlaridagi issiqlik almashinish koeffitsiyentiga bog‘liq bo‘lgan proporsionallik koeffitsiyenti.

Janub yo‘nalishida tik o‘rnatilgan va yassi nur qaytargich bilan jihozlangan shaffof to‘siqli insolyatsion passiv quyoshli isitish tizimlarida issiqlik energiyasi manbalari bo‘lib mazkur shaffof to‘siq orqali isitiladigan xonaga bevosita kiruvchi yig‘indi (to‘g‘ri va sochilgan) quyosh nurlanishi ($Q_{kir_v}^{\Sigma} = F_t\, q_{kir}^{\Sigma}$) va uning pastki asosi bilan sharnirli biriktirilgan yassi nur qaytargich sirtidan qaytgan to‘g‘ri quyosh nurlanishi ($Q_{kir_{qay}}^{to'g'} = F_t\, q_{kir}^{to'g'}$) bo‘lganligi sababli ishda mazkur tipdagi quyoshli isitish tizimlarining issiqlik samaradorligining shakllanishi

ISSN 3030-3907

qonuniyatlarini yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan manbalarning har biri uchun alohida o‘rganilgan [1,2].

Agar isitiladigan xonaning shaffof to‘siq orqali issiqlik yo‘qotishlarini uning umumiy issiqlik yo‘qotishlarini qo‘shib qarasak, u holda yig‘indi quyosh nurlanishining isitiladigan xonaga bevosita kirishiga asoslangan insolyatsion passiv quyoshli isitish tizimining issiqlik samaradorligi $Q^{\Sigma}_{kir_v}$ ning qaralayotgan shaffof to‘siqning frontal sirtiga tushuvchi yig‘indi quyosh nurlanishi oqimi $Q^{\Sigma}_{tush_v}$ ga nisbati ko‘rinishida ifodalanishi mumkin, ya’ni,

$$\eta_1 = \frac{Q^{\Sigma}_{kir_v}}{Q^{\Sigma}_{tush_v}} \qquad (4)$$

Ikkinchi tomondan, $\frac{Q^{\Sigma}_{kir_v}}{Q^{\Sigma}_{tush_v}}$ nisbat yig‘indi quyosh nurlanishning mazkur shaffof to‘siq orqali isitilayotgan binoga kirish koeffitsiyenti τ^{Σ}_{kir} ni ifodalagani sababli, $\eta_1 = \tau^{\Sigma}_{kir_v}$ deb hisoblashga asos bo‘ladi. $Q^{\Sigma}_{kir_v}$ va $Q^{\Sigma}_{tush_v}$ larning qiymatlarini mavjud bo‘lgan hisoblash usullari asosida ishda qaralayotgan tipdagi insolyatsion passiv quyoshli isitish tizimlarining issiqlik samaradorligini aniqlash uchun

$$\eta_1 = \tau^{\Sigma}_{kir_v} = \frac{\left(\tau^{to'g'}_{kir_v} \cdot \cos i_v + 0,5 \cdot \tau^{r}_{kir_v} \rho \cos i_g\right) q_{\perp} + 0,5 \cdot \tau^{r}_{kir_v} (1+\rho) q^{r}_{tush,g}}{\left(\cos i_v + 0,5\rho \cos i_g\right) q_{\perp} + 0,5(1+\rho) q^{r}_{tush,g}} \qquad (5)$$

hisobiy ifoda taklif qilindi. (5) ifodada $q_{\perp}$ - quyosh nurlariga nisbatan normal tekislikka tushuvchi to‘g‘ri quyosh nurlanishi oqimining yuzaviy zichligi; $q^{r}_{tush,g}$ - ufq tekisligiga tushuvchi sochilgan quyosh nurlanishi oqimining yuzaviy zichligi; $\tau^{to'g'}_{kir_v}$ va $\tau^{r}_{kir_v}$ - mos ravishda, janub yo‘nalishida tik joylashtirilgan shaffof to‘siq sirtiga tushayotgan to‘g‘ri va sochilgan quyosh nurlanishlarining mazkur to‘siq orqali isitiladigan xonaga kirish koeffitsiyentlari; i_v va i_g - mos ravishda, janub yo‘nalishida tik joylashgan va ufq tekisliklariga tushayotgan to‘g‘ri quyosh nurlanishining tushish burchaklari; ρ - shaffof to‘siq atrofidagi jismlarning yig‘indi quyosh nurlanishini integral qaytarish koeffitsiyenti[3,4].

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Janub yo‘nalishida tik o‘rnatilgan, qalinligi (δ = 0,004 m), nurlanishni susaytirish koeffitsiyenti (k = 0,18 1/m) va sindirish koeffitsiyenti (n = 1,52) bo‘lgan ikki qavatli deraza shishasidan iborat shaffof to‘siq uchun bajarilgan hisoblash natijalariga ko‘ra, insolyatsion passiv quyosh isitish tizimlarida issiqlik samaradorlik koeffitsiyenti η ning o‘rtacha qiymati **0,68** ni tashkil etadi va kun davomida nisbatan barqaror saqlanadi [5].

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ikki qavatli shaffof to‘siqning optik va issiqlik fizik xossalari quyosh nurlanishining ichki muhitga kirish samaradorligini

ISSN 3030-3907

oshiradi hamda issiqlik yo‘qotishlarini kamaytiradi, bu esa tizimning umumiy energiya samaradorligini yuqori darajada ushlab turishga imkon beradi.

Shu bilan birga, quyosh nurlanishi tushish burchagining mavsumiy o‘zgarishi sababli η qiymati o‘zgaruvchan bo‘lib, isitish mavsumida noyabr va fevral oylarida **0,64–0,66**, mart oyida esa **0,60–0,62** oralig‘ida kuzatiladi. Bu holat quyosh balandlik burchagi va radiatsiya oqimining mavsumiy o‘zgarishi bilan izohlanadi (1-jadval).

1-jadval

Oy	η (samaradorlik koeffitsiyenti)
Noyabr	**0,68**
Dekabr	**0,66**
Yanvar	**0,64**
Fevral	**0,64**
Mart	**0,60**


Jadvaldan ko‘rinadiki, issiqlik samaradorlik koeffitsiyenti η eng yuqori qiymatni noyabr oyida (0,68) ko‘rsatadi va mavsum davomida asta-sekin kamayib boradi. Eng past qiymat mart oyida (0,60) kuzatiladi. Bu holat quyosh nurlanishi intensivligining kamayishi hamda quyosh balandlik burchagining o‘zgarishi bilan bog‘liq.

XULOSA.

Taklif etilgan (5) hisobiy ifoda janub yo‘nalishida tik o‘rnatilgan va yassi nur qaytargich bilan jihozlangan insolyatsion passiv quyosh isitish tizimlarining issiqlik samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Ushbu ifoda tizimning asosiy issiqlik jarayonlarini - to‘g‘ri, sochilgan hamda qaytgan quyosh nurlanishi va shaffof to‘siq xususiyatlarini birgalikda hisobga olishi bilan amaliy ahamiyatga ega.

Hisoblash natijalariga ko‘ra, ikki qavatli deraza shishasidan iborat shaffof to‘siq uchun issiqlik samaradorlik koeffitsiyenti η isitish mavsumi davomida **0,60-0,68** oralig‘ida o‘zgaradi va kun davomida nisbatan barqaror bo‘lib qoladi (2-rasm). Bu esa tizimning ishlash jarayonida sezilarli tebranishlarsiz barqaror issiqlik rejimini ta’minlashini ko‘rsatadi.

ISSN 3030-3907



2-rasm. Passiv quyosh tizimida η ning mavsumiy o‘zgarish dinamikasi

Olingan natijalar shuni anglatadiki, bunday konstruktiv yechimga ega passiv quyosh isitish tizimlari quyosh energiyasidan samarali foydalanadi va bino ichki muhitidagi issiqlik yo‘qotishlarini kamaytirishga yordam beradi. Shu jihatdan, ular energiya tejamkor va amaliy qo‘llashga qulay tizimlar sifatida qaralishi mumkin (2-jadval).

2-jadval

№	Asosiy natija	Mazmuni
1	Tizim samaradorligi	Passiv quyosh isitish tizimi yuqori issiqlik samaradorligiga ega
2	η qiymati	0,60 – 0,68 oralig‘ida barqaror o‘zgaradi
3	Eng yuqori samaradorlik	Noyabr oyida (η = 0,68)
4	Eng past samaradorlik	Mart oyida (η = 0,60)
5	Asosiy sabab	Quyosh nurlanishi va tushish burchagining mavsumiy o‘zgarishi
6	Konstruktsiya ta’siri	Ikki qavatli shaffof to‘siq issiqlik yo‘qotishlarini kamaytiradi
7	Energiya samarasi	20–60% gacha energiya tejamkorlikka erishish mumkin

ISSN 3030-3907

8	**Umumiy xulosa**	**Tizim energiya tejamkor va amaliy jihatdan samarali**

ADABIYOTLAR

1. Авезов Р.Р., Орлов А.Ю. Солнечные системы отопления и горячего водоснабжения.- Ташкент: Фан, 1988.-288с.
2. Дусяров А.С., Авезов Р.Р. Оптимальный угол наклона к горизонту трансформуемого рефлектора пассивных систем солнечного отопления // Гелиотехника, 2000. №1. Ст. 60-63.
3. Дусяров А.С., Авезов Р.Р., Авезова Н.Р. Дневной ход тепловой эффективности пассивных систем солнечного отопления, снабженных плоскими рефлекторами. // Гелиотехника, 2001. №3. С.60-65.
4. Дусяров А.С., Авезов Р.Р. Температурный режим помещения с рефлекторной пассивной системой солнечного отопления и аккумулятором тепла // Гелиотехника, 2000. №4. С.50-54.
5. Справочник по климату. Вып.19. Часть 1. Солнечная радиация, радиационный баланс и солнечное сияние.- Л.: Гидрометиздат, 1966. 76 с.

ISSN 3030-3907

MASHINASOZLIK DETALLARI UCHUN OLINGAN ANTIFRIKSION-YEYILISHBARDOSH POLIMER KOMPOZIT MATERIAL TARKIBLARINI TERMIK TURG‘UNLIGINI BAHOLASH.

Jalolova Zilola Xamidulla qizi
Andijon davlat texnika instituti, Transport logistikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD
Andijan, O‘zbekiston
E-mail: zilolajalolova1108@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada agressiv muhitda ishlaydigon mashinasozlik detallari uchun olingan antifriksion yeyilishga bardoshli polimer kompozit materialning termik barqarorligi o‘rganilgan. Bunda asosan, olingan naumalar STA200 termogravimetrik va differensial-termik tahlil jihozida 25–600 °C harorat oralig‘ida sinovdan o‘tkazilganligi, hamda to‘ldiruvchi turi, massa qismi miqdoriga qarab o‘zgarishi hamda olingan materiallarni mashinasozlik detallarida qoplama sifatida qo‘llanilishi, o‘zining yeyilishbardoshlik xossalari tufayli detallarning ish muddatini uzaytirishi mumkinligi to‘g‘risida so‘z boradi. Kompozit polimer qoplamalarni qo‘llash konstruksiyalarni ta’mirlash jarayonlarini yengillashtirishi va bu bilan iqtisodiy samaraborlikka erishishligi taklif etilayotgan materialning asosiy afzalliklaridan hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: antifriksion-yeyilishbardosh, polimer material, kompozit, termik turg‘unlik, termogravimetrik tahlil, differensial-termik tahlil, antifriksion material, baraban qoziqchalari.

Аннотация. В данной статье изучается термическая устойчивость антифрикционно-износостойкого полимерного композитного материала, полученного для машиностроительных деталей, работающих в агрессивных средах. В основном речь идет о том, что полученные материалы были протестированы на термогравиметрическом и дифференциально-термическом анализе STA200 в диапазоне температур 25–600 °C, а также о том, что вид наполнителя изменяется в зависимости от количества массовой части, а полученные материалы могут использоваться в качестве покрытий в машиностроительных деталях и продлевать срок службы деталей благодаря своим износостойким свойствам. Одним из основных преимуществ предлагаемого материала является то, что применение композитных полимерных покрытий облегчает процессы ремонта конструкций и тем самым достигает экономической эффективности.

Ключевые слова: антифрикционно-износостойкий, полимерный материал, композит, термическая устойчивость, термогравиметрический анализ, дифференциально-термический анализ, антифрикционный материал, колки барабана.

Abstract. This article examines the thermal stability of an anti-friction wear-resistant polymer composite material obtained for mechanical engineering parts operating in aggressive environments. This mainly concerns the fact that the obtained samples were tested on STA200 thermogravimetric and differential-thermal analysis equipment in the temperature range of 25–600 °C, and the type of filler varies depending on the mass fraction, as well as the use of the obtained materials as coatings in mechanical engineering parts, which can extend the service life of parts due to their wear-resistant properties. One of the main advantages of the proposed material is that the use of composite polymer coatings facilitates structural repair processes and thereby achieves economic efficiency.

Keywords: anti-friction-wear resistance, polymer material, composite, thermal stability, thermogravimetric analysis, differential thermal analysis, anti-friction material, drum pegs.

KIRISH.

Bizga ma’lumki, zamonaviy texnika-texnologiya, mashina va mexanizmlar, shu jumladan paxta sanoatida qo‘llaniladigan texnologik jihozlar talab qilingan ishchanlik va ekspluatatsion ishonchlilikka ega bo‘lishi, paxtani qayta ishlash texnologik jihozlarining ish unumdorligi hamda tolaning sifatini saqlab qolish uchun ularning konstruksiyalarini takomillashtirish bilan bir qatorda yuqori samarali yangi antifriksion-yeyilishbardosh kompozit polimer materiallarni maqsadli qo‘llash yechimi kutilayotgan dolzarb innovatsion ilmiy-texnik muammolar jumlasidan hisoblanadi[1-3]. Ayniqsa, paxtani mayda zarrachalardan tozalash texnologik jihozlarining ishqalanuvchi juftliklar sifatida qo‘llaniladigan materiallari bir vaqtda yeyilishga bardoshli, mexanik mustahkamlik va termik barqarorlik kabi bir qator muhim xossalarga ega bo‘lishi kerak [1, 2]. Bunda asosan antifriksion -yeyilishbardosh polimer kompozit (AYPK) materialdan qoplama qoplash hamda ishlash rejimlari parametrlarini muqobillashtirish hozirgi kunda zarur masalalardan biri hisoblanmoqda.

Termoreaktiv-epoksid smolalar asosida tayyorlangan antifriksion-yeyilishbardosh polimer kompozit materiallar(AYPKM) ushbu muammolarga yechim sifatida qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

2. MATERIALLAR VA USULLAR.

2.1 Material .

Paxta xom ashyosini titish va tozalash uchun silindrsimon titish barabanning qoziqchali ishchi qismlar uchun geterokompozit polimer materiallarni modifikatsiyalashning samarali turi sifatida mahalliy ashyo va energetik resurslardan ratsional foydalanish imkonini beradigan strukturalashtirish usullarining maqsadga muvofiqligi asoslangan[7-11]. Tadqiqotlar uchun antifriksion yeylishbardosh polimer kompozit materillardan

ISSN 3030-3907

qoplamalar namunalarini tayyorlashda termoreaktiv bog‘lovchi epoksid smolasi ED-20 asosidagi kompozitlar va to‘ldiruvchilar: mahalliy ashyolardan kaolin (AKF-78), karbonizatsiyalangan koks, shisha tolasi, qotiruvchi tanlab olindi hamda turli massa qismda namular olindi.


1-jadval

Tarkiblar	Vazifasi	Massa qism
Epoksid-dian smolasi (ED-20)	Bog‘lovchi	100
E turdagi shisha tolasi	Sinchlovchi (to‘ldiruvchi)	2
Kaolin AKF-78	To‘ldiruvchi	35
Texnik uglerod	Modifikator	4
Dibutilftalat (DBF)	plastifikator	10
Polietilenpoliamin(PEPA)	Qotiruvchi	8

Yuqorida taklif etilgan tarkiblar asosida tayyorlangan polimer kompozit materiallatrdan C4 markali po‘lat yuzasiga antifriksion-yeyilishga chidamli polimer kompozitni rolik bilan prokatlash usuli orqali qoplamalar olindi. Olingan qoplamalarning termik turg‘unligi o‘rganildi.

2.2 Usullar.

Tanlangan antifriksion yeyilishga bardoshli polimer kompozit material namunasining termik xossalarini baholash maqsadida **STA200** markali termogravimetrik differensial-termik tahlil DTA jihozidan foydalanildi.



1-rasm- STA200 termogravimetrik differensial-termik tahlil (DTA)

Ushbu jihoz termogravimetriya (TGA) va differensial-termik tahlil (DTA) tahlil natijalarini bir vaqtning o‘zida amalga oshirish imkoniyatiga ega

ISSN 3030-3907


kombinatsiyalangan sinov jihozi bo‘lib, materilaning massasini harorat o‘zgarishi bilan qanday o‘zgarishini tezkorlik bilan o‘lchaydigan usuldir.

Qoplamar uchun muhim hisoblanadigon termik xossasini baholashda tadqiqot olib borilayotgan antifriksion -yeyilishbardosh polimer material tarkibi va massa miqdoriga bog‘liq holda amlaga oshirilidi. Tadqiqot ishini olib boorish davomida olingan namuna xona haroratidan 600 °C gacha 10 °C/min tezlikda qizdirildi. Inert muhit sifatida azot (N_2) gazi 40 ml/min oqim tezligida ishlatildi. Tahlil uchun 10–20 mg miqdoridagi namuna alumina tigelga joylashtirildi. Tadqiqot jarayoni davomida olingan namunalarning massa o‘zgarishi va issiqlik effektlari 25–600 °C harorat oralig‘ida amalga oshirildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR.

Reaktoplast asosli antifriksion-yeyilishbardosh polimer kompozit materiallarni ishqalanish yoki abzariv yeyilish sharoitlarfida samarali ishlashini ta’minlovchi asosiy omillardan biri bu ularning ternik barqarorligidir.

Namunalarimizni termik barqaroqligini aniqlash uchun tadqiqot xona xaroaratida real sharoitda amalga oshirildi. Tayyor namunalarning 2 gram miqdorida maydalanib, maxsus idishga solindi hamda 20 daqiqa davomida natija olindi.



2-rasm.Tavsiya etilgan namunaning termogravimetrik va differensial-termik tahlili

TGA egri chizig‘ining tahlili shuni ko‘rsatadiki, polimer kompozit materialning termik parchalanishi bir necha ketma-ket bosqichda amalga oshadi

ISSN 3030-3907

(2-rasm). Har bir bosqich materialning tarkibiy komponentlariga xos fizik - kimyoviy xossalarining o‘zgarishlarini aks ettiradi. (2-jadval)

2-jadval.

TGA va DTA natijalarining bosqichma-bosqich tahlili

Bosqichlar	Harorat ^{0}C	Massa %	Yo‘qotish %	Fizik-kimyoviy xossalari o‘zgarishi
1	25 – 160	100 → 97,6	~2,4	Fizik bog‘langan namlik va uchuvchi komponentlarning ajralishi
2	160 – 314	97,6 → 89,8	~7,8	Polimer matritsaning dastlabki termik barqarorlik chegarasi; strukturaviy yumshash boshlanishi
3	314 – 372	89,8 → 80,8	~9,0	Polimer zanjirlarning asosiy parchalanishi boshlanishi
4	372 – 466	80,8 → 53,5	~27,3	Parchalanish jarayonining jadallashuvi
5	466 – 600	53,5 → 22–23	~31	Organik komponentlarning deyarli to‘liq parchalanishi; qoldiq massa — noorganik to‘ldiruvchilar

Olingan tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, bunda birinchi bosqichda 25 °C dan 160 °C gacha bo‘lgan harorat oralig‘ida namuna massasi 2,4 % ga kamayishi kuzatildi. Bu hodisa namuna tarkibidagi adsorbsiyalangan namlikning bug‘lanishi bilan izohlanadi. Ushbu bosqichda materialning asosiy strukturasida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmaydi

Ikkinchi bosqichda (160–314 °C) massa 97,6 % dan 89,8 % gacha kamaydi. Ushbu bosqich polimer matritsaning dastlabki termik barqarorlik chegarasini tavsiflaydi va bog‘lovchi fazada strukturaviy yumshash jarayonlarining boshlanishi bilan tavsiflanadi. Muhim jihat shundaki, ushbu harorat oralig‘igacha materialning ekspluatatsion xossalari saqlanib qoladi.

Uchinchi bosqichda (314–372 °C) namunaning massasida yanada sezilarli kamayish (80,8 % gacha) kuzatiladi. Mazkur bosqich polimer zanjirlarining asosiy parchalanish jarayonining boshlanishiga to‘g‘ri keladi [9, 10].

To‘rtinchi bosqichda (372–466 °C) parchalanish jarayoni jadallashib, namuna massasi 53,5 % gacha kamayadi. Beshinchi va oxirgi bosqichda (466–600 °C) organik komponentlarning deyarli to‘liq parchalanishi natijasida qoldiq

ISSN 3030-3907

massa 22–23 % ni tashkil etdi. Ushbu qoldiq — issiqqa chidamli mineral yoki noorganik to‘ldiruvchilarning mavjudligini tasdiqlaydi [11].

3.2. Differensial-termik tahlil (DTA) natijalari

DTA egri chizig‘ining tahlili bir necha xarakterli termik effektlarni aniqladi:

Issiqlik yutilishi jarayoni (80–150 °C): Bu harorat oralig‘ida kuchsiz endotermik pik kuzatildi. Bu effekt namunada mavjud bo‘lgan namlik va past haroratda qaynaydi gan uchuvchi moddalarning bug‘lanishi bilan bog‘liq. Issiqlik sarfi nisbatan kichik bo‘lib, material strukturasiga sezilarli ta'sir ko‘rsatmaydi.

Termik o‘tish jarayoni (280–350 °C): Bu oralig‘ida issiqlik effektining kuchayishi kuzatildi. Bu holat polimer matritsaning shishasi (Tg) va dastlabki parchalanish jarayonlarining boshlanganidan dalolat beradi. Ushbu harorat oralig‘i TGA natijalari bilan to‘liq mos keladi.

Issiqlik ajralishi jarayoni (400 °C dan yuqori): Bu haroratlarda kuchli ekzotermik jarayonlar qayd etildi. Ular organik komponentlarning oksidlanishi va jadal parchalanishi bilan izohlanadi. Bunday effektlar yeyilishga bardoshli to‘ldiruvchi komponentlarga xosdir [12].

MUHOKAMA.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, tanlangan antifriksion yeyilishga bardoshli polimer kompozit material 300 °C gacha bo‘lgan harorat oralig‘ida yetarli termik barqarorlikka ega. Bu ko‘rsatkich paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinalari qoziqchali barabanlarining real ekspluatatsion sharoitlari uchun to‘liq yetarli hisoblanadi, chunki shu qurilmalardagi baraban qoziqchalarida ishqalanish jarayonida harorat odatda 80–150 °C dan oshmaydi.

Qoldiq massaning 22–23 % ni tashkil etishi tarkibda issiqqa va yeyilishga chidamli mineral yoki noorganik to‘ldiruvchilarning mavjudligini tasdiqlaydi. Ushbu to‘ldiruvchilar ishqalanish jarayonida materialning mexanik mustahkamligi va yeyilishga chidamliligini saqlab turishda muhim rol o‘ynaydi.

DTA natijalarida qayd etilgan endotermik effektning (80–150 °C) kichikligi material tarkibida ortiqcha namlikning yo‘qligini ko‘rsatadi. Bu esa materialning namgarchilikka chidamliligi yaxshi ekanligidan dalolat beradi. 400 °C dan yuqori haroratlarda kuzatilgan ekzotermik jarayonlar esa faqat favqulodda yuqori harorat sharoitlarida (yong‘in, avariya holati) kuzatilishi mumkin bo‘lib, odatdagi ekspluatatsiya sharoitlarida bunday haroratlarga erishilmaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, termoreaktiv smola asosida olingan polimer kompozit materiallarni mahalliy ashy ova mineral to‘ldiruvchilar bilan mustahkamlash ularning termik barqarorligini sezilarli darajada oshiradi [16].

XULOSA.

ISSN 3030-3907

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, olingan antifriksion-yeyilishbardosh polimer kompozit materiallar 300 °C gacha termik barqarorligini saqlab, paxtani tozalash mashinalari qoziqchalari uchun belgilangan ekspluatatsion talablarga javob beradi. Termik parchalanish oxiridagi 22–23 % qoldiq massa kaolin va karbonizatsiyalangan koksning noorganik fraksiyasiga mos keladi. TGA va DTA natijalarining o‘zaro muvofiqligi esa tajribalarning ishonchliligini tasdiqlaydi. To‘ldiruvchi materiallarni tarkibi va massa qismlarini optimallashtirish orqali termik barqarorlik 15-20 % ga oshirilishga erishildi. Mahalliy xom ashyo va chiqindi materiallardan foydalanish asosida yaratilgan ushbu antifriksion-yeyilishbardosh kompozit polimer material paxta sanoati jihozlarining ishonchliligi va tolaning sifatini ta’minlashda samarali yechim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Е. В. Королев, Теплофизические свойства серных строительных материалов. Королев Е. В., Киселев Д. Г., Прошина Н. А., Альбакасов А. И.// Вестник МГСУ, 2011. - N 8. 249-253 с.

2. Gadamov, D., Ziyamuhammedova, U., & Miradullaeva, G. (2024, March). Chemical resistance of a hydrophobic-hemostable organomineral composite material in aggressive liquid media. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3045, No. 1). AIP Publishing.

3. Ziyamukhamedova, U., Rakhmatov, E., Dustqobilov, E., Nafasov, J., & Ziyamukhamedov, J. (2023, June). Development of protective coating compositions for process tanks. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.

4. Ziyamukhamedova, U., Evlen, H., Nafasov, J., Jalolova, Z., Turgunaliyev, E., & Rakhmatov, E. (2023). Modeling of the process of mechano activation of filler particles in polymer composites. In E3S Web of Conferences (Vol. 401, p. 05027). EDP Sciences.

5. У.В.Королев, Д.Г.Кисилев, Н.А.Порошина, А.И.Альбакасов. Теплофизические свойства серных строительных материалов. Вестник МГСУ. №8. 2011. 249-253 с.

6. Ziyamukhamedova U., Djumabaev A., Urinov, B., & Almatayev, T. (2021). Features of structural adaptability of polymer composite coatings. In E3S Web of Conferences (Vol. 264, p. 05011). EDP Sciences.

7. Nurkulov, F., Ziyamukhamedova, U., Rakhmatov, E., & Nafasov, J. (2021). Slowing down the corrosion of metal structures using polymeric materials. In E3S web of conferences (Vol. 264, p. 02055). EDP Sciences.

8. Рахматов Э.А. Анализ условий эксплуатации металлоконструкций и пути увеличения срока службы производственных оборудований нефтегаза

ISSN 3030-3907

применением гетерокомпозитных материалов // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2023. 11(116).
9. Ziyamukhamedova, U., Rakhmatov, E., & Nafasov, J. (2021, April). Optimization of the composition and properties of heterocomposite materials for coatings obtained by the activation-heliotechnological method. In Journal of Physics: Conference Series (Vol. 1889, No. 2, p. 022056). IOP Publishing.
10. Ziyamukhamedova, U., Djumabaev, D., & Shaymardanov, B. (2013). Mechanochemical modification method used in the development of new composite materials based on epoxy binder and natural minerals. Turkish journal of Chemistry, 37(1), 51-56.
11. Miradullaeva, G., Rakhmatov, E., Bozorov, O., Ziyamukhamedova, U., & Shodiev, B. (2021). Mathematical modeling of rheological properties during structure formation of heterocomposite potting materials and coatings and their application. In Proceedings of EECE 2020: Energy, Environmental and Construction Engineering 3 (pp. 346- 355). Springer International Publishing.
12. Khalimov, S., Nishonov, F., Begmatov, D., Mohammad, F. W., & Ziyamukhamedova, U. (2023). Study of the physico-chemical characteristics of reinforced composite polymer materials. In E3S Web of Conferences (Vol. 401, p. 05039). EDP Sciences.

ISSN 3030-3907

ROSA CANINA L. QANDLI DIABETDA GLIKEMIK TA'SIRI

Sovetov Qoraqul Tashanovich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti Bioligik kimyo kafedrasi b.f.n., dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada Rosa canina L. (itburun) o'simligining kimyoviy tarkibi va uning qandli diabetdagi gipoglikemik ta'siri yoritilgan. Itburun mevalari flavonoidlar, polifenollar, askorbin kislotasi, karotinoidlar va boshqa biologik faol moddalar manbai hisoblanadi. Ushbu moddalar glyukoza metabolizmini yaxshilash, insulin sezgirligini oshirish hamda oksidlovchi stressni kamaytirish orqali diabetda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari itburun ekstraktining qondagi glyukoza miqdorini pasaytirishi va metabolik jarayonlarni me'yorlashtirishini ko'rsatadi. Maqolada o'simlikning kimyoviy tarkibi, ta'sir mexanizmlari, ilmiy tadqiqotlar natijalari va amaliy qo'llanilishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Rosa canina, itburun, qandli diabet, gipoglikemik ta'sir, flavonoidlar, polifenollar, antioksidantlar, glyukoza metabolizmi.

Аннотация. В данной статье рассмотрены химический состав Rosa canina и его гипогликемическое действие при сахарном диабете. Плоды шиповника являются источником флавоноидов, полифенолов, аскорбиновой кислоты, каротиноидов и других биологически активных веществ. Эти соединения оказывают положительное влияние при диабете за счёт улучшения метаболизма глюкозы, повышения чувствительности к инсулину и снижения окислительного стресса. Результаты исследований показывают, что экстракт шиповника способен снижать уровень глюкозы в крови и нормализовать метаболические процессы. В статье проанализированы химический состав растения, механизмы действия, результаты научных исследований и практическое применение.

Ключевые слова: Rosa canina, шиповник, сахарный диабет, гипогликемическое действие, флавоноиды, полифенолы, антиоксиданты, метаболизм глюкозы.

Abstract. This article discusses the chemical composition of Rosa canina and its hypoglycemic effects in diabetes mellitus. Rosehip fruits are rich sources of flavonoids, polyphenols, ascorbic acid, carotenoids, and other biologically active compounds. These substances exert beneficial effects in diabetes by improving glucose metabolism, enhancing insulin sensitivity, and reducing oxidative stress. Research findings indicate that rosehip extract can reduce blood glucose levels and normalize metabolic processes. The article analyzes the chemical composition of the plant, mechanisms of action, scientific research findings, and practical applications.

Keywords: Rosa canina, rosehip, diabetes mellitus, hypoglycemic effect, flavonoids, polyphenols, antioxidants, glucose metabolism.

KIRISH.

Qandli diabet dunyo bo‘yicha keng tarqalgan surunkali metabolik kasalliklardan biri bo‘lib, insulin sekretsiyasi yoki uning biologik ta’sirining buzilishi bilan xarakterlanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, diabet bilan kasallanish ko‘rsatkichlari yil sayin ortib bormoqda. Shu sababli tabiiy manbalardan olinadigan biologik faol moddalar asosida yangi gipoglikemik vositalar yaratish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Rosa canina L. — xalq tabobatida keng qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklardan biri bo‘lib, uning mevalari vitamin C, flavonoidlar va antioksidant moddalar bilan boydir. So‘nggi yillarda o‘tkazilgan eksperimental va klinik tadqiqotlar itburunning gipoglikemik va antioksidant xususiyatlarini tasdiqlagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Ilmiy manbalarda Rosa canina tarkibidagi biologik faol moddalar organizm metabolik jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan. Ayniqsa flavonoidlar va polifenollar glyukoza almashinuvini boshqarishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tajribalarda itburun ekstrakti α-glukozidaza va α-amilaza fermentlarini inhibisiya qilishi natijasida glyukozaning ichakdan so‘rilishini kamaytirishi aniqlangan. Bundan tashqari, antioksidant moddalar oksidlovchi stressni kamaytirib, β-hujayralarni himoya qiladi.

Materiallar va Tadqiqot Usullari

Tadqiqot davomida Rosa canina mevalari tarkibidagi biofaol moddalar haqida ilmiy maqolalar, Scopus bazasidagi nashrlar hamda eksperimental tadqiqotlar natijalari tahlil qilindi. Kimyoviy tarkibni baholashda spektrofotometrik va xromatografik ma’lumotlardan foydalanildi.

Itburunning Kimyoviy Tarkibi

Itburun mevalari biologik faol birikmalar bilan boy bo‘lib, ular organizm metabolizmini tartibga solishda muhim ahamiyatga ega.

1-Jadval

Itburun tarkibidagi asosiy biologik faol moddalar

Moddalar guruhi	**Asosiy vakillari**	**Biologik ahamiyati**
Flavonoidlar	Quercetin, rutin, katexin	Gipoglikemik va antioksidant
Polifenollar	Gal kislotasi, ellag kislotasi	Erkin radikallarni kamaytiradi
Vitaminlar	Vitamin C, A, E	Immunomodulyator
Karotinoidlar	β-karotin, likopin	Antioksidant himoya

ISSN 3030-3907

Organik kislotalar	Olma, limon kislotasi	Energetik almashinuvni yaxshilaydi
Pektin moddalar	Oziq tolalari	Glyukoza so‘rilishini sekinlashtiradi
Mineral moddalar	Kaliy, magniy, temir	Metabolik jarayonlarni boshqaradi

Itburun tarkibidagi askorbin kislotasi miqdori ko‘plab mevalarga nisbatan ancha yuqori bo‘lib, bu uning kuchli antioksidant xususiyatini belgilaydi.

Glikemik Ta’sir Mexanizmlari

1. Glyukoza Metabolizmini Yaxshilash

Flavonoidlar insulin reseptorlarining sezgirligini oshirib, glyukozaning hujayralarga kirishini tezlashtiradi.

2. Antioksidant Himoya

Qandli diabetda kuzatiladigan oksidlovchi stress hujayralarning zararlanishiga olib keladi. Itburun tarkibidagi vitamin C va polifenollar erkin radikallarni neytrallaydi.

3. α-glukozidaza va α-amilaza Fermentlarini Inhibisiya Qilish

Itburun ekstrakti uglevodlarning parchalanishini sekinlashtirib, postprandial giperglikemiyani kamaytiradi.

4. β-hujayralarni Himoya Qilish

Antioksidant moddalar oshqozon osti bezidagi β-hujayralarni oksidlovchi stressdan himoya qiladi va insulin sekretsiyasini qo‘llab-quvvatlaydi.

2-Jadval

Itburun tarkibidagi ayrim biofaol moddalar miqdori

Biofaol modda	Miqdori (mg/100 g)	Farmakologik ahamiyati
Vitamin C	450–650	Kuchli antioksidant
Quercetin	14.3	Gipoglikemik ta’sir
Katexin	11.6	Insulin sezgirligini oshiradi
β-karotin	5.4	Hujayra himoyasi
Kaliy	429	Elektrolit muvozanati
Magniy	69	Fermentativ reaksiyalar

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA.

Eksperimental tadqiqotlarda Rosa canina ekstrakti diabetik modellarda qondagi glyukoza miqdorini sezilarli kamaytirgani aniqlangan. Shuningdek, lipid almashinuvi ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi va oksidlovchi stress markerlarining pasayishi kuzatilgan.

Klinik kuzatuvlarda itburun asosidagi biologik faol qo‘shimchalarni qabul qilgan bemorlarda glikemik nazorat yaxshilangani qayd etilgan. Flavonoidlarning


ISSN 3030-3907

antioksidant faolligi diabet asoratlarini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, itburun tarkibidagi pektin moddalar glyukozaning ichakda tez so‘rilishini oldini olib, qon shakarining keskin ko‘tarilishini kamaytiradi.



1-rasm. Rosa canina o‘simligining umumiy morfologik ko‘rinishi



2-rasm. Itburun tarkibidagi flavonoidlarning struktur formulalari

XULOSA.

Rosa canina L. biologik faol moddalar, ayniqsa flavonoidlar, polifenollar va askorbin kislotasining boy manbai hisoblanadi. Ushbu moddalar gipoglikemik, antioksidant va metabolik ta’sir ko‘rsatib, qandli diabet profilaktikasi hamda kompleks terapiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Itburun ekstrakti glyukoza metabolizmini yaxshilashi, insulin sezgirligini oshirishi va oksidlovchi stressni kamaytirishi sababli istiqbolli fitoterapevtik vosita hisoblanadi. Kelgusida ushbu o‘simlik asosida yangi fitopreparatlar yaratish va klinik tadqiqotlarni kengaytirish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kenjayevich, B. A., Tashanovich, S. K., Uzokovich, D. M., & Sayfiyevna, Y. S. (2022). Changes of basic intermediates in blood in myocardial infarction. Journal of Positive School Psychology, 1775-1781.
2. Советов, К. Т., & Байкулов, А. К. (2023). Динамика ИБС с корркекцией ЛДГ. Modern Scientific Research International Scientific Journal, 1(9), 47-55.
3. Azim, B., Mustafo, D., Dusmurat, E., Saodat, Y., Oksana, K., & Karokul, S. (2021). The state of free-radical oxidation of lipids in experimental myocardial infarction in rats. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 8(3), 816-820.
4. Дониёрова, С. О., Байкулов, А. К., Саветов, К. Т., & Ташанов, О. С. (2023). ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ОБОСНОВАНИЕ СОСТАВА ГРАНУЛ НА ОСНОВЕ СУХОГО ЭКСТРАКТА СОЛОДКИ. PEDAGOGS, 46(1), 140-142.
5. Ташанов, О. С., & Саветов, К. Т. (2023). ЛЕКАРСТВЕННЫЕ РАСТЕНИЯ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В КАЧЕСТВЕ СРЕДСТВ ДЛЯ ЛЕЧЕНИЯ СЛИЗИСТОЙ ОБОЛОЧКИ РТА. Research and Publications, 1(1), 42-45.
6. Kenjayevich, B. A., Tashanovich, S. K., & Hydoyatovna, I. F. (2022). Investigation of the skin-resorptive effect of manufactured chitosan. european journal of modern medicine and practice, 2(5), 102-106.
7. Байкулов, А. К., Саветов, К. Т., & Халиков, К. М. (2020). РЕПАРАТИВНАЯ РЕГЕНЕРАЦИЯ КОЖИ ПРИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОМ ТЕРМИЧЕСКОМ ОЖОГЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ХИТОЗАНА. In АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ БИОМЕДИЦИНЫ-2020 (pp. 291-292).
8. Sovetov, K. T., & Abdujabborova, S. Z. (2024). Change in Kinetic Parameters A-and B-Adrenoresceptors of Lymphocytes and Platelets in Patients with Acute Myocardial Infarction. JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 3(2), 4-6.
9. Tashanovich, S. Q., & Zulfiya, Q. (2024). Onkogenez biokimyosi. SALOMATLIK VA HAYOT-FANI TADQIQOTLARI JURNALI, 3, 57-60.
10. Нурбаев, Х. И., Советов, К. Т., Рузиев, Э. А., & Ураков, Д. М. УДК547. 854. РЕАКЦИЯ АЛКИЛИРОВАНИЯ 2-Х ЗАМЕЩЕННЫХ ПИРИМИДИНОНОВ-4. ILMIY AXBOROTNOMA, 51.
11. Savetov, K. T., & Varfolomeev, S. D. (1997). Influence of ionizing radiation on α-and β-adrenoceptors of lymphocytes and thrombocytes. Uzbekiston Biologiya Zhurnali, 2, 72-76.
12. Savetov, K. T., & Varfolomeev, S. D. (1997). Influence of ionizing radiation on {alpha}-and {beta}-adrenoceptors of lymphocytes and thrombocytes;

ISSN 3030-3907

Osobennosti vliyaniya ioniziruyushchego izlucheniya na {alpha}-i {beta}-adrenoretseptory limfotcitov i trombotsitov. Uzbekskij Biologicheskij Zhurnal, 2.
13. Salohiddin o‘g‘li, M. M., Sovetov, K. T., & Tashanov, O. S. (2024). DORIVOR O‘SIMLIKLARDAN OLINADIGAN DORILARDAN TABOBATDA FOYDALANISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 44(1), 210-212.

O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON TIBBIY YOZUVLAR TIZIMINI INTEROPERABELLIK (O‘ZARO MOSLIK) STANDARTLARI ASOSIDA BIRLASHTIRISH MODELI

Sobirova Shoxsanam Axmedovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Temirov Azizbek Abdumannob o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida elektron tibbiy yozuvlar (ETY) tizimlarining o‘zaro moslik (interoperabellik) standartlari asosida birlashtirilishi modeli ishlab chiqilgan va uning amaliy samaradorligi yoritilgan. Tadqiqotda HL7 FHIR R4, SNOMED CT, LOINC va ICD-11 xalqaro standartlari hamda davlat darajasidagi raqamli tibbiy infratuzilma talablari kompleks tahlil qilingan. Mahalliy tibbiyot muassasalarining heterogen axborot tizimlarini yagona semantik va sintaksis bazasida integratsiyalash uchun ko‘p qatlamli arxitektura modeli taklif etilgan. Olingan natijalar taklif etilgan modelning klassik nuqta-nuqta (point-to-point) integratsiya yondashuviga nisbatan ma’lumotlar uzatish kechikishi, integratsiya muddati va xatoliklar darajasi bo‘yicha sezilarli ustunligini tasdiqladi. Mazkur yondashuv tibbiy ma’lumotlarning uzluksiz almashinuvini ta’minlash, klinik qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash hamda davlat sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish strategiyasini amalga oshirishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: elektron tibbiy yozuvlar, interoperabellik, HL7 FHIR, SNOMED CT, LOINC, ICD-11, sog‘liqni saqlashni raqamlashtirish, semantik o‘zaro moslik, tibbiy ma’lumotlar almashinuvi, integratsiya modeli.

Abstract. This article presents the development of a unified integration model for Electronic Health Records (EHR) systems in Uzbekistan based on interoperability standards and evaluates its practical effectiveness. The study comprehensively analyzes international standards such as HL7 FHIR R4, SNOMED CT, LOINC, and ICD-11, as well as the requirements of the national digital healthcare infrastructure. A multi-layered architectural model is proposed for integrating heterogeneous information systems of local medical institutions on a unified semantic and syntactic basis. The results confirmed that the proposed model demonstrates significant advantages over the classical point-to-point integration approach in terms of data transmission latency, integration time, and error rates. The proposed approach is of practical importance for ensuring continuous medical data exchange, supporting clinical decision-making, and implementing the national healthcare digitalization strategy.

ISSN 3030-3907

Keywords: electronic health records, interoperability, HL7 FHIR, SNOMED CT, LOINC, ICD-11, healthcare digitalization, semantic interoperability, medical data exchange, integration model.

Аннотация. В данной статье разработана модель интеграции систем электронных медицинских записей (ЭМЗ) в системе здравоохранения Узбекистана на основе стандартов интероперабельности (взаимной совместимости) и обоснована её практическая эффективность. В исследовании комплексно проанализированы международные стандарты HL7 FHIR R4, SNOMED CT, LOINC и ICD-11, а также требования к цифровой медицинской инфраструктуре государственного уровня. Для интеграции гетерогенных информационных систем местных медицинских учреждений на единой семантической и синтаксической основе предложена многоуровневая архитектурная модель. Полученные результаты подтвердили существенное превосходство предложенной модели над классическим подходом интеграции «точка-точка» (point-to-point) по показателям задержки передачи данных, сроков интеграции и уровня ошибок. Данный подход имеет важное практическое значение для обеспечения непрерывного обмена медицинскими данными, поддержки принятия клинических решений и реализации стратегии цифровизации государственной системы здравоохранения.

Ключевые слова: электронные медицинские записи, интероперабельность, HL7 FHIR, SNOMED CT, LOINC, ICD-11, цифровизация здравоохранения, семантическая совместимость, обмен медицинскими данными, модель интеграции.

KIRISH.

Zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligi tibbiy ma’lumotlarning to‘liq, ishonchli va o‘z vaqtida foydalanish imkoniyatiga bevosita bog‘liq. Bemorlarga ko‘rsatilayotgan tibbiy yordam sifati, klinik qarorlar qabul qilish tezligi, davlat sog‘liqni saqlash siyosatining samaradorligi hamda epidemiologik nazoratning ishonchliligi ko‘p jihatdan tibbiy axborot tizimlari o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvining samaradorligi bilan belgilanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha sog‘liqni saqlashga sarflanadigan mablag‘ning qariyb 20–30 foizi tibbiy axborotning yetishmasligi yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar tufayli isrof bo‘ladi, bu esa interoperabel elektron tibbiy yozuvlar tizimini joriy etish dolzarbligini yanada oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6110-sonli Farmoni hamda 2022-yil 18-aprelda tasdiqlangan “Raqamli sog‘liqni saqlash” konsepsiyasi sog‘liqni saqlash tarmog‘ini raqamlashtirishning

ISSN 3030-3907

huquqiy-me’yoriy asoslarini belgilab berdi [1]. Mazkur hujjatlarga muvofiq, mamlakatda yagona elektron tibbiy yozuvlar tizimini joriy etish, tibbiyot muassasalari o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvini ta’minlash hamda xalqaro standartlarga mos integratsiya muhitini shakllantirish vazifalari qo‘yilgan. Ayni paytda respublikamizda “E-poliklinika”, “EMR” va boshqa bir qator tibbiy axborot tizimlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular asosan alohida muassasa darajasida faoliyat yuritadi. Lekin ushbu tizimlar o‘rtasida yagona ma’lumotlar formati, kodlash standartlari va xavfsiz almashinuv protokollari yetarli darajada birlashtirilmagan.

Amaldagi vaziyat tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizdagi tibbiyot muassasalarining aksariyati mahalliy bo‘lib qolgan elektron tibbiy yozuvlar tizimlaridan foydalanmoqda. Bemor bir muassasadan boshqasiga, ayniqsa birlamchi tibbiy-sanitariya bo‘g‘inidan ixtisoslashtirilgan markazlarga yo‘naltirilganda, uning klinik anamnezi, laboratoriya tahlillari natijalari, dori-darmon retseptlari va vizuallashtirish tasvirlari ko‘p hollarda qog‘oz hujjatlar yoki noformat raqamli fayllar shaklida uzatiladi. Bu esa ma’lumotlarning yo‘qolishi, takroriy tekshiruvlar o‘tkazilishi, davolanish muddatining cho‘zilishi va, eng muhimi, tibbiy xatoliklar xavfining ortishiga olib keladi.

Xalqaro tajribada bu muammoning yechimi sifatida o‘zaro moslik (interoperabellik) standartlari asosida integratsiyalashgan tibbiy axborot ekotizimini yaratish yondashuvi keng tatbiq etilmoqda. HL7 FHIR (Fast Healthcare Interoperability Resources) standartlari oilasi ma’lumotlarni resurslar shaklida tashkil etish va REST API protokollari orqali ayirboshlash imkonini beradi. SNOMED CT (Systematized Nomenclature of Medicine – Clinical Terms) klinik tushunchalarning yagona kodlangan terminologiyasini, LOINC (Logical Observation Identifiers Names and Codes) laboratoriya va kuzatuv natijalari uchun universal identifikatorlarni, ICD-11 (International Classification of Diseases, 11th Revision) esa kasalliklarning xalqaro tasnifini ta’minlaydi. Ushbu standartlar bir-birini to‘ldirib, tibbiy ma’lumotlarning sintaksis va semantik darajasida o‘zaro mosligini kafolatlaydi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekiston sharoitida elektron tibbiy yozuvlar tizimlarini xalqaro interoperabellik standartlari asosida birlashtirish modelini ishlab chiqish, uning klassik nuqta-nuqta integratsiya yondashuviga nisbatan afzalliklarini ko‘rsatish hamda tibbiy axborot ekotizimi uchun ishlab chiqilgan dasturiy yechimning ilmiy-amaliy samaradorligini asoslashdan iborat.

Tibbiyot sohasida interoperabellikni ta’minlash bo‘yicha ilmiy izlanishlar so‘nggi yigirma yil davomida sezilarli rivojlanishni boshidan kechirdi. D. Bender va K. Sartipi o‘z ishlarida HL7 FHIR standarti tibbiy ma’lumotlar almashinuvi

ISSN 3030-3907

sohasida yangi bosqichni boshlab berganini, REST arxitekturasi va zamonaviy veb texnologiyalariga asoslangan resurs modelining samaradorligini ko‘rsatib bergan [2]. Mualliflar tomonidan FHIR resurslarining modul tuzilishi tibbiy ma’lumotlarning turli darajalarda – paragraflar, kuzatuvlar, retseptlar va davolanish rejalari ko‘rinishida – moslashuvchan tarzda taqdim etilishiga imkon berishi qayd etilgan.

S. Garde va hammualliflari klinik ma’lumotlar modelini standartlashtirish bo‘yicha o‘tkazgan tadqiqotlarida arxetiplar yondashuviga asoslangan openEHR metodologiyasining nazariy asoslarini taqdim etganlar [3]. Ular tibbiy bilimlarni axborot tuzilmasidan ajratish printsipi heterogen tizimlarda semantik mosligiga erishishning eng samarali usullaridan biri ekanini ko‘rsatdilar. Shu bilan birga, T. Benson va G. Grieve “Principles of Health Interoperability” fundamental asarida sintaksis (texnik) va semantik (mazmuniy) o‘zaro moslik tushunchalarini farqlab, ularning har biri uchun amaliyotda qo‘llaniladigan standartlar to‘plamini batafsil tahlil qilishgan [4]. Mualliflar fikricha, sintaksis darajasida HL7 FHIR yetakchi standart bo‘lsa, semantik darajada SNOMED CT, LOINC va ICD oilasiga mansub klassifikatorlar asosiy rol o‘ynaydi.

So‘nggi yillardagi tadqiqotlarda interoperabellik tushunchasi kengaytirilib, jarayonlar darajasida hamda tashkiliy darajada o‘zaro moslik kategoriyalari ham kiritilgan. ISO/IEC 21090 va HL7 oilasi standartlarini sintez qiluvchi Yevropa Ittifoqining eHealth Network tashabbusi doirasida X-eHealth loyihasi amalga oshirilib, transchegaraviy elektron retsept va bemor xulosalari almashinuvi tizimi ishga tushirildi [5]. Ushbu tajriba ko‘rsatdiki, davlat darajasidagi elektron tibbiy yozuvlar tizimlarini birlashtirishda nafaqat texnik, balki huquqiy va seman'tic kelishuvlar ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

MDH mintaqasi davlatlari tajribasini ko‘rib chiqqanda, A. Stolbov va boshqalarning ishlarida Rossiya Federatsiyasining yagona davlat sog‘liqni saqlash axborot tizimi (YeDSSATAT) ni FHIR standartiga moslashtirish bo‘yicha xulosalar berilgan [6]. Mualliflar mahalliy klassifikatorlarni xalqaro standartlarga moslashtirishning bosqichli yondashuvi tibbiy ma’lumotlarning yaxlitligini saqlagan holda integratsiyaga erishish imkonini berishini ta’kidlaydilar. Qozog‘iston Respublikasida amalga oshirilgan “Damumed” tizimi tajribasi esa milliy elektron tibbiy yozuvlar platformasini xalqaro standartlar asosida shakllantirishning amaliy yo‘lini ko‘rsatib bergan [7].

Shunday qilib, tahlil qilingan adabiyotlar asosida uchta asosiy ilmiy xulosa chiqarish mumkin. Birinchidan, zamonaviy elektron tibbiy yozuvlar ekotizimi nuqta-nuqta integratsiyadan ko‘p tomonli standartlashtirilgan platformaga o‘tmoqda. Ikkinchidan, sintaksis va semantik darajadagi o‘zaro moslikni bir paytda ta’minlash integratsiyaning ishonchliligini oshiruvchi asosiy omil sifatida

ISSN 3030-3907

e’tirof etilgan. Uchinchidan, ilmiy adabiyotlarda interoperabellik modelini milliy huquqiy va texnologik sharoitlarga moslashtirish tendentsiyasi kuchaymoqda. Biroq O‘zbekiston sharoitida, ya’ni mavjud “E-poliklinika” va boshqa idoraviy tizimlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni HL7 FHIR, SNOMED CT, LOINC va ICD-11 standartlari asosida yagona integratsiya zanjirida birlashtiruvchi modelni ishlab chiqish masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan.

Mazkur tadqiqotda elektron tibbiy yozuvlar tizimlarini birlashtirish modelini ishlab chiqish uchun tizimli tahlil, qiyosiy modellashtirish, arxitektura loyihalash va matematik baholash usullari kompleks qo‘llanildi. Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro interoperabellik standartlari spetsifikatsiyalari (HL7 FHIR R4, SNOMED CT International Edition 2024, LOINC v2.78, ICD-11 MMS 2024), O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining me’yoriy hujjatlari, mahalliy tibbiy axborot tizimlarining texnik tavsiflari hamda 12 ta tibbiyot muassasasidan olingan amaliy ma’lumotlar tashkil etdi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida mavjud tibbiy axborot tizimlarining ma’lumotlar modellari, ishlatiladigan kodlash sxemalari va integratsiya interfeyslari tahlil qilindi. Ikkinchi bosqichda xalqaro standartlarga mos keluvchi resurs modelidan kelib chiqib, mahalliy ma’lumotlar strukturasini FHIR resurslariga (Patient, Encounter, Observation, Condition, MedicationRequest, DiagnosticReport) moslashtirish xaritalari (mapping) ishlab chiqildi. Uchinchi bosqichda ko‘p qatlamli integratsiya arxitekturasi loyihalashtirildi: birinchi qatlam — manba tizimlari adapterlari, ikkinchi qatlam — ma’lumotlar transformatsiyasi va sifat nazorati, uchinchi qatlam — markaziy FHIR-server, to‘rtinchi qatlam — semantik mosligiga aylantiruvchi terminologiya serveri, beshinchi qatlam — xavfsizlik va kirish nazorati.

To‘rtinchi bosqichda yaratilgan modelning samaradorligini baholash uchun pilot integratsiya muhitida sinov o‘tkazildi. Sinovga 5 ta turli darajadagi tibbiyot muassasasi (1 ta respublika ixtisoslashtirilgan markazi, 2 ta viloyat ko‘p tarmoqli shifoxonasi va 2 ta oilaviy poliklinika) jalb etildi. Ma’lumotlar almashinuvi muvaffaqiyat darajasi, o‘rtacha kechikish vaqti, integratsiyalashtirish muddati, xato darajasi va semantik mosligi darajasi mezonlari bo‘yicha baholandi. Yakuniy bosqichda taklif etilgan model an’anaviy nuqta-nuqta integratsiya yondashuvi bilan qiyosiy taqqoslandi.

Pilot integratsiya muhitida o‘tkazilgan tajribalar taklif etilgan modelning amaliy samaradorligini tasdiqladi. 5 ta tibbiyot muassasasidan to‘plangan 18 450 ta bemor yozuvi FHIR resurslariga aylantirildi va markaziy serverda muvaffaqiyatli saqlandi. Ma’lumotlar transformatsiyasining muvaffaqiyat darajasi 98,7 foizni tashkil etdi, qolgan 1,3 foiz hollarda manba ma’lumotlarning to‘liq emasligi yoki noto‘g‘ri kiritilganligi sababli avtomatik konvertatsiya

ISSN 3030-3907

muvaffaqiyatsiz yakunlandi. Bu kabi yozuvlar alohida jurnalga olinib, qo‘lda tahrirlash uchun yo‘naltirildi.

Semantik mosligiga keltirish bosqichida mahalliy kodlash sxemalari (asosan SSV-ning ichki kodlari) SNOMED CT va ICD-11 kodlariga avtomatik xaritalashtirildi. Diagnozlar bo‘yicha xaritalash darajasi 94,2 foizga yetdi, laboratoriya ko‘rsatkichlari LOINC kodlariga 91,8 foiz hollarda muvaffaqiyatli moslashtirildi. Tibbiy preparatlar uchun RxNorm va ATC klassifikatorlariga moslashtirish darajasi 89,5 foizni tashkil etdi. Avtomatik xaritalash muvaffaqiyatsiz bo‘lgan hollarda terminologiya serverida qo‘shimcha mahalliy kontekstli atamalar lug‘ati shakllantirildi.

Ma’lumotlar uzatish samaradorligi bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, taklif etilgan ko‘p qatlamli model an’anaviy nuqta-nuqta yondashuviga nisbatan sezilarli ustunlikka ega. Xususan, klassik yondashuvda har bir yangi tizimni integratsiyalashtirish uchun o‘rtacha 12–18 hafta vaqt talab qilingan bo‘lsa, FHIR standartiga asoslangan modelda bu muddat 3–5 haftaga qisqardi. Ma’lumotlar uzatish kechikishi o‘rtacha 850–1200 ms dan 180–340 ms gacha kamaydi, xatoliklar darajasi esa 4,8 foizdan 0,9 foizgacha tushdi.

Tibbiy ma’lumotlarning yaxlitligi va izchilligi bo‘yicha o‘tkazilgan tekshiruvlar taklif etilgan modelning yana bir muhim ustunligini aniqladi. Bemorning bir muassasadan boshqasiga o‘tishida uning klinik anamnezi, allergiya ma’lumotlari, surunkali kasalliklar tarixi va dori-darmon tayinlanishi haqidagi ma’lumotlar 96,4 foiz hollarda to‘liq va o‘zgarishsiz uzatildi. Klassik yondashuvda bu ko‘rsatkich 72,3 foizni tashkil etgan edi, ya’ni har to‘rtinchi holatda ma’lumotlarning qaysidir qismi yo‘qolib qolgan yoki noto‘g‘ri formatda yetkazilgan.

Tizim ish samaradorligini baholashda integratsiya zanjirining bardoshliligi alohida tahlil qilindi. Yuqori yuklanish sharoitida (soatiga 50 000 dan ortiq so‘rov) markaziy FHIR-server o‘rtacha javob vaqti 280 ms ni saqlab qoldi va ma’lumotlar yo‘qotilishi 0,02 foizdan oshmadi. Bu ko‘rsatkichlar sog‘liqni saqlash sohasidagi xalqaro talablarga (RTO < 4 soat, RPO < 15 daqiqa, mavjudlik > 99,5%) to‘liq mos keladi.

1-jadval.

Klassik nuqta-nuqta integratsiya va taklif etilgan interoperabel model natijalarining qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkich	**Klassik model**	**Taklif etilgan model**
Integratsiya muddati (hafta)	12–18	**3–5**

ISSN 3030-3907

Ma’lumotlar uzatish kechikishi (ms)	850–1200	**180–340**
Xatoliklar darajasi (%)	4,8	**0,9**
Ma’lumotlar yaxlitligi (%)	72,3	**96,4**
Semantik mosligi	Cheklangan	**To‘liq**
Yangi tizim qo‘shish narxi	Yuqori	**Past**
Xalqaro standartlarga mosligi	Past	**To‘liq mos**

Muhokama nuqtai nazaridan qaralganda, taklif etilgan modelning ustunligi avvalo uning standartlashtirilgan resurs yondashuviga asoslanganidadir. Klassik nuqta-nuqta integratsiya har bir tizim juftligi uchun alohida interfeys yaratishni talab qilib, n ta tizim uchun n×(n−1)/2 ta integratsiya bog‘lanishini shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu esa tizimlar sonining ortishi bilan integratsiya murakkabligini geometrik tarzda oshiradi va “integratsiya o‘rgimchak to‘ri” muammosini yuzaga keltiradi. Taklif etilgan modelda esa markaziy FHIR-server orqali har bir tizim faqat bitta standart interfeysga moslashtiriladi, natijada integratsiya bog‘lanishlari soni n ga teng bo‘lib qoladi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, taklif etilgan model ayniqsa heterogen muhitda, ya’ni turli vendorlardan olingan, turli ma’lumotlar bazasi platformalarida ishlovchi va turli kodlash sxemalarini ishlatuvchi tizimlarni birlashtirishda ustun natija beradi. Klassik yondashuv esa aynan shu sharoitda har bir manba uchun individual transformatsiya logikasini yaratishni talab qilganligi sababli yuqori xarajatlarga olib keladi. SNOMED CT va LOINC kodlariga avtomatik xaritalash modulining joriy etilishi tibbiy terminologiyaning xalqaro darajada bir xilligini ta’minladi va bu klinik qarorlarni qo‘llab-quvvatlovchi tizimlar (CDSS) bilan keyingi integratsiya uchun zaruriy poydevor yaratdi.

Modelning amaliy ahamiyati huquqiy nuqtai nazardan ham muhim. O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonuni va sog‘liqni saqlash sohasidagi me’yoriy hujjatlar talablariga muvofiq, tibbiy ma’lumotlar maxsus toifadagi shaxsiy ma’lumotlar sifatida belgilanadi va ularni qayta ishlashda qo‘shimcha himoya choralarini talab qiladi. Taklif etilgan modelning beshinchi qatlamida amalga oshirilgan OAuth 2.0 / SMART on FHIR autentifikatsiya mexanizmi, atribut asosida kirish nazorati (ABAC) va to‘liq audit jurnali ushbu talablarning bajarilishini ta’minlaydi.

ISSN 3030-3907

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, elektron tibbiy yozuvlar tizimlarini xalqaro interoperabellik standartlari (HL7 FHIR R4, SNOMED CT, LOINC, ICD-11) asosida birlashtirishning ko‘p qatlamli modeli ma’lumotlar almashinuvi sifati, tezligi va ishonchliligini sezilarli darajada oshirdi. Taklif etilgan model klassik nuqta-nuqta integratsiya yondashuviga nisbatan integratsiya muddatini 3–4 baravar qisqartirish, kechikishni 4–5 marta kamaytirish, xatoliklar darajasini 5 baravar pasaytirish hamda ma’lumotlar yaxlitligini 24 foiz birlikka oshirish imkonini berdi.

Ishlab chiqilgan yondashuv O‘zbekiston sharoitida sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish strategiyasini amalga oshirish, yagona davlat elektron tibbiy yozuvlar muhitini yaratish hamda mahalliy tibbiyot muassasalarini xalqaro tibbiy informatika ekotizimiga integratsiyalash uchun ilmiy-metodologik poydevor vazifasini bajaradi. Shu bois, taklif etilgan model va uning asosida ishlab chiqilgan dasturiy prototip sog‘liqni saqlash sohasini modernizatsiya qilishda hamda klinik qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi raqamli xizmatlarni rivojlantirishda ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan samarali yechim sifatida tavsiya etiladi. Keyingi tadqiqotlar yo‘nalishida modelning sun’iy intellekt algoritmlari bilan integratsiyasi, telemeditsina platformalari bilan o‘zaro aloqasi hamda transchegaraviy tibbiy ma’lumotlar almashinuvi imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ko‘rib chiqilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6110-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-5093085
2. Bender D., Sartipi K. HL7 FHIR: An agile and RESTful approach to healthcare information exchange // Proceedings of the 26th IEEE International Symposium on Computer-Based Medical Systems. — Porto, 2013. — P. 326–331.
3. Garde S., Knaup P., Hovenga E.J.S., Heard S. Towards semantic interoperability for electronic health records: domain knowledge governance for openEHR archetypes // Methods of Information in Medicine. — 2007. — Vol. 46, No. 3. — P. 332–343.
4. Benson T., Grieve G. Principles of Health Interoperability: SNOMED CT, HL7 and FHIR. — 4th ed. — Cham: Springer, 2021. — 451 p.
5. European Commission. eHealth Network Guidelines on the electronic exchange of health data under Cross-Border Directive 2011/24/EU: Patient Summary and ePrescription / eDispensation. — Brussels, 2023. — 78 p.

ISSN 3030-3907

6. Stolbov A.P., Kobyakova O.S., Starodubov V.I. Architectural principles of the Unified State Health Information System of the Russian Federation // Healthcare Manager. — 2022. — No. 4. — P. 4–15.
7. Aitymbetov N., Saparbayev S., Bekkozhayeva G. Implementation of the unified electronic health record system in Kazakhstan: the “Damumed” experience // International Journal of Medical Informatics. — 2021. — Vol. 152. — P. 104491.
8. HL7 International. FHIR Release 4 Specification. — Ann Arbor: HL7 International, 2023. URL: https://hl7.org/fhir/R4/
9. SNOMED International. SNOMED CT International Edition — January 2024 Release. — London: SNOMED International, 2024.
10. World Health Organization. International Classification of Diseases, Eleventh Revision (ICD-11). — Geneva: WHO, 2024. URL: https://icd.who.int/browse11/
11. Djumanov J.X., Irmuxamedova N.A., Mirzag‘aniyev S.I. Tibbiy axborot tizimlarini integratsiyalashda HL7 FHIR standarti imkoniyatlari // O‘zbekiston axborot texnologiyalari jurnali. — 2024. — № 3. — B. 45–58.

ISSN 3030-3907

RESURSI CHEKLANGAN O‘ZBEK-TURKMAN TILLARI JUFTLIGIDA INFORMATIKA DARSLIKLARINI NEYRON TARJIMA QILISH: MT5 MODELI MISOLIDA

Rajabova Sabina To‘lqin qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti
E-mail: rajabovasabina@gmail.com
Raximboyev Xikmat Jumanazarovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti
E-mail: hikmatbek75@yandex.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va turkman tillari o‘rtasidagi raqamli resurslar taqchilligi muammosini hal etish hamda ta’lim sohasidagi texnik matnlarni avtomatik tarjima qilish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida 5-11-sinf informatika darsliklari asosida 11 000 ta unikal parallel gapdan iborat ixtisoslashtirilgan o‘zbekcha-turkmancha korpus yaratildi. Ushbu korpus Google kompaniyasining ko‘p tilli mT5 (Multilingual T5) arxitekturasi bazasida fine-tune (sozlash) qilindi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, resurs hajmi nisbatan kichik bo‘lishiga qaramay, AKT sohasiga oid terminologik qoliplar va sintaktik tuzilmalar yuqori aniqlikda o‘zlashtirildi. Model sifati BLEU va chrF++ metrikalarida baholandi va umumiy maqsadli onlayn tarjimonlar bilan solishtirildi.

Kalit so‘zlar: Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), mashinali tarjima, parallel korpus, mT5 modeli, informatika darsliklari, kam resursli tillar, Fine-tuning.

Abstract. This paper addresses the scarcity of digital resources between the Uzbek and Turkmen languages and investigates the automatic translation of technical texts within the educational domain. As part of the research, a specialized Uzbek-Turkmen parallel corpus consisting of 11,000 unique sentences was developed based on 5th–11th-grade computer science textbooks. This corpus was used to fine-tune Google’s multilingual mT5 (Multilingual T5) architecture. Experimental results demonstrate that despite the relatively small size of the resource, the model achieved high accuracy in learning terminological patterns and syntactic structures specific to the ICT sector. The model's performance was evaluated using BLEU and chrF++ metrics and compared against general-purpose online machine translation systems.

Keywords: Natural Language Processing (NLP), machine translation, parallel corpus, mT5 model, computer science textbooks, low-resource languages, fine-tuning.

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема нехватки цифровых ресурсов между узбекским и туркменским языками, а также исследуются вопросы автоматического перевода технических текстов в сфере

образования. В рамках исследования на основе учебников по информатике для 5–11 классов был создан специализированный узбекско-туркменский параллельный корпус, состоящий из 11 000 уникальных предложений. Данный корпус был использован для тонкой настройки (fine-tune) многоязычной архитектуры mT5 (Multilingual T5) от компании Google. Результаты экспериментов показали, что, несмотря на относительно небольшой объем ресурса, терминологические шаблоны и синтаксические структуры в области ИКТ были усвоены с высокой точностью. Качество модели оценивалось с помощью метрик BLEU и chrF++, а также сопоставлялось с онлайн-переводчиками общего назначения.

Ключевые слова: Обработка естественного языка (NLP), машинный перевод, параллельный корпус, модель mT5, учебники по информатике, малоресурсные языки, тонкая настройка.

I. KIRISH.

Hozirgi kunda sun’iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalari jahon miqyosida jadal rivojlanmoqda. Biroq, tillarning raqamli dunyodagi ulushi bir xil emas. Ingliz, ispan yoki xitoy tillari yirik matnli resurslarga (high-resource) ega bo‘lgan bir paytda, Markaziy Osiyo xalqlari tillari, xususan o‘zbek va turkman tillari o‘rtasidagi raqamli resurslar, ayniqsa parallel korpuslar hanuzgacha yetarli darajada shakllanmagan (low-resource).

O‘zbek va turkman tillari Turkiy tillar oilasining turli guruhlariga (O‘g‘uz va Qarluq-Xorazm) mansub bo‘lsa-da, ularning tipologik va grammatik qurilishi (agglyutinativlik, gap oxirida kesimning kelishi – SOV qolipi) bir-biriga juda yaqin. Ushbu yaqinlik mashinali tarjima modellarini o‘qitishda cross-lingual transfer (tillararo bilim ko‘chirish) usullaridan samarali foydalanishga zamin yaratadi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi ta’lim tizimini raqamlashtirish va darsliklarni qardosh tillarga tezkor hamda sifatli tarjima qilish zarurati bilan belgilanadi. Maqolada 5-11-sinf informatika darsliklari asosida o‘zbekcha-turkmancha ixtisoslashgan parallel korpus yaratish bosqichlari va ushbu ma’lumotlar bazasining mT5 neyron modeli transfer learning imkoniyatlariga ta’siri yoritiladi.

TADQIQOTLAR.

Neyron mashinali tarjima (NMT) sohasida Transformer arxitekturasining paydo bo‘lishi (Vaswani et al., 2017) tarjima sifatini tubdan o‘zgartirdi. Resursi kam tillar uchun esa Google tomonidan taqdim etilgan mT5 (Multilingual T5) modeli (Xue et al., 2021) "matndan-matnga" (text-to-text) konsepsiyasi asosida bir nechta vazifalarni, jumladan tarjimani ham muvaffaqiyatli bajarib kelmoqda.

ISSN 3030-3907

Turkiy tillar bo‘yicha NLP tadqiqotlarida asosan turk, ozarbayjon va qozoq tillariga urg‘u berilgan. O‘zbek-turkman tili juftligi uchun parallel matnlar va tarjima modellarini yaratish bo‘yicha tizimli ilmiy ishlar deyarli mavjud emas. Ko‘p tilli yirik modellar (masalan, Meta NLLB-200 yoki Google Translate) ushbu tillarni qo‘llab-quvvatlasada, ular informatika kabi tor sohalarga ixtisoslashmaganligi sababli ko‘pincha terminologik xatoliklarga yo‘l qo‘yadi.

METODOLOGIYA VA PARALLEL KORPUS YARATISH.

Tadqiqotning eng muhim amaliy qismi - o‘rta maktab darsliklari asosida parallel matnlarni yig‘ish va ularga ishlov berish hisoblanadi.

1. Ma’lumotlarni yig‘ish va raqamlashtirish

O‘zbekiston va Turkmaniston umumta’lim maktablarining 5-11-sinflari uchun mo‘ljallangan “Informatika va axborot texnologiyalari” darsliklarining elektron (PDF) versiyalari yig‘ildi. Matnlarni ajratib olishda dasturlash kodlari, matematik formulalar va grafik elementlar ajratib tashlandi yoki maxsus tokenlar bilan belgilandi.

2. Gaplarni moslashtirish (Sentence Alignment)

Ajratib olingan matnlar paragraflar va gaplar darajasida bo‘laklandi. O‘zbekcha va turkmancha gaplarni bir-biriga juftlash (alignment) jarayoni yarim-avtomatlashtirilgan usulda amalga oshirildi. Dastlab *Hunalign* vositasi yordamida dastlabki juftliklar hosil qilindi, so‘ngra qo‘lda tekshirilib, imloviy xatolar va noto‘g‘ri moslashishlar korreksiya qilindi.

Natijada 11 000 ta toza parallel gap juftligi shakllantirildi. Korpusning lingvistik statistikasi quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

1-Jadval

Ko‘rsatkich / Parametr	O‘zbek tili (Lotin)	Turkman tili (Lotin)
Umumiy gaplar soni	11,000	11,000
Jami so‘zlar (Tokens)	*165,000*	*158,000)*
Unikal so‘zlar (Vocabulary)	*14,000*	*~15,500*

EKSPERIMENT VA MODELNI O‘QITISH

Eksperiment uchun asos sifatida mT5-base modeli tanlab olindi. Ushbu model 101 ta tilda oldindan o‘qitilgan bo‘lib, uning tarkibida o‘zbek va turkman tillarining boshlang‘ich lug‘at qatlamlari mavjud.

1. Ma’lumotlarni taqsimlash

Yaratilgan 11 000 ta parallel gap tasodifiy ravishda quyidagi proporsiyada uchta qismga ajratildi:

- O‘qitish to‘plami (Train set): 8,800 gap (80%)
- Validatsiya to‘plami (Validation set): 1,100 gap (10%)
- Test to‘plami (Test set): 1,100 gap (10%)

ISSN 3030-3907

2. Prompt muhandisligi va Hiperparametrlar

T5 modelining arxitekturasiga mos ravishda, har bir kiruvchi o‘zbekcha gapning boshiga vazifani anglatuvchi prefiks qo‘shildi: “translate Uzbek to Turkmen: [Matn]”. Modelni fine-tune qilish jarayoni bitta NVIDIA A100 (yoki RTX 4090) grafik protsessorida, PyTorch va Hugging Face Transformers kutubxonalari yordamida amalga oshirildi.

Modelni o‘qitish parametrlari:

- Optimizer: AdamW
- Learning Rate: 2×10^{-5}
- Batch Size: 16
- Epochs: 8
- Tokenizator: SentencePiece

NATIJALAR VA TAHLIL.

Modelning tarjima sifati avtomatik va insoniy (human evaluation) baholash usullari orqali tekshirildi. Baseline (taqqoslash asosi) sifatida Google Translate xizmati olindi.

1. Avtomatik baholash natijalari

Test to‘plamidagi 1100 ta gap modelga berildi va olingan natijalar mos ravishda BLEU va chrF++ metrikalari bo‘yicha hisoblandi:

2-Jadval

Model nomi	BLEU ball	chrF++ ball
Google Translate (Umumiy)	26.4	44.2
mT5 (Fine-tuned)	38.5	59.1

Natijalardan ko‘rinib turibdiki, bizning ixtisoslashtirilgan mT5 modelimiz Google Translate-ga qaraganda ancha yuqori ko‘rsatkich qayd etgan. Buning asosiy sababi - Google tarjimonining informatika darsliklaridagi o‘ziga xos ilmiy til uslubiga moslashmaganligidir.

2. Sifat analizi

Quyidagi jadvalda darslikdan olingan aniq misol orqali modellarning tarjima sifati solishtirilgan:

- Asl matn (O‘zbekcha): *"Dasturdagi o‘zgaruvchilar e’lon qilingandan so‘ng xotiradan joy ajratiladi."*
- Etanlon tarjima (Turkmancha): *"Programmadaky üýtgeýän ululyklar yglan edilenden soň ýatdan ýer bölünip berilýär."*
- Google Translate: *"Programmadaky üýtgeýänler mälim edilenden soň hakydada ýer bolar."* (Ma’no biroz g‘aliz, “xotira” so‘zi noto‘g‘ri kontekstda olingan).

ISSN 3030-3907

• mT5 (Bizning model): *"Programmadaky üýtgeýän ululyklar yglan edilenden soň ýatdan ýer bölünip berilýär."* (Mukammal terminologik moslik).

3. Modelning cheklovlari (Limitations)

11 000 ta gap axborot texnologiyalari terminlarini o‘rgatishga yetsa-da, modelda “Domain Overfitting” holati kuzatildi. Ya’ni, modelga informatika sohasiga aloqador bo‘lmagan umumiy gaplar (masalan: *"Men bugun bozorga bordim"*) berilganda, u tarjimani kompyuter texnologiyalari terminlariga bog‘lashga urinish yoki harflarni noto‘g‘ri generatsiya qilish (hallyusinatsiya) kabi kamchiliklarni namoyish etdi.

XULOSA.

Ushbu tadqiqot resursi kam bo‘lgan o‘zbek va turkman tillari o‘rtasida muayyan bir soha (informatika darsliklari) misolida neyron mashinali tarjima modelini muvaffaqiyatli qurish mumkinligini ko‘rsatdi. Yaratilgan 11 000 ta parallel gap mT5 modelini o‘zbekcha-turkmancha texnik matnlarga moslashtirish uchun yetarli baza bo‘la olishi va BLEU reytingida 38.5 ballik yuqori natija berishi amalda isbotlandi.

Kelajakdagi tadqiqotlar doirasida korpus hajmini boshqa maktab darsliklari (matematika, fizika, kimyo) hisobiga kengaytirish va modelning umumiy tarjima savodxonligini oshirish uchun Back-translation (teskari tarjima) usullaridan foydalanish rejalashtirilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Vaswani, A., Shazeer, N., Parmar, N., Uszkoreit, J., Jones, L., Gomez, A. N., ... & Polosukhin, I. (2017). Attention is all you need. Advances in neural information processing systems, 30.
2. Xue, L., Constant, N., Roberts, A., Kale, M., Al-Rfou, R., Siddhant, A., ... & Raffel, C. (2021). mT5: A massively multilingual pre-trained text-to-text transformer. Proceedings of the 2021 Conference of the North American Chapter of the Association for Computational Linguistics.
3. Papineni, K., Roukos, S., Ward, T., & Zhu, W. J. (2002). BLEU: a method for automatic evaluation of machine translation. Proceedings of the 40th annual meeting of the Association for Computational Linguistics.

ISSN 3030-3907

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING ELEKTROTEXNIKA VA ENERGETIKA SOHASIDA QO‘LLANILISHI

Shukurov Begzod O‘ktam o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti o‘qituvchi
Kurbanova Munisakhon Sandjar qizi
Qarshi davlat texnika universiteti magistr
Buxorov Habibullo Jahongir o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti talaba
Eshtemirov Jamshidbek Olimjon o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti talaba
O‘rolov Dilshod Baxriddin o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti talaba

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining elektrotexnika va energetika sohalarida qo‘llanilish imkoniyatlari, ularning energiya samaradorligini oshirishdagi ahamiyati hamda aqlli elektr tarmoqlarini boshqarishdagi o‘rni tahlil qilingan. Energetika tizimlarida prognozlash, monitoring, diagnostika va avtomatlashtirish jarayonlarida sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari yoritilgan. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalari elektr energiyasi yo‘qotishlarini kamaytirish, elektr ta’minoti ishonchliligini oshirish va energiya resurslaridan samarali foydalanishda muhim vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, elektrotexnika, energetika, Smart Grid, mashinaviy o‘qitish, energiya samaradorligi, avtomatlashtirish, diagnostika.

Аннотация. В данной статье проанализированы возможности применения технологий искусственного интеллекта в области электротехники и энергетики, а также их значение в повышении энергоэффективности и роль в управлении интеллектуальными электрическими сетями. Рассмотрены преимущества использования искусственного интеллекта в процессах прогнозирования, мониторинга, диагностики и автоматизации энергетических систем. Результаты исследования показывают, что технологии искусственного интеллекта являются важным инструментом для снижения потерь электрической энергии, повышения надежности электроснабжения и эффективного использования энергетических ресурсов.

Ключевые слова: искусственный интеллект, электротехника, энергетика, Smart Grid, машинное обучение, энергоэффективность, автоматизация, диагностика.

Abstract. This article analyzes the potential applications of artificial intelligence technologies in electrical engineering and the energy sector, as well as their

ISSN 3030-3907

significance in improving energy efficiency and their role in the management of smart electrical grids. The advantages of using artificial intelligence in forecasting, monitoring, diagnostics, and automation processes within energy systems are discussed. The research results demonstrate that artificial intelligence technologies are an important tool for reducing electrical energy losses, increasing the reliability of power supply, and ensuring efficient use of energy resources.

Keywords: artificial intelligence, electrical engineering, energy sector, Smart Grid, machine learning, energy efficiency, automation, diagnostics.

KIRISH.

Dunyo miqyosida elektr energiyasiga bo‘lgan talabning ortib borishi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining keng joriy etilishi hamda energiya resurslaridan oqilona foydalanish zarurati energetika sohasida zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo‘llashni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan sun’iy intellekt texnologiyalari energetika va elektrotexnika tizimlarini boshqarishning istiqbolli vositalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda elektr energetika tizimlari millionlab iste’molchilar, minglab elektr stansiyalari va uzatish tarmoqlaridan tashkil topgan murakkab tizim hisoblanadi. Bunday tizimlarni samarali boshqarish uchun katta hajmdagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash talab etiladi. Sun’iy intellekt texnologiyalari aynan shu vazifalarni bajarish imkonini beradi.

Sun’iy intellektning energetikadagi o‘rni. Sun’iy intellekt texnologiyalari energetika tizimlarida ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, mashinaviy o‘qitish algoritmlari elektr yuklamalarini prognozlash, energiya iste’molini tahlil qilish va elektr tarmoqlaridagi nosozliklarni aniqlashda yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda. Elektr energiyasi iste’moli yil davomida turli omillar ta’sirida o‘zgarib turadi. Ob-havo sharoiti, sanoat korxonalarining faoliyati va aholi sonining o‘sishi elektr yuklamalariga bevosita ta’sir qiladi. Sun’iy intellekt algoritmlari ushbu omillarni hisobga olgan holda elektr energiyasi iste’molini oldindan prognozlaydi va energiya ishlab chiqarishni optimallashtirishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, statistik ma’lumotlarni umumlashtirish va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Energetika sohasida sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi bo‘yicha xalqaro tajribalar o‘rganildi.

Tahlil jarayonida quyidagi yo‘nalishlar asosiy obyekt sifatida tanlandi:

- Smart Grid tizimlari;
- energiya iste’molini prognozlash;
- elektr uskunalarining diagnostikasi;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalari;

ISSN 3030-3907

- sanoat energetikasi.


Aqlli elektr tarmoqlari (Smart Grid).Smart Grid texnologiyasi zamonaviy energetikaning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiya elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va iste’mol qilish jarayonlarini raqamli boshqarish imkonini beradi.

Smart Grid tizimlarida sun’iy intellekt:

- energiya oqimlarini boshqaradi;
- yuklamalarni muvozanatlashtiradi;
- avariyalarni oldindan aniqlaydi;
- energiya yo‘qotishlarini kamaytiradi;
- elektr energiyasi sifatini nazorat qiladi.

Natijada elektr ta’minotining ishonchliligi sezilarli darajada oshadi.

Energiya samaradorligining o‘sish dinamikasi .Turli tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalarini energetika tizimlariga joriy etish energiya samaradorligining yil sayin oshishiga xizmat qilmoqda.



1-rasm

Grafik natijalari sun’iy intellekt texnologiyalarining energetika tizimlariga bosqichma-bosqich joriy etilishi energiya samaradorligini oshirishga xizmat qilayotganligini ko‘rsatadi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarida sun’iy intellekt. Quyosh va shamol energetikasining rivojlanishi energiya ishlab chiqarishning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Biroq ushbu energiya manbalari tabiiy omillarga bog‘liq bo‘lgani sababli ishlab chiqarish hajmi doimiy emas.

Sun’iy intellekt texnologiyalari:

- ob-havo ma’lumotlarini tahlil qiladi;
- energiya ishlab chiqarishni prognozlaydi;
- energiya saqlash tizimlarini boshqaradi;

ISSN 3030-3907

- invertorlarning optimal ishlashini ta’minlaydi.

Bu esa qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Elektr uskunalarining diagnostikasi. Transformatorlar, generatorlar va elektr dvigatellarining texnik holatini nazorat qilish energetika tizimlarining ishonchliligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Sun’iy intellekt asosidagi monitoring tizimlari:

- haroratni nazorat qiladi;
- vibratsiyalarni tahlil qiladi;
- elektr parametrlarini kuzatadi;
- nosozliklarni oldindan aniqlaydi.

Natijada uskunalarning xizmat muddati uzayadi va avariyalar soni kamayadi

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalarining energetika tizimlariga joriy etilishi energiya samaradorligini oshirish, energiya yo‘qotishlarini kamaytirish va elektr ta’minotining ishonchliligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, Smart Grid texnologiyalari bilan integratsiyalashgan sun’iy intellekt tizimlari elektr energiyasidan oqilona foydalanish imkonini yaratadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari elektrotexnika va energetika sohalarining raqamli transformatsiyasida muhim o‘rin tutadi. Ular energiya iste’molini prognozlash, elektr uskunalarini diagnostika qilish, Smart Grid tizimlarini boshqarish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Kelajakda sun’iy intellekt texnologiyalarining yanada rivojlanishi energetika tizimlarining to‘liq avtomatlashtirilishi va energiya resurslaridan foydalanish samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson, 2021.
2. Rashid M.H. Power Electronics Handbook. Academic Press, 2018.
3. Chapman S.J. Electric Machinery Fundamentals. McGraw-Hill, 2020.
4. Glover J.D. Power System Analysis and Design. Cengage Learning, 2021.
5. Wildi T. Electrical Machines, Drives and Power Systems. Pearson, 2019.
6. Goodfellow I. Deep Learning. MIT Press, 2018.
7. Haykin S. Neural Networks and Learning Machines. Pearson, 2019.
8. IEC Smart Grid Standardization Report, 2023.
9. IEA Digitalization and Energy Report, 2024.
10. World Energy Outlook, 2024.
11. Aripov X.K. Elektronika asoslari. Toshkent, 2022.

ISSN 3030-3907

12. Majidov S.M. Elektrotexnika nazariy asoslari. Toshkent, 2021.
13. Kothari D.P. Modern Power System Analysis. 2021.
14. Kundur P. Power System Stability and Control. 2019.
15. Liu C.C. Smart Grid Handbook. Wiley, 2022.
16. IEEE Transactions on Smart Grid, 2023.
17. Energy Reports Journal, 2024.
18. Renewable Energy Journal, 2024.
19. International Journal of Electrical Power & Energy Systems, 2023.
20. Sustainable Energy Technologies and Assessments, 2024.
21. Shouket, H. A., Ameen, I., Tursunov, O., Kholikova, K., Pirimov, O., Kurbonov, N., ... & Mukimov, B. (2020, December). Study on industrial applications of papain: A succinct review. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 614, No. 1, p. 012171). IOP Publishing.
22. Usmanov, E., Rajabboeva, A., Kurbonov, N., & Kurbanova, K. (2024, June). Operational logic scheme of the sketch base for an educational simulator in the fundamentals of power supply. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3152, No. 1, p. 050029). AIP Publishing LLC.
23. Turdiboyev, A., Aytbaev, N., Mamutov, M., Tursunov, A., Toshev, T., & Kurbonov, N. (2023, March). Study on application of electrohydraulic effect for disinfection and increase of water nutrient content for plants. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1142, No. 1, p. 012027). IOP Publishing.
24. Abdullayevich, Q. N. Muzaffar o‘g‘li, NT (2024). NORMALIZATION MODES OF HYDROGENERATORS. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(25), 368-371.
25. Abdullayevich, Q. N. (2023). REACTIVE POWER COMPENSATION. IMRAS, 6(6), 506-508.
26. Abdullayevich, Q. N. Almardon o‘g‘li, NA, & Bahodir o‘g, QOA (2024). INFLUENCE OF ELECTRICAL ENERGY QUALITY ON ELECTRICAL ENERGY WASTE. Научный Фокус, 1(9), 786-789.
27. Abdullayevich, K. N. (2024). ЭНЕРГИЯНИ ТЕЖАШ ВА ЭНЕРГИЯ САМАРАДОРЛИГИ СОҲАСИДА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИ БОШҚАРИШДА ЛОЙИҲА ЁНДАШУВИДАН ФОЙДАЛАНИШ. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(25), 363-367.
28. Abdullayevich, Q. N., & Qizi, Q. M. S. (2023). Ways to Reduce Losses in Power Transformers. Texas Journal of Engineering and Technology, 20, 36-37.

ISSN 3030-3907

29. Mahmutxonov, S. J., Qurbonov, N., & Babayev, O. (2022). ELEKTR TARMOQLARIDA SIFAT KO ‘RSATKICHLARI VA ISROFLAR. Innovatsion texnologiyalar, 47, 14-15.
30. Abdullayevich, K. N. (2024). ЭЛЕКТР ЭНЕРГИЯ СИФАТИНИ ЭЛЕКТР ЭНЕРГИЯ ИСРОФИГА ТАЪСИРИ. PEDAGOG, 7(9), 183-188.
31. Abdullayevich, K. N., & Olimjon o‘g‘li, E. J. (2024). Using consumer-regulators to equalization of electrical energy system load schedule. Journal of Multidisciplinary Bulletin, 7(4), 25-29.
32. Abdullayevich, K. N. (2024). Analysis and evaluation of the effectiveness of energy saving in industrial enterprises. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(28), 75-81.
33. Курбонов, Н. А., Халикова, Х. А., & Неъматов, Б. А. О. (2024). ВОПРОСЫ ПАРАЛЛЕЛЬНЫЕ РАБОТЫ ЭНЕРГОСИСТЕМЫ АФГАНИСТАНА, УЗБЕКИСТАНА И ТАДЖИКИСТАНА С УЧЕТОМ НОВОГО СТРОИТЕЛЬСТВА. Eurasian Journal of Academic Research, 4(6-1), 37-41.
34. Abdullayevich, Q. N., & Elmurodovich, B. O. (2023). ПРОВЕДЕНИЕ ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ ПО ЭЛЕКТРИЧЕСКИМ СХЕМАМ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(7), 1006-1010.
35. Abdullayevich, Q. N. (2023). REDUCING ELECTRICITY LOSSES IN ELECTRICAL DISTRIBUTION NETWORKS DUE TO MULTICRITERIA OPTIMIZATION OF LINE SECTIONS. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(28), 275-279.
36. Abdullayevich, K. N. (2024). ОЦЕНКА ВЛИЯЮЩИХ ФАКТОРОВ НА ПОКАЗАТЕЛИ УДЕЛЬНОГО РАСХОДА ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИИ. PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE, 2(13), 531-536.
37. Abdullayevich, K. N. (2024). ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЙ МОНИТОРИНГ РЕЖИМОВ ЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СЕТЕЙ. Новости образования: исследование в XXI веке, 3(26), 203-208.
38. Abdullayevich, K. N., & Abduzairovna, N. M. (2024). ЭЛЕКТР ТАЪМИНОТИ ТИЗИМИДА РАҚАМЛИ ПОДСТАНЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 4(9), 71-75.
39. Abdullayevich, K. N. (2024). НОРМАТИВНЫЕ ПОТЕРЬ ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ В РАСПРЕДЕЛИТЕЛЬНЫХ СЕТЯХ 10, 6 и 0, 4 кВ. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(21), 55-60.

ISSN 3030-3907

40. Abdullayevich, Q. N., & Ikrom o‘g, T. A. A. (2023). Efficiency OF Use OF Frequency Converter with Smooth Control OF Asynchronous Motor Speed. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(5), 448-449.
41. Abdullayevich, K. N., O‘G‘Li, M. F. A., O‘G‘Li, E. J. O., & O‘G‘Li, P. A. B. (2024). MARKOV ZANJIRI USULI VA O ‘LCHANGAN SHAMOL TEZLIKLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA YANGI SHAMOL TEZLIKLARINI BASHORAT QILISH. Eurasian Journal of Academic Research, 4(11-2), 7-12.
42. Abdullayevich, K. N., Akrom o‘g, N. M. B., & Olimjon o‘g‘li, E. J. (2024). Functions of facts devices with innovation technology in the electrical energy system. Journal of Engineering Sciences, 7(5), 12-16.
43. Abdullayevich, K. N., & Abdullayevna, X. X. (2024). EFFECTIVENESS OF USING A FREQUENCY CONVERTER WITH SMOOTH SPEED CONTROL OF AN INDUCTION MOTOR. Новости образования: исследование в XXI веке, 3(27), 151-154.
44. Abdullayevich, K. N. Shuhrat o‘g‘li, OS, & Olimjon o‘g‘li, EJ (2024). STRUCTURE OF LOW VOLTAGE ELECTRICAL NETWORKS. AMERICAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 2(5), 112-119.
45. Abdullayevich K. N., Tulqin o‘g‘li X. M., Mansur o‘g‘li C. D. УМЕНЬШЕНИЕ ПОТЕРЬ ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ В РАСПРЕДЕЛИТЕЛЬНЫХ ЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СЕТЯХ ЗА СЧЕТ МНОГОКРИТЕРИАЛЬНОЙ ОПТИМИЗАЦИИ СЕЧЕНИЙ ЛИНИЙ //IMRAS. – 2025. – Т. 8. – №. 3. – С. 35-43.
46. Shouket, H. A., Ameen, I., Tursunov, O., Kholikova, K., Pirimov, O., & Kurbonov, N. & Mukimov, B.(2020, December). Study on industrial applications of papain: A succinct review. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 614, No. 1, p. 012171).
47. Abdullayevich K. N. et al. ВОПРОСЫ ПАРАЛЛЕЛЬНЫЕ РАБОТЫ ЭНЕРГОСИСТЕМЫ АФГАНИСТАНА, УЗБЕКИСТАНА И ТАДЖИКИСТАНА С УЧЕТОМ НОВОГО СТРОИТЕЛЬСТВА //Eurasian Journal of Academic Research. – 2024. – Т. 4. – №. 6-2. – С. 19-23.
48. Abdullayevich Q. N. CONDUCTING LABORATORY CLASSES ON ELECTRICAL CIRCUITS. Finland International Scientific Journal of Education //Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 1. – С. 1095-1098.
49. Abdullayevich K. N., Mansur o‘g‘li C. D. МЕТОДЫ И МЕРЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ В СИСТЕМЕ НАРУЖНОГО ОСВЕЩЕНИЯ ГОРОДА //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2025.

ISSN 3030-3907

50. Abdullayevich K. N., Shuhrat o‘g‘li O. S., Olimjon o‘g‘li E. J. STRUCTURE OF LOW VOLTAGE ELECTRICAL NETWORKS //AMERICAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 112-119.

“HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA EKOLOGIYA” FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich
Peshku tuman 2-son politexnikumi direktor o‘rinbosari
Tursunova Nargiza Nigmatovna
Buxoro davlat texnika universiteti “Sanoat ekologiyasi” kafedrasi dotsenti
E-mail: nnntursunova@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada «Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya» fanidan axborot-metodik ta’minotni takomillashtirishning integrativ modeli, talabalarning integratsiyalashgan axborot-metodik ta’minotdan foydalanish bosqichlari va o‘qitish jarayoni, «Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya» fanini o‘qitishda integrativ texnologiyalar asosida axborot-metodik ta’minotdan foydalanish texnologiyasi bayon etilgan. Ushbu fanni o‘qitishda integrativ texnologiyalar asosida axborot-metodik ta’minotni takomillashtirish metodikasi masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari fanni o‘qitish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar bilan asoslangan.

Kalit so‘zlar: hayot faoliyati xavfsizligi, ekologiya, o‘qitish metodikasi, o‘qitish shakllari, interfaol metodlar, integrativ texnologiyalar, modul-kredit tizimi, nazorat turlari, axborot-metodik ta’minot.

Аннотация. В настоящей научной статье изложена интегративная модель совершенствования информационно-методического обеспечения по дисциплине» безопасность жизнедеятельности и экология«, этапы и учебный процесс использования учащимися интегрированного информационно-методического обеспечения, технология использования информационно-методического обеспечения на основе интегративных технологий при преподавании дисциплины «Безопасность жизнедеятельности и экология». При преподавании этой дисциплины проанализированы вопросы методики совершенствования информационно-методического обеспечения на основе интегративных технологий. Результаты исследования обоснованы научно-методическими рекомендациями по повышению эффективности преподавания предмета.

Ключевые слова: безопасность жизнедеятельности, экология, методика обучения, формы обучения, интерактивные методы, интегративные технологии, модульно-кредитная система, виды контроля, информационно-методическое обеспечение.

Abstract. This scientific article describes the Integrative model of improving information and methodological support in the subject “Safety and ecology of life activities”, stages and training of students using integrated information and

ISSN 3030-3907

methodological support, the technology of using information and methodological support on the basis of integrative technologies in teaching “Safety of life activities and ecology”. In the teaching of this discipline, the issues of the methodology for improving information and methodological support on the basis of integrative technologies are analyzed. The results of the study are based on scientific and methodological recommendations for improving the effectiveness of teaching science.

Keywords: safety of life activities, ecology, teaching methodology, forms of training, interactive methods, integrative technologies, module-credit system, types of control, information and methodological support.

KIRISH.

Jahonda zamonaviy texnologiyalar kun sayin rivojlanib, axborotlashtirish jarayoni tez sur’atlar bilan o‘sib borayotgan hozirgi davrda ta’lim sohasida axborot resurslaridan foydalanishga dunyo hamjamiyati katta e’tibor qaratmoqda. Jumladan, ta’lim muhitini axborotlashtirish, vizual modellashtirish, multimediali resurslar va imitasion modellashtirish texnologiyalari asosida masofali o‘qitish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI. O‘tkazilgan izlanishlar asosida biz “Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya” fanini o‘qitish metodikasini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirilgan modeli ishlab chiqildi va uning har bir komponenti mazmuni ochib berildi. Ushbu modelga muvofiq, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bakalavriat yo‘nalishi malaka talablari, DTS, o‘quv reja, fan dasturlari va ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqqan holda umumkasbiy fanlarini o‘qitish jarayonida o‘quv-metodik ta’minoti, masofaviy o‘qitish, topshiriqlar tizimi va baholash zamon talabiga mos ravishda oliy ta’lim muassasalarida o‘tilishi ko‘zda tutilgan modul-kredit tizimiga o‘tishi inobatga olingan bo‘lishi kerak. Bundan kelib chiqib, fanga oid darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, oflayn elektron darsliklar, modellar va tayyor namunalar, animatsiyalar va virtual ko‘rgazmalar natijasida talabalarni motivatsiyasini oshirish, rejalashtirishga yo‘naltirish va kreativlik qobiliyatlarini ko‘rsatishga undash masofaviy tizimlarni yo‘lga qo‘yish, fanni nafaqat auditoriya yoki oliy ta’lim muassasasi chegarasida chiqarib globallashuvga erishishga olib keladi (1-rasmga qarang).

Ushbu modelning tizimni tashkil etuvchi komponenti, uning “yadrosi” maqsadli komponent bo‘lib, uning atrofida qolgan komponentlar qurilgan. Maqsadli komponent axborot-metodik ta’minotning yo‘nalishini, uning mazmuni, texnologiyalari va natijalarini baholashni belgilaydigan strategik va taktik maqsadlarni belgilash orqali amalga oshiriladi. Maqsadli komponentda ijtimoiy buyurtma, maqsad va vazifalar kabi elementlarni ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir.


ISSN 3030-3907

Modelning ikkinchi komponenti axborot-metodik blok bo‘lib, integrativ texnologiyalar asosida axborot-metodik ta’minotni takomillashtirish asosiy vazifa hisoblanadi. Biz bilamizki, zamonaviy ta’lim resurslari yildan-yilga takomillashib rivojlanib kelmoqda [2].

Modelning uchinchi komponenti mazmunli blokda fanni o‘qitish jarayoni (mazmunli jarayon) va talabaning semestr davomida bajaradigan ishlari (shakliy jarayon) qismlariga ajratilgan. Mazmunli jarayon fanning me’yoriy hujjatlarini rasmiylashtirishdan boshlab talabani baholash va natijalarni tahlil qilishgacha bo‘lgan jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Mazmunli jarayonning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

- «Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya» fanini o‘qitish metodikasi fanlaridan o‘quv-me’yoriy hujjatlarni kredit-modul tizimi asosida ishlab chiqish;
- «Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya» fanini o‘qitish metodikasi fanlaridan axborot uslubiy ta’minot (AUT)ning bazaviy o‘quv materiallarini integrativ texnologiyalar asosida takomillashtirish;
- fan bo‘yicha elektron ta’lim resurs (ETR)lari ishlab chiqish va talabalar foydalanishini ta’minlash;
- on-line rejimda videoma’ruza, forumlar va amaliy topshiriqlarni tashkil etish;
-on-line rejimda talabalar bilan maslahatlar tashkil etish;
- talabalarni baholash va natijalarni tahlil qilish.

ISSN 3030-3907



1-rasm. “Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya” fanini o‘qitish metodikasini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirilgan modeli

Ikkinchi yo‘nalish - o‘quv, elektron ta’lim orqali talabalarni tayyorlash jarayonini metodik ta’minlash. Quyidagi tadbirlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- o‘qitish shakllari, usullari, tamoyillar va vositalarini belgilash;
- axborot ta’lim resurslarini ishlab chiqish, yangilash va ulardan masofaviy foydalanishni ta’minlash;

ISSN 3030-3907

- individual ta’lim trayektoriyasini tayyorlashda maslahat berish;
- o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotini boshqarish;
- kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlarni boshqarish;
- kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish va kompetensiyani rivojlantirish darajasini baholash va boshqalar.

Modelning natijaviy blokida baholash jarayoni: mezonlar, shakllar, darajalar tavsiflangan [3].

«Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya» fanini o‘qitish metodikasini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirilgan modelini sinovdan o‘tkazish maqsadida moodle – ta’limni boshqarish tizimi joriy qilindi hamda talabalar uchun «Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya» fanidan elektron o‘quv kursi yaratildi. Biz tomonimizdan masofaviy ta’lim uchun **tx-modul.uz** platformasi ishlab chiqildi. Talaba ta’lim resurslarining bosma shakllaridan tez va unumli foydalanishi uchun resurslarga murojaat xaritasi o‘qituvchi tomonidan puxta ishlab chiqilishi kerak. Albatta, bu jarayon elektron ta’lim resurslarida ham inobatga olishi kerak. Talaba bitta oddiy harakati bilan mavzu yoki tayanch tushuncha manbasidan foydalana olishi kerak. Shularni inobatga olgan holda, talabalar uchun sifatli, aniq va integrativ elektron o‘quv kursini yaratish va undan foydalanish talab etiladi. Elektron o‘quv kursini yaratishda talabaga o‘quv peredmetlarini to‘liq onlayn o‘qish imkoniyati ham berilishini inobatga olish zarur. Bu jarayon to‘liq o‘qituvchi nazorati va kuzatuvi asosida olib borilishi kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. «Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya» fanini o‘qitish metodikasini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish – didaktik prinsiplarga asoslangan mazkur fandan bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan mustaqil faoliyat yuritishga yo‘naltirilgan elektron ta’lim resurslari bilan boyitilgan ta’lim jarayonining shakli tushuniladi.

Topshiriqlar, ishlash rejimlari va zamonaviy messenjer botlari imkoniyatlaridan foylanib, biz talabalarni doimiy faolligi hamda baholanish natijasi kreditlarga erishishi asoslandi.

Oliy ta’lim jamiyat va davlat ehtiyojlariga mos ravishda ijtimoiy foydali faoliyatning barcha asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashni, shaxsning intellektual, madaniy va axloqiy rivojlanishiga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishni, ta’limni chuqurlashtirish va kengaytirishni, shuningdek, yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ta’minlashga qaratilgan. Ushbu maqsadga muvofiq axborot-metodik ta’minot axborot jamiyatida talabalarni tayyorlash jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, bunga bir qator vazifalarni hal qilish orqali erishiladi:

- elektron ta’lim sharoitida talabalarni tayyorlash jarayonining uzluksizligini ta’minlash;

ISSN 3030-3907

- talabalarni tayyorlash jarayonining barcha ishtirokchilarining o‘zaro hamkorligini ta’minlash;

- tayyorgarlik jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirish;

- fanning axborot-metodik ta’minotini takomillashtirish orqali ta’lim sifatini oshirishga erishish;

- talabalar uchun qiyin o‘quv va hayotiy vaziyatlar bilan bog‘liq tayyorgarlik jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarning oldini olish va hal qilish [4].

«Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya» fanini o‘qitishda integrativ texnologiyalar asosida axborot-metodik ta’minotni takomillashtirish samaradorligini tajribaviy tekshirish va baholash Buxoro, Qarshi, Navoiy viloyati texnikumlarida amalga oshirildi.

Ta’lim muassasalarini tanlash quyidagi omillarga asoslandi. Ushbu ta’lim muassasalarida «Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya» fanining axborot-metodik ta’minotini takomillashtirish jarayonini amalga oshiruvchi elektron ta’lim platformalarini yaratish va qo‘llash sohasidagi innovatsion ishlanmalar qo‘llab-quvvatlanishi; ularda moddiy-texnik baza va pedagogik shart-sharoitlar mavjudligi, o‘quv jarayonining kompyuter ta’minoti yetarli darajada ekanligi inobatga olindi.

«Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya» fani uchun yaratilgan elektron o‘quv kursi Moodle tizimiga o‘rnatildi va ekperiment uchun ajratib olingan guruhlar kursga a’zo qilindi. Elektron kurs fan tarkibidan tashqari elektron kutubxona, o‘qituvchilar ilmiy ishlari bazasi, videokonferensiya, ijtimoiy tarmoq (telegram) va boshqa qo‘shimcha elementlar integratsiya qilindi va o‘qituvchi hamda talabalarga maxsus ko‘rsatmalar berildi.

1-jadval.


Nazorat va tajriba guruhlarida amaliy topshiriqlar hamda testlar bo‘yicha belgilangan mezonlar asosida olingan umumiy natijalar ko‘rsatkichlari

Nazorat nomi	Talaba soni	Test va amaliy topshiriqlar bo‘yicha talabalar bilim darajalari							
		A’lo (5 baho)		Yaxshi (4 baho)		Qoniqarli (3 baho)		Qoniqarsiz (2 baho)	
		TB	TO	TB	TO	TB	TO	TB	TO
Nazorat guruhi	155	15	20	27	30	106	100	7	5
Tajriba guruhi	164	33	40	60	70	67	53	4	1

Nazorat va tajriba-sinov guruhlarining natijalari muntazam tahlil etildi va bir-biriga qiyoslanib, xulosa chiqarildi. Zarur bo‘lgan hollarda bu jarayonda

ISSN 3030-3907

bevosita ishtirok etuvchi o‘qituvchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar atroflicha muhokama etilib borildi. Buning uchun nazorat va tajriba-sinov guruhlarida tadqiqot-kuzatuv ishlarini olib bordik (1-jadvalga qarang). Biz statistik natijalarni diagramma ko‘rinishida ifodaladik: baho: a’lo, yaxshi, qoniqarli, qoniqarsiz [6].



1-rasm. Nazorat va tajriba guruhlarida olingan natijalar diagrammasi

Olingan natijalarga asoslangan holda mutaxassilik fanlarining axborot-metodik ta’minotidan foydalanib o‘qitish bo‘yicha samaradorligini aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari to‘g‘risida tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘rtacha o‘zlashtirishlarni Styudent matematik-statistik metodi yordamida tahlil qilindi (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining statistik natijalari

T/r	**Ko‘rsatkichlar**	**Tajriba guruhi**	**Nazorat guruhi**
1.	O‘zlashtirishning o‘rtacha ko‘rsatgichi (x,y)	3,8	3,3
2.	Samaradorlik ko‘rsatkichi	12 %	
3.	O‘rtacha qiymat ishonch oralig‘i a_x, a_y	$a_x \in [3{,}68;\ 3{,}91]$	$a_y \in [3{,}16;\ 3{,}43]$
4.	O‘rtacha qiymat standart xatolik (Sx, Sy)	0,75	0,85
5.	Aniqlanish ko‘rsatkichi (Sx, Sy)	1,5	2
6.	Styudent statistikasi (T)	5,52	
7.	Ko‘rsatkichlar xulosasi	N_1 gipoteza qabul qilinadi	

MUHOKAMA VA NATIJALAR. O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasi shuni ko‘rsatdiki, «Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya» fanidan yaratilgan integrativ axborot-metodik ta’minotdan foydalanib o‘qitishda tajriba

ISSN 3030-3907

guruhlarida “qoniqarli” baho olgan talabalar soni kamaygani hisobiga “yaxshi” va “a’lo” baho olgan talabalar soni ortgan, “qoniqarli” baho olganlar soni nazorat guruhlariga nisbatan kamaygan va tajriba guruhlarida “qoniqarsiz” baho olgan talabalar yo‘q.

Xulosa qilish aytish mumkinki, o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari samaradorligi statistik tahlildan ma’lum bo‘ldiki, barcha oliy ta’lim muassasalarida tajriba-sinov ishlari nihoyasida, tajriba guruhidagi talabalarining bilim darajasi nazorat guruhiga nisbatan 12% yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Bu esa oliy ta’lim sifatini ta’minlashda fanlarni integrativ axborot-metodik ta’minotdan foydalanib o‘qitish jarayonini tashkil etish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini ko‘rsatadi [7].

XULOSA VA TAKLIFLAR.

1. O‘tkazilgan ilmiy tadqiqodlar tahlili natijasida «Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya» fanini o‘qitishda integrativ axborot-metodik ta’minotdan foydalanish imkoniyatlari ochib berildi. Axborot-metodik ta’minotni takomillashtirish jarayonida elektron o‘quv kursi elementlarining interfaolligi va avtomatik baholash ko‘proq e’tibor qaratildi. Bunda tadqiqotlarning sohasi kengaytiriladi va mazkur sohadagi mustaqillik ta’minlanadi.

2. «Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya» fanini o‘qitish metodikasini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirilgan modeli (maqsadli, axborot-metodik, mazmunli, natijaviy) ishlab chiqildi va ta’lim resurslari turlari, didaktik prinsiplari va o‘quv jarayonidagi funksiyalaridan kelib chiqqan holda mutaxassislik fanlariga mos axborot-metodik ta’minoti takomillashtirildi.

3. Talabalarning integratsiyalashgan axborot-metodik ta’minotdan foydalanish bosqichlari va o‘qitish jarayonini nizom asosida tashkil etilishi semestr davomida mutaxassislik fanini o‘qitish uzluksizligini ta’minlashga erishildi.

4. Axborot-metodik ta’minotni LMS Moodle platformasida loyihalashda elektron kutubxona, videokonferensaloqa, ilmiy ishlar bazasi, ijtimoiy tarmoqlar va interfaol elementlar integratsiya qilindi va shu bilan elektron o‘quv kursi bir tizim doirasida barcha resurslarni o‘zida mujassamlashtirdi.

5. «Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya» fanidan talabalarning o‘zlashtirish natijalarini obyektiv baholashda LMS Moodlening interfaol elementlaridan (topshiriq, test va H5P elementlari) foydalangan holda baholash tizimi ishlab chiqildi. Bundan tashqari, elektron o‘quv kursi tarkibida yozma va og‘zaki nazorat shakllari natijalarini kiritish uchun ma’lumotlar bazasi elementidan ham unumli foydalanildi.

6. O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasi shuni ko‘rsatdiki, chop etilgan o‘quv-metodik majmua, yaratilgan elektron o‘quv qo‘llanma, integrativ elektron

ISSN 3030-3907

o‘quv kursi, youtube kanal va vizual materiallar orqali talabalarning mustaqil ishlashi, bilimlarni mustaqil izlash, topish va amalda qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. «Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya» fanini axborot-metodik ta’minot asosida o‘qitish jarayonida tajriba-sinov guruhlarida “a’lo” va “yaxshi” baho olgan talabalar soni ortgan, “qoniqarsiz” va “qoniqarli” baho olganlar soni nazorat guruhlariga nisbatan kamaygan.

7. «Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya» fanini o‘qitishda integrativ texnologiyalar asosida axborot-metodik ta’minotni LMS Moodle platformasida loyihalashda elektron kutubxona, videokonferensaloqa, ilmiy ishlar bazalarini integratsiya ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

8. Axborot-metodik ta’minotni takomillashtirish jarayonida elektron o‘quv kursi elementlarining interfaolligi va avtomatik baholashni keng joriy etish.

9. «Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya» fanidan talabalarning o‘zlashtirish natijalarini obyektiv baholashda LMS Moodlening interfaol elementlaridan (topshiriq, test va H5P elementlari) foydalangan holda baholash bo‘yicha integrativ kurslar tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Tursunova N.N., Shamsiyev R.X., Maxmudov B.X. “Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi”. O’quv qo’llanma. Buxoro: Ipakyo’li, 2025. 272 b.
2. Tursunova N.N., Shamsiyev R.X., Maxmudov B.X. “Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi”. O’quv qo’llanma. Buxoro: Ipakyo’li, 2025. 248 b.
3. Tursunova N.N. Mehnat sharoitlari buzilganda xodimlarning sog‘lig‘iga yetkazilgan zarar uchun ish beruvchining javobgarligi. Международный современный научно-практический журнал “Новости образования: исследование в XXI веке”, №31(100), февраль, часть 1, Москва 2025, С. 228-232.
4. Tursunova N.N. Ishlab chiqarishda mehnat ish jarayonini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish talablari. Международный современный научно-практический журнал “Научный фокус”, № 19 (100), часть 1, ноябрь, 2024. С. 361-365.
5. Tursunova N.N., Maxmudov B.X. Kasb-hunar ta’limi tizimida “mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi” fanini o‘qitish metodikasi. Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке», № 41 (100), часть 1, Январь, 2026. С. 425-429.
6. Турсунова Н.Н. Проблемы усиления познавательной активности учащихся в процессе практического обучения и способы их решения. Теория и практика современной науки: международный научно-практический журнал. 2019. № 6(48). С. 45-49.
7. Турсунова Н.Н. Переход к новой системе обучения в технических вузах.

ISSN 3030-3907

“Качество подготовки специалистов в техническом университете: проблемы, перспективы, инновационные подходы” материалы V международной научно-методической конференции, Могилёв, 2020. С. 98-101.

ISSN 3030-3907

MANDARIN PO‘STI VA YALPIZ ARALASHMASINING KIMYOVIY ELEMENTLAR MIQDORINI ANIQLASH.

Mamurova Mohlaroyim Ma’rufjon qizi
Andijon davlat universiteti, Kimyo kafedrasi Tayanch doktoranti
Ibrohimjon Rahmonovich Asqarov
O‘zbekiston Tabobat Akademiyasi raisi, kimyo fanlari doktori, professori
Qirg‘izov Shahobiddin Mirzaraimovich
Andijon davlat universiteti, Kimyo fanlari doktori, Kimyo kafedrasi professori

Annotatsiya. Mandarin po‘sti (Citrus reticulata) va quritilgan yalpiz barglari (Mentha piperita L.)ning turli xom ashyolari mineral tarkibi bilan aniqlangan minerallarni aniqlash uchun yig‘ildi. Ushbu o‘simlik resurslarining makro va mikro birikmalarining konsentratsiyasi va biologik ro‘li uchun miqdoriy o‘lchovlar o‘tkazildi. Kimyoviy tarkiblar zamonaviy induktiv bog‘langan plazma optik emissiya spektrometriyasi (ICP-OES) usullari bilan miqdoriy tahlil qilindi. Ushbu usul o‘simlik namunalaridagi turli tarkiblarni bir vaqtning o‘zida aniqlash imkonini beradi. Biz ushbu maqolada induktiv bog‘langan plazma optik emissiya spektrometriyasi asosida mandarin po‘stlog‘i va quritilgan yalpiz barglaridagi kimyoviy elementlar konsentratsiyasini o‘lchadik va natijalarni tahlil qildik. Makro va mikroelementlarning sezilarli konsentratsiyasi aniqlandi: Kaliy 139mg, Kaltsiy 128.8mg, Magniy 68.4mg va Fosfor 16.4mg.

Kalit so‘zlar: mandarin po‘stlog‘i, yalpiz bargi, kaltsiy, fosfor, magniy, kaliy, temir, yod.

Аннотация. Кожура мандарина (Citrus reticulata) и сушеные листья мяты перечной (Mentha piperita L.) были собраны как различные виды растительного сырья для характеристики их минерального состава. Концентрации макро- и микроэлементов и их биологические роли были количественно измерены. Образцы растений были химически проанализированы с помощью современной оптической эмиссионной спектрометрии с индуктивно связанной плазмой (ICP-OES). Для одновременного обнаружения различных элементов в образцах растений метод может использоваться с высокой точностью и чувствительностью. Концентрация была определена для каждого химического элемента кожуры мандарина и сушеных листьев мяты, и их детальный анализ был проведен с использованием ICP-OES в качестве основного метода, примененного в данной работе. В данной статье будет предпринята попытка найти определенные химические элементы в смеси кожуры мандарина и сушеных листьев мяты с использованием оптической эмиссионной спектрометрии с индуктивно связанной плазмой и проанализировать данные. Макро- и

ISSN 3030-3907

микроэлементы были очень высокими: калий 139 мг, кальций 128,8 мг, магний 68,4 мг, фосфор 16,4 мг.

Ключевые слова: кожура мандарина, листья мяты, кальций, фосфор, магний, калий, железо, йод.

Annotation. Mandarin peel (Citrus reticulata) and dried peppermint leaves (Mentha piperita L.) were collected as different types of plant raw materials to determine their mineral composition. Quantitative measurements were carried out to assess the concentrations of macro- and microelements and to evaluate their biological roles. The chemical composition of the plant samples was quantitatively analyzed using a modern inductively coupled plasma optical emission spectrometry (ICP-OES) method. This technique enables the simultaneous determination of multiple elements in plant samples with high accuracy and sensitivity. In this article, the content of chemical elements in a mixture of mandarin peel and dried mint leaves was determined using inductively coupled plasma optical emission spectrometry, and the results obtained were analyzed. High levels of macro- and microelements were found, including Potassium (139 mg), Calcium (128.8 mg), Magnesium (68.4 mg), and Phosphorus (16.4 mg).

Keywords: mandarin peel, mint leaf, calcium, phosphorus, magnesium, potassium, iron, iodine.

KIRISH.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida tabiiy biologik faol moddalar manbalarini izlash va ulardan farmatsevtika, oziq-ovqat hamda kosmetika sanoatida foydalanishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, o‘simliklardan olinadigan antioksidant birikmalar inson salomatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, organizmda hosil bo‘ladigan erkin radikallar va reaktiv kislorod shakllari (ROS – Reactive Oxygen Species) ko‘plab surunkali kasalliklarning rivojlanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu radikallar hujayra membranalari, oqsillar, nuklein kislotalar va boshqa biologik molekulalarga zarar yetkazib, oksidlovchi stress holatini yuzaga keltiradi. Oksidlovchi stress esa yurak-qon tomir kasalliklari, qandli diabet, ateroskleroz, nevrodegenerativ kasalliklar, immun tizimi buzilishlari va turli onkologik kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Erkin radikallar organizmda tabiiy metabolik jarayonlar natijasida hosil bo‘ladi. Biroq ekologik omillar, atmosfera ifloslanishi, ultrabinafsha nurlanish, radiatsiya, noto‘g‘ri ovqatlanish, zararli odatlar va turli kimyoviy moddalar ta’siri natijasida ularning miqdori keskin ortib ketadi. Organizmda mavjud antioksidant himoya tizimi ma’lum darajada erkin radikallarni zararsizlantiradi, ammo

ISSN 3030-3907

radikallar hosil bo‘lish tezligi antioksidant himoya imkoniyatidan yuqori bo‘lganda oksidlovchi stress yuzaga keladi. Shu sababli tashqi manbalardan, ayniqsa o‘simliklardan olinadigan tabiiy antioksidantlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

O‘simliklar biologik faol moddalar, jumladan flavonoidlar, fenol kislotalari, terpenoidlar, alkaloidlar, vitaminlar va boshqa antioksidant xususiyatga ega birikmalarning boy manbai hisoblanadi. Ushbu birikmalar erkin radikallarni neytrallash, lipidlarning peroksidlanishini kamaytirish hamda hujayralarni oksidlovchi zararlanishdan himoya qilish qobiliyatiga ega. Shu sababli tabiiy antioksidantlarni aniqlash va ularning biologik faolligini baholash bugungi kun farmakognoziyasi, farmatsevtik kimyo va oziq-ovqat texnologiyasining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yalpiz (Mentha sp.) dunyoning ko‘plab mamlakatlarida keng tarqalgan dorivor va ziravor o‘simliklardan biridir. U Lamiaceae oilasiga mansub bo‘lib, o‘zining yoqimli hidi va shifobaxsh xususiyatlari bilan qadimdan xalq tabobatida qo‘llanib kelinadi. Yalpiz tarkibida mentol, menton, mentofuran, pulegon kabi efir moylari, flavonoidlar, fenol birikmalari, askorbin kislotasi, karotinoidlar, taninlar hamda turli mikro va makroelementlar mavjud. Aynan ushbu biologik faol moddalar yalpizning antioksidant, antimikrob, yallig‘lanishga qarshi, spazmolitik va sedativ xususiyatlarini belgilab beradi.

Yalpiz barglari va poyalarida mavjud bo‘lgan fenolik birikmalar kuchli antioksidant faollikka ega bo‘lib, ular organizmda hosil bo‘ladigan erkin radikallarni tutib qolish va neytrallash xususiyati bilan ajralib turadi. Ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda yalpiz ekstraktlarining lipid peroksidlanishini kamaytirishi, hujayralarni oksidlovchi zararlanishdan himoya qilishi hamda yallig‘lanish jarayonlarini susaytirishi qayd etilgan. Bundan tashqari, yalpiz tarkibidagi flavonoidlar va fenol kislotalari yurak-qon tomir tizimi faoliyatini yaxshilash, immunitetni mustahkamlash va organizmning umumiy antioksidant salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Tabiiy antioksidantlarni baholash uchun turli analitik usullar ishlab chiqilgan. Ular orasida DPPH (2,2-difenil-1-pikrilgidrazil) usuli eng sodda, tezkor va ishonchli metodlardan biri sifatida keng qo‘llaniladi. DPPH radikali barqaror erkin radikal bo‘lib, binafsha rangga ega. Antioksidant modda DPPH radikali bilan reaksiyaga kirishganda vodorod atomini yoki elektronni berib, radikalni qaytaradi va eritmaning rangi binafsha rangdan sariq rangga o‘zgaradi. Ushbu o‘zgarish spektrofotometrik usul yordamida 517 nm to‘lqin uzunligida aniqlanadi. Natijada tekshirilayotgan namunaning erkin radikallarni neytrallash qobiliyati foizlarda yoki IC_{50} qiymati orqali baholanadi.

ISSN 3030-3907

DPPH usulining asosiy afzalliklari uning yuqori sezgirligi, tezkorligi, kam miqdordagi namuna talab qilishi va natijalarning yaxshi takrorlanuvchanligidan iborat. Shu sababli ushbu metod o‘simlik ekstraktlari, oziq-ovqat mahsulotlari va biologik faol qo‘shimchalarning antioksidant faolligini baholashda xalqaro miqyosda eng ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston florasi dorivor o‘simliklarga juda boy bo‘lib, ulardan oqilona foydalanish va biologik faol moddalar manbai sifatida o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Respublikamiz hududida o‘sadigan yalpiz turlari xalq tabobatida keng qo‘llanilishiga qaramasdan, ularning antioksidant xususiyatlarini zamonaviy usullar yordamida chuqur o‘rganish zarur hisoblanadi. Ayniqsa, yalpizning spirtli ekstraktlari tarkibidagi fenolik moddalar va flavonoidlarning erkin radikallarni neytrallash qobiliyatini aniqlash farmatsevtik preparatlar hamda biologik faol oziq-ovqat qo‘shimchalari yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan ushbu tadqiqotning maqsadi yalpiz (Mentha sp.) o‘simligining spirtli ekstraktini olish, uning DPPH erkin radikaliga nisbatan antioksidant faolligini aniqlash va IC_{50} ko‘rsatkichini hisoblashdan iborat bo‘ldi. Tadqiqot natijalari yalpizning tabiiy antioksidant manbai sifatidagi imkoniyatlarini baholash hamda undan farmatsevtika, oziq-ovqat va xalq tabobatida foydalanish istiqbollarini aniqlashga xizmat qiladi.

An’anaviy tibbiyotda mandarin po‘stlog‘i va yalpiz bargi infuziya mahsulotlari qo‘llaniladi. Ushbu turdagi kasalliklar uchun infuziya davolash usullari yuqori nafas yo‘llarida keng qo‘llaniladi. Ular balg‘amni yumshatishda foydali. Masalan, ikki o‘rtacha kattalikdagi mandarin kunlik zarur vitamin C ni osonlik bilan ta’minlaydi va virusli infektsiyalarga qarshi kurashishda yordam beradi. Vitamin C nafaqat immunitetga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, balki qon tomirlarining devorlarini yangilanishini ham rag‘batlantiradi. Bunday foydalar varikoz tomirli ayollar uchun yanada kuchliroqdir.

Kalit so‘zlar: 5G NR, radioresurslarni boshqarish, RRM algoritmlari, Proportional Fair, Flutter, mobil ilova.

Abstract. This paper investigates the performance of Radio Resource Management (RRM) algorithms in 5G NR networks. Round Robin, Proportional Fair, Best CQI, and Maximum C/I algorithms were evaluated using a Flutter-based mobile application. The algorithms were compared in terms of throughput, spectral efficiency, and fairness. The results show that the Proportional Fair algorithm provides the best balance between system performance and fair resource allocation.

Keywords: 5G NR, Radio Resource Management, RRM algorithms, Proportional Fair, Flutter, mobile application.

Аннотация. В статье исследована эффективность алгоритмов управления радиоресурсами (RRM) в сетях 5G NR. Алгоритмы Round Robin, Proportional Fair, Best CQI и Maximum C/I были проанализированы с использованием мобильного приложения, разработанного на платформе Flutter. Оценка проводилась по показателям пропускной способности, спектральной эффективности и справедливости распределения ресурсов. Результаты показали, что алгоритм Proportional Fair обеспечивает наилучший баланс между производительностью сети и справедливым распределением ресурсов.

Ключевые слова: 5G NR, управление радиоресурсами, алгоритмы RRM, Proportional Fair, Flutter, мобильное приложение.

KIRISH.

So‘nggi yillarda beshinchi avlod mobil aloqa tizimlari (5G New Radio – 5G NR) telekommunikatsiya sohasining eng muhim rivojlanish yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 5G texnologiyasi yuqori ma’lumot uzatish tezligi, ultra past kechikish, katta hajmdagi qurilmalarni bir vaqtning o‘zida ulash va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish kabi afzalliklari bilan ajralib turadi. Xalqaro Telekommunikatsiyalar Ittifoqi (ITU) prognozlariga ko‘ra, kelgusi yillarda mobil trafik hajmi bir necha barobarga ortishi kutilmoqda, bu esa radiochastota spektridan samarali foydalanish zaruratini yanada kuchaytiradi [1,2]. 5G NR tarmoqlarining asosiy xususiyatlaridan biri mavjud radioresurslarni foydalanuvchilar o‘rtasida optimal taqsimlash imkoniyatidir. Ushbu jarayon radioresurslarni boshqarish (Radio Resource Management – RRM) mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. RRM algoritmlari tarmoqning umumiy unumdorligi, spektral samaradorligi, xizmat sifati (QoS) va foydalanuvchilar o‘rtasidagi adolatlilik ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli zamonaviy mobil aloqa tarmoqlarida radioresurslarni samarali boshqarish ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [3,4].

Bugungi kunda radioresurslarni boshqarish algoritmlarini baholash bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar MATLAB, NS-3 va OPNET simulyatorlari yordamida amalga oshirilgan. Biroq mobil platformalarda ishlovchi, natijalarni tezkor vizuallashtirish imkoniyatiga ega dasturiy vositalar soni cheklangan. Shu sababli 5G NR tarmoqlarida qo‘llaniladigan RRM algoritmlarini mobil ilova yordamida modellashtirish va ularning samaradorligini baholash ilmiy va amaliy jihatdan muhim masala hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi 5G NR tarmoqlarida qo‘llaniladigan Round Robin, Proportional Fair, Best CQI va Maximum C/I radioresurslarni boshqarish algoritmlarining samaradorligini tahlil qilish hamda Flutter platformasi asosida ishlab chiqilgan mobil ilova yordamida ularni baholashdan iborat. Tadqiqot natijalari kelajakdagi mobil aloqa tarmoqlarini loyihalash va optimallashtirish jarayonlarida samarali radioresurslarni boshqarish strategiyalarini tanlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Mobil aloqa tizimlarining rivojlanishi bilan radioresurslarni samarali boshqarish masalasi telekommunikatsiya sohasidagi eng muhim ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ayniqsa, 5G NR texnologiyalarining joriy etilishi yuqori tezlikdagi ma’lumot uzatish, minimal kechikish va ommaviy qurilmalar ulanishini ta’minlash uchun radioresurslarni optimal taqsimlash algoritmlarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Shu sababli radioresurslarni boshqarish (Radio Resource Management – RRM) va rejalashtirish algoritmlarining samaradorligini baholash bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. E. Dahlman, S. Parkvall va J. Skold tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda 5G NR texnologiyasining asosiy afzalliklari va radio interfeys

ISSN 3030-3907

imkoniyatlari batafsil tahlil qilingan [5,6]. Mualliflarning ta’kidlashicha, 5G tarmoqlarining samaradorligi ko‘p jihatdan radioresurslarni dinamik boshqarish mexanizmlariga bog‘liq bo‘lib, resurslarni optimal taqsimlash tizimning umumiy unumdorligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqotda OFDMA texnologiyasi asosida foydalanuvchilar o‘rtasida resurs bloklarini taqsimlashning zamonaviy usullari ko‘rib chiqilgan. J.G. Andrews va hammualliflar tomonidan e’lon qilingan ilmiy ishlarda 5G tarmoqlarining asosiy texnologik imkoniyatlari va radioresurslarni boshqarishning istiqbolli yo‘nalishlari o‘rganilgan [7,8]. Mualliflar radioresurslarni samarali taqsimlash xizmat sifati (QoS) ko‘rsatkichlarini yaxshilashda muhim omil ekanligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, foydalanuvchilar sonining ortishi sharoitida rejalashtirish algoritmlarining to‘g‘ri tanlanishi tarmoqning o‘tkazuvchanlik qobiliyati va spektral samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Proportional Fair algoritmi bo‘yicha tadqiqotlar ko‘plab ilmiy ishlarda keng yoritilgan. R. Jain va hammualliflar resurslarni taqsimlash jarayonida adolatlilik darajasini baholash uchun maxsus indeks taklif qilganlar [9,10]. Ushbu ko‘rsatkich keyinchalik PF algoritmining samaradorligini baholashda keng qo‘llanila boshlandi. Mualliflarning fikricha, tizim unumdorligi va foydalanuvchilar manfaatlari o‘rtasida muvozanatni saqlash zamonaviy mobil tarmoqlar uchun muhim talab hisoblanadi. Ali M., Saeed N. va Alouini M.S. tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda 5G tarmoqlarida resurslarni taqsimlashning zamonaviy usullari tahlil qilingan [11]. Mualliflar radioresurslarni boshqarish algoritmlarini spektral samaradorlik, energiya tejamkorligi va xizmat sifati ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholaganlar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, PF algoritmi amaliy tarmoqlarda eng ko‘p qo‘llaniladigan va samarali algoritmlardan biri hisoblanadi.

Songgi yillarda radioresurslarni boshqarish algoritmlarini modellashtirish va baholash uchun MATLAB, NS-3, OMNeT++ hamda OPNET kabi dasturiy muhitlardan keng foydalanilmoqda [6]. Biroq ushbu platformalar asosan kompyuter muhiti uchun mo‘ljallangan bo‘lib, mobil qurilmalar orqali tezkor tahlil qilish imkoniyatlari cheklangan. Shu sababli Flutter, React Native va boshqa zamonaviy platformalar asosida mobil ilovalar yaratish bo‘yicha tadqiqotlar soni ortib bormoqda.

Sobirova Kamola tomonidan ishlab chiqilgan Flutter platformasi ko‘p platformali mobil ilovalarni yaratishda yuqori samaradorlikka ega vosita sifatida e’tirof etilgan [12]. Ushbu texnologiya yordamida ishlab chiqilgan dasturiy vositalar real vaqt rejimida hisob-kitoblarni bajarish, natijalarni vizuallashtirish va foydalanuvchi bilan qulay interfeys orqali ishlash imkonini beradi. Shu


ISSN 3030-3907

jihatdan Flutter asosidagi mobil ilovalar telekommunikatsiya tizimlarini modellashtirish va baholash uchun istiqbolli vosita hisoblanadi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, radioresurslarni boshqarish algoritmlarining samaradorligini baholash bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ularni mobil ilovalar asosida modellashtirish va natijalarni interaktiv tarzda taqdim etish masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu yo‘nalishda olib borilib, 5G NR tarmoqlarida qo‘llaniladigan asosiy RRM algoritmlarini Flutter platformasi asosidagi mobil ilova yordamida baholashga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda 5G NR mobil aloqa tarmoqlarida radioresurslarni boshqarish algoritmlarining samaradorligini baholash uchun modellashtirish va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi turli rejalashtirish algoritmlarining tarmoq unumdorligi, spektral samaradorligi va foydalanuvchilar o‘rtasidagi resurslarni taqsimlash adolatliligiga ta’sirini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida 5G NR tarmog‘ining soddalashtirilgan modeli ishlab chiqildi hamda unda eng keng tarqalgan radioresurslarni boshqarish algoritmlari – Round Robin (RR), Proportional Fair (PF), Best Channel Quality Indicator (Best CQI) va Maximum Carrier-to-Interference (Max C/I) algoritmlarining ishlash prinsiplari modellashtirildi. Ushbu algoritmlar tanlanishiga sabab ularning zamonaviy mobil aloqa tizimlarida keng qo‘llanilishi va ilmiy adabiyotlarda samarali rejalashtirish usullari sifatida e’tirof etilishidir. Tadqiqotning dasturiy qismi Flutter platformasi asosida ishlab chiqilgan mobil ilova yordamida amalga oshirildi. Flutter texnologiyasi kross-platformali dasturlar yaratish imkoniyatiga ega bo‘lib, foydalanuvchi interfeysini yaratish, hisoblash jarayonlarini bajarish va natijalarni vizual ko‘rinishda aks ettirish uchun qulay vosita hisoblanadi.

ISSN 3030-3907



1-rasm. Tadqiqotda qo‘llanilgan algoritmlarning nazariy tavsiflari moduli.

Ishlab chiqilgan mobil ilovada foydalanuvchilar soni, kanal sifati ko‘rsatkichlari va radioresurslar hajmini kiritish imkoniyati yaratildi. Kiritilgan parametrlar asosida algoritmlarning ishlash natijalari avtomatik ravishda hisoblandi va grafik hamda jadval ko‘rinishida taqdim etildi.



2-rasm. Modellashtirish parametrlarini kiritish va algoritmlarni faollashtirish oynasi.

Simulyatsiya jarayonida tarmoqda 6 ta foydalanuvchi mavjud deb qabul qilindi. Har bir foydalanuvchi uchun kanal sifati (CQI) qiymatlari va ma’lumot uzatish tezliklari tasodifiy hamda real sharoitlarga yaqin parametrlar asosida shakllantirildi. Tarmoqning umumiy resurs bloklari (Resource Blocks – RB)

ISSN 3030-3907

algoritmlar talablariga muvofiq foydalanuvchilar o‘rtasida taqsimlandi. Har bir algoritm uchun simulyatsiya bir necha marotaba takrorlanib, o‘rtacha natijalar hisoblab chiqildi. Algoritmlar samaradorligini baholash uchun quyidagi asosiy mezonlardan foydalanildi.

- tizimning umumiy o‘tkazuvchanlik qobiliyati (System Throughput);
- spektral samaradorlik (Spectral Efficiency);
- resurslarni taqsimlash adolatliligi (Fairness Index);
- foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish sifati (QoS).

Adolatlilik darajasini aniqlash uchun Jain Fairness Index ko‘rsatkichidan foydalanildi. Ushbu indeks foydalanuvchilar o‘rtasida resurslarning qanchalik teng taqsimlanganligini baholash imkonini beradi va quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$J = \frac{\left(\sum_{i=1}^{N} R_i\right)^2}{N \sum_{i=1}^{N} R_i^2} \qquad (1)$$

bu yerda:


(R_i) – i-foydalanuvchining ma’lumot uzatish tezligi;

(N) – foydalanuvchilar soni.


Tadqiqot natijalari statistik qayta ishlash usullari yordamida tahlil qilindi. Har bir algoritm uchun throughput, fairness va spektral samaradorlik ko‘rsatkichlari hisoblanib, o‘zaro taqqoslandi. Olingan natijalar asosida 5G NR tarmoqlarida radioresurslarni boshqarishning eng samarali usullari aniqlandi hamda ishlab chiqilgan mobil ilovaning amaliy qo‘llash imkoniyatlari baholandi. Taklif etilgan metodologiya radioresurslarni boshqarish algoritmlarini tezkor tahlil qilish, ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlash hamda kelgusida sun’iy intellekt asosidagi adaptiv rejalashtirish usullarini ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratadi.

Mobil ilova arxitekturasi va algoritmlar tavsifi. 5G NR tarmoqlarida radioresurslarni boshqarish algoritmlarining samaradorligini baholash maqsadida Flutter platformasi asosida mobil ilova ishlab chiqildi. Ilovaning asosiy vazifasi radioresurslarni taqsimlash algoritmlarini modellashtirish, ularning ishlash natijalarini hisoblash hamda olingan ko‘rsatkichlarni foydalanuvchiga qulay shaklda taqdim etishdan iborat.

ISSN 3030-3907



4-rasm. a) Round Robin va PF algoritmlari natijalari. b) Maximum C/I va Best CQI tahlili.



3.5-rasm. Ilovadagi "Eng samarali algoritm" xulosasi va qiyosiy grafik ko‘rinishi

Mobil ilova arxitekturasi. Ishlab chiqilgan mobil ilova ko‘p qatlamli arxitektura asosida loyihalashtirildi. Arxitektura uchta asosiy qismdan tashkil topgan:

Foydalanuvchi interfeysi (User Interface – UI);

Hisoblash va modellashtirish moduli;

Natijalarni tahlil qilish va vizualizatsiya moduli.

Foydalanuvchi interfeysi qismida foydalanuvchi simulyatsiya parametrlarini kiritadi. Jumladan, tarmoqdagi abonentlar soni, kanal sifati ko‘rsatkichlari (CQI), resurs bloklari soni va algoritm turi tanlanadi. Flutter

ISSN 3030-3907

platformasining zamonaviy vidjetlaridan foydalanish natijasida intuitiv va qulay interfeys yaratildi. Hisoblash moduli radioresurslarni taqsimlash algoritmlarining matematik modellarini amalga oshiradi. Ushbu modul foydalanuvchi tomonidan kiritilgan parametrlar asosida har bir algoritm uchun resurslarni taqsimlaydi hamda throughput, fairness va spektral samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblaydi. Vizualizatsiya moduli hisoblangan natijalarni grafik va jadval ko‘rinishida aks ettiradi. Bu foydalanuvchiga turli algoritmlarning ishlash samaradorligini tezkor taqqoslash imkonini beradi. Natijalar ustunli diagrammalar, chiziqli grafiklar va statistik ko‘rsatkichlar ko‘rinishida taqdim etiladi.

Mobil ilovaning umumiy ishlash ketma-ketligi quyidagi bosqichlardan iborat:

- foydalanuvchi parametrlarni kiritadi;
- algoritm tanlanadi;
- hisoblash moduli simulyatsiyani amalga oshiradi;
- natijalar qayta ishlanadi;
- grafik va jadval ko‘rinishida ekranga chiqariladi.

Mazkur arxitektura tizimni kelgusida yangi algoritmlar bilan kengaytirish imkonini beradi.

Radioresurslarni boshqarish algoritmlari. Tadqiqotda 5G NR tarmoqlarida keng qo‘llaniladigan to‘rtta rejalashtirish algoritmi tahlil qilindi. Round Robin algoritmi- Round Robin (RR) algoritmi radioresurslarni foydalanuvchilar o‘rtasida navbatma-navbat taqsimlash tamoyiliga asoslanadi. Algoritm kanal holatiga e’tibor bermaydi va barcha foydalanuvchilarga teng imkoniyat yaratadi. Ushbu yondashuv resurslarni adolatli taqsimlashni ta’minlaydi, biroq tarmoqning umumiy o‘tkazuvchanlik qobiliyati yuqori bo‘lmasligi mumkin. RR algoritmining afzalligi uning soddaligi va hisoblash murakkabligining pastligidadir. Shu sababli u real vaqt tizimlarida keng qo‘llaniladi. Proportional Fair algoritmi- Proportional Fair (PF) algoritmi zamonaviy mobil aloqa tizimlarida eng ko‘p qo‘llaniladigan rejalashtirish usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu algoritm foydalanuvchining joriy kanal sifati va avvalgi xizmat ko‘rsatish darajasini birgalikda hisobga oladi. PF algoritmi resurslarni quyidagi ustuvorlik mezoni asosida taqsimlaydi:

$$P_i(t) = \frac{R_{inst}(i,t)}{R_{avg}(i,t)} \qquad (2)$$

$R_{inst}(i,t)$ – i -foydalanuvchining t vaqt lahzasidagi lahzali (instantaneous) o‘tkazuvchanlik qobiliyati; $R_{avg}(i,t)$ foydalanuvchining o‘tmishdagi o‘rtacha tezligi. Mazkur algoritm throughput va fairness o‘rtasidagi optimal muvozanatni ta’minlaydi.

ISSN 3030-3907

Best CQI (Best Channel Quality Indicator) algoritmi radioresurslarni eng yaxshi kanal sifatiga ega foydalanuvchilarga ajratadi. Bunda tarmoq maksimal o‘tkazuvchanlikka erishadi, chunki resurslar faqat yuqori sifatli kanalga ega abonentlarga beriladi. Ushbu algoritmning asosiy afzalligi spektral samaradorlikning yuqori bo‘lishidir. Biroq kanal sifati past foydalanuvchilar resurslardan kam foydalanishi sababli adolatlilik darajasi pasayadi.

Maximum Carrier-to-Interference (Max C/I) algoritmi signal va shovqin nisbati eng yuqori bo‘lgan foydalanuvchini tanlaydi. Ushbu algoritm Best CQI algoritmiga o‘xshash bo‘lib, maksimal throughputni ta’minlashga qaratilgan. Mazkur yondashuv yuqori tarmoq unumdorligini ta’minlaydi, ammo foydalanuvchilar o‘rtasida resurslar notekis taqsimlanishi mumkin.

Taklif etilgan mobil ilova arxitekturasi radioresurslarni boshqarish algoritmlarini real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini beradi. Flutter platformasidan foydalanish natijasida tizim Android va iOS qurilmalarida bir xil samaradorlik bilan ishlaydi. Bundan tashqari, yangi algoritmlarni qo‘shish, sun’iy intellekt modullarini integratsiya qilish va natijalarni bulutli serverlarda saqlash imkoniyatlari mavjud. Ishlab chiqilgan mobil ilova 5G NR tarmoqlarida radioresurslarni boshqarish algoritmlarining samaradorligini baholash va taqqoslash uchun qulay hamda samarali dasturiy vosita hisoblanadi.

1-Jadval

An’anaviy usullar va mobil ilova orqali loyihalashning qiyosiy ko‘rsatkichlari.

Taqqoslash mezoni	An’anaviy (MATLAB/NS-3)	Taklif etilayotgan (Mobil Ilova)
Sarflanadigan vaqt	Bir necha kun/hafta	Sekundlar/Daqiqalar
Litsenziya xarajatlari	Yuqori (Qimmatbaho)	Minimal (Ochiq kodli)
Mutaxassis malakasi	Yuqori darajadagi dasturchi	Tarmoq muhandisi / Texnik
Mobillik	Faqat laboratoriya/ofis	Dala sharoiti (Field tests)

XULOSA. Mazkur tadqiqotda 5G NR mobil aloqa tarmoqlarida radioresurslarni boshqarish algoritmlarining samaradorligini baholash masalalari o‘rganildi hamda ularni tahlil qilish uchun Flutter platformasi asosida mobil ilova ishlab chiqildi. Tadqiqot davomida Round Robin (RR), Proportional Fair (PF), Best CQI va Maximum Carrier-to-Interference (Max C/I) algoritmlarining ishlash prinsiplari modellashtirildi va ularning asosiy texnik ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslandi. O‘tkazilgan tahlillar natijasida radioresurslarni taqsimlash algoritmlarining tarmoq samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Round Robin algoritmi foydalanuvchilar o‘rtasida resurslarni nisbatan adolatli

ISSN 3030-3907

taqsimlash imkonini bersa-da, tizimning umumiy o‘tkazuvchanlik qobiliyati boshqa algoritmlarga nisbatan pastroq ekanligi kuzatildi. Best CQI va Max C/I algoritmlari esa maksimal throughput va yuqori spektral samaradorlikni ta’minlashi bilan ajralib turdi, biroq resurslarning ayrim foydalanuvchilar foydasiga notekis taqsimlanishiga sabab bo‘ldi. Tadqiqot natijalari Proportional Fair algoritmi throughput va fairness ko‘rsatkichlari o‘rtasida optimal muvozanatni ta’minlashini ko‘rsatdi. Mazkur algoritm nafaqat tarmoq unumdorligini yuqori darajada saqlab qoladi, balki foydalanuvchilar o‘rtasida radioresurslarni adolatli taqsimlash imkonini ham beradi. Shu sababli u amaliy 5G NR tarmoqlarida qo‘llash uchun eng maqbul algoritmlardan biri sifatida baholandi. Ishlab chiqilgan mobil ilova radioresurslarni boshqarish algoritmlarining ishlashini real vaqt rejimiga yaqin sharoitlarda modellashtirish, ularning samaradorligini baholash va natijalarni vizual ko‘rinishda aks ettirish imkonini berdi. Ilovaning Flutter platformasida yaratilgani uning Android va iOS operatsion tizimlarida ishlashini ta’minlaydi hamda kelgusida funksional imkoniyatlarini kengaytirish uchun qulay dasturiy asos yaratadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi 5G NR tarmoqlarida qo‘llaniladigan asosiy radioresurslarni boshqarish algoritmlarini mobil ilova yordamida baholash metodikasining taklif etilganligi bilan izohlanadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa mobil operatorlar, telekommunikatsiya muhandislari va ilmiy tadqiqotchilar uchun radioresurslarni boshqarish strategiyalarini tanlash hamda tarmoq parametrlarini optimallashtirishda foydalanish imkoniyatini yaratishidadir. Kelgusidagi tadqiqotlarda sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish texnologiyalariga asoslangan adaptiv radioresurslarni boshqarish algoritmlarini ishlab chiqish, shuningdek, mobil ilovani bulutli hisoblash texnologiyalari bilan integratsiyalash orqali katta hajmdagi tarmoq ma’lumotlarini real vaqt rejimida tahlil qilish masalalarini o‘rganish rejalashtirilmoqda. Bu esa 5G va istiqboldagi 6G mobil aloqa tarmoqlarining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. IMT Vision – Framework and Overall Objectives of the Future Development of IMT for 2020 and Beyond*[1] ITU-R M.2083-0,* , Geneva, 2015.
2. Ali M., Saeed N., Alouini M.S. *Resource Allocation in 5G Networks: A Survey*. IEEE Access, 2022.
3. Dahlman E., Parkvall S., Skold J. *5G NR: The Next Generation Wireless Access Technology*. Academic Press, 2020.
4. Andrews J.G., Buzzi S., Choi W. et al. *What Will 5G Be?* IEEE Journal on Selected Areas in Communications, 2019.
5. Holma H., Toskala A. *5G Technology: 3GPP New Radio*. Wiley, 2020.

ISSN 3030-3907

6. Dahlman E., Parkvall S., Skold J. *5G NR: The Next Generation Wireless Access Technology*. Academic Press, 2020.
7. Andrews J.G., Buzzi S., Choi W. et al. *What Will 5G Be?* IEEE Journal on Selected Areas in Communications, 2019.
8. Holma H., Toskala A. *5G Technology: 3GPP New Radio*. Wiley, 2020.
9. Jain R., Chiu D., Hawe W. *A Quantitative Measure of Fairness and Discrimination for Resource Allocation in Shared Systems*. DEC Research Report, 1984.
10. Ali M., Saeed N., Alouini M.S. *Resource Allocation in 5G Networks: A Survey*. IEEE Access, 2022.
11. Sesia S., Toufik I., Baker M. *LTE – The UMTS Long Term Evolution*. Wiley, 2019.
12. Google Developers. Flutter Documentation and Software Development Kit. 2025.
13. Obitjon o‘g‘li, I. A., & Iqboljon o‘g‘li, B. M. (2026). SIGNALLAR VA TIZIMLARNING ZAMONAVIY ALOQA TIZIMLARIDAGI AHAMIYATI. *EDUCATION AND SCIENCE YESTERDAY AND TODAY*
14. islomov, A., & Botiraliyev, F. (2026). NOMA (Non-Orthogonal Multiple Access) — Multiplekslashning kelajagimi?. *Research and Implementation*, *2*(5/2), 61–68.

ISSN 3030-3907

SHIRINMIYA ILDIZIDAN AJRATIB OLINGAN EKSTRAKTNING OZIQ-OVQAT SANOATIDAGI INNOVATSION QO‘LLANILISHI

M.K.Madraximova
Toshkent kimyo-texnoligiya institute Funksional mahsulotlar texnologiyasi kafedrasi
Z.A. Masharipova
Toshkent kimyo-texnoligiya institute Funksional mahsulotlar texnologiyasi kafedrasi
U.O‘.Asatova
Toshkent kimyo-texnoligiya institute Funksional mahsulotlar texnologiyasi kafedrasi

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda shirinmiya (Glycyrrhiza glabra L.) ildizidan biologik faol moddalarga boy ekstrakt olish texnologiyasi ishlab chiqildi hamda uni funksional oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida qo‘llash imkoniyatlari o‘rganildi. Ekstraksiya jarayonida turli konsentratsiyali etanol eritmalari, harorat va vaqt omillarining glitsirrizin kislotasi hamda flavonoidlar miqdoriga ta’siri tahlili natijalariga ko‘ra, 75 % li etanol eritmasida 50°C haroratda 45 daqiqa davomida olib borilgan ekstraksiya eng yuqori samaradorlikni ko‘rsatdi. Olingan konsentrat tarkibida flavonoidlar, glitsirrizin kislotasi, S vitamini va mineral moddalar yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi hamda UV/Vis spektrofotometriya usullari yordamida aniqlandi. Biologik faol moddalarga boy ekstrakt asosida bolalar uchun funksional marmelad va kruassan mahsulotlari tayyorlanib, organoleptik xususiyatlari, biologik va funksional qiymatini oshirishi aniqlandi. Shuningdek, glitsirrizin kislotasining yuqori shirinlik xususiyati tufayli mahsulot tarkibidagi shakar miqdorini 30–40 % gacha kamaytirish imkoniyati mavjudligi kuzatildi

Kalit so'zlar: Shirinmiya ildizi, biologik faol moddalar, ekstrakt, funksional oziq-ovqat, bolalar oziq-ovqati, bolalar ichimligi, marmelad, tabiiy shirinlashtiruvchi, shakarni kamaytirish, biologik qiymat, antioksidant faollik, oziq-ovqat texnologiyasi, funksional mahsulotlar, oziqaviy qiymat, tabiiy ekstrakt.

Аннотация. В данном исследовании разработана технология получения богатого биологически активными веществами экстракта из корня солодки (Glycyrrhiza glabra L.) и изучено ее применение в функциональных пищевых продуктах. По результатам анализа влияния растворов этанола различной концентрации, температурных и временных факторов на содержание глицирризиновой кислоты и флавоноидов в процессе экстракции, наибольшую эффективность показала экстракция, проведенная в 75%-ном растворе этанола при температуре 50°C в течение 45 минут. Содержание флавоноидов, глицирризиновой кислоты, витамина C и минералов в

ISSN 3030-3907

полученном концентрате определяли с помощью высокоэффективной жидкостной хроматографии и УФ/видимой спектрофотометрии. На основе богатого биологически активными веществами экстракта были приготовлены функциональные мармелад и круассаны для детей, что повысило их органолептические свойства, биологическую и функциональную ценность. Также было отмечено, что благодаря высокой сладости глицирризиновой кислоты можно снизить содержание сахара в продукте на 30–40%.

Ключевые слова: корень солодки, биологически активные вещества, экстракт, функциональное питание, детское питание, детский напиток, мармелад, натуральный подсластитель, снижение содержания сахара, биологическая ценность, антиоксидантная активность, пищевая технология, функциональные продукты, пищевая ценность, натуральный экстракт.

Abstract. In this study, a technology for obtaining an extract rich in biologically active substances from the root of licorice (Glycyrrhiza glabra L.) was developed and its application in functional food products was studied. According to the results of the analysis of the effects of ethanol solutions of different concentrations, temperature and time factors on the content of glycyrrhizinic acid and flavonoids during the extraction process, the extraction carried out in a 75% ethanol solution at a temperature of 50°C for 45 minutes showed the highest efficiency. The content of flavonoids, glycyrrhizinic acid, vitamin C and minerals in the obtained concentrate was determined using high-performance liquid chromatography and UV/Vis spectrophotometry. Functional marmalade and croissant products for children were prepared based on the extract rich in biologically active substances, which increased their organoleptic properties, biological and functional value. It was also observed that due to the high sweetness of glycyrrhizic acid, it is possible to reduce the sugar content in the product by 30–40%.

Keywords: Licorice root, biologically active substances, extract, functional food, baby food, baby drink, marmalade, natural sweetener, sugar reduction, biological value, antioxidant activity, food technology, functional products, nutritional value, natural extract.

KIRISH.

Oziq-ovqat mahsulotlari inson organizmini oziq moddalar bilan ta’minlab, metabolizm jarayonidan so‘ng energiya va issiqlik hosil qilish, organ hamda to‘qimalarning o‘sishi va tiklanishini ta’minlash uchun ishlatiladi. Shuning uchun oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibi va ularning komponentlari xossalarini o‘rganish ularning oziqaviy hamda tovar qiymatini aniqlashga yordam beradi [1].

ISSN 3030-3907

O‘simliklarning birlamchi va ikkilamchi metabolitlari yuqori biologik faollikka ega. Ularning tarkibidagi xlorofilllar, karotinoidlar kabi pigmentlar, polifenollar va askorbin kislotasi singari birikmalar antioksidant va antiradikal xususiyatlarga ega [2].

Uglevodlar o‘simlik to‘qimalarining rivojlanishi va pishib yetilishi uchun zarur bo‘lgan birlamchi metabolitlar hisoblanadi. Tadqiqotlar ularning kislorodning faol shakllari miqdorini me’yorda saqlashda muhim rol o‘ynashini va antioksidant sifatida faoliyat ko‘rsatishini isbotlagan [3].

Boshqa tomondan, fitonutrientlar immunitetni faollashtiradi va organizmning zaxira himoya mexanizmlarini rag‘batlantirib, metabolizmga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va organizmni ish qobiliyatini oshiradi, stress va boshqa noqulay omillar bilan bog‘liq muammolarning oldini olishga yordam beradi [4].

O‘simlik komponentlarini oziq-ovqat mahsulotlarida kompleks qo‘llash ularga funksional xususiyatlar beradi va kimyoviy tarkibi takomillashib, oziq moddalar va biologik faol birikmalar manbai bo‘lgan noan’anaviy mahsulotga aylanadi [5].

Bunday komponentlar aniq fiziologik ta’sirga va ko‘p funksiyali xususiyatlarga (antioksidant, antiseptik, immunomodulyator, radiohimoyalovchi, saratoniga qarshi va boshqalar) ega [6].

Ko‘plab o‘simliklar tarkibidagi ikkilamchi metabolitlar miqdorining yuqoriligi va ularni inson salomatligi uchun foydali ekanligini bilgan holda qadim zamonlardan beri oziq-ovqat sifatida iste’mol qilinadi. Ular farmasevtika, parfyumeriya, kosmetologiya, kulinariya va funksional oziq-ovqat mahsulotlari manbai sifatida sanoat miqyosida yetishtiriladi [7].

Ayrim oziq-ovqat mahsulotlari, ayniqsa o‘simliklardan tayyorlanganlari inson salomatligi uchun foydali ikkilamchi metabolit moddalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu funksional komponentlarni turli texnologik yoki biotexnologik jarayonlar yordamida ajratib olish orqali funksional oziq-ovqat mahsulotlari yoki nutrasevtik preparatlar yaratishda qo‘llash mumkin [1].

Glycyrrhiza glabra L. deb ataladigan, Hindistonda muhim dorivor o‘simlik hisoblanadigan qizilmiya o‘simligi xuddi shu xususiyatlarga ega. U Fabaceae (Leguminosae) oilasiga mansub. U Janubiy Yevropa va Osiyoning ayrim qismlarida, jumladan, Hindistonda o‘sadi. Uning genetik xususiyatlari yaxshi o‘rganilgan bo‘lib, u ko‘plab qadimiy mamlakatlarda dori sifatida qo‘llanilib kelmoqda. Glisirrizin qizilmiya ildizlarining asosiy shirin ta'mli tarkibiy qismidir. Uning tarkibidagi glisirrizin va izolikviritin yallig‘lanishga qarshi, mikroblarga qarshi, yaraga qarshi, yo‘talga qarshi, antioksidant va diabetga qarshi xususiyatlarni namoyish etdi [8].

ISSN 3030-3907

Glycyrrhiza uralensis ildizlaridan olingan qizilmiya oziq-ovqat va dori-darmonlarda ishlatiladi. Qizilmiya ildizlari va barglari tarkibi jihatdan turli foydali komponentlarga boy bo‘lib, ular o‘rtasidagi metabolomlar va transkriptomlarni taqqoslash flavonoidlar va triterpenoid saponinlar sezilarli darajada farq qilishini ko‘rsatdi. Izoflavonlar izoflavon sintezida ishtirok etadigan xalkon izomeraza va flavon sintaza kodlovchi genlarning yuqori regulyatsiyasi tufayli ildizlarda boyitilgan [9].

O‘zbekiston ham shirinmiya yetishtirish va uni qayta ishlash bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlarda turadi. Shirinmiya ekstrakti va xom ashyosini eksporti bo‘yicha birinchi o‘rinda turadi [10].

Shirinmiya ildizidan tayyorlangan ekstrakt ko‘plab davolovchi xususiyatlarga ega bo‘lib, u yara kasalligiga qarshi, gepatoprotektiv, antioksidant, mikroblarga qarshi, o‘smaga qarshi, yallig‘lanishga qarshi, xotirani yaxshilovchi, xolesterinni kamaytiruvchi va antidepressant ta’sirlarni namoyon qiladi. Ushbu xususiyatlar bir qator ilmiy tadqiqotlarda ham o‘rganilgan [11].

Glycyrrhiza turi butun dunyoda oziq-ovqat va dorivor maqsadlarda ishlatiladi [12]. Qizilmiyaning umumiy xavfsiz deb tan olingan (GRAS) maqomi uni ko‘plab oziq-ovqat mahsulotlarida odatiy konsentratsiyalarda qo‘llash imkonini beradi. Shuningdek, qizilmiyaning shirin ta'mi uni turli xil oziq-ovqat mahsulotlarida, masalan, qandolat mahsulotlari va ziravorlarda ishlatishga yaroqli qiladi, bu yerda eng ko‘p ishlatiladigan o‘simlik qismi rizomlar va ildizlardir. Masalan, London tomchilari va Red Vines® qizilmiya bilan xushbo‘ylashtiriladi. Ziravorlarda qizilmiya kukuni odatda shirin chili sousida va soya sousida noyob ta'm qo‘shish uchun ishlatiladi. An'anaviy tibbiyotda va turli madaniyatlarning klinik amaliyotida Glycyrrhiza turli xil kasalliklarni davolash uchun qo‘llanilgan [13].

Tajribalar ko‘rsatishicha ultratovushli ekstraktorda olingan spirtli ekstrakt ko‘p bioaktiv moddalarni eritadi, samaradorligi yuqori. Qaynatma ekstrakt oddiy va ko‘p bioaktiv moddalarni eritadi. Ammo ultratvushli ekstraktorda olingan ekstratga nisbatan ko‘proq vaqt talab qiladi [14].

Shirinmiya ildizidan farmasevtika va kosmetika sohalarida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, undan oziq-ovqat sanoatida funksional mahsulotlar tayyorlash bo‘yicha yetarlicha ishlar qilinmagan. Sanoat miqyosida qo‘llash uchun texnologik optimizatsiya yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

METOD VA USULLAR. Shirinmiya ildizidan ekstrakt tayyorlash va biologik faol moddalar olish, ularni funksional oziq -ovqat mahsulotlariga qo‘llash uchun tajribalar olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida qizilmiya (Glycyrrhiza glabra L.) ildizlari tanlab olindi. Ildizlar mikroto‘lqinli quritish qurilmasida quritilib, laboratoriya tegirmonida 0.5–1.0 mm zarrachali kukun

ISSN 3030-3907

holiga keltirildi. Tarozi yordamida kukundan tortmalar olinib, ekstraktsiya jarayoniga tayyorlandi. Tajriba davomida foydalanilgan barcha kimyoviy moddalar analitik tozalik darajasiga ega. Shirinmiya ildizi tarkibidagi biologik faol moddalar (glitsirrizin va flavonoidlar) ni eritmaga o‘tkazish uchun spirtni turli konsentratsiyali eritmalaridan foydalanildi.

Ekstraktsiya jarayoni raqamli ultratovush hammomida (GT SONIC VGT-series) amalga oshirildi. Qurilma 40 kGs chastota, harorat va quvvatni boshqarish tizimi bilan jihozlangan.

Har bir eksperiment uchun G. glabra kukunining 100 g, oldindan belgilangan qattiq-suyuqlik nisbatlariga (1:10, 1:15, 1:20 g/ml) 96%, 75% va 45% li etanol bilan aralashtirildi.

Birinchi marta 96 % li spirt eritmasida 3 xil harorat – 40, 50, 60 ^{0}C da, 3 xil vaqt mobaynida – 30,45,60 minut davomida ekstraksiya qilindi.

Ikkinchi marta 75 % li spirt eritmasida 3 xil harorat – 40, 50, 60 ^{0}C da, 3 xil vaqt mobaynida – 30, 45, 60 minut davomida ekstraksiya qilindi.

Uchinchi marta 45 % li spirt eritmasida ham yuqoridagi tartibda ekstraksiya qilindi.

Olingan ekstraktlar filtrlandi. Tayyorlangan ekstraktlar rotatsion bug‘latgichda 2 soat 45 daqiqa, 50 ^{0}C, 240 mBar bosimda, aylanish tezligi 120 r/min, sovitish suvi harorati -6 ^{0}C sharoitda zichligi 1,26 bo‘lgunicha kosentratsiya qilindi.

Olingan konsentratlar tarkibidagi flavonoidlar va glitsirrizin aniqlandi. Namuna tarkibidagi flavonoidlarni aniqlashda **SPECORD 50 (UV/Vis)** — bu ultrabinafsha va ko‘rinadigan nurlar diapazonida ishlaydigan **spektrofotometrda,** moddalarning optik zichligini (absorbance) o‘lchash orqali ularning konsentratsiyasini aniqlashga asoslangan qurilma orqali aniqlandi (1-rasm).



1- rasm. UV/Vis spektrofotometri *(diapazoni 190–1100 nm)*

Olingan natijalar tahlili.

Olingan natijalarga ko‘ra ekstrakt tayyorlashda 75 % li etanol spirti eritmasida 50 ^{0}C haroratda 45 minut davomida ekstraksiya qilinganda flavonoidlar hamda glitsirrizin miqdori yuqori chiqqanligi kuzatildi (1- jadval).

ISSN 3030-3907

1- jadval.

75 % li spirt eritmasida ekstraksiya jarayonining natijalari

Eritma konsentratsiyasi, %	Quruq massa, g	Harorat, ^{0}C	Vaqt, min	Flavonoidlar miqdori, %	Glisirrizin miqdori, %
75	100	40	30	1,46	3,7
75	100	40	45	1,47	3,7
75	100	40	60	1,45	3,8
75	100	50	30	1,45	3,9
75	100	50	45	1,47	3,9
75	100	50	60	1,47	3,9
75	100	60	30	1,4	3,7
75	100	60	45	1,44	3,9
75	100	60	60	1,46	4

Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi asosida olingan konsentratning tarkibi tahlil qilindi (2- jadval).

2- jadval.

Shirinmiya ekstrakti tarkibidagi biologik faol moddalar

Namuna	Vitamin C mg/L	Gliserrizin kislota, mg/l	Flavonoidlar, mg/kg			Minerallar, mg/L		
			Kversitin	Apigenin	Kaempferol	K	Ca	Mg
Ekstrakt	50	0.106	32,454	14,416	12,412	532,11	30,584	39,46

Mineral tarkibi tahlili bo‘yicha 3 xil modda miqdori aniqlandi.

Olingan ekstrakt tarkibida biologik moddalar mavjud ekanligi va ularning yallig‘lanish hamda virusli kasalliklarga qarshi profilaktika qilish maqsadida funksional mahsulotlarga qo‘llash rejalashtirildi. Oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlashda olingan ekstraktdan foydalanib, laboratoriya sharoitida bolalar uchun marmelad shirinligi va krussan non bulochka mahsuloti tayyorlandi. Qizilmiya konsentrati qo‘shilgan marmelad tayyorlash uchun retseptura taklif etildi (3-jadval).

3-jadval.

1 kg tayyor mahsulot uchun tavsiya etiladigan retsept

Komponent	Miqdori (g)
Olcha sharbati	500
Shakar	400
Jelatin	47

ISSN 3030-3907

Qizilmiya konsentrati	10
Limon kislotasi	3
Suv	40
Jami	1000

Jelatinni shakarning bir qismi (taxminan 50 g) bilan quruq holda aralashtirildi. Meva pyuresini 60–70°C gacha qizdirildi. Jelatin-shakar aralashmasini sharbatga sekin qo‘shib aralashtirildi. Qolgan shakarni qo‘shib, qaynatildi.Qizilmiya ekstrakti qo‘shiladi va Limon kislotasini oz miqdordagi suvda eritib, pH 3,1–3,4 oralig‘iga keltiring. Jelatin gelining optimal hosil bo‘lishi kislotali muhitda kuzatiladi. Massani qoliplarga quyib, 12–24 soat davomida gel hosil bo‘lishiga qoldirildi (3-rasm).



3-rasm. Qizilmiya konsentrati qo‘shilgan marmelad.

Tarkibida biologik faol moddalar mavjud bo‘lgan shirinmiya ekstraktining konsentrati qo‘shilgan kruassan tayyorlash uchun umumiy un massasini 2 % miqdorida konsentrat kiritildi.

500 g oliy navli bug‘doy uni, 250 ml iliq, 35-38°C sut, 10 g (2%) qizilmiya ildizi konsentrati, 40 g shakar, 5 g tuz va 7 g quruq xamirturushdan iborat xamir tayyorlandi. Xamir yaxshi tingandan keyin xona haroratidagi 250 g yumshatilgan sariyog‘ni xamir orasiga plastika shaklida qo‘yib, konvert qilib, tindirish uchun sovutgichga qo‘yiladi. Tingan xamir 7-8 mm qalinlikda yoyilib, kerakli o‘lchamlar kesildi va yakuniy fermentatsiya uchun tindirish shkafiga jo‘natildi. Ko‘tarilgan kruassanlar 200 °C li pishirish pechida 20-25 daqiqa davomida usti chiroyli oltin-jigarrang tus olguncha pishirildi (4- rasm).

ISSN 3030-3907





4 - rasm. Qizilmiya konsentrati qo‘shilgan Kruassan

(Qizilmiya tarkibidagi glitsirrizin kislotasi shakardan 30-50 marta shirin bo‘lgani uchun, odatdagi shakar miqdori 30-40% gacha kamaytiriladi.

XULOSA. Shirinmiya (Glycyrrhiza glabra L.) ildizidan olingan ekstrakt biologik faol moddalarga boy bo‘lib, uni funksional oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda samarali qo‘llash mumkin. Ekstraksiya jarayoni parametrlarini optimallashtirildi va bu sharoitda flavonoidlar va glitsirrizin kislotasining yuqori miqdorda ajralib chiqishi ta’minlandi.

Olingan konsentrat asosida tayyorlangan marmelad va kruassan mahsulotlari yuqori organoleptik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, mahsulotlarning ta’mi, hidi, rangi va iste’molboplik xususiyatlari yaxshilandi. Shirinmiya tarkibidagi glitsirrizin kislotasining tabiiy shirinlik xususiyati mahsulot tarkibidagi shakar miqdorini sezilarli darajada kamaytirish imkonini berdi. Bu esa mahsulotlarning nafaqat funksional, balki sog‘lom ovqatlanish talablariga mosligini ham ta’minlaydi.

Tadqiqot davomida shirinmiya ekstraktining antioksidant, immunomodulyator va profilaktik xususiyatlarga egaligi aniqlanib, uni bolalar va profilaktik oziqlanish mahsulotlari tarkibida qo‘llash istiqbolli ekanligi asoslandi. Olingan natijalar shirinmiya ildizini oziq-ovqat sanoatida mahalliy xom ashyo sifatida keng qo‘llash, import o‘rnini bosuvchi va yuqori qo‘shimcha qiymatli funksional mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Naviglio, D., & Gallo, M. (2020). Application of Analytical Chemistry to Foods and Food Technology. Foods, 9(9), 1296. https://doi.org/10.3390/foods9091296

2. Njus, D., Kelley, P. M., Tu, Y. J., & Schlegel, H. B. (2020). Ascorbic acid: The chemistry underlying its antioxidant properties. *Free Radical Biology and Medicine*, *159*, 37-43.

3. Nadarajah, K. K. (2020). ROS homeostasis in abiotic stress tolerance in plants. *International journal of molecular sciences*, *21*(15), 5208.
4. Papalia, T., Barreca, D., Calderaro, A., & Panuccio, M. R. (2020). Phytonutrients: Structure-function relationship, health benefits, stability, and fate during processing. In *Phytonutrients in Food* (pp. 1-22). Woodhead Publishing.
5. Rashidov, N., Chowaniak, M., Niemiec, M., Mamurovich, G. S., Gufronovich, M. J., Gródek-Szostak, Z., ... & Komorowska, M. (2021). Assessment of the multiannual impact of the grape training system on GHG emissions in north Tajikistan. *Energies*, *14*(19), 6160.
6. Jain, S., Buttar, H. S., Chintameneni, M., & Kaur, G. (2018). Prevention of cardiovascular diseases with anti-inflammatory and anti-oxidant nutraceuticals and herbal products: an overview of pre-clinical and clinical studies. *Recent patents on inflammation & allergy drug discovery*, *12*(2), 145-157.
7. Hutsol, T., Priss, O., Kiurcheva, L., Serdiuk, M., Panasiewicz, K., Jakubus, M., Barabasz, W., Furyk-Grabowska, K., & Kukharets, M. (2023). Mint Plants (*Mentha*) as a Promising Source of Biologically Active Substances to Combat Hidden Hunger. *Sustainability*, *15*(15), 11648. https://doi.org/10.3390/su151511648
8. Kaikiang Yu, LI Peng, Wenyu Liang, Jing Shi, Guoqi Zheng, Hong Wang, Xinhua Liang, Shijie Wu Integrative metabolome and transcriptome analyses reveal the differences in flavonoid and terpenoid synthesis between Glycyrrhiza uralensis (licorice) leaves and roots Published: 20 November 2023.Volume 33, pages 91–101, (2024)
9. Saidalah Pidigam, Amarapalli Geetha, Someshwar Rao Pandravada, Suhail Khan, Natarajan Sivaraj. Glycyrrhiza glabra L. Medicial and Aromatic Plants of India, Vol,3 14 December 2024 pp 171-185 Oec.World/en/profile/hs/liquorice-extract
10. Esmaeili, H., Mirjalili, M.H., Karami, A. et al. Introducing the glycyrrhizic acid and glabridin rich genotypes from the cultivated Iranian licorice (Glycyrrhiza glabra L.) populations to exploit in production systems. Sci Rep 14, 11034 (2024). https://doi.org/10.1038/s41598-024-61711-1
11. Kao T. C., Wu C. H., Yen G. C. Bioactivity and potential health benefits of licorice. Journal of Agricultural and Food Chemistry. 2014;62(3):542–553. doi: 10.1021/jf404939f. [DOI] [PubMed] [Google Scholar]
12. Fiore C., Eisenhut M., Ragazzi E., Zanchin G., Armanini D. A history of the therapeutic use of liquorice in Europe. Journal of Ethnopharmacology. 2005;99(3):317–324. doi:10.1016/j.jep. 2005.04.015. [DOI] [PMC free article] [PubMed] [Google Scholar]

13. Madraximova M.Qishloq xo‘jaligida Qizilmiya ildizidan ekstraksiya olish usullarini samaradorligini aniqlash. “Topical issues of achieving sustainable economic growth through enhancing the effectiveness of intersectoral integration in the New Uzbekistan” February 27, 2026 https://doi.org/10.5281/zenodo.19028856
14. Zokirova Mashhura Sodiqjonovna; Usmonjonova Xulkar Umarqulovna; Madraximova Muazzam Kenja qizi. Shirinmiya ildizi ekstraktini olish jarayoni uchun dasturiy ta’minot. Talabnoma raqami: DT 202606295 . № DGU 65342

MATHCAD TIZIMIDA ODDIY DIFFERENTSIAL TENGLAMALARNI YECHISH

Xodjiev Safar
Orienlal universineti, professor
E-mail: Safar1951@yandex.ru;
Pirimov Akram
Navoi davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, dotsent
E-mail: pirimovakram615@gmail.com;
Ubayev Sherali Xabibullo o‘g‘li
Orienlal universineti “Matematika va axborot texnologiyalari” kafedra magistri.
E-mail: sheraliubayev1999.07@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada oddiy differentsial tenlamalarni MathCAD tizimi o‘rnatilgan maxsus fuksiyalari va dasturlash tili operatorlari yordamida dastur tuzib yechish yo‘llari ko‘rsatilgan. Differentsial tenlamalarni taqribiy yechish Eyler, soddalashtirilgan Eyler va Runge-Kutta ysullari bayon qilinib, ular algoritmlari asosida yechish dasturlari tuzilgan. Yechimlar listigda grafik va jadval ko‘rinishda izohlar bilan chiqarilib ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: MathCAD, oddiy differentsial tenglama, Eyler, Runge-Kutta, dastur, Koshi masalasi, oshkor sxema.

Аннотация. В данной статье показано пути и методы, как решать обыкновенные дифференциальные уравнения с использованием специальных встроенных функций и операторов языка программирования систему MathCAD. Приближенное решение дифференциальных уравнений описывается методами Эйлера, упрощенного метода Эйлера и Рунге-Кутты, а программы для их решения создаются на основе их алгоритмов. Решения представлены в листинге в графической и табличной форме с пояснениями.

Ключевые слова: MathCAD, обыкновенное дифференциальное уравнение, Эйлер, Рунге-Кутта, программа, задача Коши, явная схема.

Abstract. This article demonstrates how to solve ordinary differential equations using special built-in functions and operators of the MathCAD programming language. Approximate solutions to differential equations are described using the Euler, simplified Euler, and Runge-Kutta methods, and programs for solving them are created based on these algorithms. The solutions are presented in the listing in graphical and tabular form with explanations.

Keywords: MathCAD, ordinary differential equation, Euler, Runge-Kutta, program, Cauchy problem, explicit scheme.

KIRISH.

Hozirgi kunda dolzarbligi oshib borayotgan IT ni respublikamizda rivojlantirishini va amalda qo‘llanishi Prezidentimiz tamonidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlanib va nazorat qilib kelinmoqda.

Davlatimiz, real iqtisodiyot tarmoqlarida, boshqaruv, biznes, fan va ta’lim sohalarida kompyuter va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, aholi turli qatlamlarining zamonaviy kompyuter va axborot xizmatlaridan keng bahramand bo‘lishlari uchun shart-sharoitlar yaratish va maktablar, kasb-hunar kolleglari, akademik litseylar va oliy o‘quv yurtlarining ta’lim jarayoniga zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini egallashga hamda ularni faol qo‘llanishga asoslangan ilg‘or ta’lim tizimlarini kiritishga katta e’tibor qaratmoqda.

IT sohasidagi yoshlarning bilimlarini rivojlantirish nafaqat kompyuter texnologiyasi bazasini oshirish bilan, balki nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun va o‘z masalalarini zamonaviy tizimlardan samarali foydalanib yechini ta’minlovchi qollanmalar, elekton darsliklar hamda shu sohaga bag‘ishlangan ricolalar bilan ta’minlashni ham talab qiladi.

Ushbu maqola, oz bo‘lsa ham shynday masalalarni yechishga qaratilgan, ya’ni oddiy differentsial tenglamalarni (ODT) MathCAD tizimi yordamida yechishni o‘rgatishga mo‘ljallangan.

Hozirgi kunda fan va texnika ribojlanishi, fizik va matematiklar ixtiyorida samararli usullar va metodlar hamda kuchli hisoblash vositalarini borligi hamda deyarli mukammal matematik tizimlar (MathCAD, MATLAB, Maple, Mathematica) va boshqa maxsus matematik dasturiy ta'minot paketlari kompyuterga asoslangan muhandislik hisob-kitoblari uchun tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda. Buning natijasida esa mavjud usullarni yanada mustahkamlash va amaliy masalalarni tizimlar yordamida tez va samarli yechishini qayta ko‘rib chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Qisqa qilib aytganda, MathCAD - bu elementar va oliy matematikaning deyarli barcha sohalaridagi masalalarini va muxandislik hisob ishlarini bajarish uchun dasturiy yechishga mo‘ljallangan noyob sistemadir (tizimdir). Tizimning nomlanishi ikkita so‘zdan tashkil topgan bo‘lib – MATHematika (matematika) va CAD (avtomatik loyihalash sistemasi). MathCAD tizimi imkoniyatlari va ularni o‘zlashtirish hamda amaliy masalalarni yechiga tadbiqi haqidagi ma’lumotlar juda ko‘p adabiyotlarda batafsil bayon qilingan [1÷10].

Shuni eslatib o‘tamizki, MathCAD tizimi asosiy imkoniyatlaridan biri - u o‘zining dasturlash tiliga ham ega. Hozirgi vaqtda MathCAD tizimi bir qator versiyalari mavjud. Masalan, MathCAD 13, MathCAD 15.0, MathCAD 2020 va hokazo va ular imkoniyatlari hamda samaradorligi bilan farq qiladi.

Bizning maqsadimiz, MathCAD tizimi maxsus funksiyalari va differensial tenglamalarni sonli yechish usullaridan foydalanib uning dasturlash tili

ISSN 3030-3907

yordamida dastur tuzib yechish hamda olingan yechimlarni jadbal va grafik usulda tasvirlab tahlil qilish yollarini korsatishdan iborat.

Fizika, mexanika, gidroaerodinamika, teplotexnikai, iqtisodiyot, texnika va boshqa sohalarning turli masalalarini modellashtirib o‘rganishda u differentsial tenglamani yechishga olib keladi.

Noma’lum funksiyalar, ularning turli tartibli hosilalari va erkli o‘zgaruvchi ishtirok etgan tenglamalarga differensial tengamalar deiladi.

Differensial tenglamalar asosan ikki gruhga bo‘linadi. Birinchisi oddiy ikkinchisi xususiy hosilali differensial tenglamalar [1÷10]. Agar tenlamadagi noma’lum funksiya faqat bitta erkli o‘zgaruvchiga bog‘liq bo‘lsa, bunday tenglamaga **oddiy differensial tenglama** (ODT) deyiladi.

Differensial tenglamalarni integrallash usuli yordamida yechish amalda uchraydigan tenglamalarning faqat nisbatan kichik qismi uchun mos keladi. Shuning uchun differensial tenglamalarni taqribiy yechish usullari katta ahamiyatga ega, ularni yechimni taqdim etish shakliga qarab ikki guruhga bo‘lish mumkin: 1) differensial tenglamaning analitik ifoda shaklidagi taqribiy yechimini ta'minlaydigan analitik usullar; 2) jadval shaklida taqribiy yechimlarni taqdim etuvchi sonli usullar.

Differensial tenglamalar haqida tushinchalar, ularning tiplari, analitik yechish metodlari [11÷13], sonli yechish metodlari [14÷19] va MathCAD tizimi yordamida yechish [3, 8, 16] va bir qator boshqa adabiyotlarda keltirilgan.

MathCAD tizimi yordamida differensial tenglamalarni yechish uchun kompyutiringizda uning biror versiyasi, masalan MathCAD 15.0 o‘rnatilgan bo‘lishi yoki biror versiyasini o‘rnatishingiz kerak bo‘ladi.

Oddiy differensial tenglamalarni yechishda ko‘p hollarda biror bir boshlang‘ich yoki chegaraviy shartni qanoatlanriradigan yechim izlanadi. Odatda , boshlang‘ich shartni qanoatlantiruvchi yechimini topish masalasiga Koshi masalasi deyiladi.

Oddiy differensial tenglamalar nazariyasining asosiy masalalaridan biri, bu Koshi masalasi bo‘lib, uning yechimi mavjudmi? Agar bunday yechim mavjud bo‘lsa, u yagonami? Agar yechim mavjud va yagona bo‘lsa, bu yechimni topish algoritmi qanday bo‘ladi? degan savollarga javob berishdan iborat. Bu savollarga javob beradigan teoremalar mavjudlik va yagonalik teoremalari deb yuritiladi. MathCAD tizimi yordamida differensial tenglamalarni yechishda bu shartlar bajariladi deb yechimni topamiz.

Oddiy differensial tenglamalarni yechish uchun ixtisoslashtirilgan MathCAD maxsus fuktsiyalaridan foydalanib yoki MathCAD dasturlash tili operatorlari yordamida differensial tenglamalarni sonli yechish metodlari asosida dastur tuzib yechish mumkin. Ikkala holda ham taqribiy usullardan foydalaniladi.

ISSN 3030-3907

Odatda iteratsiya, Koshi, Eyler, soddalashtirilgan Eyler va Runge-Kutta va boshqa taqribiy yechish metodlari qo‘llaniladi. Bularning asosida differensialni chekli airma orqali approksimatsiyalab yechishga asoslangan.

Chekli airima usuli, differensial tenglamalarni sonli yechimini toppish uchun universal usuldir. Ushbu usulda argumentning uzluksiz o‘zgarish sohasi diskret nuqtalar to‘plami bilan yaqinlashtiriladi va chekli airma panjara hosil qiladi. Asl differentsial tenglama airma tenglama bilan almashtiriladi va kerakli funksiya panjara (to‘r) funktsiyasi bilan almashtiriladi. Shunday qilib, differentsial tenglamani yechish chekli airma yordamida panjara tugunlarida funktsiya (yechimni) qiymatlarini hisoblashga keltiriladi [18,19].

Aniq yechimni, chekli airma yaqinlashuv bilan almashtirishning haqiqiyligi, uning yaqinlashishi va barqarorligi yechilayotgan tenglamalarning o‘ziga xos xususiyatlariga va tanlangan sonli yechim usuliga bog‘liq [15÷17].

MathCAD oddiy differensial tenglamalarni yechish uchun bir qator standart funksiyalarga ega. Bu funksiyalar differensial tenglamalarni biror metod bilan yechish usuli bilan farq qiladi xolos, yani differensial tenglamani yechadigan har bir algoritm uchun MathCAD har xil funksiyalarga ega [11÷15]. Differensial tenglamalarni sonli yechish uchun quyidagilar talab qilinadi:

1. Differensial tenglamani to‘liq ko‘rinishi. 2. Boshlang‘ich shart (shartlar).
3. Yechim topiladigan nuqtalar soni.

Oddiy differentsial tenglamalarni yechish uchun Mathcad raqamli integratsiya uchun **Odesolve** (berilgan blokli tizimlar uchun) yoki Runge-Kutta funktsiyalari (**rkadapt, rkfixed, Rkadapt**) kabi o‘rnatilgan funksiyalardan foydalaniladi. MathCAD shuningdek, boshlang‘ich shartlarni belgilash va yechimlarni chizish imkonini beradi. MathCAD oddiy differetsial tenglamalarni yechish uchun ularni tizim sifatida belgilash va sonli natijalarni olish uchun kuchli algoritmlardan foydalanish orqali yechish imkonini beradi.

Runge-Kutta usuli yordamida oddiy differensial tenglamalarni yechish uchun MathCAD dasturiga bir qator funksiyalar kiritilgan:

- **rkadapt (y,x_1,x_2,acc,n,F,k,s)** – o‘zgaruvchan qadam, qabul qilinadigan yechim xatosi (taxminan 0,001 tavsiya etiladi) va y vektoridagi boshlang‘ich shartlar bilan Runge-Kutta usuli yordamida hisoblangan oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun x_1 dan x_2 gacha bo‘lgan oraliqda Koshi masalasi yechimining qiymatlari jadvalini o‘z ichiga olgan matritsani qaytaradi (sistemaning o‘ng tomonlari **F** vektorida yozilgan, n - qadamlar soni, k - oraliq yechim nuqtalarining maksimal soni va s - nuqtalar orasidagi minimal qabul qilinadigan oraliq);

ISSN 3030-3907

- **Rkadapt (y,x_1,x_2, n,F**) – o‘ng tomonlari x_1 dan x_2 gacha bo‘lgan oraliqda **F** ramziy vektorida yozilgan y vektoridagi boshlang‘ich shartlarga ega oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun o‘zgaruvchan qadamli Runge-Kutta usuli bilan yechimlar matritsasini qaytaradi; n nuqtalar soni;

- **rkfixed (y,x_1,x_2,n,F)** – o‘ng tomonlari x_1 dan x_2 gacha bo‘lgan oraliqda **F** ramziy vektorida yozilgan y vektoridagi boshlang‘ich shartlarga ega oddiy differensial tenglamalar tizimi uchun belgilangan n qadamlar soni uchun Runge-Kutta usuli bilan yechimlar matritsasini qaytaradi. Bu funksiyalar va ularni parametrlarini o‘zlashtirish uchun quyida keltirilgan misollarga e’tibor qarataylik.

Ushbu $\frac{dy}{dx} = f(x, y)$ ODT $y(x_0)=y_0$ boshlang‘ich shart asosida yechishni ko‘ramiz.

Misol tariqasida, ushby $y' = x^2 + y^2$ tenglamani y(0)=1 shart bilan n=10 nuqtada h=0.1 qadamda yechimini topishni qarab chiqaylik (1-rasm). Dastlab **rkfixed** fuksiyasi yordamida yechimni topish va uni jadval hamda grafik korinishda ifodalashni ko‘rsatamiz. MathCAD tizimi oynasida bu 1-rasmdagi ko‘rinishda bo‘ladi.

Endi ushbu (Koshi masalasi) $\frac{dy}{dx} = f(x, y)$ birinchi tartibli oddiy differensial tenglamaning boshlang‘ich shart bilan [x_0, x_n] kesmadagi yechimini topishda MathCAD tizimi dasturiy tilidan foydalanib dastur tuzib echishni ko‘rsatamiz.

Buning uchun, biror taqribiy yechish metodi asosida uning algoritmi tuziladi. Bu masalaning taqribiy yechimini topishda hisoblashlar h = (x_n – x_0)/n qadamni topish bilan boshlanadi va bunda hisob tugunlari sifatida [x_0, x_n] kesmadagi x_i = x_0 + i·h, i=0,1, ..., n nuqtalardan foydalaniladi. Bu yerda n-barcha tugun nuqtalar soni. Maqsad, quyidagi jadvalni tuzish:

x_i	x_0	x_1	…	x_n
y_i	y_0	y_1	…	y_n

ya’ni y(x) funksiyaning taqribiy qiymatlari to‘rning tugun nuqtalarida izlanadi.


ISSN 3030-3907

ushby $y' = x^2 + y^2$ tenglamani y(0)=1 shart bilan n=10 nuqtada h=0.1 qad
yechimini topishni ko'raylik

yechim [0,1] kesmada aniqlancin $y_0 := 1$ $D(x,y) := x^2 + (y_0)^2$

$z := rkfixed(y,0,1,20,D)$

yechimni grafik ko'rinishi



yechim

z =

	x	y
0	0	1
1	0.05	1.053
2	0.1	1.111
3	0.15	1.178
4	0.2	1.253
5	0.25	1.339
6	0.3	1.44
7	0.35	1.557
8	0.4	1.696

1-rasm. rkfixed funksiyasi yordamida oddiy differentsial tenglamani yechish.

Eylerning oshkor usuli. Koshi masalasini taqribiy yechishning universial usulini tavsiflaymiz:

$$y'(x) = f(x,y(x)),\ x_0 \le x \le x_0 + L, \quad (1)$$

$$y(x_0) = \varphi\ . \quad (2)$$

bu yerda L > 0, L – integrallash kesmasining uzunligi. Bu tenglamaning yechimi deb shunday y(x) funksiya tushuniladiki, u berilgan $[x_0, x_0+L]$ kesmaning har bir nuqtasida hosilaga ega, shu nuqtalarda (1) tenglamani qanoatlantiradi va $x = x_0$ nuqtada qo‘shimcha (boshlang‘ich) shart (2) ni qanoatlantirsin [18,19].

(1) differensial tenglamada to‘rning x_i nuqtasida $y'(x_i)$ hosilani

$$\frac{y(x_i+h)-y(x_i)}{h} = \frac{y(x_{i+1})-y(x_i)}{h} \quad (3)$$

ayirma bilan almashtirib, to‘r bo‘yicha xatolikni (3) da nolga teng desak, ushbuga ega bo‘lamiz

$$\frac{y(x_{i+1})-y(x_i)}{h} = f(x_i,y(x_i)). \quad (4)$$

Bu tenglikni izlanayotgan ikkita $y(x_i)$ va $y(x_{i+1})$ miqdorlar qanoatlantiradi va (4) tenglama barcha i = 0, 1, …, n–1 lar uchun o‘rindi. Bulardan esa (4) tenglama n ta tenglamalardan iborat sistemasini tashkil qiladi (bu yerda i = n uchun (4) tenglamani yozib bo‘lmaydi, chunki bu tugunda x_{i+1} nuqta to‘rdan tashqariga chiqib ketadi).

ISSN 3030-3907

Bu (4) tenglamalar sistemasiga ushbu $y_0 = \varphi$ tenglikni ham qo‘shib, noma’lum y_i miqdorlarni topishning skalyar tenglamalar sistemasini hosil qilamiz.

Ushbu $y_0, y_1, \ldots, y_n$ ketma-ketlik skalyar tenglamalar sistemasi (4) dan topilgan noma’lum y_i miqdorlarning qiymatlari bo‘lib, ular ***to‘r yechimlar*** deb ataladi, bu ketma - ketlikning umumiy hadi y_i esa to‘r yechimning x_i tugundagi qiymati deyiladi.

To‘r yechimlarni topishning yuqorida keltirilgan ushbu

$$y_0=\varphi,\quad y_{i+1}=y_i+h\cdot f(x_i, y_i),\quad i=0, 1, \cdots, n-1. \qquad (5)$$

algoritmi 1768 yilda shvetsariyalik matematik olim Leonard Eyler (1707- 1783) tomonidan taklif etilgan bo‘lib, bu algoritm uning nomiga Eylerning oshkor usuli deb ataladi. Bu usulning «oshkor» deb atalishiga sabab (5) tenglamaning y_{i+1} ga nisbatan yechilgan holda berilishidadir. Bu bilan (5) oshkor formula oldingi x_i tugundagi y_i to‘r yechimdan foydalanib x_{i+1} tugundagi y_{i+1} to‘r yechimni topish imkoniyatini berishi tushuniladi.

Bu uslub (1) - (2) Koshi masalasini taqribiy yechishning ushbu $y_0=\varphi$, $y_{i+1}=y_i+h\cdot f(x_i, y_i)$, $i=0, 1, \cdots, n$ algoritm shaklida yozilgan Eylerning oshkor usuli deb ataladi.

Ko‘pincha birinchi tartibli oddiy differentsial tengamalarni yechishda bir qadamli usullarning yana boshqa usuli mavjud, bu Eylerning to‘g‘rilangan (modifikatsiyalangan) usulidir. Eylerning to‘g‘rilangan usuli quyidagi munosabatlar bilan beriladi: y_0 – berilgan,

$$y_{i+1}=y_i+h\cdot f\left(x_i+\frac{h}{2}, y_i+\frac{h}{2}\cdot f(x_i, y_i)\right),\quad i=0, 1, \cdots, n-1. \qquad (6)$$

Bu usullarda oldingi qadamda hisoblangan y_i yechimdan foydalanib y_{i+1} tugun yechimni topish ikki bosqichda bajariladi. Eylerning to‘g‘rilangan

usulida avvalo oldingi qadamdagi y_i ning qiymati yuqorida tavsiflangan ushbu

$$\bar{y}_{i+1}=y_i+h\cdot f(x_i, y_i), \qquad (7)$$


Eylerning oshkor usuli formulasidan topiladi, undan keyin esa uning x_{i+1} tugundagi to‘r yechimi quyidagi formuladan foydalanib topiladi:

$$y_{i+1}=y_i+\frac{h\cdot}{2}\cdot\left(f(x_i, y_i)+f\left(x_{i+1}, \bar{y}_{i+1}\right)\right) \qquad (8)$$

Eylerning modifikatsiyalangan usuliga ko‘ra dastlab Eylerning oshkor usuli formulasi bo‘yicha quyidagi yordamchi to‘r yechim i+1/2 «yarim butun» nomer bilan $x_{i+\frac{1}{2}}=x_i+h/2$ oraliq tugunda topiladi: $\bar{y}_{i+\frac{1}{2}}=y_i+\frac{h\cdot}{2}\cdot f(x_i, y_i)$, keyin esa, izlanayotgan y_{i+1} to‘r yechim quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$y_{i+1}=y_i+h\cdot f(x_{i+\frac{1}{2}}, \bar{y}_{i+\frac{1}{2}})$.

ISSN 3030-3907




	0
0	0
1	0.1
2	0.2
3	0.3
4	0.4
5	0.5
6	0.6
7	0.7
8	0.8
9	0.9
10	1
11	1.1

	0
0	1
1	1.1
2	1.222
3	1.375
4	1.573
5	1.837
6	2.2
7	2.719
8	3.508
9	4.802
10	7.19

2-2-rasm. ODT ni Eyler ysulida yechish dasturi.

Endi yuqoridagi keltirilgan algoritmlar asosida ODTyechamini topish dasturlarini tuzamiz. 2-rasmda ODT ni Eyler ysulida yechish dasturi va 3-rasmda Eyler tuzatilgan ysuli yordamida ODT ni echish dasturlari keltirilgan. Ushbu MathCAD tizimi oynalarida (listingda), $y' = x^2 + y^2$ tenglamani qanday boshlang‘ich shartda, hisoblash nuqtalar sonida, natijani grafik va jadval ko‘rinishda chiqarilishi hamda dastur tushinarli bolishi uchun etarli darada izohlar bilan keltirilgan. Qo‘shimcha izoh berishga hojat yo‘q.

ISSN 3030-3907




3-pasm. Eyler tuzatilgan ysuli yordamida ODT ni echish dasturi.

Birinchi tartibli oddiy differentsial tengamalarni yechida yana ko‘p qo‘llanalidan sonli usullardan biri bu- Рунге-Кутта hisoblanadi.

Runge-Kutta usullari - bu Runge va Kutta tomonidan taklif qilingan oddiy differensial tenglamalar (ODT) va ularning sistemalarini yechish uchun sonli usullar sinfidir. Ular Eyler usuliga nisbatan aniqlikni oshirish uchun har bir bosqichda bir nechta hosilaviy baholashlardan foydalaniladi, jumladan, eng katta klassik to‘rtinchi tartibli usul hisoblanadi. Ular yechimni aniqroq taqribiy yechish uchun funksiyaning "oraliq" qiymatlarini va har bir bosqichda hosilalarni hisoblash orqali ishlaydi va samaradorligi tufayli matematik dasturlarda keng qo‘llaniladi.

ISSN 3030-3907



4-rasm. Runge-Kutta usuli bilan ODT ni yechish dasturi.

Koshi masalasini, ya’ni (1) tenglamani (2) shart bilan taqribiy yechimini to‘rtinchi tartibli aniqlikdagi Runge - Kutta metodida quyidagi sxemalardan foydalaniladi

ISSN 3030-3907

$$\begin{cases} K_1 = f(x_k,\ y_k) \\ K_2 = f(x_k + \frac{h}{2},\ y_k + \frac{h}{2}K_1) \\ K_3 = f(x_k + \frac{h}{2},\ y_k + \frac{h}{2}K_2) \\ K_4 = f(x_k + h,\ y_k + hK_3) \\ y_{k+1} = y_k + \frac{h}{6}\cdot(K_1 + 2K_2 + 2K_3 + K_4) \end{cases} \qquad \begin{cases} K_1 = f(x_k,\ y_k) \\ K_2 = f(x_k + \frac{h}{4},\ y_k + \frac{h}{4}K_1) \\ K_3 = f(x_k + \frac{h}{2},\ y_k + \frac{h}{2}K_2) \\ K_4 = f(x_k + h,\ y_k + hK_1 - 2hK_2 + 2hK_3) \\ y_{k+1} = y_k + \frac{h}{6}\cdot(K_1 + 4K_3 + K_4) \end{cases}$$

ODTni Runge- Kutta usuli algoritmidan foydalanib yechish dasturi ishlashi va natijalar izohlar bilan 4-rasmda (listingda) keltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, $\frac{dy}{dx} = f(x, y)$ ko‘rinishdagi tenglamalarni taqribiy echimini topish uchun berilgan boshlangich shart, hisoblash nuqtalar soni va yechim topiladigan oraliqni hamda $f(x, y)$ funksiya ko‘rinishini dasturda berish yetarli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Навиковский Е.А. Учебное пособие “Работа в системе MathCAD”- Барнаул, Типография АлтГТУ, 2013, - 114 с.
2. Кочегурова Е. А. Основы работы и программирования в системе MathCad: учебное пособие / – Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2018 – 25 с.
3. Холоднов В. А. , В. П. Дьяконов, В. В. Фонарь, Р. Ю. Кулишенко, И. В. Ананченко. Системный анализ и принятия решений. Технология вычислений в системе компьютерной математики Mathcad: учебное пособие / – СПб.: СПбГТИ (ТУ), 2013. – 154 с.
4. Алексеев Е.Р., Чесноков О.В. Основы работы в математическом пакете MathCAD. Дон НТУ, 2013-187 с.
5. Васильев А.Н. MathCAD 13 на примерах. БХВ-Петербург, 2016-528 с.
6. Гурский, Д.А. Вычисления в Mathcad /-Минск.: Новое знание, 2003.–814 с.
8. Очков В.Ф. Mathcad 14 для студентов, инженеров и конструкторов / – СПб.: БХВ-Петербург, 2007. – 356 с.
9. Макаров Е.Г. Инжинерные расчеты в MathCAD.Учебное пособие. «Инфра-Инженеря», 2024, - 408 с.
10. С. В. Киреев, П. А. Вельмисов. Графики в Mathcad : учебно-методическое пособие / Ульяновск : УлГТУ, 2018. – 84 с.
11. Кирянов Д.В. Самоучитель Mathcad 13.-СПВ-Петербург, 2006, -528 с.

ISSN 3030-3907

12. Салохиддинов М.С. Математик физик тенгламалар. Т.:” Узбекистон”, 2002, 448 б.
13. Салохиддинов М.С., Насриддинов Г. Оддий дифференсиал тенгламалар.Тошкент, Ўқитувчи, 1994.
14. Xasanov A.B. Oddiy differensial tenglamalar nazariyasiga kirish. Turon-Matbaa, 2019, 445 b.
15. А.Ю. Крайнов, К.М. Моисеева. Численные методы решения краевых задач для обыкновенных дифференциальных уравнений. Учебное пособие,- – Томск: STT, 2016. – 44 с.
16. Пименов В. Г., Ложников А. Б. Численные методы : в 2 ч. Ч. 2 : [учеб. пособие] / [науч. ред. Ю. А. Меленцова] ; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал, федер. ун-т. - Екатеринбург : Изд-во Урал, ун-та, 2014. — 106 с.
17. Вельмисов П. А., Киреев С. В. Дифференциальные уравнения в Mathcad : учебное пособие / – Ульяновск : УлГТУ, 2016. – 109 с.
18. Вельмисов П. А., Киреев С. В. Приближенные методы решения дифференциальных уравнений: учебное пособие / – Ульяновск : УлГТУ, 2014. – 79 с.
19. Слабнов, В. Д. Численные методы : учебник / В. Д. Слабнов. — Санкт-Петербург : Лань, 2020. - 392 с.
20. Самарский А.А. Теория разностных схем. Учебное пособие//М.: Наука, 1977. 655 с.

ISSN 3030-3907

ELEKTR MAYDON TA'SIRIDA O'SIMLIK URUG'LARINI SARALASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Y.K.Xamidov
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
J.U.Qodirov
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
B.A. Xushboqov
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada elektr maydon ta'sirida o'simlik urug'larini saralash jarayonlari va usullari o'rganilgan. Yuqori kuchlanishli elektrostatik maydon yordamida urug'larni zichlik, namlik va to'liqlik darajasiga ko'ra ajratish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, elektrostatik saralash usuli urug'ning unib chiqish ko'rsatkichini 18–25% ga oshiradi. Maqsadli elektr maydoni parametrlari – kuchlanish, elektrodlar orasidagi masofa va urug' uzatish tezligi – optimallashtirilgan.

Kalit so'zlar: elektrostatik saralash, urug' sifati, elektr maydon, dielektrik xossalar, unib chiqish ko'rsatkichi, yuqori kuchlanish.

Аннотация. В данной статье исследованы процессы и методы сортировки семян растений под воздействием электрического поля. Проанализированы возможности разделения семян по плотности, влажности и степени полноты с помощью высоковольтного электростатического поля. Результаты экспериментов показали, что метод электростатической сортировки повышает показатель всхожести семян на 18–25%. Оптимизированы целевые параметры электрического поля — напряжённость, расстояние между электродами и скорость подачи семян.

Ключевые слова: электростатическая сортировка, качество семян, электрическое поле, диэлектрические свойства, показатель всхожести, высокое напряжение.

Abstract. This article investigates the processes and methods of sorting plant seeds under the influence of an electric field. The possibilities of separating seeds by density, moisture content and fullness using a high-voltage electrostatic field have been analyzed. Experimental results demonstrated that the electrostatic sorting method increases the seed germination rate by 18–25%. The target parameters of the electric field – voltage intensity, distance between electrodes and seed feed speed – have been optimized.

Keywords: electrostatic sorting, seed quality, electric field, dielectric properties, germination rate, high voltage.

KIRISH.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish jarayonida urug‘chilik sohasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yuqori sifatli urug‘larni tanlash va ularni ekishdan oldin saralash – bu hosildorlikni oshirishning asosiy omillaridan biridir. Sifatsiz yoki zarar ko‘rgan urug‘lar ekish materialining umumiy sifatini pasaytiradi, hosildorlik yo‘qotishlariga olib keladi.

An’anaviy mexanik saralash usullari – og‘irlik, o‘lcham va shakl bo‘yicha ajratish – bir qator cheklovlarga ega. Ular ichki biologik xususiyatlari yoki namlik darajasi bo‘yicha farq qiladigan urug‘larni samarali ajrata olmaydi. Shu sababli, zamonaviy fizikaviy usullar, xususan, elektrostatik texnologiyalar katta ahamiyat kasb etmoqda.

Elektr maydoni ta‘sirida urug‘larni saralash – bu urug‘larning dielektrik xususiyatlari, elektr o‘tkazuvchanligi va zaryadlanish qobiliyatidagi farqdan foydalanishga asoslangan zamonaviy texnologiya. Ushbu usul namlik darajasi, toliqlik darajasi va biologik faollik bo‘yicha urug‘larni aniq va tezkor ajratish imkonini beradi.

Elektrostatik saralash texnologiyasi bo‘yicha bir qator xorijiy va mahalliy tadqiqotlar o‘tkazilgan. Xitoy olimlari Zhao va boshqalar (2019) paxta urug‘larini elektrostatik saralash natijasida unib chiqish ko‘rsatkichi 22% ga oshganini qayd etishgan. Rossiyalik tadqiqotchi Shmelev (2020) qo‘sh elektrod tizimi asosida bug‘oy va tariq urug‘larini saralash qurilmasini ishlab chiqqan.

Hindistonda Singh va Mathur (2021) o‘tkazgan tajribalar shuni ko‘rsatdiki, elektr maydon kuchlanishi 30 kV/m dan 50 kV/m gacha oshirilganda sabzi va piyoz urug‘larining saralash samaradorligi sezilarli darajada yaxshilanadi. O‘zbekistonda ushbu yo‘nalish bo‘yicha ilmiy ishlar hali ham cheklangan bo‘lib, mahalliy iqlim va ekinlarni hisobga olgan holda tadqiqotlar davom ettirilishi kerak.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, elektrostatik saralash usuli ko‘plab mamlakatlarda sinovdan o‘tgan bo‘lib, u yuqori samaradorlik, ekologik xavfsizlik va iqtisodiy jihatdan maqbul texnologiya sifatida keng e’tirof etilmoqda.

Global urug‘ saralash mashinalar bozori hajmi 2023-yilda 870 million AQSh dollarini tashkil etdi va 2032-yilga kelib 1,2 milliard dollarga yetishi kutilmoqda (CAGR: 3,58%). Sun’iy intellekt va optik sensorlarni integratsiya qilish kabi texnologik yutuqlar bozor o‘sishini harakatlantirmoqda.

TADQIQOT MATERIALLARI VA USLUBI. Tadqiqot ob’yekti sifatida bug‘oy (Triticum aestivum L.), paxta (Gossypium hirsutum L.) va makkajo‘xori (Zea mays L.) urug‘lari tanlandi.

Elektrostatik saralash qurilmasi uchta asosiy qismdan iborat: yuqori kuchlanish generatori (0–50 kV), parallel joylashgan metall elektrodlar (masofa: 50–200 mm) va urug‘ uzatish lentasi (tezlik: 0,1–0,5 m/s). Qurilma parametrlari

ISSN 3030-3907

quyidagi diapazonlarda o‘rnatildi: kuchlanish E = 20, 30, 40 va 50 kV/m; elektrodlar orasidagi masofa d = 50, 100, 150 mm; urug‘ qatlami qalinligi h = 5, 10 va 15 mm.

Saralash samaradorligi quyidagi ko‘rsatkichlar orqali baholandi: 1) standart unib chiqish ko‘rsatkichi (GOST 12038-84 bo‘yicha); 2) 1000 ta urug‘ og‘iri; 3) namlik darajasi; 4) urug‘ tozaligi foizi.

Corona Razryad (Toj Razryad) Texnologiyasi - Bu eng ko‘p o‘rganilgan zamonaviy usullardan biri. Urug‘lar separator ichida ion bombardirovkasi orqali zaryadlanadi. Singan va to‘liq urug‘lar o‘zlarining yuzasi maydoniga qarab selektiv ravishda zaryadlanadi – singan urug‘lar og‘irligi kichik bo‘lgani uchun zaryad-massa nisbati farq qiladi va shu asosda ajratish amalga oshiriladi.

Konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN) va avtomatlashtirishni birlashtirish urug‘larni saralash jarayonining aniqligi va samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Tizim nazorat sharoitlarida yuqori klassifikatsiya aniqligiga erishib, mehnat talablarini kamaytirish va inson xatosini minimallashtirish imkoniyatini ko‘rsatdi.

Tajriba sharoiti: Elektr maydonidagi urug‘ xulq-atvori ikki asosiy mexanizm orqali amalga oshadi: induksion zaryadlanish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri elektr kuchi ta‘siri. Urug‘ zaryadining F kuchi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$F = q \cdot E = \varepsilon_0 \cdot \varepsilon r \cdot A \cdot E^2 / d$$

bu erda: q – urug‘dagi zaryad (Kl); E – elektr maydon kuchlanganligi (V/m); ε_0 – elektr o‘zgaruvchanligi ($8{,}85 \cdot 10^{-12}$ F/m); εr – urug‘ning nisbiy dielektrik kirituvchanligi; A – urug‘ning elektr maydonga qaragan kesim yuzi (m^2); d – elektrodlar orasidagi masofa (m).

Urug‘larning dielektrik xususiyatlari ularning namligi, zichligi va kimyoviy tarkibiga bog‘liq. To‘liq va sog‘lom urug‘lar namroq bo‘lgan sababli, ularning dielektrik kirituvchanligi (εr = 3,5–6,2) qurib qolgan va zaif urug‘larga (εr = 2,1–3,0) nisbatan yuqori. Bu farq elektr maydoni ta‘sirida urug‘larni tabaqalash uchun fizikaviy asosdir.

Tajriba natijalari: Quyidagi jadvalda elektr maydon kuchlanishiga ko‘ra bug‘oy urug‘larining unib chiqish ko‘rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval.

Elektr maydon kuchlanishiga bog‘liq saralash ko‘rsatkichlari (bug‘oy)

Ko‘rsatkich	Nazorat (0 kV/m)	20 kV/m	35 kV/m	50 kV/m
Unib chiqish, %	82,4	87,6	94,1	91,8

ISSN 3030-3907

1000 dona og‘iri, g	34,2	35,1	37,8	37,2
Namlik, %	11,8	11,6	11,5	11,4
Tozalik, %	91,5	93,2	97,4	96,9

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, E = 35 kV/m kuchlanishda unib chiqish ko‘rsatkichi maksimal darajaga – 94,1% ga – etadi, bu nazorat guruhidan 11,7 foizga yuqori. E = 50 kV/m da unib chiqish biroz pasayadi, bu kuchlanishning haddan oshishi urug‘ning biologik xususiyatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini bildiradi.

Paxta va makkajo‘xori urug‘lari uchun ham shunga o‘xshash natijalar qayd etildi. Paxta uchun optimal kuchlanish 30 kV/m, makkajo‘xori uchun esa 40 kV/m ekanligi aniqlandi. Bu farq har bir ekinning dielektrik xususiyatlari va fizikaviy tuzilishi bilan bog‘liq.

Elektrodlar orasidagi masofani 50 mm dan 150 mm gacha oshirish samaradorlikni pasaytiradi, chunki maydon kuchlanganligi kamayadi. Urug‘ qatlami qalinligi 5 mm da eng yaxshi natijalar kuzatildi: qatlamning qalinlashishi urug‘larning bir-biriga ta‘sir ko‘rsatishiga olib keladi.

Olingan tajriba natijalari asosida turli ekinlar uchun elektrostatik saralash qurilmasining optimal ishlash parametrlari quyidagicha belgilandi:

2-jadval.

Turli ekinlar uchun optimal elektrostatik saralash parametrlari

Ekin turi	E opt (kV/m)	d (mm)	h (mm)	Tezlik (m/s)
Bug‘doy	35	100	5	0,25
Paxta	30	100	5	0,20
Makkajo‘xori	40	150	10	0,30
Tariq	25	75	5	0,15

Sabzi urug‘larini corona razryad maydoni bilan rag‘batlantirish unib chiqish ko‘rsatkichini 7% dan 19% gacha oshiradi. Silindrli separatorda saralash orqali urug‘larning 60% ini sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan fraksiyaga ajratish mumkin.

Tariq urug‘larini manfiy corona razryad maydoni bilan ishlashda unib chiqish indeksi 29–32% ga oshgani qayd etilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, manfiy corona razryad maydoni musbatga nisbatan hujayra membranasini yanada samarali tiklaydi.

ISSN 3030-3907

Elektrostatik maydonda optimal dozaj – 2 kV/mm kuchlanishda 20 soniya ta’sir ko‘rsatish – unib chiqishni, ildiz-poya uzunligini va urug‘ quvvatini oshirishda samarali natija beradi.

XULOSA.

1. Elektrostatik saralash usuli o‘simlik urug‘larini biologik faolligi, namligi va to‘liqligi bo‘yicha samarali ajratish imkonini beradi. Bug‘doy urug‘lari uchun unib chiqish ko‘rsatkichi 11,7% ga, tozalik ko‘rsatkichi esa 5,9% ga yaxshilandi.

2. Optimal kuchlanish darajasi ekin turiga qarab 25–40 kV/m oralig‘ida bo‘lib, bu parametrni noto‘g‘ri tanlash (haddan oshishi yoki kamligi) samaradorlikni pasaytiradi.

3. Ishlab chiqilgan matematik model elektr maydon parametrlari, urug‘ dielektrik xususiyatlari va saralash samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqliqni to‘g‘ri tavsiflaydi (r = 0,94).

4. Elektrostatik saralash texnologiyasini mahalliy qishloq xo‘jailigi amaliyotiga joriy etish hosildorlikni oshirish va ekish materialini tejashga sezilarli hissa qo‘shishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zhao L., Wang Y., Chen B. Electrostatic separation of cotton seeds: effect of electric field strength on germination rate // Journal of Agricultural Engineering Research. – 2019. – Vol. 64(3). – P. 112–119.

2. Шмелев А.В. Электростатическая сепаратсия семян зерновйкҳ култур // Вестник РГАУ. – 2020. – №4. – С. 45–52.

3. Сингҳ Р., Матҳур С. Оптимизатион оф елестростатис сеед сортинг параметерс фор вегетабле сропс // Индиан Жоурнал оф Агрисултурал Ссиенсес. – 2021. – Вол. 91(5). – П. 78–85.

4. Каримов А.Б. О‘симлик ургларини саралашда електрофизик усуллар // Аграр фан. – 2022. – №3. – Б. 34–41.

5. О‘збекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020-йил 23-ноябрдаги 735-сон қарори. Уруг‘чилик соҳасини ривожлантирисҳ дастури. – Тосҳкент, 2020.

6. ГОСТ 12038-84. Семена селскокҳозяйственнйкҳ култур. Методй определения вскҳозҳести. – М.: Стандартинформ, 1984. – 58 с.

7. Юсупов О.Т., Мирзайев С.Х. Електр майдон таъсирида уруг‘лар диелектрик хусусиятларини олчаш методикаси // Механика ва технология. – 2023. – №2. – Б. 22–29.

ISSN 3030-3907

THE IMPACT OF GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON ENGLISH LANGUAGE TEACHING AND LEARNING: OPPORTUNITIES, CHALLENGES, AND PEDAGOGICAL IMPLICATIONS

Bahodirov Ulug‘bek Bahodir o‘g‘li
Uzbekistan state world languages university
E-mail: ulugbekuzb1978@gmail.com
https://orcid.org/0009-0002-1584-7602

Abstract. The rapid advancement of Generative Artificial Intelligence (GenAI) technologies has significantly transformed educational practices worldwide. In language education, tools such as ChatGPT, Gemini, Copilot, and Claude have introduced new opportunities for personalized learning, automated feedback, and content generation. This article examines the impact of Generative Artificial Intelligence on English Language Teaching (ELT) and learning processes in higher education. Drawing upon contemporary theoretical and empirical studies, the paper analyzes the pedagogical benefits, challenges, and ethical concerns associated with AI integration in language education. The study reveals that AI-powered technologies enhance learner autonomy, language proficiency development, and instructional efficiency. However, issues related to academic integrity, overreliance on technology, data privacy, and critical thinking require careful consideration. The article proposes a framework for the effective integration of AI tools into English language instruction and offers recommendations for educators, institutions, and policymakers.

Keywords: Generative Artificial Intelligence, ChatGPT, English Language Teaching, Educational Technology, Digital Learning, Academic Integrity, Personalized Learning, Language Education, Artificial Intelligence in Education, Higher Education.

Annotatsiya. Mazkur maqolada generativ sun’iy intellekt texnologiyalarining ingliz tilini o‘qitish va o‘rganish jarayonlariga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda ChatGPT, Gemini, Copilot va boshqa sun’iy intellekt vositalarining ta’limdagi afzalliklari, muammolari va pedagogik imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Natijalar ushbu texnologiyalar talabalarning mustaqil ta’lim olishiga, til kompetensiyalarini rivojlantirishga va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, akademik halollik, ma’lumotlar xavfsizligi va texnologiyalarga haddan tashqari bog‘liqlik bilan bog‘liq muammolar ham aniqlangan.

Kalit so‘zlar: generativ sun’iy intellekt, ChatGPT, ingliz tilini o‘qitish, raqamli ta’lim, akademik halollik, shaxsiylashtirilgan ta’lim, oliy ta’lim, ta’lim texnologiyalari.

Аннотация. В статье анализируется влияние технологий генеративного искусственного интеллекта на процессы преподавания и изучения английского языка. Рассматриваются преимущества, проблемы и педагогические возможности использования таких инструментов, как ChatGPT, Gemini и Copilot. Результаты показывают, что данные технологии способствуют развитию языковых компетенций, самостоятельного обучения и повышению эффективности образовательного процесса. Вместе с тем выявлены проблемы, связанные с академической честностью, безопасностью данных и чрезмерной зависимостью от технологий.

Ключевые слова: генеративный искусственный интеллект, ChatGPT, преподавание английского языка, цифровое обучение, академическая честность, персонализированное обучение, высшее образование, образовательные технологии.

INTRODUCTION.

The integration of Artificial Intelligence (AI) into educational environments has become one of the most transformative developments of the twenty-first century. Advances in machine learning, natural language processing, and generative models have created new possibilities for teaching and learning across various disciplines. Among these innovations, Generative Artificial Intelligence (GenAI) has emerged as a particularly influential technology capable of producing human-like text, images, audio, and other forms of content. The release of AI-powered tools such as ChatGPT, Gemini, Claude, and Microsoft Copilot has significantly altered educational practices, especially in language learning contexts.

English language education has traditionally relied on teacher-centered instruction, textbooks, and classroom interaction. However, the increasing availability of digital technologies has shifted educational paradigms toward learner-centered approaches emphasizing autonomy, collaboration, and personalized learning. Generative AI technologies support these objectives by providing immediate feedback, adaptive learning experiences, and opportunities for authentic language practice.

The growing popularity of AI applications in education raises important questions regarding their effectiveness, pedagogical value, and ethical implications. While proponents argue that AI enhances learning outcomes and instructional efficiency, critics express concerns about academic dishonesty, diminished critical thinking, and excessive dependence on technology. Consequently, educational institutions face the challenge of balancing innovation with responsible implementation.

ISSN 3030-3907

This study aims to examine the impact of Generative Artificial Intelligence on English Language Teaching and Learning (ELT). Specifically, the article explores the opportunities, challenges, and pedagogical implications associated with the integration of AI technologies into language education.

LITERATURE REVIEW.

The application of Artificial Intelligence in education has attracted considerable scholarly attention during the past decade. Holmes et al. (2022) define AI in education as the use of intelligent systems designed to support teaching, learning, and administrative functions.

Research indicates that AI-based technologies contribute to personalized learning by adapting instructional content to individual learner needs. According to Luckin (2018), intelligent educational systems facilitate differentiated instruction and improve learner engagement through customized feedback mechanisms.

In language education, AI technologies have demonstrated significant potential for enhancing linguistic competence. Studies by Wang and Petrina (2023) reveal that AI-powered chatbots support vocabulary acquisition, writing development, and conversational practice. Similarly, Kohnke et al. (2024) emphasize the effectiveness of ChatGPT in promoting autonomous language learning and improving student motivation.

However, researchers have also identified several challenges associated with AI adoption. Cotton et al. (2023) highlight concerns regarding plagiarism, academic integrity, and ethical use of AI-generated content. Furthermore, Selwyn (2024) argues that excessive reliance on AI tools may reduce opportunities for critical thinking and independent problem-solving.

Despite these concerns, recent literature suggests that AI technologies should be viewed as complementary rather than replacement tools within educational settings. Effective implementation requires pedagogically informed strategies that maximize benefits while minimizing risks.

RESEARCH METHODOLOGY.

This study employs a qualitative research design based on systematic literature review and conceptual analysis. Research Methods. Content analysis; Comparative analysis; Thematic analysis; Conceptual synthesis. The study examines peer-reviewed articles published between 2020 and 2025 in Scopus-indexed and Web of Science-indexed journals focusing on educational technology, language learning, and artificial intelligence.

1. What opportunities does Generative AI provide for English language teaching and learning?

ISSN 3030-3907

2. What challenges emerge from the use of AI technologies in language education?

3. How can educators effectively integrate AI tools into pedagogical practice?

RESULTS AND DISCUSSION.

Opportunities of Generative AI in English Language Teaching. One of the most significant advantages of Generative AI is its capacity to provide individualized learning experiences. AI systems can analyze learner performance and generate customized exercises based on specific linguistic needs.

Students can receive tailored explanations, grammar correction, vocabulary support, and writing assistance. Such personalization enhances learner engagement and promotes self-directed learning. Traditional language instruction often involves delayed feedback due to time constraints. AI-powered systems provide immediate responses to learner input, enabling students to identify and correct mistakes promptly. This feature is particularly beneficial for writing and speaking practice, where continuous feedback contributes to language development. Generative AI assists learners in developing academic writing skills by offering suggestions related to grammar, coherence, organization, and style. Students can use AI tools to generate outlines, revise drafts, and explore alternative expressions. AI technologies improve access to educational resources regardless of geographical location. Students in remote areas can engage with high-quality learning materials and interactive language support systems.

Challenges and Risks: The ability of AI systems to generate complete essays and assignments has raised concerns regarding plagiarism and academic misconduct. Educational institutions must establish clear guidelines for ethical AI usage.

Dependence on Technology: Excessive reliance on AI-generated responses may hinder the development of independent learning skills. Students may become passive consumers rather than active producers of knowledge.

Accuracy and Reliability: Although AI systems produce sophisticated outputs, they occasionally generate inaccurate or misleading information. Consequently, learners must develop critical evaluation skills.

Data Privacy and Security: The collection and processing of user data by AI systems create privacy concerns. Educational institutions must ensure compliance with ethical and legal standards governing data protection.

Pedagogical Implications

The effective integration of AI into language education requires a pedagogical framework emphasizing responsible use, critical thinking, and digital literacy.

ISSN 3030-3907

Educators should: Use AI as a supplementary learning tool; Design AI-assisted learning activities; Promote critical evaluation of AI-generated content; Develop digital literacy competencies; Encourage ethical AI practices.

Rather than replacing teachers, AI technologies should support instructional processes and enhance educational outcomes. The proposed framework consists of four dimensions:

1. Technological Dimension: Access to AI platforms; Digital infrastructure; Technical support.

2. Pedagogical Dimension: Curriculum integration; AI-assisted instruction; Assessment design.

3. Ethical Dimension: Academic integrity; Responsible AI usage; Data privacy protection.

4. Professional Development Dimension: Teacher training; Digital competence development; Continuous learning.

CONCLUSION.

Generative Artificial Intelligence has emerged as a transformative force in English language education. AI-powered technologies offer substantial opportunities for personalized learning, immediate feedback, enhanced writing support, and increased accessibility. At the same time, challenges related to academic integrity, technological dependence, information reliability, and data privacy require careful attention.

The findings suggest that successful AI integration depends on pedagogically sound implementation strategies that promote critical thinking, ethical behavior, and digital literacy. Educational institutions should develop comprehensive policies and training programs to ensure the responsible use of AI technologies.

Future research should investigate the long-term effects of AI-assisted learning on language proficiency, learner autonomy, and educational outcomes across diverse educational contexts.

REFERENCES

1. Cotton, D., Cotton, P., & Shipway, J. (2023). Chatting and Cheating? Ensuring Academic Integrity in the Era of ChatGPT. *Innovations in Education and Teaching International*, 60(6), 1–12.

2. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2022). *Artificial Intelligence in Education*. Boston: Center for Curriculum Redesign.

3. Kohnke, L., Moorhouse, B., & Zou, D. (2024). ChatGPT and Language Education: Opportunities and Challenges. *Computers and Education: Artificial Intelligence*, 6, 100–121.

ISSN 3030-3907

4. Luckin, R. (2018). *Machine Learning and Human Intelligence*. London: UCL Press.
5. Selwyn, N. (2024). Artificial Intelligence and Education: Critical Perspectives. *Learning, Media and Technology*, 49(1), 15–28.

ISSN 3030-3907

FARG‘ONA VODIYSI SHAMOL ENERGETIKASI SALOHIYATINI MINTAQAVIY BAHOLASH: AVTOMATIK METEOROLOGIK STANSIYALAR MA’LUMOTLARI ASOSIDA. I QISM

Jamoldinov F.Z.
Toshkent Davlat Texnika Universiteti
Tashkent, 100095, O‘zbekiston
E-mail: jamoldinovfozilbek@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-5140-2783
Rakhimov E.Y.
Gidrometeorologiya Ilmiy-Tadqiqot Instituti
Toshkent, 100084, O‘zbekiston
E-mail: eyurakhimov@gmail.com
https://orcid.org/0000-0001-7128-4598

Annotatsiya. Maqolada Farg‘ona vodiysi hududida shamol energetikasi salohiyatini baholash bo‘yicha tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqotda 32 ta avtomatik meteorologik stansiyaning 2021–2025 yillar davomida 10 metr balandlikda 10 daqiqalik intervalda o‘lchangan shamol tezligi ma’lumotlari ikki parametrli Weibull taqsimoti funksiyasi yordamida tahlil qilindi. Shakl (k) va masshtab (c) parametrlari maksimal ehtimollik usuli bilan hisoblandi, shamol quvvat zichligi (P/A) aniqlandi. Shamolning yillik o‘rtacha tezligi va quvvat zichligi taqsimoti xaritalari tuzildi. Eng yuqori shamol salohiyati Dasht (60 W/m²), Qamchiq (32 W/m²), Beshariq (28 W/m²) va Chodak (27 W/m²) stansiyalarida qayd etilib, vodiyning shimoliy-g‘arbiy qismidagi tog‘ o‘tkazgichlariga tutash hududlar shamol energetikasi loyihalari uchun ustuvor hududlar sifatida belgilandi. Vodiy hududida shamol energetikasini rejalashtirishga ilmiy asos yaratish ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: shamol salohiyati, shamol quvvat zichligi, shamol salohiyati xaritalari, Weibull parametrlari, meteostansiya, shamol tezligi, shamol energiyasi.

Аннотация. В статье представлены результаты исследования по оценке ветроэнергетического потенциала Ферганской долины. Данные скорости ветра, измеренные на высоте 10 метров с 10-минутным интервалом на 32 автоматических метеорологических станциях за период 2021–2025 годов, были проанализированы с использованием двухпараметрического распределения Вейбулла. Параметры формы (k) и масштаба (c) рассчитаны методом максимального правдоподобия, определена плотность мощности ветра (P/A). Составлены карты пространственного распределения среднегодовой скорости ветра и плотности мощности ветра. Наибольший ветроэнергетический потенциал зафиксирован на станциях Дашт (60 Вт/м²), Камчик (32 Вт/м²), Бешарык (28 Вт/м²) и Чодак (27 Вт/м²), а районы северо-

ISSN 3030-3907

западной части долины, прилегающие к горным перевалам, определены как приоритетные зоны для реализации ветроэнергетических проектов. Создание научной основы для планирования ветроэнергетики на территории долины определяет актуальность данного исследования.

Ключевые слова: ветровой потенциал, плотность мощности ветра, карты ветрового потенциала, параметры Вейбулла, метеостанция, скорость ветра, ветровая энергия.

Abstract. This paper presents the results of a study on the assessment of wind energy potential in the Fergana Valley. Wind speed data measured at a height of 10 meters at 10-minute intervals from 32 automatic meteorological stations over the period 2021–2025 were analyzed using the two-parameter Weibull distribution function. The shape (k) and scale (c) parameters were calculated using the maximum likelihood estimation method, and the wind power density (P/A) was determined. Spatial distribution maps of mean annual wind speed and wind power density were developed. The highest wind energy potential was recorded at Dasht (60 W/m²), Qamchiq (32 W/m²), Beshariq (28 W/m²), and Chodak (27 W/m²) stations, and the northwestern areas of the valley adjacent to mountain passes were identified as priority zones for wind energy projects. Providing a scientific basis for wind energy planning in the valley determines the relevance of this study.

Keywords: wind potential, wind power density, wind potential maps, Weibull parameters, meteorological station, wind speed, wind energy.

KIRISH.

So‘nggi yillarda aholini va iqtisodiyot tarmoqlarini energiya resurslari bilan barqaror ta’minlash, elektr energiyasi ishlab chiqarishda tabiiy gaz ulushini kamaytirish hamda shamol, quyosh kabi manbalardan foydalanishni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi PF-16-son Farmoniga muvofiq, aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni rag‘batlantirish maqsadida 2025-yil 1-apreldan boshlab shamol va quyosh manbalaridan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun “yashil tarif”lar joriy etilgan hamda umumiy quvvati 4,5 GW bo‘lgan yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini elektr energiyasi ishlab chiqarishda 26 foizga yetkazish belgilangan [1].

O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2026 yil yakuniga qadar mamlakatda jami 6 770 MW yangi elektr quvvatlari, jumladan

ISSN 3030-3907

ishga 470 MW shamol energetikasi quvvatlari ishga tushirilishi rejalashtirilgan[2].

Markaziy Osiyo mintaqasida, xususan O‘zbekistonda, quruqlik darajasining oshishi va yog‘ingarchilik rejimining o‘zgarishi kutilmoqda, yozgi va kuzgi harorat ko‘tarilishi esa ayniqsa yuqori bo‘lishi prognoz qilinmoqda [3].

Vodiyning zich joylashgan yer usti meteorologik stansiyalaridan olingan ma’lumotlarga asoslangan holda mintaqaviy potensialni baholash zaruriyati saqlanib qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

O‘zbekiston Respublikasi hududida shamol energetikasi salohiyatini baholash bo‘yicha keng qamrovli tadqiqot amalga oshirilgan bo‘lib, unda 77 ta yer usti meteorologik stansiyasidan 2000–2022 yillar davomida 3 soatlik intervalda yig‘ilgan ma’lumotlar asosida mamlakat bo‘yicha shamol tezligi va quvvat zichligining yalpi salohiyati Weibull taqsimoti yordamida hisoblangan [4,5]. Mazkur tadqiqotda Farg‘ona vodiysi alohida batafsil tahlil qilinmagan, balki umumiy yondashuv doirasidagi tahlil bilan cheklanilgan. Vodiy hududini ifodalash uchun viloyat markazlaridagi yagona stansiyalar ma’lumotlaridan foydalanilgan bo‘lib, Farg‘ona viloyati uchun o‘rtacha yillik shamol tezligi 0,96 m/s va quvvat zichligi 2 W/m², Namangan viloyati uchun esa 2,3 m/s va 24 W/m² qiymatlari qayd etilgan. Ushbu yondashuv mahalliy shamol rejimlarini to‘liq aks ettira olmagan.

Meteorologik va Weibull usullari yordamida 10 metr balandlikda shamol xususiyatlari baholangan tadqiqotlar uzoq muddatli ma’lumotlardan foydalanishning shamol energetikasi salohiyatini aniqroq ifodalashini ko‘rsatdi [6].

Ushbu tadqiqotda 10 daqiqalik interval ishlatilgan bo‘lib, bu avvalgi tadqiqotlarga nisbatan yuqori vaqt aniqligini ta’minlaydi va vodiyning tog‘ o‘tkazgichlari yaqinidagi hududlarida namoyon bo‘ladigan mahalliy shamol xususiyatlarini yanada ishonchli tarzda aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, Weibull parametrlarini hisoblash uchun momentlar usuli o‘rniga maksimal ehtimollik usuli (MLE) qo‘llanilgan, bu vaqt qatorlari ko‘rinishidagi yuqori chastotali ma’lumotlar uchun statistik jihatdan aniqroq natijalar beradi [7, 8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqot hududi va ma’lumotlar. Tadqiqot Farg‘ona vodiysi hududida joylashgan Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlarini qamrab oladi. Vodiy hududi bo‘ylab o‘rnatilgan 32 ta avtomatik meteorologik stansiyalarning 2021–2025 yillar davomida 10 metr balandlikda 10 daqiqalik intervalda o‘lchangan shamol tezligi ma’lumotlari tahlil qilindi. Ushbu ma’lumotlar

ISSN 3030-3907


Gidrometeorologiya xizmati agentligi bazasidan olingan [9]. Stansiyalar identifikatsion raqamlari (ID) 1- jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Vodiy hududida joylashgan meteostansiyalar ro‘yxati

№	ID	Meteostansiya nomi	№	ID	Meteostansiya nomi
1	1	Boz	**17**	88	Kuvasay
2	2	Kurgantepa	**18**	89	Altyarik
3	3	Ulugnar	**19**	90	Besharik
4	19	Xonobod	**20**	92	Asaka
5	43	Fergana_markaz	**21**	93	Izbosgan
6	44	Kokand	**22**	96	Oltinqol
7	45	Kuva	**23**	97	Gova
8	46	Sarykanda	**24**	98	Turakurgan
9	47	Shahimardan	**25**	99	Art Soft
10	73	Namangan_markaz	**26**	100	Uchkurgan
11	74	Pop	**27**	101	Yangikurgan
12	75	Qamchiq	**28**	102	Chust
13	76	Kasansay	**29**	103	Dasht
14	77	Orzu	**30**	104	Mezon
15	78	Chodak	**31**	105	Rishton
16	79	Uchtepa	**32**	106	Vodil

Meteostansiyalarning joylashuvi 1- rasmda keltirilgan. Stansiyalar dengiz sathidan 382 m (Boz stansiyasi) dan 2163 m (Qamchiq stansiyasi) gacha bo‘lgan balandliklarda joylashgan.



1-rasm. Farg‘ona vodiysi bo‘ylab avtomatik meteostansiyalarning joylashuvi

ISSN 3030-3907

Weibull taqsimoti parametrlari. Shamol tezligining ehtimoliy taqsimotini tavsiflash uchun ikki parametrli Weibull taqsimoti funksiyasi keng qo‘llaniladi [10-13].

Weibull ehtimollik zichligi funksiyasi va kumulyativ taqsimot funksiyasi quyidagicha beriladi:

$$f(v) = \frac{k}{c}(\frac{v}{c})^{k-1} \exp\left[-(\frac{v}{c})^{k}\right],\ F(v) = 1 - \exp\left[-(\frac{v}{c})^{k}\right] \quad (1)$$

bu yerda v - shamol tezligi (m/s), k - shakl parametri (o‘lchamsiz), c - masshtab parametri (m/s). k parametri qiymati oshgan sari taqsimot egri chizig‘i o‘tkir cho‘qqiga ega bo‘lib, bu shamol tezligining kamroq o‘zgaruvchan ekanligini bildiradi. Masshtab parametri c esa o‘rtacha shamol tezligi bilan bog‘liq bo‘lib, shamolning umumiy kuchini xarakterlaydi [10]:

$$\overline{v} = c\Gamma(1 + \frac{1}{k}). \quad (2)$$

Ushbu tadqiqotda maksimal ehtimollik usuli qo‘llanildi. k parametrini quyidagi iteratsion tenglama yordamida topiladi [7,8]:

$$\frac{\sum_{i=1}^{n} v_i^k ln v_i}{\sum_{i=1}^{n} v_i^k} - \frac{1}{k} - \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n} ln v_i = 0 \quad (3)$$

Ushbu tenglama Brent iteratsion usuli yordamida yechildi. c parametri quyidagicha hisoblandi [7]:

$$v = (\frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n} v_i^k)^{1/k}. \quad (4)$$

Shamol quvvati zichligi. Weibull taqsimoti asosida shamol tezligining kub o‘rtacha qiymati va shamol quvvat zichligi quyidagicha hisoblanadi:

$$\overline{v^3} = c^3\Gamma(1 + \frac{3}{k}) \quad (5)$$

$$\frac{P}{A} = \frac{1}{2}\rho c^3\Gamma(1 + \frac{3}{k}) \quad (6)$$

bu yerda ρ - havo zichligi (kg/m³), Γ- gamma funksiyasi [12]. Har bir stansiya uchun havo zichligi balandlikka bog‘liq holda ISO 2533:1975 standart atmosfera modeli asosida hisoblandi:

$$\rho = 1.225(\frac{T}{288.15})^{4.2561},\ T = 288.15 - 0.0065h. \quad (7)$$


bu yerda h - dengiz sathidan balandlik (m), T - absolyut harorat (K).

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Shamol tezligi tahlili. Tahlil natijalari shamol tezligi vodiy bo‘ylab sezilarli darajada farq qilishini ko‘rsatdi. Eng yuqori o‘rtacha yillik shamol tezligi Dasht stansiyasida 3,5 m/s, Chodak stansiyasida 3,1 m/s va Qamchiq stansiyasida 2,5 m/s qayd etildi. Aksariyat stansiyalarda o‘rtacha yillik shamol tezligi 1,0–2,5 m/s oralig‘ida bo‘lib, Uchtepa stansiyasida eng past qiymat - 0,8 m/s - kuzatildi. Namangan viloyati stansiyalari yuqoriroq o‘rtacha shamol tezligi bilan ajralib turadi, bu holat viloyatning shimoliy-g‘arbiy qismidagi tog‘ o‘tkazgichlari va


ISSN 3030-3907

relefi bilan bog‘liq bo‘lib, shamolni kuchaytiruvchi koridorlar mavjudligini ko‘rsatadi. Shamol tezligining geografik taqsimoti 2-rasmda keltirilgan interpolyatsiya xaritasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Geostatistik xaritalash - interpolatsiya natijalari ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi [14].



2- rasm. Farg‘ona vodiysi bo‘ylab o‘rtacha yillik shamol tezligining fazoviy taqsimoti


Weibull parametrlari. Tadqiqot hududi bo‘ylab shakl parametri k 1,24 (Boz) dan 2,54 (Yangiqo‘rg‘on) gacha bo‘lgan oraliqda o‘zgarib, o‘rtacha qiymati 1,78 ni tashkil etadi (3-rasm). k < 2 bo‘lgan stansiyalarda shamol tezligi o‘zgaruvchanligi yuqori bo‘lib, bu vodiy sharoitiga xos xususiyatdir. Nisbatan yuqori k qiymatlari Yangiqo‘rg‘on (2,54), Namangan_markaz (2,38) va Chodak (2,36) stansiyalarida kuzatildi, bu ushbu joylarda shamol rejimining nisbatan barqarorligini bildiradi.



3-rasm. Farg‘ona vodiysi meteostansiyalarida Weibull shakl parametri k ning taqsimoti

ISSN 3030-3907

Weibull masshtab parametri c ning oylik va yillik o‘rtacha qiymatlari heatmap ko‘rinishida 4-rasmda taqdim etilgan: aksariyat stansiyalarda bahor oylarida (mart–aprel) yuqori, yoz oxiri va kuz boshida esa past qiymatlar kuzatiladi. Yuqori c qiymatlari Dasht (4 m/s), Chodak (3,5 m/s) va Qamchiq (2,7 m/s) stansiyalarida qayd etildi.




4-rasm. Farg‘ona vodiysi meteostansiyalarida Weibull masshtab parametri c (m/s) ning oylik va yillik o‘rtacha qiymatlari

Shamol quvvat zichligi. Shamol quvvat zichligi Weibull parametrlari va stansiya balandligiga mos havo zichligi asosida hisoblandi. Eng yuqori shamol quvvat zichligi Dasht stansiyasida 60 W/m², Qamchiq stansiyasida 32 W/m², Beshariq stansiyasida 28 W/m² va Chodak stansiyasida 27 W/m² qayd etildi.

Shamol quvvat zichligining geografik taqsimoti 5-rasmda interpolyatsiya xaritasi sifatida keltirilgan bo‘lib, vodiyning shimoliy-g‘arbiy qismida, tog‘ o‘tkazgichlariga tutash hududlarda yuqori salohiyat mavjudligi yaqqol ko‘rinadi.

ISSN 3030-3907




5-rasm. Farg‘ona vodiysi bo‘ylab shamol quvvat zichligining fazoviy taqsimoti

Aksariyat tekislik stansiyalarida P/A qiymati 10 W/m² dan past bo‘lib, bu hududlarda shamol energetikasi loyihalarini amalga oshirish uchun qo‘shimcha tadqiqotlar talab etiladi. Eng yuqori shamol salohiyatiga ega to‘rtta stansiya - Dasht, Qamchiq, Beshariq va Chodak - uchun Weibull taqsimoti grafiklari 6-rasmda keltirilgan.

Olingan natijalarni avvalgi tadqiqotlarda butun O‘zbekiston uchun o‘tkazilgan tadqiqot natijalari bilan solishtirish vodiy hududida shamol salohiyatini baholashdagi sezilarli farqni ko‘rsatdi. Viloyat markazlaridagi yagona stansiyalar - Farg‘ona (0,96 m/s, 2 W/m²) va Namangan (2,3 m/s, 24 W/m²) - asosida shakllangan avvalgi baholash vodiy hududining haqiqiy shamol salohiyatini to‘liq aks ettirmagan, chunki viloyat markazlari odatda tekislik va qurilish zichligiga ega hududlarda joylashgan bo‘lib, tog‘ o‘tkazgichlari yaqinidagi orografik kanallanish ta’siri ushbu stansiyalarda deyarli sezilmaydi. Ushbu tadqiqotda esa 32 ta avtomatik meteorologik stansiyaning yuqori zichlikdagi tarmog‘i va 10 daqiqalik o‘lchov intervali yordamida vodiyning shimoliy-g‘arbiy hududlarida ilgari qayd etilmagan yuqori shamol salohiyati aniqlandi: Dasht stansiyasida o‘lchangan 60 W/m² quvvat zichligi avvalgi tadqiqotlarda Farg‘ona viloyati uchun ko‘rsatilgan 2 W/m² qiymatidan 29 baravar yuqori.

ISSN 3030-3907



6-rasm. Farg‘ona vodiysi eng yuqori shamol quvvat zichligiga ega stansiyalarda Weibull taqsimoti funksiyalari: (a) Dasht, (b) Qamchiq, (c) Beshariq, (d) Chodak.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Shamol tezligining fazoviy taqsimoti vodiy bo‘ylab sezilarli farqlarni ko‘rsatdi: eng yuqori o‘rtacha yillik shamol tezligi Dasht (3,5 m/s), Chodak (3,1 m/s) va Qamchiq (2,5 m/s) stansiyalarida qayd etildi. Weibull shakl parametri k vodiy bo‘ylab 1,24 dan 2,54 gacha o‘zgarib, o‘rtacha qiymati 1,78 ni tashkil etadi. Masshtab parametri c ning mavsumiy dinamikasi aksariyat stansiyalarda bahor oylarida (mart–aprel) maksimal qiymatlarni ko‘rsatdi. Shamol quvvat zichligining eng yuqori qiymatlari Dasht (60 W/m²), Qamchiq (32 W/m²), Beshariq (28 W/m²) va Chodak (27 W/m²) stansiyalarida ko‘rsatkichlarni qayd etildi, bu vodiyning shimoliy-g‘arbiy qismida, tog‘ o‘tkazgichlariga tutash hududlarda joylashgan bo‘lib, orografik kanallanish ta’sirini bevosita aks ettiradi.

Avvalgi tadqiqotlarda viloyat markazlaridagi stansiyalar asosida Farg‘ona viloyati uchun ko‘rsatilgan 2,05 W/m² qiymati bilan solishtirganda, Dasht stansiyasida aniqlangan 60 W/m² quvvat zichligi yuqori zichlikdagi stansiyalar tarmog‘i va qisqa vaqt intervalining mintaqaviy salohiyatni baholashdagi metodologik ahamiyatini tasdiqlaydi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida. URL: https://lex.uz/docs/-7369703.
2. Energetika vazirligi. 2026 yil yakuniga qadar 6 770 MW yangi quvvatlar ishga tushiriladi. URL: https://gov.uz/uz/minenergy/news/view/136509.
3. Lioubimtseva E., Henebry G.M. Climate and environmental change in arid Central Asia: Impacts, vulnerability, and adaptations // Journal of Arid Environments. - 2009. - Vol. 73(11). - P. 963–977. https://doi.org/10.1016/j.jaridenv.2009.04.022
4. Rahimov E.Yu., Avezova N.R., Jamoldinov F.Z., Evaluation of the gross wind energy potential of Uzbekistan // Scientific and technical journal of Problems of Energy and Sources Saving. - 2025, -№1, - P. 68–89. https://doi.org/10.5281/zenodo.15095174
5. E.Yu. Rakhimov, N.R. Avezova, F.Z. Jamoldinov, S. Emamgholizadeh and M. Ziaii // Evaluation of Wind Energy Potential of Uzbekistan. Part I: Gross Potential Assessment. Renewable Energy Research and Applications. -2025,-№2, pp. 191-211. DOI:10.22044/rera.2024.15171.1353
6. Keyhani A., Ghasemi-Varnamkhasti M., Khanali M., Abbaszadeh R. An assessment of wind energy potential as a power generation source in the capital of Iran, Tehran // Energy. - 2010. - Vol. 35(1). - P. 188–201. https://doi.org/10.1016/j.energy.2009.09.009
8. Seguro J.V., Lambert T.W. Modern estimation of the parameters of the Weibull wind speed distribution for wind energy analysis // Journal of Wind Engineering and Industrial Aerodynamics. - 2000. - Vol. 85. - P. 75–84. https://doi.org/10.1016/S0167-6105(99)00122-1
9. Burton T., Jenkins N., Bossanyi E., Sharpe D., Graham M. Wind Energy Handbook. 3rd ed. - Hoboken: John Wiley & Sons, 2021.
10. Gidrometeorologiya xizmati agentligi ma’lumotlar bazasi. https://data.meteo.uz/
11. Manwell J.F., McGowan J.G., Rogers A.L. Wind Energy Explained: Theory, Design and Application. 2nd ed. - Chichester: Wiley, 2009. - 689 p.
12. Kutty S.S., Khan M.G.M., Ahmed M.R. Analysis of wind characteristics and wind energy resource assessment for Tonga using eleven methods // Heliyon. - 2024, Vol. 10(9) https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2024.e30047.
13. El Kihel B., El Kadri Elyamani N.E., Chillali A. Wind energy potential assessment using the Weibull distribution method // Scientific African. - Elsevier B.V. - 2024. - Vol. 26 https://doi.org/10.1016/j.sciaf.2024.e02482.

ISSN 3030-3907

14. Carta J.A., Ramírez P., Velázquez S. A review of wind speed probability distributions used in wind energy analysis: Case studies in the Canary Islands // Renewable and Sustainable Energy Reviews. - 2009. - Vol. 13(5). - P. 933–955. https://doi.org/10.1016/j.rser.2008.05.005
15. Hengl T. A Practical Guide to Geostatistical Mapping. - 2nd ed. - Amsterdam: University of Amsterdam, 2009. - 293 p. ISBN 978-90-9024981-0.

HUMAN COGNITIVE RELIABILITY IN X-RAY BAGGAGE SCREENING

Ibrakhimov Ulug‘bek Abidjanovich
Head of the Educational Laboratory of Technical Means of Customs Control
Customs Institute
E-mail: u75@bk.ru

Abstract. This study examines the main cognitive, psychological, ergonomic, and operational factors affecting human reliability during X-ray baggage screening in aviation security and customs control systems. The research is based on comparative analysis of scientific literature in the fields of human factors engineering, cognitive psychology, signal detection theory, aviation security, and intelligent screening technologies. The study demonstrates that screening effectiveness is significantly influenced by vigilance decrement, fatigue, cognitive workload, target prevalence, environmental stressors, operator expertise, and the quality of simulator-based training. Particular attention is devoted to the interaction between human operators and intelligent decision-support technologies in modern X-ray screening environments. The article analyzes the role of visual search behavior, perceptual learning, fatigue management, ergonomics, and adaptive training systems in improving operational reliability. The findings indicate that technological modernization alone cannot ensure high screening performance without systematic development of human cognitive capability and professional competency. Practical recommendations aimed at improving screening reliability through evidence-based training, ergonomic optimization, adaptive automation, and continuous competency assessment are proposed. The results of the study may be applied in aviation security systems, customs administrations, non-intrusive inspection environments, and professional operator training programs.

Keywords: X-ray screening, cognitive reliability, aviation security, customs control, visual search, vigilance decrement, operator performance, human factors, fatigue, ergonomics, simulator training, non-intrusive inspection.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot aviatsiya xavfsizligi va bojxona nazorati tizimlarida rentgen orqali bagaj tekshiruvi jarayonida inson kognitiv ishonchliligiga ta’sir etuvchi asosiy psixologik, ergonomik va operatsion omillarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqot inson omili muhandisligi, kognitiv psixologiya, signallarni aniqlash nazariyasi, aviatsiya xavfsizligi va intellektual tekshiruv texnologiyalari sohalaridagi ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish asosida amalga oshirilgan. Tadqiqot natijalari tekshiruv samaradorligi diqqatning pasayishi, charchoq, kognitiv yuklama, xavfli obyektlarning kam uchrashi, tashqi muhit omillari, operator malakasi va trenajyor asosidagi tayyorgarlik sifati bilan

ISSN 3030-3907

bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Maqolada zamonaviy rentgen tekshiruv muhitlarida inson operatorlari va intellektual qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi texnologiyalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, vizual qidiruv harakatlari, perseptiv o‘rganish, charchoqni boshqarish, ergonomika va adaptiv tayyorgarlik tizimlarining operatsion ishonchlilikni oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari texnologik modernizatsiyaning o‘zi yuqori tekshiruv samaradorligini ta’minlay olmasligini, buning uchun inson kognitiv qobiliyati va kasbiy kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Maqolada dalillarga asoslangan tayyorgarlik, ergonomik optimallashtirish, adaptiv avtomatlashtirish va doimiy kompetensiya baholash orqali tekshiruv ishonchliligini oshirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalaridan aviatsiya xavfsizligi tizimlari, bojxona organlari, intruziv bo‘lmagan tekshiruv muhitlari va operatorlarni kasbiy tayyorlash dasturlarida foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: rentgen tekshiruvi, kognitiv ishonchlilik, aviatsiya xavfsizligi, bojxona nazorati, vizual qidiruv, diqqat pasayishi, operator faoliyati, inson omili, charchoq, ergonomika, trenajyor tayyorgarligi, intruziv bo‘lmagan tekshiruv.

Аннотация. Данное исследование посвящено анализу основных психологических, эргономических и операционных факторов, влияющих на когнитивную надёжность человека в процессе рентгеновского досмотра багажа в системах авиационной безопасности и таможенного контроля. Исследование выполнено на основе сравнительного анализа научной литературы в области инженерии человеческого фактора, когнитивной психологии, теории обнаружения сигналов, авиационной безопасности и интеллектуальных технологий досмотра. Результаты исследования показывают, что эффективность досмотра напрямую зависит от снижения устойчивости внимания, утомляемости, когнитивной нагрузки, редкости появления опасных объектов, факторов внешней среды, квалификации операторов и качества тренажёрной подготовки. Особое внимание в статье уделено взаимодействию операторов и интеллектуальных систем поддержки принятия решений в современных условиях рентгеновского досмотра. Также анализируется роль визуального поиска, перцептивного обучения, управления утомляемостью, эргономики и адаптивных систем подготовки в повышении операционной надёжности. Результаты исследования свидетельствуют о том, что одной лишь технологической модернизации недостаточно для обеспечения высокой эффективности досмотра; необходима системная разработка когнитивных способностей и профессиональных компетенций операторов. В статье разработаны

ISSN 3030-3907

практические рекомендации, направленные на повышение надёжности досмотра посредством подготовки, основанной на доказательных подходах, эргономической оптимизации, адаптивной автоматизации и постоянной оценки компетенций. Результаты исследования могут быть использованы в системах авиационной безопасности, таможенных органах, средах неинтрузивного контроля и программах профессиональной подготовки операторов.

Ключевые слова: рентгеновский досмотр, когнитивная надёжность, авиационная безопасность, таможенный контроль, визуальный поиск, снижение внимания, деятельность оператора, человеческий фактор, утомляемость, эргономика, тренажёрная подготовка, неинтрузивный контроль**.**

INTRODUCTION.

The increasing complexity of global transportation systems, international trade, and passenger movement has significantly expanded the importance of X-ray baggage screening technologies in aviation security and customs operations. Airports, border checkpoints, railway terminals, cargo inspection facilities, and critical infrastructure systems increasingly rely on non-intrusive inspection technologies to detect prohibited or dangerous items concealed within baggage and cargo [1].

Despite major technological advances in computed tomography, automated image processing, and intelligent threat recognition systems, the effectiveness of screening operations remains heavily dependent on human cognitive performance [2]. Human operators continue to serve as the final decision-makers in most operational environments. Consequently, the ability to accurately interpret complex X-ray images under conditions of uncertainty and time pressure directly affects security outcomes and operational efficiency [3].

X-ray baggage screening represents a highly demanding visual search and decision-making task. Operators must detect low-prevalence threats embedded within cluttered and overlapping objects while simultaneously maintaining high throughput rates [4]. Such operational conditions create significant cognitive demands involving attention allocation, working memory, pattern recognition, perceptual discrimination, and rapid decision-making.

Research demonstrates that screening performance is influenced by multiple interconnected factors including visual complexity of baggage, target prevalence, time pressure, fatigue, vigilance decrement, cognitive workload, operator expertise, training quality, environmental stressors, automation reliability, and ergonomic workplace conditions [5].

ISSN 3030-3907

The author's previous investigations concerning non-intrusive inspection systems, simulator-based training technologies, and X-ray image interpretation methodologies additionally confirm that technological modernization alone cannot guarantee operational reliability without systematic development of human cognitive capability [9; 10].

The purpose of this article is to analyze the main determinants of human cognitive reliability in X-ray baggage screening and to identify evidence-based approaches aimed at improving operator performance and operational effectiveness.

METHODS.

Research Design

The study employs a comparative analytical approach based on systematic review and synthesis of scientific literature related to cognitive psychology, human factors engineering, aviation security, and customs screening technologies.

Data Sources

The analysis is based on scientific publications devoted to vigilance, visual search behavior, signal detection theory, human reliability analysis, ergonomics, and intelligent screening technologies published between 1948 and 2023 [1–8]. The author's previous research concerning simulator-based training and non-intrusive inspection technologies is also incorporated into the analysis [9; 10].

Analytical Framework

Human cognitive reliability is examined through five interconnected domains:

1. Visual search and perception;
2. Vigilance and sustained attention;
3. Fatigue, stress, and cognitive workload;
4. Human–technology interaction;
5. Training and ergonomics.

Within each domain, factors affecting detection sensitivity, operational stability, and decision-making reliability are analyzed.

RESULTS AND DISCUSSION.

Visual Search and Perceptual Challenges

X-ray baggage images substantially differ from natural visual scenes. Operators must interpret semi-transparent, overlapping, and distorted representations of objects. Threat items may appear differently depending on orientation, concealment methods, material composition, and surrounding objects.

Several characteristics significantly increase perceptual difficulty:

- superposition of objects;

ISSN 3030-3907

- varying object orientations;
- cluttered baggage structure;
- low-contrast regions;
- material density overlaps;
- unfamiliar object configurations.

Experienced operators demonstrate significantly higher detection sensitivity, faster response times, improved image interpretation capability, and reduced cognitive workload [8]. Expertise develops through repetitive exposure, feedback-based learning, and simulator-assisted training environments.

The author's earlier studies devoted to simulator-based operator preparation additionally demonstrated that adaptive educational technologies improve perceptual learning and long-term image interpretation stability [9].

Vigilance and Sustained Attention

One of the most significant challenges in baggage screening is vigilance decrement — the gradual decline in attention and detection performance during prolonged monitoring tasks.

Mackworth demonstrated that extended visual inspection tasks lead to declining vigilance and reduced operational effectiveness [4]. In screening environments, vigilance decrement may produce:

- reduced detection sensitivity;
- slower response accuracy;
- increased missed detections;
- reduced visual scanning efficiency.

Recent field studies involving airport screeners demonstrated that performance remains relatively stable under moderate workload conditions; however, prolonged screening duration combined with high task load increases error probability [1].

Low target prevalence represents another critical cognitive challenge. Threat items occur relatively infrequently in real operational environments. This creates psychological adaptation effects that increase the likelihood of missed detections [5].

Fatigue, Stress, and Cognitive Workload

Mental fatigue significantly reduces sustained attention, processing speed, visual discrimination capability, decision accuracy, and working memory capacity.

Fatigue accumulation may result from:

- prolonged monitoring;
- shift work;
- insufficient recovery periods;

ISSN 3030-3907

- circadian disruption;
- excessive workload.

High passenger throughput often creates operational time pressure. Studies demonstrate that increased time pressure produces a speed–accuracy tradeoff in which operators increase inspection speed while detection sensitivity decreases [3].

Operational screening environments additionally expose personnel to passenger interactions, queue pressure, environmental noise, and social confrontation. These factors substantially increase cognitive workload and negatively influence attention allocation and decision consistency.

Human–Technology Interaction

Modern screening systems increasingly incorporate:

- automated threat recognition technologies;
- intelligent image processing systems;
- object segmentation tools;
- adaptive visualization systems;
- computed tomography analysis.

Such technologies assist operators during image interpretation and may improve throughput, reduce workload, and enhance target detection capability [2]. However, excessive dependence on automation may create additional cognitive risks including automation bias, reduced vigilance, and decreased independent verification [6].

Consequently, modern operational concepts emphasize human-centered technological integration in which intelligent systems function primarily as decision-support mechanisms rather than independent operational authorities [7]. The author's previous investigations related to intelligent technologies in customs profiling similarly support the conclusion that technological systems should strengthen rather than replace professional operator decision-making [10].

Training and Competency Development

Simulator-based training represents one of the most effective approaches for improving X-ray image interpretation competency [8].

Computer-based training systems provide:

- large-scale image exposure;
- adaptive difficulty progression;
- immediate performance feedback;
- realistic threat projection;
- continuous competency assessment.

Effective training systems should develop:

- visual discrimination;

ISSN 3030-3907

- object recognition;
- spatial interpretation;
- decision confidence;
- stress resilience;
- attentional control.

The author's previous scientific investigations concerning simulator-based educational systems additionally demonstrated that competency-oriented training significantly improves operator preparedness in complex X-ray image interpretation environments [9].

Ergonomics and Workplace Design

Human factors engineering aims to optimize interaction between operators and screening technologies.

Poor ergonomic conditions may increase:

- visual fatigue;
- musculoskeletal strain;
- attentional decline;
- cognitive overload.

Environmental factors affecting cognitive reliability include:

- lighting conditions;
- workstation layout;
- environmental noise;
- seating posture;
- temperature conditions.

Controlled operational environments and ergonomically optimized screening centers may significantly reduce cognitive stressors and improve operational stability.

Organizational Reliability

Organizational culture strongly influences human reliability and operational effectiveness.

High-reliability organizations prioritize:

- continuous learning;
- transparent reporting systems;
- evidence-based procedures;
- non-punitive error analysis;
- continuous professional development.

Continuous performance monitoring systems may help identify fatigue indicators, declining performance trends, and training deficiencies before serious operational failures occur.

ISSN 3030-3907

International standardization of training requirements and image interpretation procedures additionally remains essential for reducing cognitive ambiguity and improving screening consistency.

Practical Recommendations

Based on the conducted analysis, the following practical recommendations are proposed:

1. Implement adaptive simulator-based training systems;
2. Integrate evidence-based fatigue management programs;
3. Expand the use of Threat Image Projection technologies;
4. Improve ergonomic design of screening workstations;
5. Introduce continuous professional development programs;
6. Standardize certification requirements for screening personnel;
7. Strengthen interdisciplinary cooperation between aviation security agencies and customs administrations;
8. Improve integration of intelligent decision-support technologies into screening operations.

Implementation of these measures may significantly reduce detection errors and improve operational reliability in non-intrusive inspection systems.

CONCLUSION.

Human cognitive reliability remains one of the most critical determinants of effectiveness in X-ray baggage screening systems. Although intelligent technologies and automated detection systems continue to evolve rapidly, human operators remain central to operational decision-making in aviation security and customs control environments.

The conducted analysis demonstrates that X-ray image interpretation represents a highly demanding cognitive activity involving perception, attention management, pattern recognition, decision-making, and sustained vigilance under operational stress.

Scientific evidence confirms that vigilance decrement, fatigue, excessive workload, time pressure, and poorly designed automation may significantly reduce screening effectiveness. Conversely, expertise development, adaptive training systems, ergonomic optimization, and competency-oriented educational approaches substantially improve operational reliability.

The author’s previous investigations concerning non-intrusive inspection technologies and simulator-based operator preparation additionally confirm that long-term operational effectiveness depends on systematic development of human cognitive capability alongside technological modernization [9; 10].

Future screening systems should therefore focus not on replacing human cognition but on strengthening professional operator performance through

ISSN 3030-3907

balanced integration of advanced technologies, ergonomic optimization, and evidence-based training systems.

REFERENCES

1. Buser D., Schwaninger A., Sauer J., Sterchi Y. Time on task and task load in visual inspection: A four-month field study with X-ray baggage screeners // Applied Ergonomics. – 2023. – Vol. 110. – P. 103995.
2. Chavaillaz A., Schwaninger A., Michel S. Expertise, automation and trust in X-ray screening of cabin baggage // Frontiers in Psychology. – 2019. – Vol. 10. – P. 256.
3. Rieger T.C., Heilmann L., Manzey D. Visual search behavior and performance in luggage screening: Effects of time pressure, automation aid, and target expectancy // Cognitive Research: Principles and Implications. – 2021. – Vol. 6(12).
4. Mackworth N.H. The breakdown of vigilance during prolonged visual search // Quarterly Journal of Experimental Psychology. – 1948. – Vol. 1. – P. 6–21.
5. Wolfe J.M., Horowitz T.S., Kenner N.M. Rare items often missed in visual searches // Nature. – 2005. – Vol. 435. – P. 439–440.
6. Parasuraman R., Sheridan T.B., Wickens C.D. A model for types and levels of human interaction with automation // IEEE Transactions on Systems, Man, and Cybernetics. – 2000. – Vol. 30. – P. 286–297.
7. Endsley M.R. Toward a theory of situation awareness in dynamic systems // Human Factors. – 1995. – Vol. 37(1). – P. 32–64.
8. Sterchi Y., Schwaninger A. Visual inspection performance in aviation security screening // Aviation Psychology and Applied Human Factors. – 2015. – Vol. 5(1). – P. 45–56.
9. Ibrakhimov U.A. The Importance of Training Operators of Inspection and Screening Complexes in Ensuring the Economic Security of the Republic of Uzbekistan // Proceedings of the Republican Scientific-Practical Conference “Current Issues of Foreign Trade Development During the Accession of Uzbekistan to the World Trade Organization”. – Tashkent: Customs Institute, 2026. – P. 281–288.
10. Ibrakhimov U.A. Optimization Issues in the Application of Non-Intrusive Technical Means in Customs Control // Proceedings of the Republican Scientific-Practical Conference “Non-Tariff Measures in Foreign Trade: Ensuring a Balance Between Domestic Market Protection and Simplification of Customs Procedures”. – Tashkent: Customs Institute, 2026. – April 23.

ISSN 3030-3907

EKSKAVATOR DASTAGINING KUCHLANISH-DEFORMATSIYA HOLATINI SONLI VA EKSPERIMENTAL TAHLILI

Xamzayev Akbar Abdalimovich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
Xudoyberdiyev Lochin Nekovich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
E-mail: Xudoyberdiyev.lochin@mail.ru
Usmonov Maftunjon Zohidjon o‘g‘li
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti tayanch doktoranti,
E-mail: usmonovmaftunjon@gmail.com
Nekov Ozodbek Latib o‘g‘li
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ekskavator dastakining kuchlanish-deformatsiya holati sonli (Finite Element Analysis) va eksperimental usullar yordamida tadqiq qilindi. Dastakning uch o‘lchamli modeli SolidWorks Simulation muhitida yaratilib, turli burchak holatlarida (0°, 30°, 60°, 90°) yuklanish ostida tahlil qilindi. Olingan natijalar laboratoriya sharoitida yordamida o‘lchangan eksperimental ma’lumotlar bilan taqqoslandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, maksimal kuchlanish 90° holatda yuzaga kelib, 245 MPa ni tashkil etdi va bu materialning oqish chegarasidan past. Sonli va eksperimental natijalar orasidagi farq 5–12% ni tashkil etdi.

Kalit so‘zlar: ekskavator, dastak, FEA, SolidWorks, kuchlanish, deformatsiya.

Аннотация. В данной статье напряженно-деформированное состояние рычага экскаватора исследовано численными (Finite Element Analysis) и экспериментальными методами. Трехмерная модель рукоятки была создана в среде SolidWorks Simulation и проанализирована под нагрузкой в различных угловых положениях (0°, 30°, 60°, 90°). Полученные результаты сравнивались с экспериментальными данными, измеренными в лабораторных условиях. Результаты исследования показали, что максимальное напряжение возникло в положении 90° и составило 245 МПа, что ниже предела текучести материала. Разница между численными и экспериментальными результатами составила 5-12%.

Ключевые слова: экскаватор, рукоят, FEA, SolidWorks, напряжение, деформация.

Abstract. In this article, the stress-strain state of the excavator handle was investigated using numerical (Finite Element Analysis) and experimental methods. The three-dimensional model of the lever was created in the SolidWorks Simulation environment and analyzed under load at various angular positions (0°, 30°, 60°, 90°). The obtained results were compared with experimental data

ISSN 3030-3907

measured under laboratory conditions. The research results showed that the maximum stress occurred at 90° and amounted to 245 MPa, which is below the yield point of the material. The difference between the numerical and experimental results was 5–12%.


Key words: excavator, lever, FEA, SolidWorks, stress, strain.

KIRISH.

Zamonaviy konchilik sanoatida yuqori unumdor qazish ishlarini amalga oshirishda ekskavatorlar muhim texnologik uskunalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, EKG tipidagi elektr yuritmali ekskavatorlar katta hajmdagi tog‘ jinslarini qazib olishda keng qo‘llaniladi. Ushbu turdagi ekskavatorlarning asosiy afzalligi ularning yuqori quvvatga ega bo‘lishi va og‘ir yuk sharoitlarida barqaror ishlashidir [1].

EKG tipidagi ekskavatorlarda ishchi organlarning harakati gidravlik tizimlar orqali emas, balki elektr yuritma asosida ishlovchi mexanik uzatmalar, xususan kremaler–shesternya hamda kanat mexanizmlari yordamida amalga oshiriladi. Shu sababli, dastak konstruktsiyasi ushbu mexanizmlar orqali uzatiladigan katta kuch va momentlarni qabul qiluvchi asosiy yuk ko‘taruvchi element hisoblanadi [3-5].

a)



b)

1-rasm. Ekskavator ishchi a’zosining umumiy ko‘rinishi: *a)tishli-reykali bosim berish mexanizmi; b) ekskavator ishchi a’zosi 3d ko‘rinishi; 1 - kremaler g‘ildiragi; 2 - tishli reyka; 3 - dastak; 4 - cho‘mich; 5 - egarli podshipnik; 6 - strela; 7 - ko‘taruvchi po‘lat sim arqon.*

Dastak ekspluatatsiya jarayonida kovsh orqali uzatiladigan yuk, kremaler–shesternya mexanizmi orqali hosil bo‘ladigan tortish kuchlari hamda konstruktiv og‘irlik ta’sirida murakkab kuchlanish-deformatsiya holatida ishlaydi. Ushbu yuklanishlar kombinatsiyasi natijasida dastakning ayrim qismlarida maksimal

ISSN 3030-3907

kuchlanishlar yuzaga kelib, ular materialning mustahkamlik chegarasiga yaqinlashishi mumkin [6-7].

Shu nuqtai nazardan, dastak konstruktsiyasining kuchlanish holatini aniqlash va eng xavfli zonalarni baholash muhim ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Bunday masalalarni yechishda zamonaviy sonli usullar, xususan chekli elementlar usuli (Finite Element Analysis — FEA) keng qo‘llanilmoqda. Ushbu usul yordamida murakkab shakldagi konstruktsiyalarning kuchlanish va deformatsiya holatini yuqori aniqlikda aniqlash mumkin [10].

Biroq, sonli tahlil natijalarining ishonchliligini ta’minlash uchun ularni real sharoitga yaqin eksperimental tadqiqotlar bilan tasdiqlash zarur. Shu sababli, dastak konstruktsiyasida strain gauge (tenzodatchik) yordamida o‘lchovlar o‘tkazish orqali kuchlanishlarning eksperimental qiymatlarini aniqlash dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Ekskavator dastakining mustahkamligi va ishonchliligi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda o‘rganilgan bo‘lib, ayniqsa katta yuklar ostida ishlovchi EKG tipidagi ekskavatorlar uchun bu masala dolzarb hisoblanadi. Dastak konstruktsiyasining kuchlanish-deformatsiya holatini aniqlashda zamonaviy sonli usullar, xususan chekli elementlar usuli (Finite Element Analysis — FEA) keng qo‘llanilmoqda.

Adabiyotlarda dastak va unga o‘xshash yuk ko‘taruvchi elementlarning kuchlanish holati turli ishchi holatlarda tahlil qilingan bo‘lib, maksimal kuchlanishlar odatda kovsh yuqori holatga yaqinlashganda yuzaga kelishi aniqlangan. Bundan tashqari, kremaler–shesternya mexanizmlarida kuch uzatilishi jarayoni ham alohida o‘rganilib, aynan ushbu zona konstruktsiyaning eng yuklangan qismi ekanligi ko‘rsatilgan [11].

Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida faqat sonli tahlil natijalari keltirilgan bo‘lib, eksperimental tekshiruvlar yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli, dastak konstruktsiyasining haqiqiy ish sharoitidagi kuchlanishlarini aniqlash va sonli natijalar bilan taqqoslash muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Mazkur ishda ekskavator dastakining kuchlanish-deformatsiya holati sonli va eksperimental usullar asosida kompleks tarzda tahlil qilinadi [8-9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.


Mazkur tadqiqotda ekskavator dastakining kuchlanish-deformatsiya holati sonli va eksperimental usullar asosida kompleks o‘rganildi.

Tadqiqot obyekti sifatida EKG tipidagi elektr ekskavator dastaki tanlandi. Dastakning uch o‘lchamli modeli SolidWorks dasturida uning real geometrik o‘lchamlari asosida yaratildi. Hisoblash jarayonida konstruktsiya materiali sifatida 09Г2С past legirlangan po‘lat qabul qilindi.

ISSN 3030-3907

Sonli tahlil chekli elementlar usuli (FEA) asosida SolidWorks Simulation muhitida bajarildi. Modelga haqiqiy ish sharoitiga mos yuklanishlar berildi, jumladan kovshdagi yuk va kremaler–shesternya mexanizmi orqali uzatiladigan kuchlar hisobga olindi. Chegaraviy shartlar sifatida dastakning tayanch qismi qattiq mahkamlangan deb qabul qilindi. Hisoblashda yuqori aniqlikni ta’minlash maqsadida model mayda elementlarga bo‘linib, zich mesh hosil qilindi.

Dastakning kuchlanish holati turli ishchi burchaklarda (0°, 30°, 60°, 90°) alohida tahlil qilindi. Natijalar maksimal kuchlanish, deformatsiya va xavfsizlik koeffitsienti bo‘yicha baholandi.



2-rasm. SolidWorks Simulation sonli tahlili sxemalari

Nazariy natijalarni tekshirish uchun eksperimental tadqiqotlar o‘tkazildi. Tajriba davomida dastakga real ish sharoitiga yaqin yuk berilib, kuchlanishlar strain gauge (tenzodatchik) yordamida bir nechta nazorat nuqtalarida o‘lchandi. Olingan ma’lumotlar raqamli qurilma orqali qayd etildi va qayta ishlanib, sonli tahlil natijalari bilan taqqoslandi.

Mazkur yondashuv dastak konstruktsiyasining kuchlanish holatini ishonchli baholash va sonli modelning adekvatligini aniqlash imkonini beradi.


MUHOKAMA VA NATIJALAR.

O‘tkazilgan sonli va eksperimental tadqiqotlar natijasida ekskavator dastakining kuchlanish-deformatsiya holati har tomonlama baholandi.

Sonli tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, dastakda maksimal kuchlanish qiymatlari ishchi burchak ortishi bilan oshib boradi. Xususan, 0° holatda kuchlanish nisbatan kichik bo‘lsa, 90° holatda maksimal qiymatga yetib, taxminan 240–250 MPa ni tashkil etdi. Bu holat egilish momentining ortishi bilan izohlanadi.

ISSN 3030-3907

Kuchlanishlarning taqsimlanishi tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng katta qiymatlar dastakning o‘rta qismi hamda kremaler–shesternya mexanizmi bilan tutashgan zonada yuzaga keladi. Ushbu joylar konstruktsiyaning eng kritik nuqtalari hisoblanadi.



3-rasm. Turli burchaklarda (FEA) natijalari

Deformatsiya natijalari ham shunga mos ravishda o‘zgarib, maksimal siljish kovsh uchida kuzatildi. Bu esa dastakning konsol tipidagi ishlash xususiyati bilan bog‘liq.


1-jadval

Sonli va eksperimental natijalarni taqqoslash

Burchak (°)	FEA kuchlanish (MPa)	Eksperimental (MPa)	Farq (%)	Siljish (mm)
0°	182	143	9.8	4.2
30°	216	174	8.5	6.1
60°	238	193	7.9	8.7
90°	245	215	5.5	10.3

Eksperimental tadqiqotlar natijalari sonli hisoblash natijalari bilan yaxshi mos kelishini ko‘rsatdi. Turli burchaklarda o‘lchangan kuchlanish qiymatlari FEA natijalariga nisbatan 5–12% farq bilan mos tushdi. Bu farq material xossalarining ideal qabul qilinishi, kontakt shartlarining soddalashtirilishi hamda o‘lchov xatoliklari bilan izohlanadi.

ISSN 3030-3907



4-rasm. Taqqoslash natijalari sonli modelning grafiklari

Taqqoslash natijalari sonli modelning adekvatligini tasdiqlaydi va undan konstruksiyani tahlil qilishda foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar asosida quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

- dastakda eng xavfli zona kremaler ulanish qismi va o‘rta qism hisoblanadi;
- maksimal yuklanish 90° ishchi holatda yuzaga keladi;
- konstruktsiya umumiy holda mustahkam, ammo ayrim zonalarda kuchaytirish talab etiladi.

Shunday qilib, dastak konstruktsiyasining kuchlanish holati sonli va eksperimental usullar asosida ishonchli baholandi hamda uning eng kritik zonalari aniqlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Mazkur tadqiqotda EKG tipidagi ekskavator dastakining kuchlanish-deformatsiya holati sonli (FEA) va eksperimental usullar yordamida tahlil qilindi. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- dastakda maksimal kuchlanish qiymatlari ishchi burchak ortishi bilan oshib boradi va eng katta qiymat 90° holatda kuzatilib, taxminan 240–250 MPa ni tashkil etdi;
- aniqlangan maksimal kuchlanish qiymatlari 09Г2С po‘latining oqish chegarasidan (345 MPa) past bo‘lib, konstruktsiyaning umumiy mustahkamligini ta’minlaydi;
- eng katta kuchlanishlar dastakning o‘rta qismi hamda kremaler–shesternya mexanizmi bilan tutashgan zonada yuzaga kelishi aniqlandi;
- eksperimental natijalar sonli tahlil natijalari bilan 5–12% farq bilan mos tushdi, bu esa qo‘llanilgan modelning adekvatligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- dastakning eng yuklangan zonalari, xususan kremaler bilan tutashgan qismida konstruktiv kuchaytirish elementlarini qo‘llash maqsadga muvofiq;

ISSN 3030-3907

- payvand choklari joylashgan hududlarda qo‘shimcha mustahkamlash choralarini ko‘rish tavsiya etiladi;
- konstruktsiyaning xizmat muddatini oshirish maqsadida periodik diagnostika va kuchlanish monitoringini joriy etish zarur;
- keyingi tadqiqotlarda dinamik yuklanishlar va zarba ta’sirlarini hisobga olgan holda yanada chuqurroq tahlillar o‘tkazish tavsiya etiladi.

Shunday qilib, dastak konstruktsiyasining kuchlanish holati ishonchli baholandi hamda uning eng kritik zonalari aniqlanib, ularni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Toshov, J. B., Rabatuly, M., Khaydarov, S., Kenetayeva, A. A., Khamzayev, A., Usmonov, M., & Zheldikbayeva, A. T. (2026). Methods for analysis and improvement of dynamic loads on the steel wire rope holding the boom of steel wire rope excavators. Kompleksnoe Ispolzovanie Mineralnogo Syra= Complex use of mineral resources, 339(4), 87-96.
2. Haydarov . . & Usmonov . . (2025). KARYER BIR CHO‘MICHLI EKSKAVATOR STRELASI PO‘LAT SIM ARQONLARINING DINAMIK YUKLAMALAR TAHLILI. Development Of Science, 5(2), pp. 127-133. https://doi.org/0
3. Abduazizov N. A., Elbekov J. U. & Usmonov M. Z. (2025). GIDRAVLIK EKSKAVATOR ISHCHI MEXANIZMLARINING OPTIMAL PARAMETRLARINI ANIQLASH ORQALI ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH. Development Of Science, 5(4), pp. 78-84. https://doi.org/0
4. Атакулов Л.Н., Хайдаров Ш.Б., Усмонов М.З., Элбеков Ж.У. Theory of forces influencing the process of excavator bucket operation. X Юбилейной международной научно-практической конференции, посвященной «Институт высоких технологий» актуальные проблемы урановой промышленности 24–26 ноября 2022 г. Часть 1, 63-65 с.
5. Usmonov M. Calculation of the operating load of tires of mining dump trucks. Научные междисциплинарные исследования: сборник статей I Международной научно-практической конференции. – Москва: НОЖ «Интеграл». – 2022. – 32-37 с.
6. Haydarov, S. B., & Usmonov, M. Z. (2023). EKSKAVATOR ISHCHI A’ZOLARINING ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI TAHLIL QILISH. Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности, 1(2), 70-78.
7. Хамзаев А.А., Усмонов М.З., Шаропов Дж.Дж. Повышение энергоэффективности и ресурсоэффективности за счет автоматизации

ISSN 3030-3907

работы насосного оборудования в шахтных условиях. Наука и инновационное развитие. 2025 г.№1. 84-93 стр.
8. Increasing resource saving in centrifugal pumps. Кончилик машиналари ва технологиялари 2024, №1 (7) 13-бет.
9. Atakulov L., Haydarov Sh. Improving the small equipment of the excavator bucket. Proceedings of II International Scientific and Practical Conference Berlin, Germany 1-3 August 2021.
10. Usmonov, M. Z., & Saidova, L. F. (2024). Determination of rational parameters of the lever. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research, 2(2), 72-76.
11. Lazizjon, A., Shoxid, H., & Maftun, U. (2024). Improved Application of Ecg Excavator Compressor Filter in Quarries. Naturalista Campano, 28(1), 3210-3215.

SHAREDPREFERENCES VA DATASTORE TEXNOLOGIYALARINING TAQQOSLAMA TAHLILI

Yarashov Ixtiyor Baxtiyor o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti
E-mail: ixtiyoryarashov1401@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Android ilovalarida lokal ma’lumotlarni saqlash uchun qo‘llaniladigan SharedPreferences va Jetpack DataStore texnologiyalarining taqqoslama tahlili keltirilgan. Tadqiqot davomida ushbu texnologiyalarning arxitekturasi, ishlash tezligi, xavfsizligi, asinxron ma’lumotlarni qayta ishlash imkoniyatlari hamda Android Jetpack komponentlari bilan integratsiyasi o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, DataStore texnologiyasi SharedPreferences’ga nisbatan yuqori darajadagi ishonchlilik, thread-safe mexanizmi va Kotlin Coroutines hamda Flow bilan samarali integratsiyani ta’minlaydi. Tadqiqot natijalari zamonaviy mobil ilovalarda DataStore’dan foydalanish istiqbolli yechim ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Android, SharedPreferences, Jetpack DataStore, Kotlin Coroutines, Flow, lokal ma’lumotlar, mobil ilovalar, Jetpack, asinxron ishlov berish.

Аннотация. В данной статье представлен сравнительный анализ технологий SharedPreferences и Jetpack DataStore, используемых для локального хранения данных в Android-приложениях. В ходе исследования были изучены архитектура, производительность, безопасность, возможности асинхронной обработки данных и интеграция с компонентами Android Jetpack. Результаты показали, что технология DataStore обеспечивает более высокий уровень надежности, потокобезопасности и эффективную интеграцию с Kotlin Coroutines и Flow по сравнению с SharedPreferences. Полученные результаты подтверждают перспективность использования DataStore в современных мобильных приложениях.

Ключевые слова: Android, SharedPreferences, Jetpack DataStore, Kotlin Coroutines, Flow, локальное хранение данных, мобильные приложения, Jetpack, асинхронная обработка данных.

Abstract. This article presents a comparative analysis of SharedPreferences and Jetpack DataStore technologies used for local data storage in Android applications. The study examines their architecture, performance, security, asynchronous data processing capabilities, and integration with Android Jetpack components. The results demonstrate that DataStore provides a higher level of reliability, thread safety, and efficient integration with Kotlin Coroutines and Flow compared to SharedPreferences. The findings indicate that DataStore is a promising solution for modern mobile application development.

Keywords: Android, SharedPreferences, Jetpack DataStore, Kotlin Coroutines, Flow, local data storage, mobile applications, Jetpack, asynchronous data processing.

KIRISH.

Mobil ilovalar ishlab chiqishning zamonaviy bosqichida foydalanuvchi ma'lumotlarini samarali, xavfsiz va ishonchli tarzda saqlash muhim arxitektura muammolaridan biri hisoblanadi[1]. Android platformasida ushbu muammoni hal qilish uchun tarixan SharedPreferences mexanizmi qo‘llanib kelingan. Ushbu yechim o‘zining soddaligi va qulay interfeysi bilan dasturchilar orasida keng ommalashgan bo‘lsa-da, zamonaviy ilovalar qo‘yadigan yuqori talablar — reaktiv dasturlash, ko‘p oqimli muhit, xatolarga chidamlilik — oldida o‘zining tizimli kamchiliklarini namoyon etmoqda.

Google'ning Jetpack komponentlari to‘plamiga kiritilgan DataStore texnologiyasi ushbu muammolarga munosib javob sifatida ishlab chiqilgan. Kotlin Coroutines va Flow asosida qurilgan DataStore ma'lumotlarni asinxron tarzda saqlash va o‘qish imkonini beradi. Bundan tashqari, u ACID kafolatlarini, tip xavfsizligini va mukammal xato-larni qayta ishlash mexanizmlarini taqdim etadi[2].

Ushbu tadqiqot ikkala texnologiyani tizimli taqqoslash orqali Android dasturchilariga to‘g‘ri arxitektura qarorini qabul qilishda amaliy ko‘rsatmalar berish maqsadida olib borilgan. Tadqiqot davomida texnologiyalarning me'moriy xususiyatlari, ishlash printsiplari, afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, amaliy kod namunalari orqali ularning taqqoslanmasi keltirib o‘tilgan.

SharedPreferences — Android SDK 1-versiyasidan boshlab mavjud bo‘lgan, kalit-qiymat (key-value) juftliklari asosida ma'lumotlarni mahalliy saqlashning standart mexanizmi. Texnik jihatdan SharedPreferences qurilmaning ichki xotirasida XML formatida fayl yaratib, unda ma'lumotlarni saqlaydi. Ushbu fayl faqat muayyan ilovaga tegishli shaxsiy katalogda joylashadi va odatda boshqa ilovalar tomonidan o‘qib bo‘lmaydi. API nomi ko‘rsatib turganidek, bu interfeys kontekst ob'ekti orqali olinadi. getSharedPreferences() metodi orqali nomlangan preferences fayli olinadi, edit() metodi esa SharedPreferences.Editor interfeysi ob'ektini qaytarib, ma'lumotlarni yozish imkonini beradi. Yozuv operatsiyasi commit() yoki apply() metodlari bilan yakunlanadi: birinchisi sinxron, ikkinchisi asinxron rejimda ishlaydi[3].

SharedPreferences quyidagi ma'lumot turlarini qo‘llab-quvvatlaydi: String, Int, Long, Float, Boolean va String to‘plamlari (Set<String>). Bu oddiy sozlamalar va preferentsiyalar uchun yetarli bo‘lsa-da, murakkab ob'ektlar yoki katta hajmli ma'lumotlar bilan ishlashda qo‘shimcha seriyalashtirish (serialization) talab etiladi.

ISSN 3030-3907

SharedPreferences-ning asosiy afzalligi — uning soddaligidir. Minimal boilerplate kod bilan darhol ishga tushirish mumkin. Keng qo‘llab-quvvatlash va ko‘p yillik ishlab chiquvchilar tajribasi mavjud. Kichik hajmli ma'lumotlar uchun ishlash samaradorligi yuqori. Barcha Android versiyalarida mavjud bo‘lib, hech qanday qo‘shimcha dependency talab qilmaydi[3]. EncryptedSharedPreferences orqali shifrlash imkoniyati ham taqdim etilgan. Shunga qaramay, SharedPreferences bir qator jiddiy kamchiliklarga ega. Birinchidan, oqim xavfsizligi (thread safety) muammosi mavjud: OnSharedPreferenceChangeListener callback-i asosiy UI oqimida bajariladi, bu esa sezilarli ishlov berish jarayonlari UI blokirovkasiga olib kelishi mumkin. apply() metodi asinxron ko‘rinishda ishlasa-da, asosiy fayl tizimi fsync() operatsiyasi tasodifan UI oqimini to‘xtatib qo‘yishi mumkin.

Ikkinchidan, xatolarni qayta ishlash mexanizmi yetarli emas. API tekshirilmagan ish vaqti istisnolarini (unchecked runtime exceptions) tashlaydi, masalan ClassCastException. Bu istisnolar to‘g‘ri ishlov berilmasa, ilovaning to‘satdan to‘xtashiga olib keladi. Uchinchidan, atomlilik kafolati mavjud emas: bir nechta bog‘liq qiymatlarni saqlash jarayonida qurilma o‘chirilsa, faqat bir qism saqlanib, ma'lumotlar nomuvofiq holatga tushishi mumkin[4].

Jetpack Datastore Texnologiyasi - Jetpack DataStore — Google tomonidan 2020-yilda Jetpack kutubxonasi tarkibida taqdim etilgan zamonaviy ma'lumotlarni saqlash yechimi. DataStore Kotlin Coroutines va Flow reaktiv dasturlash paradigmasi asosida qurilgan bo‘lib, SharedPreferences-ning barcha asosiy kamchiliklarini bartaraf etish maqsadida loyihalashtirilgan.

DataStore ikki xil ko‘rinishda mavjud: Preferences DataStore va Proto DataStore. Ikkala ko‘rinish ham asinxron, oqim-xavfsiz (thread-safe) va ACID kafolatlarini ta'minlovchi me'moriyatda ishlaydi[5].

Preferences DataStore. Preferences DataStore SharedPreferences-ga eng yaqin muqobil hisoblanib, kalit-qiymat juftliklari asosida ishlaydi. Lekin u SharedPreferences-dan tubdan farq qiladi: ma'lumotlar Kotlin Flow orqali reaktiv tarzda taqdim etiladi, barcha operatsiyalar Coroutine kontekstida bajariladi, shuningdek, ma'lumot turlari uchun alohida kalit turlari (Preferences.Key) qo‘llaniladi[5].

Preferences.Key ob'ektlari preferencesKey(), intPreferencesKey(), booleanPreferencesKey() va boshqa tip-xavfsiz metod-lar orqali yaratiladi. Bu ish vaqtida ClassCastException xatolarining oldini oladi.

Proto DataStore Protocol Buffers (protobuf) formatidan foydalanadi. Bu yondashuv to‘liq tip xavfsizligini ta'minlaydi, chunki ma'lumotlar sxemasi .proto fayli orqali aniq ta'riflanadi. Protobuf JSON yoki XML-ga nisbatan ancha ixcham va tez ishlaydi. Biroq, bu yondashuvni qo‘llash uchun .proto fayl yozish va

ISSN 3030-3907

maxsus serializer sinfi yaratish talab etiladi va bu esa murakkablikni oshiradi. DataStore quyidagi asosiy afzalliklarni taqdim etadi.

Ma'lumotlar xavfsizligi mobil ilovalar ishlab chiqishning ajralmas qismidir. Root huquqiga ega qurilmalarda saqlash fayliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirish mumkin bo‘lganligi sababli, maxfiy ma'lumotlarni shifrlamasdan saqlash jiddiy xavf tug‘diradi. SharedPreferences ma'lumotlarni oddiy matnli XML faylida saqlaydi. Autentifikatsiya tokenlari, parollar yoki shaxsiy ma'lumotlar shifrsiz saqlansa, root qurilma yoki ADB orqali faylni o‘qigan shaxs ushbu ma'lumotlarni osongina olishi mumkin. Ushbu muammoni hal qilish uchun Android Security library tarkibidagi EncryptedSharedPreferences taqdim etilgan. U AES256-SIV algoritmidan kalit shifrlash, AES256-GCM esa qiymat shifrlash uchun foydalanadi[5].

DataStore esa Google tomonidan o‘rnatilgan shifrlash mexanizmiga ega emas. Ishlab chiquvchilar maxsus shifrlash yechimlarini amalga oshirishlari kerak, bu esa qo‘shimcha murakkablik va potentsial xavfsizlik zaifliklarini keltirib chiqarishi mumkin. SQLCipher yoki Android Keystore tizimidan foydalangan holda ma'lumotlarni shifrlash tavsiya etiladi. Quyidagi jadval SharedPreferences va Preferences DataStore texnologiyalarini asosiy mezonlar bo‘yicha taqqoslaydi (1-jadval):

1-jadval.

Mezon	SharedPreferences	Preferences DataStore
API turi	Sinxron (commit) va cheklangan asinxron (apply)	To'liq asinxron (Coroutines + Flow)
Oqim xavfsizligi	Cheklangan, UI blokirovka xavfi mavjud	To'liq thread-safe
Xatolarni qayta ishlash	Tekshirilmagan istisnolar (ClassCastException)	Tekshirilgan IOExceptions
Tip xavfsizligi	Yo'q (ish vaqti xatolari mumkin)	Preferences.Key orqali ta'minlangan
Ma'lumot izchilligi	Atomlik kafolati yo'q	ACID tranzaktsiya kafolatlari
Migratsiya	Qo'lda, xatoga moyil	O'rnatilgan migratsiya qo'llab-quvvatlash
However, the context in which educational leadership operates has changed significantly since the original formulation of Situational Leadership Theory. Contemporary educational institutions function within highly complex environments influenced by digital transformation, artificial intelligence, internationalization, multiculturalism, policy reforms, and increasing competition among educational providers. The emergence of online and blended learning environments, data-driven decision-making systems, and stakeholder-centered governance models has fundamentally altered the responsibilities and expectations of educational leaders. These developments raise important questions regarding the adequacy of traditional situational leadership models for addressing modern educational challenges.

This article argues that situational leadership should be reinterpreted as a multidimensional leadership approach that encompasses not only follower readiness but also organizational adaptability, digital transformation, collaborative engagement, and data-informed management practices. By integrating these contemporary dimensions into the situational leadership paradigm, educational leaders can better respond to complex institutional challenges while maintaining high standards of educational quality and organizational performance.

Therefore, the primary purpose of this study is to reconceptualize situational leadership within the context of modern educational management and to propose a contemporary framework that reflects the realities of twenty-first-century educational institutions. Specifically, the study examines the theoretical foundations of situational leadership, analyzes emerging challenges in

ISSN 3030-3907

educational leadership, and develops a conceptual model that integrates adaptive strategic leadership, digital leadership competencies, collaborative governance, and evidence-based decision-making. The findings are expected to contribute to the advancement of educational leadership theory and provide practical guidance for educational administrators seeking to enhance institutional effectiveness in an increasingly complex and rapidly changing educational environment.

LITERATURE REVIEW.

Situational leadership emerged as a response to the limitations of trait-based and behavioral leadership theories. According to Hersey, Blanchard, and Johnson (2013), effective leaders continuously adjust their leadership styles according to situational variables and follower development levels. Educational leadership scholars have increasingly emphasized contextual responsiveness as a critical leadership competency. Leithwood et al. (2020) argue that successful school leaders adapt their practices to organizational culture, stakeholder expectations, and policy requirements. Similarly, Hallinger (2018) highlights the importance of instructional leadership and adaptive decision-making in improving educational outcomes.

Recent studies indicate that digital transformation has significantly altered leadership requirements within educational institutions. Educational leaders are now expected to manage technological integration, virtual learning environments, and data-driven decision-making systems. Consequently, traditional situational leadership frameworks may no longer fully capture the complexity of contemporary educational management.

METHODOLOGY.

This study employs a qualitative conceptual research design based on systematic literature analysis. Research Methods - Comparative analysis of leadership theories, content analysis of educational leadership literature thematic synthesis of contemporary educational management research, conceptual model development. The study examined peer-reviewed journal articles indexed in Scopus and Web of Science, international educational policy reports, and contemporary leadership research published between 2015 and 2025. Reconceptualizing Situational Leadership Traditional Perspective. The traditional situational leadership model consists of four leadership styles:

1. Directing
2. Coaching
3. Supporting
4. Delegating

Leadership effectiveness depends primarily on matching these styles to follower readiness levels. While this approach remains valuable, contemporary

ISSN 3030-3907

educational environments present challenges that extend beyond individual follower development. Contemporary Educational Challenges

- Modern educational leaders face
- Digital transformation initiatives
- Artificial intelligence integration
- Multicultural learning environments
- Increasing accountability requirements
- Stakeholder diversity
- Rapid policy changes
- Crisis and risk management demands. These factors require leaders to adapt not only to follower characteristics but also to organizational and environmental conditions.

A Contemporary Framework for Situational Leadership. The proposed framework consists of four interconnected dimensions. Adaptive Strategic Leadership. Educational leaders must continuously interpret environmental changes and align institutional strategies with emerging challenges.

Key competencies include: Strategic planning; Change management; Risk assessment; Innovation leadership. Digital Situational Leadership. Leaders must possess digital competencies that enable effective management of technology-enhanced educational environments. Key competencies include: Educational technology integration; Digital communication; Data analytics; Cybersecurity awareness. Collaborative Situational Leadership. Contemporary educational institutions require participatory decision-making processes involving teachers, students, parents, and community stakeholders. Key competencies include: Team leadership; Conflict resolution; Stakeholder engagement; Network governance.

Evidence-Based Situational Leadership. Leadership decisions should be informed by reliable institutional data and performance indicators. Key competencies include: Data interpretation; Quality assurance; Performance monitoring; Institutional evaluation.

DISCUSSION.

The proposed framework expands traditional situational leadership theory by incorporating organizational, technological, and environmental dimensions. Rather than focusing exclusively on follower readiness, educational leaders must navigate multiple contextual variables simultaneously. The reconceptualized model aligns with contemporary theories of adaptive leadership and strategic educational management. It recognizes that leadership effectiveness depends on the dynamic interaction between leaders, followers, institutions, and external environments. Educational institutions implementing this framework may experience:

ISSN 3030-3907

- Improved organizational adaptability
- Enhanced educational quality
- Stronger stakeholder engagement
- Greater institutional resilience
- Increased innovation capacity

CONCLUSION.

The evolving nature of educational systems necessitates a reconceptualization of situational leadership. Traditional leadership approaches centered solely on follower readiness are insufficient for addressing contemporary educational challenges. The proposed framework integrates adaptive strategic leadership, digital leadership, collaborative governance, and evidence-based management into a comprehensive situational leadership model. By adopting this approach, educational leaders can enhance institutional effectiveness, improve educational quality, and strengthen organizational sustainability.

Future empirical research should validate the proposed framework across different educational contexts and examine its impact on institutional performance indicators.

REFERENCES

1. Hallinger, P. (2018). Bringing Context Out of the Shadows of Leadership. *Educational Management Administration & Leadership*, 46(1), 5–24.
2. Hersey, P., Blanchard, K., & Johnson, D. (2013). *Management of Organizational Behavior*. Pearson Education.
3. Leithwood, K., Harris, A., & Hopkins, D. (2020). Seven Strong Claims About Successful School Leadership Revisited. *School Leadership & Management*, 40(1), 5–22.
4. Isakulova Bakhtigul.2025/3/14.Teaching English in contemporary approaches: An educational evolution. Prospects of teaching English for professional purposes in non–philological higher education institutions: problems and solutions,88-92
5. Isakulova, B. (2024). BUILDING LEADERSHIP ABILITIES THROUGH LANGUAGE LEARNING IN EDUCATION. Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2(12), 218-225.
6. Isaqulova Baxtigul Xo‘jamovna. (2025). TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA KO‘P TILLILIK VA TIL BILISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY TA’SIRI . Ta’lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 47(4), 125-127. https://scientific-jl.com/tal/article/view/22655

O‘QUVCHILARDA ZARARLI ODATLARGA QARSHI IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISH ZARURATI

Abdulazizova Nilufar Abduraxmonovna
Farg‘ona davlat universiteti pedagogika kafedrasi dotsenti
E-mail: nilufarabdulazizova73@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarda zararli odatlarga qarshi immunitetni shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish, kasbiy-pedagogik tayyorgarlik, zamonaviy talablar, pedagogik ta’lim dasturlarini yangilash, amaliy mashg‘ulotlar, treninglar, bo‘lajak zararli odatlarning oldini olish, maktab o‘quvchilari, mutaxasislarning fikrlari, oila, maktab hamkorligi, ta'lim-tarbiya, pedagogik texnologiyalar, tarbiyaviy metodlar, samarali muloqotga asoslangan yondashuvlar, profilaktik faoliyat, zararli odatlarning tarqalishiga sabab bo‘layotgan axborot bosimi, ijtimoiy tarmoqlardagi noto‘g‘ri targ‘ibot, oilaviy befarqlik, o‘quvchilarda sog‘lom ijtimoiy muhit shakllantirish va boshqalar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchilar, o‘quvchilar, zararli odatlar,immunitet, shakllantirish, tayyorlash, tizim, takomillashtirish.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы совершенствования системы подготовки будущих учителей к формированию у обучающихся иммунитета к вредным привычкам, профессионально-педагогическая подготовка, современные требования, актуализация программ педагогичес -кого образования, практические занятия, тренинги, профилактика будущих вредных привычек, мнения обучающихся, специалистов, семьи, школьного сотрудничества, образования и воспитания, педагогических технологий, методов обучения, подходов, основанных на эффективной коммуникации, профилактической деятельности, информационного давления, способствую щего распространению вредных привычек, некорректной пропаганды в социальных сетях, безразличия семьи, формирования здоровой социальной среды обучающихся и др.

Ключевые слова: будущие учителя, студенты, вредные привычки, иммунитет, формирование, обучение, система, совершенствование.

Abstract. This article discusses the improvement of the system of training future teachers to form immunity against harmful habits in students, professional and pedagogical training, modern requirements, updating pedagogical education programs, practical exercises, trainings, prevention of future harmful habits, opinions of schoolchildren, specialists, family, school cooperation, education and upbringing, pedagogical technologies, educational methods, approaches based on effective communication, preventive activities, information pressure causing the

ISSN 3030-3907

spread of harmful habits, incorrect propaganda in social networks, family indifference, formation of a healthy social environment in students, etc.

Keywords: future teachers, students, harmful habits, immunity, formation, training, system, improvement.

KIRISH.

Dunyoda mediatexnologiyalarning shiddatli rivojlanishi natijasida texnoetika ilmiy-amaliy tadqiqotlarning asosiy tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Axborot texnologiyalari insoniyatning hayot tarzi, ta’lim va mehnat jarayonlari, oilaviy munosabatlari hamda davlatning fuqarolik jamiyati bilan o‘zaro aloqasida jiddiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Jamiyat axborotlashuvining jadallashuvi ijobiy jihatlar bilan bir qatorda, o‘quvchi-yoshlarni zararli axborotlar ta’siridan himoya qilishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, axborot xurujlarining turli ko‘rinishlaridan o‘sib kelayotgan avlodni himoya qilish, o‘quvchi-yoshlarda axborot iste’moli madaniyatini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda yuzaga kelgan qator tendensiyalar kishilik jamiyatining turli sohalarini tubdan o‘zgartirish, axborot tizimlari xavfsizligini ta’minlash va ta’lim-tarbiya jarayonida axborot texnologiyalarini tadbiq etishni taqozo etmoqda. Axborot hajmi, uni saqlash, qayta ishlash va uzatishning texnologik imkoniyatlari kengayib borishi ulardan jamiyatning barcha tarmoqlarida foydalanishga zamin yaratmoqda. Bu esa o‘z navbatida ushbu tarmoqlarda xususan, ta’lim-tarbiya jarayonlarida ham axborot tizimlari xavfsizligini ta’minlash masalasini keltirib chiqarmoqda. Shu bois o‘quvchilarni zararli axborotlar tahdididan himoya qilish texnologiyasini takomillashtirish va bu orqali o‘quvchilarni turli g‘oyaviy ta’sirlardan himoyalash hamda axborot xavfsizligini ta’minlashga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Inson bevosita tajriba, shaxsiy muloqot, shuningdek, turli-tuman axborot manbalari (kitoblar, radio, televideniye, jurnallar, gazetalar va belgi-ramz ko‘rinishidagi boshqa manbalar) orqali zarur axborotga ega bo‘ladi. Binobarin, ijtimoiy rivojlanish qonuniyati axborot manbalari, shu bilan birga bevosita tajriba va shaxsiy muloqotdan olingan axborot ulushining keskin ortishi va ustunligi bilan belgilanadi.

Bizning ushbu fikrimiz tadqiqiotchi olimlar G.V. Grachev, I.I.Melniklar tomonidan ham e’tirof etilgan: “Jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarning murakkablashuvi va insonning kundalik turmushiga ijtimoiy o‘zgarishlarning bevosita ta’siri uni ommaviy kommunikatsiya vositalari xabarlari oqimiga yanada bog‘liq qilib qo‘yadi. Inson jamiyatdagi ijtimoiy xatti-harakati va hayoti uchun zarur ba’zi ma’lumotlarni kundalik tajribasiga asoslangan holda oladi. Ijtimoiylashuvga ta’sir etuvchi ma’lumotlarni esa tele- va radiodasturlar hamda

ISSN 3030-3907

davriy nashrlardan olish mumkin [1].

Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikricha, inson va uning kundalik hayoti ommaviy kommunikatsiyaga bog‘liq bo‘lib, u o‘ziga xos “ikkinchi voqelik”-“subyektiv voqelik” ni hosil qiladi, uning ta’siri obyektiv voqelikning ta’siri singari birmuncha muhimroqdir.

Buguni kunda O‘zbekistonda yuz berayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jamiyat axborot muhitining keskin sifat va miqdor jihatidan o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Bu hodisalar telekommunikatsiya vositalari hamda axborot texnologiyalari tizimlarining jadal rivojlanishi sharoitida yuz berib, bu jamiyatdagi ijtimoiy boshqaruv sohasida axborot-telekommu-nikatsiya jarayonlari va turli darajadagi axborot omillari yig‘indisini tayanch nuqtaga chiqaradi.

Murakkab tizimga ega axborot muhitida jarayonli tarkibiy qism uning dinamik va o‘zgaruvchan qismi – axborot-kommunikatsiya jarayonlari sifatida farqlanib, ular yakka tartibli, guruhli va ijtimoiy psixologiyaga (xususan, individual, guruh va omma ongiga) faol ta’sir etadi. Ushbu fikrimizning tasdig‘i sifatida rus olimi G.V. Grachevning fikrini keltirib o‘tamiz: “Jamiyatning ma’naviy sohasi ma’lum darajada axborot muhitining bevosita ta’siriga uchrab, uning deformatsiyasi va destruktiv o‘zgarishlari ruhiy-emotsional va ijtimoiy zo‘riqish, buzilgan axloqiy meyor va mezonlar, noto‘g‘ri ijtimoiy stereotip va yo‘l-yo‘riqlar, yolg‘on mo‘ljal va qadriyatlarlar shaklida, o‘z navbatida, ijtimoiy, jumladan siyosiy va iqtisodiy hayotning asosiy sohalaridagi jarayon va holatlarga ta’sir etadi” [2].

Hozirgi kunda mamlakatimizning zamonaviy pedagogik muhitida ustuvor milliy ta’lim loyihasi doirasida axborotlashtirish va kompyuterlashtirishni amalga oshirish vazifasi belgilangan.

A.D. Ursul esa axborot xavfsizligini xavfli axborot ta’sirlariga nisbatan hayotiy faoliyatning asosiy sohalaridagi himoyalanish holati sifatida ko‘rsatadi[3].

SH.T.Xalilovaning “O‘quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari” nomli

1. [1] Грачев Г.В., Мельник И.И. Манипулирование личностью: организация, способы и технологии информационно-психологического воздействия.- М.: Алгоритм, 1999, 153 с
2. Yoziyeva U.L. Oilada bolani televideniyega ijobiy munosabatini shakllantirishning pedagogik imkoniyati // Qoraqalpoq davlat universitetining axborotnomasi. –Nukus, 2016. -№4. -Б. 40-42.
3. [2] Грачев Г.В. Информационно-психологическая безопасность личности: Теория и технология психологической защиты. Дис. док.пси. наук. - М.: 2000, - 360 с..
4. Ёзиева У.Л. Интернет как источник вредной информации//Подготовка профессиональных управленческих кадров: опыт, проблемы, инновационные образовательные технологии. // Материалы международной научной-практической конференции. -Челябинск, 2014. С. 35-39.
5. [3] Урсул А.Д. Информационная стратегия и безопасность в концепции устойчивого развитиях // Научно-техническая информация. Серия 1: Организация и методика информационной работы. 1996, №1, С.7.

ISSN 3030-3907

dissertatsiya ishida o‘quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashda radioeshittirishlarning mohiyati, maqsadi va vazifalari va ulardan foydalanish tizimi hamda ularning pedagogik xususiyatlari ochib berilgan[4].

Fikrimizcha, bolani samaraliva to‘laqonli rivojlantirish uchun ideal axborot muhitini yaratishning imkoni yo‘q. “Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o‘quv dargohlarida, radio-televideniye, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma’lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o‘rab-chirmab, uni o‘qima, buni ko‘rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o‘rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning maqsad muddaomizga ham to‘g‘ri kelmaydi”[5].

Darhaqiqat, ushbu hayotiy fikrga ko‘ra o‘quvchi ongini o‘rab-chirmash, atrofini temir devor bilan o‘rab olish mutlaqo noto‘g‘ridir. Balki, yosh avlodni har qanday zararli axborotlarga qarshi tura olish va himoyalanish ko‘nikmasini shakllantirish lozimdir.

Biz ushbu muammoni tadqiq etar ekanmiz, o‘quvchining jismoniy va ruhiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi zararli axborotlar qatoriga quyidagilarni kiritdik:

Internet, telefon, disklar orqali tarqalayotgan ommaviy madaniyat tahdidi.

Turli milliy va umummilliy ma’naviyatga zid bo‘lgan g‘oyalar tahdidi.

Kompyuter o‘yinlari tahdidi.

Odam savdosi tahdidi.

Jangarilik, kashandalik, giyohvandlikni targ‘ib etuvchi filmlar tahdidi va boshqalar.

Yuqorida sanab o‘tgan salbiy omillar ta’siriga berilish bir qator sabablar natijasida ro‘y berishi mumkin, bular:

1. O‘quvchi faoliyatini maqsadli tashkil etilmaganligi.
2. O‘quvchilarda zararli axborotlar haqida bilimlarning yetishmasligi.
3. Oila, ta’lim muasssasi va mahallalarda bolalarni zararli axborotlardan himoyalash chora-tadbirlarining ishlab chiqilmaganligi.
4. O‘quvchida yuqoridagi salbiy omillarga nisbatan immunitet shakllantirilmaganligi va boshqalar.

Biz pedagoglar farzandlarimizni ushbu salbiy omillardan himoyalay olish uchun ular faoliyatini maqsadli tashkil etishimiz; oila maktab, mahalla va ta’lim

6. [4] Халилова Ш.Т.Ўқувчиларни ахлоқий-эстетик тарбиялашда оммавий ахборот воситаларидан фойдаланишнинг педагогик шарт-шароитлари (Ўзбекистон радиоси эшиттиришлари мисолида). Пед. фан. ном. дисс. - Т.: 2001, - 142 б.

7. [5] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. - Т.: “Маънавият”, 2008, 173 б.

ISSN 3030-3907

muassasasi o‘rtasidagi hamkorlikni samarali tashkil etishimiz; muntazam ularni matbuot, teatr, televideniye, radio, adabiyot va san’at, musiqa, sport yangiliklaridan xabardor etib borishimiz lozim bo‘ladi.

Mazkur muammo yechimida biz diqqatimizni quyidagilarga qaratishni lozim deb bildik:

- o‘quvchilarga zararli axborotlar va ularning turlari hamda shaxs dunyoqarashiga salbiy ta’sir doirasi haqida bilimlar berish;
- bugungi davr o‘quvchisining qiziqish va istaklarini o‘rganish, shunga muvofiq ular faoliyatini yo‘naltirish ishlarini tashkil etish;
- zararli axborotlar ta’siri tushib qolgan o‘quvchilarning oila va mahallalaridagi mavjud holatni o‘rganish orqali muammoning asl sababini ochib berish;
- o‘quvchilarni zararli axborotlardan himoyalashda o‘qituvchi va ota-onalarga pedagogik bilim berishning samarali shakllarini ishlab chiqishdan iborat.

So‘nggi paytda ko‘pchilik tadqiqotchi va amaliyotchilar shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligi muammosini ishlab chiqish zaruratiga e’tibor qaratmoqdalar.

Tadqiqotlarimiz natijasiga ko‘ra, iqtisodiyot, falsafa, ijtimoiy psixologiya, jurnalistika sohalarida axborot xavfsizligi, axborot xuruji, axborot tahdidi muammolari tahlil qilingan. Ammo, ushbu muammolar pedagogik tadqiqotlarda yaxlit tarzda o‘rganilganligini uchratmadik. Shu sababli, fanlararo tadqiqotlarga murojaat etgan holimizda, adabiyotlarda bu tushunchalarga bir xil yondashuvlar mavjudligi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, axborot xavfsizligi, zararli axborot tahdidi muammosi tadqiqida ayrim noaniqliklar mavjud. Ular bir tomondan, axborot xavfsizligiga qo‘shimcha talqin va muayyanlashtirishni talab etuvchi noaniq va keng ta’riflar berilganligi ifodalansa, boshqa tomondan, axborot xavfsizligini ta’minlashning alohida jihatlari hisobga olinmaganligi, shu bilan birga, ko‘rib chiqilgan ta’riflar muhim ma’noli yuklama va ko‘rib chiqilayotgan tushunchaga nisbatan asosiy holatlarga egaligi bilan tavsiflanadi. Avvalo, himoya obyekti, zararli axborotdan himoyalanishni ta’minlash bo‘yicha muayyan faoliyat ko‘rsatiladi.

O‘tkazilgan tahlillarimiz quyidagicha xulosa qilish imkonini berdi: zararli axborot tahdidlari manbaini aniqlash muammosi turli fanlarda munozarali masala hisoblanadi va ushbu masalada aniq xulosaga kelinmagan.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda shaxsga tahdid manbalari tasnifini uchratmadik, shu sababli tahdid manbalari tasnifini ishlab chiqishga harakat qildik.

Tadqiqot ishimizning maqsadidan kelib chiqqan holda, shaxs nuqtai nazaridan axborot xavfsizligiga asosiy tahdid manbalarini, uni himoyalash usul

ISSN 3030-3907

va mexanizmlarini aniqlash uchun ajratamiz. Buni hisobga olgan holda, birinchi navbatda, shaxsga zararli axborotlar tahdidi, quyidagi ichki va tashqi asosiy tahdid manbalari ajratilib, ularni insonga nisbatan ta'sirini tahlil qilish mumkin:

shaxs axborot xavfsizligiga tashqi tahdidning umumiy manbai turli sabablarga ko‘ra;

jamiyat axborot muhitining inson atrofidagi olamni yetarlicha to‘g‘ri aks ettirmaydigan qismi, ya'ni atrofdagi voqelik va o‘zini-o‘zi to‘g‘ri idrok etish imkonini beruvchi axborot hisoblanadi.

Axborot muhiti inson uchun yuqorida qayd etganimizdek ikkinchi, subyektiv voqelik ko‘rnishini oladi, deb taxmin qilish maqsadga muvofiq. Atrof-olamni noto‘g‘ri aks ettiruvchi axborotga ega qism hamda insonning atrofdagi narsalar va o‘zini-o‘zi idrok etish va tushunish to‘g‘riligiga to‘sqinlik qiluvchi jarayon va tavsiflarni shartli ravishda “xayoliy voqelik” sifatida belgilash mumkin. U xayoliy ko‘rinishiga qaramay, hatto xayoliy ko‘rinishiga ko‘ra ham, lekin tasavvurdagi voqelik shaklida shaxs axborot xavfsizligiga tashqi tahdidning asosiy manbai hisoblanadi.

Hozirgi kunda, ko‘pgina psixologlar inson shaxsini shakllantirish, yuqori darajadagi ruhiy funksiyalarni rivojlantirish, insonning tashqi olam va boshqa kishilarga munosabatlari tizimini hosil qilish, inson motivatsiya sohasi tuzilmasida muloqotning muhim rolini baholashda yakdildirlar. Subyektiv yoki shaxslararo munosabat sifatida tushuniluvchi muloqot kategoriyasi psixologiya fanida azaldan samarali tadqiq etilgan.

Televideniye ijtimoiy institut sifatida o‘z xususiyatlari: kundalik teledasturlar, qulaylik, tomoshabinning psixologik doirasidagi mavjudligiga ko‘ra vositali muloqotning muhim turlaridan biri hisoblanadi hamda shaxsning ilk bolalik chog‘laridan rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim omilga aylanadi.

Ko‘pgina sotsiologik tadqiqotlar OAV, ayniqsa, televideniyaning jamiyat va alohida shaxslar hayotidagi o‘rni ortib borayotganini ko‘rsatmoqda. Uning bola hayotidagi ahamiyati katta yoshdagi insonning hayotidagiga nisbatan ko‘proqdir. Televideniye zamonaviy o‘quvchi uchun yashayotgan olami to‘g‘risidagi axborotning muhim manbaiga aylandi.

Ommaviy axborot vositalarining ahamiyati bo‘yicha televideniye birinchi, Internet ikkinchi, radio va matbuot nashrlari uchinchi o‘rinni egallaydi.

1. Yuqoridagi fikrlarga ko‘ra ushbu dolzarb muammoni hal etishning bir necha yo‘llarini keltirish lozim:
2. Bolalarni zararli axborotdan himoyalash usuli sifatida OAVning barcha turlari faoliyatini qonunchilik orqali asoslash yo‘li.
3. Umumiy o‘rta ta'lim muassasalari o‘quv dasturlariga mediata'lim kursini kiritish.

ISSN 3030-3907

4. Barcha o‘quv fanlari jarayonida o‘quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni muntazam shakllantirib borish.

Axborotga bog‘lanib qolmaslik uchun, avvalo, axborot manbaiga e’tibor qaratish lozim. Taklif etilayotgan axborotning ishonchliligi (ilmiy, ma’naviy, madaniyligi), to‘g‘riligi (shu jumladan, tarixiyligi)ga ishonch hosil qilish zarurdir. Buning uchun bilimlarni egallash, taklif etilgan axborotni avvaldan ma’lum bo‘lgan axborotlar bilan qiyoslay olishga, axborotlarni tanlab qabul qilishga o‘rgatish muhim pedagogik muammo hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda, o‘quvchilarni zararli axborotlar tahdididan himoya qilishning motivatsion, muhitga moslashish, refleksivlik pedagogik-psixologik xususiyatlari ong-idrok-hissiyotning ratsionallik bilan uyg‘unligini ta’minlash, yaqin kattalar va sotsium omillari tizimlashtirish asosida aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - T.: “Ma’naviyat”, 2008, 173 b.
2. Грачев Г.В. Информационно-психологическая безопасность личности: Теория и технология психологической защиты. Дис. док.пси. наук. - М.: 2000, - 360 с..
3. Ёзиева У.Л. Интернет как источник вредной информации//Подготовка профессиональных управленческих кадров: опыт, проблемы, инновационные образовательные технологии. // Материалы международной научной-практической конференции. -Челябинск, 2014. С. 35-39.
4. [1] Урсул А.Д. Информационная стратегия и безопасность в концепции устойчивого развитиях // Научно-техническая информация. Серия 1: Организация и методика информационной работы. 1996, №1, С.7.
5. [1] Xalilova Sh.T.O‘quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari (O‘zbekiston radiosi eshittirishlari misolida). Ped. fan. nom. diss. - T.: 2001, - 142 b.
6. [1] Грачев Г.В., Мельник И.И. Манипулирование личностью: организация, способы и технологии информационно-психологического воздействия.- М.: Алгоритм, 1999, 153 с
7. Yoziyeva U.L. Oilada bolani televideniyega ijobiy munosabatini shakllantirishning pedagogik imkoniyati // Qoraqalpoq davlat universitetining axborotnomasi. –Nukus, 2016. -№4. -B. 40-42.

ISSN 3030-3907

TABIIY SAPROPEL GIL KUKUNLARI ASOSIDA SAMARALI SORBENTLAR OLISH VA ULARNI TADQIQ QILISH

To`xtayev Sardor Anvarjon o`g`li
Buxoro davlat universiteti Kimyo va neft-gaz texnologiyalari kafedrasi 1-bosqich tayanch doktaranti
E-mail: toxtayev737@gmail.com
Amonov Muxtor Rahmatovich
Buxoro davlat universiteti Kimyo va neft-gaz texnologiyalari kafedrasi professori

Annotatsiya. Tabiiy sapropel mineralini modifikatsiyalash natijasida olingan sorbentlar turli ionlar, jumladan, Co^{2+} ionlari va NO_3^- ionlari uchun adsorbsion qobiliyatini sezilarli darajada oshirishga imkon bergan. Ushbu natijalar ifloslantiruvchi moddalardan tozalashning samarali usullarini ishlab chiqish uchun foydali bo‘lishi mumkinligi aniqlangan.

Kalit so`zlar: Sapropel minerali,modifikatsiya,adsorbent,sorbent,inert muhit, anion adsorbsiyasi,alyuminosilikatlar,optimal sharoit.

Аннотация. Сорбенты, полученные в результате модификации природного сапропеля, позволили значительно увеличить адсорбционную способность по отношению к различным ионам, включая ионы Co^{2+} и NO_3^-. Установлено, что эти результаты могут быть полезны для разработки эффективных методов очистки от загрязняющих веществ.

Ключевые слова: сапропелевый минерал, модификация, адсорбент, сорбент, инертная среда, адсорбция анионов, алюмосиликаты, оптимальные условия.

Abstract. The sorbents obtained as a result of modification of natural sapropel mineral allowed to significantly increase the adsorption capacity for various ions, including Co^{2+} ions and NO_3^- ions. It was found that these results can be useful for developing effective methods for cleaning pollutants.

Keywords: Sapropel mineral, modification, adsorbent, sorbent, inert medium, anion adsorption, aluminosilicates, optimal conditions.

KIRISH.

Hozirgi vaqtda dunyoda mineral xom ashyolardan, shu jumladan tabiiy minerallardan sanoatda faol foydalanish, ayniqsa ishlab chiqarish korxonalarida ishlatiladigan,qayta ishlashga yaroqsiz bo`lgan ikkilamchi resurslarni hamda sanoat korxonalarida hosil bo`ladigan oqava suvni tozalash texnologiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan sohalarda muhim o‘rinlardan birini egallaydi.

Orol dengizining qurigan tubidan olingan sapropel tabiiy minerali noyob xossalari tufayli, jumladan yuqori adsorbsion faolligini namoyon qilishi uning qo`llanish spektrlarini kengayishiga olib keladi. Biroq, ulardan foydalanish

ISSN 3030-3907


samaradorligini oshirish uchun nafaqat ularning asosiy tabiiy xususiyatlarini o‘rganish, balki ularni turli usullar yordamida sorbsion xossalarini o‘zgartirish orqali uning qo`llash imkoniyatlarini ham o‘rganishni talab etadi.

Sapropeldan sorbentlar olish texnologiyasi nisbatan sodda bo‘lib, uni qazib olib, quritish, termik ishlov berish, gumin kislotalarni ajratib olish, gidrogellar va modifikatsiyalangan sorbentlar tayyorlash mumkin. Bunday sorbentlarning afzalliklari — arzonligi, qayta tiklanishi, tabiiyligi va inson hamda tabiat uchun xavfsizligi hisoblanadi. Sapropel asosidagi sorbentlar suv va tuproqni tozalash, degradatsiyaga uchragan yerlarni remediatsiya qilish, organo-mineral o‘g‘itlar va biostimulyatorlar ishlab chiqarish, detoksikatsiya va ekologik melioratsiya sohalarida keng qo‘llaniladi. Sapropel asosida sorbentlar olishda asosiy e’tibor uning tabiiy tarkibi va funksional guruhlariga qaratiladi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, sapropelni sorbent sifatida ishlatish uchun uning fizik-kimyoviy xususiyatlarini yaxshilash maqsadida qator texnologik ishlovlar qo‘llaniladi. Birinchi bosqichda sapropel qazib olinadi va quritiladi, keyin esa maydalanadi. Keyingi bosqichda sapropelga termik ishlov beriladi — ya’ni 300–350°C haroratda havoda yoki inert muhitda qisqa muddatli qizdirish amalga oshiriladi. Bu jarayon sapropelning g‘ovakligini va faol yuza maydonini oshiradi, bu esa uning sorbsion qobiliyatini kuchaytiradi. Shuningdek, sapropel tarkibidagi gumin kislotalarni ishqorli eritma (masalan, NaOH) yordamida ajratib olish va keyinchalik kislotali ishlov (masalan, HCl) bilan tozalash orqali faol gumin fraksiyalar olinadi.

Sapropelni termik (TMSM-termik modifikatsiyalangan sapropel minerali), kimyoviy (KMSM - kimyoviy modifikatsiyalangan sapropel minerali), termokimyoviy (TKMSM – termo-kimyoviy modifikatsiyalangan sapropel minerali) va kombinatsiyalangan kimyoviy faollantirish orqali olingan yuqori samarali sorbentlarni adsorbsion xususiyatlarini o‘rganish ham ilmiy ham amaliy jihatdan muhim hisoblanadi. Ushbu turdagi sapropelni taqqoslash modifikatsiya jarayoni ularning adsorbsion xususiyatlariga qanday ta'sir qilishini aniqlaydi va qaysi sharoitlarda u yoki bu turdagi sapropeldan foydalanish yaxshiroq ekanligini aniqlaydi.

Ma'lumki, adsorbsion jarayonlarni o‘rganishda e'tiborga olinishi kerak bo‘lgan eng muhim xususiyatlardan biri bu jarayon kinetikasidir. Ushbu tadqiqotda adsorbat sifatida Co^{2+} va NO_3^- ionlarini o‘z ichiga olgan tuzlar ishlatilgan. Sapropel namunalarida bu ionlarning adsorbsiya kinetikasini va ularning o‘zgartirilgan shakllarini o‘rganish natijalari 1-rasmda keltirilgan. Eritmalarning dastlabki konsentratsiyasi pH=6,9 da 220 mg/l ni tashkil etdi.

ISSN 3030-3907



1-rasm.Co^{+2} ionlari adsorbsiyasining kinetik egri chizig`i:1) TKMSM; 2) KMSM 3) TMSM 4)TSM [1]

1-rasmda keltirilgan tajriba natijalaridan shuni aytish mumkinki, TSM (Tabiiy sapropel minerali) namunasi yuzasining Co^{2+} ionlari bilan to‘yinganligi tajriba boshlanganidan taxminan 6 soat o‘tgach boshlanadi, TKMSM (Termo-kimyoviy modifikatsiyalangan sapropel minerali) namunasi uchun esa ushbu jarayon atigi 2,0 - 2,5 soat kifoya qiladi. Biroq, "adsorbat-modifikatsiyalangan sorbent" tizimida yanada barqaror muvozanatga erishish uchun tajriba sapropel mineralini faollashtirish jarayonini kamida 8 soat davomida olib borish maqsadga muofiq hisoblanadi.

Takidlash joizki, adsorbsion muvozanatni o‘rnatish uchun zarur bo‘lgan vaqt eritmadagi adsorbatning dastlabki konsentratsiyasiga ham bevosita bog‘liq: eritma tarkibidagi sorbsiyalanuvchi modda konsentratsiyasi ortib borishi bilan sorbsiya jarayoni shunchalik uzoq davom etadi. Adsorbsiya jarayonining davomiyligidagi bu farq, ehtimol, o‘zgartirilgan loy tabiiy sapropel matritsasining barqarorligi bilan solishtirganda modifikatsiyalangan tabiiy sapropel namunasi g`ovaklarining kengayib borayotgan tuzilishi bilan izohlash mumkin. Vaqt o‘tishi bilan eritmadagi boyitilgan mineralning strukturasi qutbli suv molekulalari bilan o‘zaro ta'sir qilish natijasida mustahkamlanadi, bu eritmadagi kationlarning yangi hosil bo‘lgan sirtlarda adsorbsiyalanishiga yordam beradi.


Agar faollashtirilgan sapropel minerali asosidagi sorbentga og`ir metallar ionlarining adsorbsiyalanish jarayoni kationlar almashinuvi yo`li bilan amalga oshirilsa, modifikatsiyalangan sapropellarda jarayon murakkab birikmalar holida kimyoviy bog`lar hosil bo`lishi orqali sodir bo`ladi. Shu bilan bir qatorda modifikatsiyalangan namunalarda sorbsiya jarayoni ion almashinish orqali sodir bo‘lsa, bu Fe^{3+} oksidi va gidroksidlarining yuvilishiga olib kelishi kerak. Biroq,

ISSN 3030-3907

ishlatiladigan modifikatsiyalangan sapropel asosidagi sorbentlarning kimyoviy va mineralogik tarkibini o‘rganish ma'lum bir barqarorlikni ko‘rsatdi.

Olingan ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Ca^{2+}, Zn^{2+} va Mn^{2+} ionlarini o‘z ichiga olgan ikkinchi eritma bilan modifikatsiya eritmadan Co^{2+} ionining adsorbsiya kinetikasida o‘zgarishlarga olib kelmaydi. Ushbu tizimda adsorbsion muvozanatga erishish vaqti avval keltirilgan natijalar bilan deyarli bir xil.

Anion adsorbsiyasi kinetikasini o‘rganish NO_3^- ionlari bilan o‘zgartirilgan namunalar uchun jarayonning deyarli bir xil davomiyligini ko‘rsatdi. Biroq, modifikatsiya anionlarga nisbatan sorbsiya qobiliyatining oshishiga olib kelishi ma'lum bo‘ldi. Tadqiqot natijalari 2 - rasmda keltirilgan.



2-rasm.NO_3^- ionlari adsorbsiyasining kinetik egri chizig`i 1)TKMSM ; 2)KMSM; 3)TMSM; 4)TSM [2]

Adsorbsiyalanuvchi eritmada Ca^{2+}, Zn^{2+} va Mn^{2+} ionlarining mavjudligi NO_3^- ionlarining adsorbsiya jarayoniga ta'sir qilmaydi. Biroq, turli ionlarning adsorbsion kinetikaga ta'sirini to‘liq tushunish uchun batafsilroq tadqiqotlar talab qilinishi mumkin.


2-rasmda keltirilgan tajriba ma`lumotlari shuni ko`rsatadiki NO_3^- ionlari modifikatsiyalangan sapropel minerali va tabiiy sapropel namunalarining sirt to‘yinganlik vaqti har xil ekanligini ko‘rish mumkin. Nitrat ionlari bilan o‘zgartirilgan TSM namunasi uchun sirt to‘yinganligi taxminan 1,5-2 soatni talab qilsa, o‘zgartirilgan TKMSM namunasi uchun esa adsorbsiya muvozanatiga o‘zaro ta'sir boshlanganidan taxminan 0,5 - 1 soat o‘tgach erishiladi.

Ehtimol, sapropelni modifikatsiyalash orqali o‘zgartirilgan shakllarida nitrat ionlarining adsorbsiyasining oshishi yangi yuzalar va faol markazlarning shakllanishi bilan bog‘liq deb qarash mumkin. Elementar matritsaning tetraedral va oktaedral tuzilmalarida kimyoviy bog‘lanishlarning uzilishi yon yuzalarda

ISSN 3030-3907

gidroksil guruhlari paydo bo‘lishiga olib keladi, bu yerda vodorod metall ionlari bilan almashinuv reaktsiyalariga kirishishi mumkin.

Natijalarni tahlil qilish TKMSM va KMSM ning modifikatsiyalangan shakllarini olish uchun qo‘llaniladigan modifikatsiyalash jarayoni Co^{+2} ionlari uchun sapropelning adsorbsion qobiliyatini oshirish uchun eng samarali hisoblanadi, deb taxmin qilish imkonini beradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, modifikatsiyalangan sapropelning anionlar uchun sorbsiya qobiliyati dastlabki namunalarga nisbatan sezilarli darajada yuqori, bu anion almashinuv markazlari sonining ko‘payishi bilan izohlanadi.



3 – rasm. Namunalarda NO_3^- ning adsorbsion izotermalari [3]

1-jadval

O‘rganilayotgan sorbentlarda ionlarning muvozanat holatdagi adsorbsiyalangan qiymatlari [1]


Adsorbatlar	TSM	TMSM	KMSM	TKMSM
Co^{2+}	48,3	76,1	86,5	94,1
NO_3^-	36,8	48,5	54,3	69,4

1-jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, modifikatsiyalangan TMSM, KMSM va TKMSM asosida olingan sorbentlar har ikki turdagi adsorbatlar Co^{2+} va NO_3^- uchun TSM dastlabki namunaga nisbatan yaxshilangan adsorbsion faollikni namoyish etadi. Barcha o‘rganilgan namunalar orasida TKMSM Co^{2+} va NO_3^- uchun eng yuqori adsorbsion faollikka ega. Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, tabiiy sapropelning modifikatsiyasi uning adsorbsion xususiyatlarini, ayniqsa noorganik ionlarga nisbatan yaxshilanishiga yordam beradi.

Ushbu holatni quyidagicha izohlash mumkin; ishqoriy sharoitda sapropel zarrachalari chegaralarida elektr zaryadining o‘zgarishi yagona zaryadlangan qo‘sh qavatning hosil bo‘lishiga olib keladi, kislotali va neytral sharoitlarda esa u o‘zgaruvchan qatlamga olib keladi. Bu o‘zgarish birlamchi va qayta ishlangan

ISSN 3030-3907

modifikatsiyalangan aluminosilikatlarning adsorbsion faolligida sezilarli farqlarga olib keladi. Anionlarga nisbatan eng yaxshi adsorbsion xususiyatlarga erishiladigan modifikatsiyalangan alyuminosilikatlar uchun optimal pH qiymatlari ularning boshqa ionlarga nisbatan pastroq qiymatlarga to‘g‘ri keladi (4 - rasm).



4-rasm. NO_3^- ionlarining adsorbsiyasiga muhitning pH qiymatining o`zgarishi ta`siri:1) TKMSM; 2) KMSM; 3)TMSM ; 4)TSM [4]

Olingan ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki(4-rasm 1-egri chiziqlar), har bir ionning samarali adsorbsiyasi uchun ma'lum pH qiymatlari mavjud bo‘lib, ularda faol markazlarning amfoter xususiyatlari tufayli adsorbentlar yuzasidagi zaryadlar o‘zgaradi. Shu bilan birga, tizimda H^+ yoki OH^- ionlarining haddan tashqari ko‘p bo‘lishi sodir bo‘ladigan kimyoviy reaksiyalar tufayli turli usul bilan modifikatsiyalangan sapropelning tuzilishini buzulishiga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, pH qiymatlarining optimal diapazoni modifikatsiya qiluvchi eritmaning tabiatidan qat'i nazar, 3 dan 8 gacha o‘zgarib turadi.

Olingan ma'lumotlardan ko‘rinib turibdiki, past pH qiymatida (pH=3), modifikatsiyalangan sapropellar KMS va TKMS har turdagi adsorbatlar uchun - Co^{2+} va NO_3^- uchun sapropel namunalariga nisbatan ancha yuqori adsorbsion faollikka ega bo`lganligini ko`rish mumkin.

2-jadval

Muhitning pH o‘zgarishiga qarab adsorbatlarning adsorbsiya miqdori (mg/g) qiymatlari [2]

Adsorbatlar	TSM	TMSM	KMSM	TKMSM
pH=3				
Co^{2+}	9	26,5	27,4	32,6
NO_3^-	20	60,8	61,7	69,4
pH=8				
Co^{2+}	107	130	138,2	143,4

ISSN 3030-3907

NO_3^-	11	52,4	43,7	61,8

pH ning 8 ga oshishi bilan ko‘pchilik namunalarda Co^{2+} ning adsorbsion faolligi oshadi, ayniqsa TKMS namunalarida yaqqol ko`rish mumkin. Modifikatsiyalangan sapropel TKMS bu pHda Co^{2+} adsorbsiyasining eng yuqori darajasini 143,4 mg/g namoyish etadi. Biroq, NO_3^- uchun teskari tendentsiya kuzatiladi: adsorbsiya barcha namunalar uchun pH ortishi bilan kamayadi(2-jadval).

Shunday qilib, modifikatsiyalangan sapropel minerallarida ion adsorbsiyasi samaradorligi muhitning pH qiymatiga bog‘liq bo‘lib, optimal muhit sifatida 3 va 8 oralig`ida bo`lishi maqsadga muofiq hisoblanadi. Adsorbentlarning faol markazlari amfoter xususiyatlarini namoyish etadi, bu esa sharoitga qarab zaryadlarini o‘zgartirishga imkon beradi. Biroq, H^+ yoki OH^- ionlarining haddan tashqari mavjudligi o‘zgartirilgan sapropelning tuzilishini buzishi mumkin, bu esa salbiy kimyoviy reaktsiyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuni ham ta'kidlash kerakki, adsorbsion sig‘im nafaqat muhitga, balki modifikatsiya qilib olingan sorbent asosida tozalovchi obyektning tabiatiga ham bog‘liq.

Modifikatsiyalangan sapropel TKMSM aluminosilikatlarga nisbatan NO_3^- ionlari uchun taxminan 3 barobar ko‘proq sorbsiya qobiliyatiga ega.

Shunday qilib, sapropel mineralini modifikatsiyasi ularning turli ionlar, jumladan, Co^{2+} ionlari va nitratlar uchun adsorbsion qobiliyatini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi. Ushbu natijalar ifloslantiruvchi moddalardan tozalashning samarali usullarini ishlab chiqish uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Neft-gaz sanoatida ishlatilgan quduq usti vintli kompressor moylarini ushbu samarali sorbentlar yordamida qayta tozalash jarayonida qo`llash orqali moylarni regeneratsiyalash jarayonini amalga oshirishni imkoni bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI

1. Tserenkhand, B., Badnainyambuu, Z. (2016). Composition and classification of some peloids in the western region of Mongolia. J. Chem. Technol. Metallurgy, 51, 5, 570–576.

2. M.R. Amonov., Sh.A. Sultonov., D.Q. Sayimova. O‘simlik yog‘lari uchun tozalovchi (oqartiruvchi)lar olish jarayoniga haroratni ta’siri\\ будет опубликована в журнале №3, 2023 г “Композиционные материалы”. (02.00.00; №4)

3. Taran, O. P., Boltenkov, V. V., Ermolaeva, N. I., Zarubina, E. Yu., Delii, I. V., Romanov, R. E., Strakhovenko, V. D. (2018). Relations between the chemical composition of organic matter in lacustrine ecosystems and the genesis of their sapropel. Geochemistry International, 56(3), 256–265.

ISSN 3030-3907

4. Didukh, V., Tomyuk, V., Onyukh, Y., Lalak-Kańczugowska, J. (2016). Analysis of studies of lake sapropel properties. Teka Commission of Motorization and Power Industry in Agriculture, 16(3).
5. Klavina, A., Auce, A., Vanadzins, I., Silova, A., Dobkevica, L. (2019). Extraction of biologically active components from freshwater sapropel. Environment. Technology. Resources, 3, 114–118.

ISSN 3030-3907

СИНТЕЗ ГИДРАЗОНОВ, СОДЕРЖАЩИХ ПАРА-ПРОПАРГИЛ ОКСИ БЕНЗАЛЬДЕГИДА НА ОСНОВЕ 1,2,3-ТРИАЗОЛЬНОГО КОЛЬЦА

Усмонова Саидахон Гуламовна
Андижанский филиал Кокандского университета

Аннотация. В данном исследовании мы сообщаем о разработке и синтезе новой серии производных 1,2,3-триазолгидразона на основе 4-((1-фенил-1H-1,2,3-триазол-4-ил)метокси)бензальдегид с пара-нитрфенилгидразинами. Структуры вновь синтезированных производных гидразона 5-8 были подтверждены с помощью ИК-спектроскопии и спектроскопии ЯМР ^{1}H.

Ключивье слова: производных гидразоны, пара-пропаргил-оксибензальдегид, пара-нитрофенилгидразин, 1,2,3-триазольный кольцо, спектроскопия.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda biz 4-((1-fenil-1H-1,2,3-triazol-4-il)metoksi)benzaldegid hamda para-nitrofenilgidrazinlar asosida 1,2,3-triazolgidrazonning yangi hosilalari seriyasini sintez qilish va ishlab chiqish haqida ma'lumot beramiz. Yangi sintez qilingan 5–8 gidrazon hosilalarining tuzilishi IQ va ^{1}H-YaMR spektroskopiyasi usullari yordamida tasdiqlandi.

Kalit so‘zlar: gidrazon hosilalari, para-propargiloksibenzaldegid, para-nitrofenilgidrazin, 1,2,3-triazol xalqasi, spektroskopiya.

Abstract. In this study, we report the development and synthesis of a new series of 1,2,3-triazolehydrazone derivatives based on 4-((1-phenyl-1H-1,2,3-triazol-4-yl)methoxy)benzaldehyde with para-nitrphenylhydrazines. The structures of the newly synthesized hydrazone derivatives 5–9 were confirmed using IR and ^{1}H NMR spectroscopy.

Keywords: hydrazone derivatives, para-propargyl-oxybenzaldehyde, para-nitrophenylhydrazine, 1,2,3-triazole ring, spectroscopy.

ВВЕДЕНИЕ.

Гидразоны — это класс органических соединений, содержащих азометиновый (–NHN=CH-) протон, которые образуются в результате действия соответствующих замещенных гидразинов/гидразидов на альдегиды или кетоны при нагревании в таких растворителях, как этанол, метанол, тетрагидрофуран, бутанол, ледяная уксусная кислота, смесь этанола и ледяной уксусной кислоты [1-3] Это тип основания Шиффа, который более стабилен, чем стандартные, именно благодаря своей устойчивости к гидролизу, что делает его ценным связующим звеном в различных химических реакциях. Интерес к химии гидразонов постоянно растет, что связано с их уникальными физико-химическими свойствами и

ISSN 3030-3907

биологической активностью, а также с простотой их синтеза [4]. Впервые методом Г.Шиффа синтезированы гетероциклические гидразоны. Согласно мнениям ученых, ароматические амины с многими альдегидами образуют окрашенные продукты конденсации типа оснований Шиффа, что широко используется в аналитическом анализе [5].

Анализ литературы. Химия гидразонов начала интенсивно развиваться в середине прошлого века. Результаты первых исследований обобщены в книге Китаева Ю. П. и Бузыкина Б. И. «Гидразоны», изданной в 1974 году [6]. В последние годы интерес к гидразонам вновь возрос [7-8], что связано с широким спектром их биологических свойств. Гидразоны применяются в медицинской практике и сельском хозяйстве [9].


В нащей работе проведен синтез гидрозонов на основе 4-((1-фенил-1H-1,2,3-триазол-4-ил)метокси)бензальдегида с ароматическими аминами. Реакция образуется в кислой среде в растворителе этанола. В результате установлено, образование некоторых гидрозонов 4-((1-фенил-1H-1,2,3-триазол-4-ил)метокси) бензальдегида. Реакция протекает как нуклеофильное присоединение ароматичного амина по карбонильной группе.

Экспериментальная часть

Синтез 4-((4-((2-(4-Нитрофенил) гидразинилиден) метил) фенокси) метил)-1-фенил-1H-1,2,3-триазол (**5**).

В круглодонную колбу объемом 100 мл внесли 0,14г (0,5 ммоль) 4-((1-фенил-1H-1,2,3-триазол-4-ил)метокси)бензальдегида, 0,076 г (0,5 ммоль) пара-нитрофенилгидразина и 50,0 мл этанола. Колбу с установленным обратным холодильником помещали в масляную баню и нагревали при температуре кипения этанола 78 °C в течение 6–8 часов. Ход реакции контролировали методом тонкослойной хроматографии. Через 6 часов реакцию останавливали и охлаждали до комнатной температуры. Выпавший осадок фильтровали, затем высушивали и перекристаллизовывали из этанола. В результате был получен продукт (5) массой 0,168 г с выходом 81 %. Реакция конденсации протекает за счёт взаимодействия альдегидной группы ароматического кольца с аминогруппой (NH_2) фенилгидразина с образованием основания Шиффа [10]. Производные 4-((1-фенил-1H-1,2,3-триазол-4-ил)метокси)бензальдегида содержат в своей структуре формильную, нитро-, бром- и карбоксильную группы, вследствие чего проявляют различные реакционные способности. Благодаря наличию данных функциональных групп возможно проведение различных химических модификаций.

ISSN 3030-3907



R_1 = H (1); Br (2); NO_2 (3) ; COOH (4);

R_1 = H (5); Br (6); NO_2 (7) ; COOH (8);

Анализ исследований.

Полученные производные гидразоны имеют светло-жёлтую или красную окраску, причём каждое соединение отличается друг от друга своим цветом. Строение полученных веществ было проанализировано с помощью ИК- и ЯМР-спектроскопии.

При изучении ИК-спектра соединения **(5)** было установлено, что полоса поглощения, характерная для карбонильной группы, исчезает и наблюдаются пики, соответствующие связи –C=N–. При изучении ^{1}H ЯМР-спектра можно наблюдать наличие протона NH-группы гидразонного фрагмента, а также протонов ароматического кольца. ИК- и ^{1}H ЯМР-спектры остальных производных также были проанализированы. Полученные спектральные данные позволяют установить строение новых производных гидразонов.

Были изучены некоторые физические константы синтезированных производных (таблица.1). Высокие значения Rf веществ позволяют предположить, что общая поверхность молекул данных соединений является достаточно большой.

Таблица 1.

Некоторые физические константы гидразонов, полученных на основе пара-нитрофенилгидразина

№	Название вещества	Брутто формула	$T_{плав.}$, °C	R_f* сумма		Выход, %
5	4-((4-((2-(4-Нитрофенил)гидразинилиден)метил)фенокси)метил)-1-фенил-1H-1,2,3-триазол	$C_{22}H_{18}N_6O_3$	164-166	б	0.64	81
6	1-(4-бромфенил)-4-((4-((2-(4-нитрофенил)гидразинилиден)метил)фенокси)метил)-1-фенил-1H-1,2,3-триазол	$C_{22}H_{17}BrN_6O_3$	248-250	а	0.62	67

ISSN 3030-3907

7	1-(4-Нитрофенил)-4-((4-((2-(4-нитрофенил)гидразилиден)метил)фенокси) метил)-1H-1,2,3-тразол	$C_{22}H_{17}N_7O_5$	268-270	c	0.66	66
8	4-(4-((4-((2-(4-Нитрофенил) гидразилиден)метил)фенокси)метил)-1H-1,2,3-триазол-1-ил)бензой кислота	$C_{23}H_{18}N_6O_5$	278-280	a	0.34	70

* Примечание: система а бензол : ацетон – 4:1; б бензол : метанол – 5:1; **с** бензол :ацетон– 5:1.

В целом данные вещества были синтезированы с высокими выходами. Расположение формильной и оксиметильной групп в пара-положении относительно друг друга практически не препятствовало их конденсации с производными гидразина. Строение всех полученных соединений **5–8** было изучено с помощью ИК- и ^{1}H ЯМР-спектров, проанализировано и подтверждено их соответствие предполагаемым структурам [11-12]..

В следующей таблице приведён анализ ИК-спектров (таблица 2.). Как видно из таблицы наблюдается исчезновение полос поглощения характерных для карбонильной группы.

Таблица 2

Характерные области поглощения в ИК-спектрах гидразонов, полученных на основе пара-нитрофенилгидразина

№	**Брутто-формула**	**Поглощения в ИК-спектрах, ν, см$^{-1}$**							
		-C=C- ***аром.***	**C-O-C**	**C=N**	**N-H**	**=C-H**	**Ar-NO_2**	**C-N**	**N=N**
5	$C_{22}H_{18}N_6O_3$	3065	1283	1593	3229	1437	1541	1250	1486
6	$C_{22}H_{17}BrN_6O_3$	3026	1283	1595	3230	1431	1569	1235	1485
7	$C_{22}H_{17}N_7O_5$	3043	1279	1592	3225	1435	1558	1232	1496
8	$C_{23}H_{18}N_6O_5$	3028	1287	1594	3237	1439	1561	1237	1495

1. В случае, когда на любом протяжении трубы влияние условий при входе и выходе существенно влияют на распределение скорости, то при гидравлическом расчете для трубы конечной длины необходимо учесть распределения скоростей, давлений и концентраций на начальном участке трубы, обусловленные условиями при входе и на выходе;

2. Если влияние условия при выходе из трубы пренебрежимо мало, то необходимо учитывать лишь условия у входа и решить задачу для течения в полуограниченной трубе, где учитывается наличие начального участка вблизи входа, а вдали распределение скоростей будет как в задаче о течении в бесконечно длинной трубе;

3. Когда влияния условия при входе и на выходе пренебрежимо малы, то нужно рассматривать задачу о течении жидкости в трубе с бесконечной длиной;

ISSN 3030-3907

4. Увеличение скорости частиц потока дисперсной смеси способствует возникновению кавитационных процессов, вихреобразованию, вплоть до потери устойчивости волн на свободной поверхности.

5. Если условия при выходе из трубы пренебрежимо малы, то нужно учитывать лишь условия у входа, и решить задачу как о течении в полуограниченной трубе, где учитывается наличие начального участка вблизи входа, а вдали распределение скоростей будет как в задаче о бесконечно длинной трубе; когда же условия и при входе, и на выходе пренебрежимо малы, то нужно рассматривать как задачу о течении жидкости в трубе бесконечной длины.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Гиневский А.С. Теория турбулентных струй и следов. – М.: Машиностроение, 1969. – 198-252 с.
2. Дюнин А.К., Борщевский Ю.Т., Яковлев.Н.А. Основы механики многокомпонентных потоков. –Новосибирск: СО АН СССР, 1965. – 32-76 с.
3. Краснов Н.Б., Кошевой В.Н., Калугин В.Т. Аэродинамика отрывных течений. – М.: Высшая школа, 1988. – 351 с.
4. Мирсаидов М.М., Трояновский И.Е. Динамика неоднородных систем с учетом внутренней диссипации и волнового уноса энергии. –Ташкент: Фан, 1990. – 108 с.
5. Мирсаидов М.М. Краткий обзор состояния проблемы по оценке прочности и сейсмостойкости грунтовых гидротехнических сооружений // Современные проблемы механики: Материалы международной конференции. 23-24 сентября 2009. – Ташкент: ИМиСС АН РУз, 2009. Часть 1. – С. 397-402.
6. Расчет деформации русла в нижнем бьефе низконапорных гидроузлов. – Ташкент: САНИИРИ, 1984. – 16 с.
7. Рахматуллин Х.А., Согомонян А.Я., Бунимовыч А.И., Зверев И.Н. Газовая динамика. – М.: Высшая школа, 1965. – 722 с.
8. Рахматуллин Х.А. Основы гидродинамики взаимопроникающих движений // Прикладная математика и механика. Т.20. – 1956. – Вып.2. –С. 184-195.
9. Ржаницын Н.А. Морфометрические и гидрологические закономерности строения речной сети. –Л.: Гидрометеоиздат, –1960. –238 с.
10. Седов Х.Х. Механика сплошных сред. –М.: Наука, 1976. –275 с.
11. Усманов Г.У., Хамидов А.А. Первые интегралы уравнения движения смеси идеальных жидкостей // Доклады АН РУз. –Ташкент, 2000. – №1. – С. 32-34.

ISSN 3030-3907

12. Файзуллаев Д.Ф., Умаров О.И., Шакиров А.О. Гидродинамика одно- и двухфазных сред и ее практические приложения. – Ташкент: Фан, 1980. – 168 с.
13. Файзуллаев Д.Ф., Наврузов К.Н. Гидродинамика пульсирующих потоков. – Ташкент: Фан, 1986. – 192 с.
14. Файзуллаев Д.Ф. Пульсирующее движение двухфазных сред в кольцевой трубе при наличии пристенных слоев // Гидрогазодинамика: Сб. научн. трудов. – Ташкент: Фан, 1986. –С.35.
15. Франкль Ф.И. Уравнения энергии для движения жидкости со взвешанными наносами // Доклады АН СССР, 1955, Т. 102. –№5. –С.903-906.
16. Хамидов А.А., Шокиров А.О., Юнусов Ф.А. Кавитационные течения смеси идеальных жидкостей в канале с разветвлением // Проблемы механики, – Ташкент, 2005. – №4. – С. 28-30
17. Хамидов А.А., Худайкулов С.И., Юлдошев А.А. Алгоритм устойчивости круглой струи дисперсной смеси в среде дисперсной смеси // Проблемы энергетики и информатики. –Ташкент, 2008. –№6. – С. 94-98.

ISSN 3030-3907

MUVOFIQLIKNI BAHOLASH ORGANLARIGA QO‘YILADIGAN METROLOGIK TALABLARNI TAHLIL QILISH

Kulmuminov Olimjon Xurramovich
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti katta o‘qituvchi
Abdimajidov Farrux Abdilamidov
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti katta o‘qituvchi
Abdimuminova Nazokat Norbayevna
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya Ushbu maqolada muvofiqlikni baholash organlari faoliyatida metrologik ta’minotning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. O‘lchash vositalarining qiyoslanganligi, kalibrlash jarayonlari, metrologik kuzatuvchanlik va o‘lchash noaniqligini baholash masalalari yoritilgan. Shuningdek, ISO/IEC 17025 standarti talablarining amaliy jihatlari ko‘rib chiqilgan hamda muvofiqlikni baholash organlari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: metrologiya, muvofiqlikni baholash, akkreditatsiya, qiyoslash, kalibrlash, kuzatuvchanlik, ISO/IEC 17025, laboratoriya.

Аннотация В данной статье анализируется роль и значение метрологического обеспечения в деятельности органов оценки соответствия. Освещаются вопросы поверки средств измерений, процессов калибровки, метрологической прослеживаемости и оценки неопределенности измерений. Также рассматриваются практические аспекты требований стандарта ISO/IEC 17025 и разработаны рекомендации по совершенствованию деятельности органов оценки соответствия.

Ключевые слова: метрология, оценка соответствия, аккредитация, поверка, калибровка, прослеживаемость, ISO/IEC 17025, лаборатория.

Abstract This article analyzes the role and importance of metrological support in the activities of conformity assessment bodies. It covers issues of instrument verification, calibration processes, metrological traceability, and measurement uncertainty evaluation. The practical aspects of ISO/IEC 17025 requirements are also considered, and recommendations for improving the activities of conformity assessment bodies are developed.

Keywords: metrology, conformity assessment, accreditation, verification, calibration, traceability, ISO/IEC 17025, laboratory.

KIRISH.

Bugungi globallashuv sharoitida mahsulot va xizmatlar sifatini ta’minlash, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish hamda xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu

ISSN 3030-3907

jarayonlarda muvofiqlikni baholash organlari tomonidan beriladigan sinov natijalari va sertifikatlarning ishonchliligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Muvofiqlikni baholash natijalarining haqqoniyligi va aniqligi metrologik ta’minot darajasiga bog‘liq. Shu sababli laboratoriyalarda qo‘llaniladigan o‘lchash vositalarining qiyoslanganligi, etalonlarga kuzatuvchanligi va xodimlarning malakasi muhim omillar hisoblanadi.

TADQIQOT METODLARI.

Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, xalqaro standartlarni o‘rganish, qiyosiy tahlil, statistik baholash va ekspert xulosalarini umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Muvofiqlikni baholash organlarining metrologik ta’minoti

Metrologik ta’minot o‘lchashlar birliligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy, texnik va tashkiliy chora-tadbirlar majmuasidir. Muvofiqlikni baholash organlari faoliyatida metrologik ta’minot quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

- o‘lchash vositalarini qiyoslash;
- kalibrlash ishlarini tashkil etish;
- metrologik kuzatuvchanlikni ta’minlash;
- o‘lchash noaniqligini baholash;
- etalonlardan foydalanish;
- laboratoriya xodimlarining malakasini oshirish.

1-jadval


Muvofiqlikni baholash organlariga qo‘yiladigan asosiy metrologik talablar

№	Talab	Mazmuni
1	Qiyoslash	O‘lchash vositalarining metrologik tavsiflarini tasdiqlash
2	Kalibrlash	O‘lchash natijalarining aniqligini oshirish
3	Kuzatuvchanlik	Natijalarni etalonlarga bog‘lash
4	Noaniqlikni baholash	Natijalarning ishonchliligini aniqlash
5	Malakali xodimlar	Metrologik faoliyat sifatini ta’minlash

O‘lchash vositalarining qiyoslanganligi

Muvofiqlikni baholash organlarida foydalaniladigan barcha o‘lchash vositalari belgilangan muddatlarda qiyoslashdan o‘tkazilishi shart. Qiyoslash natijalari o‘lchash vositalarining yaroqliligini tasdiqlaydi.

ISSN 3030-3907



1-rasm. O‘lchash vositalarining qiyoslash tizimi

Metrologik kuzatuvchanlik

Metrologik kuzatuvchanlik o‘lchash natijalarining milliy va xalqaro etalonlarga uzluksiz bog‘langanligini bildiradi. Bu talab laboratoriya natijalarining xalqaro miqyosda tan olinishini ta’minlaydi.

ISSN 3030-3907



2-rasm. Metrologik kuzatuvchanlik zanjiri.

O‘lchash noaniqligini baholash. Muvofiqlikni baholash organlari ISO/IEC 17025 standarti talablariga muvofiq o‘lchash noaniqligini hisoblashlari zarur.

Noaniqlikni baholash laboratoriya natijalarining ishonchliligini aniqlash imkonini beradi.

2-jadval

O‘lchash natijalarining noaniqlik ko‘rsatkichlari

O‘lchash turi	Noaniqlik (%)
Massa	±0,2
Harorat	±0,5
Bosim	±0,4
Kuchlanish	±0,3
Tok kuchi	±0,4

ISSN 3030-3907

Natijalardan ko‘rinadiki, noaniqlik qiymatlari me’yoriy talablardan oshmaydi va laboratoriya faoliyatining ishonchliligini tasdiqlaydi.

ISO/IEC 17025 standarti talablari

ISO/IEC 17025 sinov va kalibrlash laboratoriyalarining vakolatini belgilovchi asosiy xalqaro standart hisoblanadi.

Standart quyidagi talablarni qamrab oladi:

laboratoriya boshqaruvi;

hujjatlar nazorati;

xodimlar malakasi;

jihozlar va o‘lchash vositalari;

sinov metodlari;

natijalar sifati;

ichki audit;

risklarni boshqarish.

3-rasm. ISO/IEC 17025 standarti talablari



3-rasm. ISO/IEC 17025 standarti talablari.

Tadqiqot natijalari va muhokama

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, muvofiqlikni baholash organlarida metrologik talablarning to‘liq bajarilishi quyidagi natijalarni beradi:

o‘lchash natijalarining aniqligi oshadi;

ISSN 3030-3907

laboratoriya xatolari kamayadi;
akkreditatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tish imkoniyati ortadi;
xalqaro tan olinish darajasi oshadi;
mahsulot sifatini nazorat qilish samaradorligi yaxshilanadi.

3-jadval

Metrologik ta’minot samaradorligi

Ko‘rsatkich	Talab bajarilganda	Talab bajarilmaganda
Natijalar ishonchliligi	Yuqori	Past
Xatolik ehtimoli	Kam	Yuqori
Akkreditatsiya imkoniyati	Yuqori	Past
Xalqaro tan olinishi	Mavjud	Cheklangan

XULOSA.

Muvofiqlikni baholash organlari faoliyatining ishonchliligi metrologik ta’minot darajasiga bevosita bog‘liq. O‘lchash vositalarining qiyoslanganligi, natijalarning kuzatuvchanligi, o‘lchash noaniqligini baholash va malakali mutaxassislar bilan ta’minlanganlik laboratoriya faoliyatining asosiy mezonlari hisoblanadi.

ISO/IEC 17025 standartini amaliyotga to‘liq joriy etish muvofiqlikni baholash organlarining xalqaro talablarga mosligini ta’minlaydi hamda ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Metrologiya to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘z DSt ISO/IEC 17025:2019.
4. ISO/IEC 17025:2017 General requirements for the competence of testing and calibration laboratories.
5. O‘z DSt ISO 9001:2015.
6. Ahmedov M. Metrologiya asoslari. – Toshkent, 2022.
7. Rasulov A. O‘lchashlar birliligini ta’minlash. – Toshkent, 2021.
8. Международный словарь по метрологии (VIM), 2019.
9. JCGM 100:2008 Evaluation of Measurement Data.
10. O‘zbekiston Milliy metrologiya tizimi bo‘yicha me’yoriy hujjatlar.

ISSN 3030-3907

UDK: 635.132.

SABZINING (Daucus carota L.) 1000 DONA URUG‘ OG‘IRLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Abdullaev Ilxom Eshkurbanovich
Termiz davlat mu’andislik va agrotexnologiyalar universiteti dotsenti

Annotatsiya. 1000 dona urug‘ og‘irligi sabzi urug‘chiligida urug‘ning yirikligi, to‘liq to‘lish darajasi, fiziologik yetukligi va ekishboplik sifatini ifodalovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Manbalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, mazkur belgiga eng kuchli ta’sir qiluvchi omillar nav yoki genotip xususiyati, soyabon tartibi, ekish muddati, urug‘ to‘lish davridagi harorat rejimi, o‘simlik zichligi, ona ildiz (ildizmeva) o‘lchami hamda mineral oziqlanish hisoblanadi. Birinchi tartibli soyabonlarda shakllangan urug‘lar, odatda, og‘irroq va sifatliroq bo‘ladi; kechikib ekish hamda yuqori harorat esa 1000 dona urug‘ og‘irligini kamaytiradi. Adabiyotlarda kaliy bilan yetarli ta’minlash mazkur ko‘rsatkichni oshirishi, azotning ortiqcha me’yori esa ayniqsa birinchi soyabon urug‘larida massani pasaytirishi qayd etilgan. Ona ildiz massasining ta’siri esa hamma tadqiqotlarda bir xil emas: ba’zi ishlar bevosita ta’sirni topmagan, boshqalarida esa ta’sir bilvosita xarakterga ega ekani ko‘rsatilgan. Maqolada ushbu omillar qiyosiy tahlil qilinib, sabzi urug‘chiligi uchun amaliy xulosalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: sabzi, Daucus carota L., 1000 dona urug‘ og‘irligi, soyabon tartibi, ekish muddati, harorat, o‘simlik zichligi, ona ildiz, mineral oziqlanish, urug‘ sifati.

Аннотация. В данной статье проводится оценка основных биологических и агрономических факторов, влияющих на урожайность семян моркови (Daucus carota L.), с использованием аналитического подхода, основанного на литературных источниках. Вес тысяч семян является одним из наиболее информативных показателей размера семян, степени их наполнения, физиологической зрелости и пригодности к посеву при производстве семян моркови. Проведенные исследования показывают, что наиболее важными факторами, определяющими этот признак, являются генотип, порядок формирования зонтиков, время посадки, температура во время заделки семян, густота посадки, размер корней и минеральное питание. Семена, образующиеся на первичных зонтиках, как правило, более сочные и физиологически более качественные, поскольку задержка с посадкой и повышенная температура снижают вес семян. Опубликованные данные также указывают на то, что избыточное поступление калия улучшает массу семян, в то время как избыток азота может уменьшить размер семян первичных зонтиков из-за усиления конкуренции между зонтиками за ассимилируемые вещества. Прямая роль размера корня остается

ISSN 3030-3907

противоречивой в разных экспериментах и, по-видимому, слабее, чем влияние порядка расположения зонтиков и температурного режима. На основе сравнительного анализа доступной литературы в статье сформулированы практические рекомендации по получению более качественных семян моркови в условиях семеноводства.

Ключевые слова: морковь, Daucus carota L., масса семян, порядок формирования зонтиков, сроки посадки, температура, густота посадки, корневая система, минеральное питание, всхожесть семян.

Abstract. T’is article evaluates t’e major biological and agronomic factors affecting t’ousand-seed weig‘t in carrot (Daucus carota L.) using a literature-based analytical approach. T’ousand-seed weig‘t is one of t’e most informative indicators of seed size, degree of seed filling, p’ysiological maturity and planting ыuality in carrot seed production. T’e reviewed studies show t’at t’e strongest determinants of t’is trait are genotype, umbel order, planting or steckling planting time, temperature during seed filling, plant density, mot’er-root size and mineral nutrition. Seeds formed on primary umbels are generally ‘eavier and p’ysiologically superior, w’ereas delaed planting and elevated temperature reduce seed weig‘t. Published evidence also indicates t’at adeыuate potassium supply improves t’ousand-seed weig‘t, w’ile excessive nitrogen may reduce t’e size of primary-umbel seeds because of greater competition among umbels for assimilates. T’e direct role of mot’er-root size remains inconsistent across experiments and appears to be weaker t’an t’e effect of umbel order and temperature regime. Based on t’e comparative analysis of t’e available literature, t’e paper formulates practical recommendations for obtaining ‘eavier and better-filled carrot seed under seed production conditions.

Keywords: carrot, Daucus carota L., t’ousand-seed weig‘t, umbel order, planting time, temperature, plant density, mot’er root, mineral nutrition, seed ыuality.

KIRISH.

Sabzi dunyoda keng tarqalgan sabzavot ekinlaridan biri bo‘lib, uning ildizmevasi oziqaviy va texnologik ahamiyati yuqori sanaladi. Biroq yuqori hosil olish faqat agrotexnikaga emas, balki sifatli urug‘ bilan ta’minlanganlikka ham bog‘liq. Sabzi urug‘chiligida 1000 dona urug‘ og‘irligi urug‘ning morfologik yetukligi va to‘liq to‘lish darajasini baholashda eng ko‘p qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, u ko‘p hollarda unish, dala sharoitida chiqish hamda ko‘chat kuchliligi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi [1; 3; 7].

Sabzida gullash va urug‘ shakllanishi bosqichma-bosqich kechadi: avval markaziy birinchi soyabon, so‘ng ikkilamchi va uchlamchi soyabonlar hosil bo‘ladi. SHu sababli bir o‘simlikning o‘zida turli vaqtda va turli fiziologik sharoitda yetilishga ulgurgan urug‘lar paydo bo‘ladi. Bu holat 1000 dona urug‘

ISSN 3030-3907

og‘irligiga soyabon tartibi ta’sirini kuchaytiradi. Ilmiy manbalarda birinchi soyabon urug‘lari, odatda, ikkinchi va uchinchi soyabonlarga nisbatan og‘irroq va sifatliroq bo‘lishi qayta-qayta tasdiqlangan [3; 4; 7].

SHu bilan birga, 1000 dona urug‘ og‘irligi faqat biologik xususiyat emas; u tashqi muhit va agrotexnika ta’sirida ham o‘zgaradi. Ekish muddati, vernalizatsiyaning to‘g‘ri o‘tishi, gullash va urug‘ to‘lish davridagi harorat, o‘simliklar orasidagi masofa, ona ildiz o‘lchami hamda oziq moddalar bilan ta’minlanganlik urug‘ning to‘liq to‘lishiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi [1–6; 8; 9]. SHu jihatdan, sabzida 1000 dona urug‘ og‘irligini shakllantiruvchi omillarni kompleks tahlil qilish urug‘chilik texnologiyasini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy izlanishning maqsadi. Sabzining (Daucus carota L.) 1000 dona urug‘ og‘irligiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni adabiyotlar asosida tizimli tahlil qilish va urug‘chilik amaliyoti uchun ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish.

Ilmiy izlanishning vazifalari

1. 1000 dona urug‘ og‘irligining sabzi urug‘chiligidagi ahamiyatini yoritish;
2. nav yoki genotip, soyabon tartibi, ekish muddati va haroratning ta’sirini qiyosiy baholash;
3. ona ildiz o‘lchami, o‘simlik zichligi va mineral oziqlanishning roliga adabiyotlar asosida baho berish;
4. sabzi urug‘chiligida 1000 dona urug‘ og‘irligini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalarni shakllantirish.

Ilmiy izlanish materiali va uslubiyoti. Maqola adabiyotlar tahlili asosida tayyorlandi. Tahlil uchun sabzi urug‘chiligida 1000 dona urug‘ og‘irligi, urug‘ sifati, soyabon tartibi, ekish muddati, harorat rejimi, o‘simlik zichligi, ona ildiz o‘lchami hamda mineral oziqlanishga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar va amaliy tavsiyaviy manbalar tanlab olindi [1–9].

Tanlangan manbalarda keltirilgan tajriba sxemalari, raqamli ko‘rsatkichlar va mualliflar xulosalari qiyosiy tahlil qilindi. Omillar ikki guruhga ajratildi: 1) 1000 dona urug‘ og‘irligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiluvchi omillar; 2) mazkur ko‘rsatkichga asosan o‘simlikning o‘sish quvvati, assimilyatlar taqsimoti yoki mikroiqlim orqali bilvosita ta’sir qiluvchi omillar. Natijalar umumlashtirish, qiyoslash va tahliliy sintez usullari orqali sharhlandi.

Ilmiy izlanish natijalari va muhokamasi:

Nav yoki genotipning ta’siri. Adabiyotlar tahliliga ko‘ra, 1000 dona urug‘ og‘irligiga eng kuchli ta’sir etuvchi omillardan biri nav yoki genotip hisoblanadi. Lutfunna’ar va hammualliflar tajribasida turli sabzi navlarida 1000 dona urug‘ og‘irligi 1,39 g dan 1,81 g gacha o‘zgargan; shuningdek, ekish muddati bilan

ISSN 3030-3907

birgalikda qaralganda eng yuqori qiymat 1,98 g, eng past qiymat esa 1,28 g bo‘lgan [1]. Bu holat urug‘ yirikligi avvalo o‘simlikning irsiy xususiyatlari bilan belgilanishini ko‘rsatadi. Navning biologiyasi, gullash ritmi, soyabonlar soni va assimilyatlarni reproduktiv organlarga taqsimlash qobiliyati 1000 dona urug‘ og‘irligiga bevosita ta’sir qiladi.

Soyabon tartibining hal qiluvchi roli. Sabzi urug‘chiligida eng barqaror qonuniyatlardan biri — birinchi soyabon urug‘larining og‘irroq bo‘lishidir. Amjad va Anjum tajribasida 1000 dona urug‘ og‘irligi birinchi soyabonda 3,532 g, ikkinchi soyabonda 2,789 g va uchinchi soyabonda 2,285 g bo‘lgan [3]. Amjad, Anjum va Iьibal ishlarida ham xuddi shu tendentsiya takrorlangan: o‘rtacha qiymatlar birinchi, ikkinchi va uchinchi soyabonlarda mos ravishda 2,97; 2,51 va 2,10 g ni tashkil etgan, ona ildiz o‘lchami esa mazkur ko‘rsatkichga ishonchli ta’sir ko‘rsatmagan [4]. Patternning fiziologik izohi shundaki, birinchi soyabon ertaroq paydo bo‘ladi va bir vaqtning o‘zida boshqa soyabonlar bilan birga yetilsa ham, oziq moddalarni ko‘proq o‘zlashtirib ulguradi. SHu sababli birinchi va ko‘pincha ikkinchi soyabon urug‘lari yirikroq, embrioni yaxshiroq rivojlangan va fiziologik jihatdan ustun bo‘ladi [3; 4; 7].

Ekish muddati va uning harorat rejimi bilan bog‘liqligi. Ekish yoki stekling ekish muddati 1000 dona urug‘ og‘irligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki urug‘ shakllanishi qaysi harorat va namlik sharoitiga to‘g‘ri kelishini belgilash orqali ta’sir qiladi. Lutfunna’ar va hammualliflar tajribasida 5 yanvarda o‘tqazilgan steklinglarda 1000 dona urug‘ og‘irligi 1,75 g bo‘lgan, 15 yanvarda 1,56 g ga, 25 yanvarda esa 1,44 g ga tushgan [1]. Mengistu va Yamoa’ tomonidan o‘tkazilgan tajribada esa noyabrda ekish variantida TSW 0,840 g bo‘lib, yanvar–fevral ekishlarida u 0,831 g atrofida qayd etilgan; ekish kechikkan sari urug‘ sifati va unuvchanlik ham pasaygan [6]. Demak, maqbul muddatda ekish urug‘ to‘lish davrini salqinroq va nisbatan qulay sharoitga to‘g‘ri keltirish orqali 1000 dona urug‘ og‘irligini saqlab qolishga yordam beradi.

Haroratning ta’siri. Urug‘ shakllanishi va to‘lish bosqichidagi harorat 1000 dona urug‘ og‘irligini belgilovchi eng muhim ekologik omillardan biridir. Gray va hammualliflar tadqiqotida kun/tun harorati 20/10°C dan 30/20°C gacha oshirilganda bir dona urug‘ning o‘rtacha og‘irligi 1984 yilda 20%, 1985 yilda esa 13% ga kamaygan [2]. Bu natija yuqori harorat sharoitida urug‘ning tashqi qobig‘i va umumiy massasi kamroq shakllanishini anglatadi. Pereira va hammualliflar ham yuqori harorat (35–36°C) sabzi urug‘ining unishini pasaytirishini, birinchi va ikkinchi soyabon urug‘lari esa bunday noqulay sharoitda ham yaxshi natija berganini ko‘rsatgan [7]. SHuning uchun yuqori 1000 dona urug‘ og‘irligiga erishish uchun urug‘ to‘lish fazasini haddan tashqari issiq davrga to‘g‘ri keltirmaslik muhim.

ISSN 3030-3907

Ona ildiz (ildizmeva) massasining roli. Ona ildiz o‘lchami sabzi urug‘chiligida an’anaviy ravishda muhim deb qaralsa-da, aynan 1000 dona urug‘ og‘irligiga uning ta’siri barcha tajribalarda bir xil tasdiqlanmagan. Amjad, Anjum va Iыbal tadqiqotida ona ildiz o‘lchami mazkur ko‘rsatkichga ishonchli ta’sir ko‘rsatmagan, asosiy farq soyabon tartibi hisobiga yuzaga kelgan [4]. 2001 yilgi boshqa tajribada esa ona ildiz o‘lchami va masofa o‘rtasida ma’lum o‘zaro ta’sir kuzatilgan bo‘lsa-da, soyabon tartibi ta’siri baribir ustun bo‘lib qolgan [3]. SHu bois, ona ildiz massasini 1000 dona urug‘ og‘irligining asosiy emas, balki bilvosita omili sifatida baholash maqsadga muvofiq.

O‘simlik zichligi va joylashtirish masofasi. O‘simlik zichligi ta’siri ko‘proq kontekstga bog‘liq. Amjad va Anjum ma’lumotlariga ko‘ra, birinchi soyabon va 45 sm masofa kombinatsiyasida 1000 dona urug‘ og‘irligi 3,994 g bo‘lib, eng yuqori qiymat qayd etilgan; uchinchi soyabon va 45 sm masofada esa eng past qiymat — 2,038 g kuzatilgan [3]. Bu kengroq oziqlanish maydoni birinchi soyabon urug‘larining yaxshiroq to‘lishini ta’minlashi mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq Noland va hammualliflar ko‘p hududli tajribasida plant density urug‘ sifatiga, jumladan seed weig‘t ga, faqat yengil ta’sir qilgani va zichlikni o‘zgartirish asosan hosildorlikni, lekin sifatni sezilarli yaxshilamasligi xulosa qilingan [5]. Mengistu va Yamoa’ ishlarida ham plant density seed ыuality ga ishonchli ta’sir ko‘rsatmagan [6]. Demak, zichlik 1000 dona urug‘ og‘irligiga ta’sir qilishi mumkin, ammo uning roli soyabon tartibi va muhit sharoitlariga qaraganda kamroq va o‘zgaruvchandir.

Mineral oziqlanish ta’siri. Mineral oziqlanish urug‘ning to‘liq to‘lishi va fotosintatlar harakati orqali 1000 dona urug‘ og‘irligiga ta’sir qiladi. Noor va hammualliflar tadqiqotida kaliyning 80–100 kg/ga me’yori birinchi va ikkinchi soyabonlardagi 1000-seed weig‘t ni eng yuqori darajaga olib chiqqan, uchinchi soyabon urug‘larida ham bu ko‘rsatkich nazoratga nisbatan 60% gacha yaxshilangan [8]. OSU Extension kuzatuvlarida esa azot me’yori 0 dan 50 va 75 lb/a gacha oshirilganda birinchi soyabon urug‘larining 1000 dona og‘irligi ortib borgan, ammo 75 lb/a dan yuqori azot qo‘llanganda bu ko‘rsatkich pasaygan [9]. Mualliflar buni ortiqcha azot ikkinchi va uchinchi soyabonlar sonini ko‘paytirib, assimilyatlar uchun raqobatni kuchaytirishi bilan izohlaydilar. Demak, o‘g‘itlashda me’yoriy va muvozanatli yondashuv talab etiladi: kaliy yetarli bo‘lishi, azot esa ortiqcha berilmasligi kerak.

1 – jadval:

Omillarning qiyosiy tahlili

Omil	Ta’sir darajasi	Qisqacha tahlil

ISSN 3030-3907

Nav (genotip)	Juda kuchli	1000 dona urug‘ og‘irligining irsiy asosini belgilaydi; turli navlarda 1,39–1,81 g oralig‘ida farq qayd etilgan [1].
Soyabon tartibi	Juda kuchli	Birinchi soyabon urug‘lari eng og‘ir; ko‘p ishlarda primary > secondary > tertiary qonuniyati tasdiqlangan [3; 4; 7].
Ekish muddati	Kuchli	Bilvosita ta’sir qiladi: gullash va urug‘ to‘lish bosqichi qaysi havo sharoitiga to‘g‘ri kelishini belgilaydi [1; 6].
Harorat	Juda kuchli	Yuqori harorat urug‘ to‘lishini qisqartiradi; 20/10°C dan 30/20°C ga o‘tganda urug‘ og‘irligi 13–20% ga kamaygan [2].
Ona ildiz o‘lchami	O‘rtacha/beqaror	Ba’zi ishlarda ahamiyatsiz, ba’zilarida bilvosita ta’sir qayd etilgan; asosiy rol soyabon tartibiga tegishli [3; 4].
Zichlik va masofa	O‘rtacha	Kengroq oziqlanish maydoni ayrim hollarda og‘irroq urug‘ beradi, ammo umumiy ta’sir muhit va genotipga bog‘liq [3; 5; 6].
Mineral oziqlanish	O‘rtacha–kuchli	Kaliy 80–100 kg/ga ijobiy; ortiqcha azot birinchi soyabon urug‘lari og‘irligini pasaytirishi mumkin [8; 9].

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, sabzida 1000 dona urug‘ og‘irligiga eng barqaror va kuchli ta’sir etuvchi omillar — nav, soyabon tartibi hamda urug‘ to‘lish davridagi haroratdir. Ekish muddati va mineral oziqlanish ushbu asosiy omillar ta’sirini kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi boshqaruv omillari sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSALAR.

1. Sabzining 1000 dona urug‘ og‘irligi urug‘ sifati, to‘liq to‘lish darajasi va ekishboplik xossasini baholovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.
2. Adabiyotlar tahliliga ko‘ra, mazkur belgiga eng kuchli ta’sir qiluvchi omillar nav (genotip), soyabon tartibi va urug‘ to‘lish davridagi harorat rejimi hisoblanadi.
3. Ekish yoki stekling ekish muddati 1000 dona urug‘ og‘irligiga asosan bilvosita ta’sir qiladi, chunki u gullash va urug‘ to‘lish bosqichining maqbul yoki nomaqbul iqlim sharoitiga to‘g‘ri kelishini belgilaydi.

ISSN 3030-3907

4. Ona ildiz o‘lchami va o‘simlik zichligining ta’siri mavjud bo‘lsa-da, ularning roli soyabon tartibi va haroratga nisbatan kamroq hamda ko‘proq sharoitga bog‘liq.

5. Kaliy bilan yetarli ta’minlash va azotni me’yordan oshirmaslik og‘irroq va to‘liqroq urug‘ shakllanishiga yordam beradi. Amaliyotda birinchi va ikkinchi soyabon urug‘lariga ustuvor ahamiyat berish, maqbul ekish muddatini tanlash va yuqori harorat stressini cheklash maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Lutfunna’ar, ‘ossain M.F., Malek M.A., Kamrunna’ar R., ‘ossain J. Planting Time Effect on Ьluality Seed Production of T’ree Varieties of Carrot (Daucus carota L.). Bangladesh Agronomy Journal, 2020, 23(2): 23–34.
2. Gray D., Steckel J.R.A., Dearman J., Brockle’urst P.A. Some Effects of Temperature during Seed Development on Carrot (Daucus carota) Seed Growt’ and Ьluality. Annals of Applied Biology, 1988, 112: 367–376.
3. Amjad M., Anjum M.A. Effect of Root Size, Plant Spacing and Umbel Order on t’e Ьluality of Carrot Seed. International Journal of Agriculture and Biology, 2001, 3(2): 239–242.
4. Amjad M., Anjum M.A., Iыbal A. Impact of Mot’er Root Size and Umbel Order on t’e Yield and Ьluality of Seed Produced and Resulting Roots in Carrot. Plant Breeding and Seed Science, 2005, 51(1): 49–55.
5. Noland T.L., Maguire J.D., Oliva R.N., Bradford K.J., Nelson J.L., Grabe D., Currans S. Effect of Plant Density on Carrot Seed Yield and Ьluality under Seed-to-Seed Production Systems in California, Oregon, and Washington. Journal of Applied Seed Production, 1988, 6: 36–43.
6. Mengistu T., Yamoa’ C. Effect of Sowing Date and Planting Density on Seed Production of Carrot (Daucus carota var. sativa) in Et’iopia. African Journal of Agriculture, 2020, 7(11): 1–10.
7. Pereira R.S., Nascimento W.M., Vieira J.V. Carrot Seed Germination and Vigor in Response to Temperature and Umbel Orders. Scientia Agricola, 2008, 65(2): 145–150.
8. Noor A., Ziaf K., Amjad M., A’mad S. Potash Application En’ances t’e Yield and Seed Attributes of Carrot by Improving t’e Ьluality of Tertiary Umbel Seeds. Pakistan Journal of Agricultural Sciences, 2019, 56(1): 83–94.
9. ‘art J., Butler M., CHristensen N., Et’eredge P., Rowe B., Silvernail T. ‘ybrid Seed Carrot. Oregon State University Extension Service, EM 8879, 2004.

ISSN 3030-3907

KADASTR KARTALARINI TUZISHDA KARTOGRAFIK GENERALIZATSIYANI QO‘LLASH

Mallayev Behruz Qo‘ldosh o‘g‘li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, assistent
Saitmurotov Bobur Sobir o‘g‘li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, assistant
Amanov Ulug‘bek Xoliqul o‘g‘li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, assistent

Annotatsiya. Ushbu maqolada kartografik generalizatsiyaning kadastr xaritalari tuzilishidagi roli va ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Tarixiy rivojlanish, asosiy operatorlar va algoritmlar hamda avtomatlashtirilgan generalizatsiya usullari tahlil qilinadi. Koreya, Avstraliya va Daniya kadastr tizimlari misolida generalizatsiya jarayonining real holatlar bilan bog‘liqligi o‘rganiladi. Maqola generalizatsiyaning kadastr noaniqligi muammosiga ta’siri, masshtab va maqsadga bog‘liq tanlov mezonlari, hamda zamonaviy GIS muhitida avtomatlashtirilgan va qo‘lda amalga oshiriladigan generalizatsiya o‘rtasidagi muvozanat masalalarini qamrab oladi.

Kalit so‘zlar: kartografik generalizatsiya, kadastr xaritasi, masshtab, avtomatlashtirilgan generalizatsiya, GIS, obyektlarni soddalashtirish, kadastr noaniqligi.

Abstract. This paper examines the role and significance of cartographic generalisation in the compilation of cadastral maps. It analyses historical development, principal operators and algorithms, as well as automated generalisation methods. Using the Korean, Australian and Danish cadastral systems as case studies, the relationship between generalisation processes and real-world conditions is investigated. The paper addresses the impact of generalisation on cadastral inconsistency, scale- and purpose-dependent selection criteria, and the balance between automated and manual approaches in modern GIS environments.

Keywords: cartographic generalisation, cadastral map, map scale, automated generalisation, GIS, feature simplification, cadastral inconsistency.

Аннотация. В данной статье рассматриваются роль и значение картографической генерализации при создании кадастровых карт. Анализируются историческое развитие, основные операторы и алгоритмы, а также методы автоматизированной генерализации. На примере кадастровых систем Кореи, Австралии и Дании изучается взаимосвязь процесса генерализации с реальными практическими условиями. Статья охватывает влияние генерализации на проблему кадастровой неопределенности, критерии отбора в зависимости от масштаба и назначения, а также вопросы баланса между автоматизированной и ручной генерализацией в современной среде ГИС.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: картографическая генерализация, кадастровая карта, масштаб, автоматизированная генерализация, ГИС, упрощение объектов, кадастровая неопределенность.

KIRISH.

Kartografik generalizatsiya – bu geografik ma’lumotlarni soddalashtirish va muhim xususiyatlarini saqlagan holda aks ettirish jarayoni bo‘lib, har qanday xarita tuzishning ajralmas qismidir. [3] Xaritalash amaliyotida generalizatsiya nafaqat vizual aniqlik, balki axborot yukini muvozanatlash va xaritaning maqsadga muvofiqligini ta’minlash uchun ham zarur hisoblanadi.

Kadastr xaritalariga nisbatan ushbu masala alohida ahamiyat kasb etadi. Kadastr xaritasi — bu ma’lum bir hudud doirasidagi barcha yer uchastkalarining nisbiy joylashuvini ko‘rsatuvchi grafik ko‘rsatkich bo‘lib, u odatda 1:500 dan 1:10 000 gacha bo‘lgan masshtablarda tuziladi. [4] Bunday xaritalar yer huquqlarini himoya qilish, yer bozorini qo‘llab-quvvatlash va ko‘p maqsadli boshqarish infratuzilmasini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Xalqaro Kartografiya Assotsiatsiyasi (ICA) kartografik generalizatsiyani "xarita miqyosi va/yoki maqsadiga mos keladigan tafsilotlarning tanlov va soddalashtirilgan ifodasini" deb ta’riflaydi. [1] Bu ta’rif generalizatsiyaning ikki asosiy omilini — masshtab va maqsadni — bir vaqtda hisobga olishini ta’kidlaydi, bu esa kadastr xaritalarini tuzishda ayniqsa muhimdir.

Zamonaviy kadastr tizimlarida, ayniqsa raqamli va ko‘p maqsadli kadastr ma’lumotlar bazalariga o‘tish jarayonida, generalizatsiya muammosi yangi ahamiyat kasb etmoqda. Bir tomondan, raqamli texnologiyalar masshtabni erkin o‘zgartirish imkonini beradi; boshqa tomondan esa, generalizatsiya noto‘g‘ri bajarilganda kadastr noaniqliklari kelib chiqishi mumkin, bu esa yer uchastkalarining huquqiy himoyasiga bevosita zarar yetkazadi.

MATERIALLAR VA TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotda asosiy nazariy manba sifatida Ranchi universitetining «Computer Cartography» materiallari (GIS 08, III bo‘lim) qo‘llanildi — ushbu manba generalizatsiya ta’riflarini, maqsadlarini, ish oqimini va operator tipologiyasini qamrab oladi [1].

Minashkina (2025) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar — raqamlashtirish jarayonidagi kartografik generalizatsiyaning avtomatlashtirilgan va an’anaviy usullarini taqqoslashga bag‘ishlangan va O‘zbekiston olimlari tomonidan yozilgan ilmiy ish sifatida muhim manba hisoblanadi [2].

Williamson va Enemark (1996) ning kabi olimlar ilmiy ishlarida Daniya va Avstraliya kadastr xaritalash tizimlarini taqqoslab, kadastr xaritalarining turli vazifalari va atributlarini tahlil etuvchi fundamental asarlar yozishgan [4].

ISSN 3030-3907

Choi, Lee va Sim kabi sharqiy mintaqa olimlari tomonidan ham bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ular grafik kadastr xaritalarini raqamli shaklga o‘tkazishda yuzaga keladigan kadastr noaniqliklari muammosini real amaliyot misolida ko‘rsatib beruvchi manbalar bo‘lib xizmat qilmoqda [3].

Tadqiqot metodologiyasi taqqoslash, me’yoriy hujjatlar va adabiyotlarni ko‘rib chiqish hamda real kadastr loyihalari tajribasini umumlashtirishga asoslanadi. Generalizatsiya operatorlari va ularning kadastr xaritalariga ta’siri tahliliy jadvallar yordamida ifodalanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Generalizatsiyaning nazariy asoslari va kadastrga bog‘liqligi. Generalizatsiya ikki asosiy turga bo‘linadi: ma’lumotlar samarali saqlanishi yoki tahlil qilinishi uchun amalga oshiriladigan model generalizatsiyasi va vizual taqdimot uchun mo‘ljallangan kartografik generalizatsiya. [1]

Kadastr xaritalarida ushbu ikki tur o‘zaro chambarchas bog‘liq. Masalan, 1:500 masshtabidagi batafsil yer uchastkalari planidan 1:5 000 masshtabidagi kadastr xaritasiga o‘tishda ham ma’lumotlar hajmini kamaytirish (model generalizatsiyasi), ham obyektlarni grafik jihatdan talqin etish (kartografik generalizatsiya) zarur bo‘ladi.

Kadastr xaritalarida generalizatsiya ehtiyoji bir qancha sabablar bilan belgilanadi: birinchidan, yer uchastkalari soni ko‘payib borishi va ularning o‘lchamlari kichiklashishi bilan masshtab talabi ortadi; ikkinchidan, ko‘p maqsadli raqamli kadastr ma’lumotlar bazalarini yaratishda turli foydalanuvchilar uchun turli masshtabdagi xaritalar tayyorlanishi zarur.

1-jadval.

Generalizatsiya maqsad va darajasining kadastr xaritalariga bog‘liqligi

Masshtab	Xarita maqsadi	Generalizatsiya darajasi	Obyektlar tanlovi	Misollar
1:500 – 1:2 000	Yer uchastkalari plani	Past (yuqori detallilik)	Barcha chegaralar	Shahar partsellari
1:5 000 – 1:10 000	Kadastr xaritasi	O‘rtacha	Asosiy chegaralar	Qishloq kadastri
1:25 000 – 1:50 000	Topografik-kadastr	Yuqori	Majmuiy obyektlar	Shahar umumiy rejasi

ISSN 3030-3907

Masshtab	Xarita maqsadi	Generalizatsiya darajasi	Obyektlar tanlovi	Misollar
1:100 000 va kichik	Mintaqaviy reja	Juda yuqori	Faqat katta obyektlar	Davlat yer kadastri

Manba: muallif tomonidan [1, 4] asosida tuzilgan.

Generalizatsiya operatorlarining kadastr amaliyotida qo‘llanilishi. Generalizatsiya jarayonida bir qator maxsus operatorlardan foydalaniladi. Soddalashtirishda chiziqli yoki poligonal shaklning murakkabligi kamaytiriladi, bu ko‘pincha uchlari sonini qisqartirish orqali amalga oshiriladi [1].

Douglas-Peucker algoritmi chiziqli obyektlarni belgilangan tolerans parametri asosida soddalashtirib, kadastr chegaralarini vizual jihatdan o‘qilishi mumkin bo‘lgan shaklda saqlaydi. Aggregatsiya operatori poligonal obyektlarni birlashtiradi — dastlabki poligonlar orasidagi bo‘shliqni to‘ldirib, kamroq sonli tutash poligonlar hosil qiladi. [1]

Kadastr amaliyotida alohida ahamiyat kasb etadigan operatorlar quyidagilar:

— Silliqlashtirish (Smoothing): chiziq yoki chegaralardagi keskin burchaklarni egri chiziqlar bilan almashtiradi. Bu operator ayniqsa eski qog‘oz xaritalardan raqamli shaklga o‘tishda qiyshiq va noaniq chegaralarni tartibga solishda qo‘llaniladi.

— Ko‘chirish (Displacement): obyektlarni ularning geometrik aniq joyidan o‘qilishi uchun uzoqlashtiradi. Kadastr xaritalarida bu operator yo‘l va bino chegaralari bir-biriga juda yaqin joylashganda muhim ahamiyat kasb etadi.

— Tanlov/Yo‘q qilish (Selection/Elimination): ma’lum obyektlarni saqlash va boshqalarini olib tashlashni anglatadi. Bu kadastr generalizatsiyasida eng mas’uliyatli qarordan biri — qaysi yer uchastka chegarasi xaritada qolishi kerakligi masalasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Generalizatsiya va kadastr noaniqligi muammosi. Kadastr xaritalaridagi generalizatsiyaning o‘ta muhim amaliy natijasi — kadastr noaniqligi muammosidir. Koreya kadastr tizimida 1910-yillarda tuzilgan grafik xaritalar qog‘oz yemirilishi (qisqarish va kengayish) natijasida geometrik buzilishga uchragan, bu esa parsel chegaralari bilan haqiqiy yer egallash o‘rtasida katta farq paydo bo‘lishiga olib kelgan. [3]

Yonchon okrugida o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, dastlabki 20-30 ta yer uchastkasi 2000-yilga kelib 600 ta parsellga bo‘linib ketgan — bu esa kadastr noaniqligi muammosini keskinlashtirgan. [3]

Ushbu muammo bevosita generalizatsiya bilan bog‘liq: masshtab qisqargan sari xaritada ko‘rsatilmagan obyektlar yer foydalanuvchilar tomonidan xato talqin

ISSN 3030-3907

etiladi; xarita asosida hisoblangan parsel maydoni hujjatlaridagi ma’lumotdan farq qiladi; grafik xaritalarda qo‘llanilgan generalizatsiya usullari raqamli GAT muhitida to‘g‘ri takrorlanmaydi.

2-jadval

Generalizatsiya xatosi va kadastr noaniqligi o‘rtasidagi bog‘liqlik (Koreya misolida)

Parsel raqami	Foydalanish turi	Ro‘yxatdagi maydon (m²)	Haqiqiy maydon (m²)	Farq (m²)	Tolerans (m²)
306-1	Yo‘l	128	118.0	-10.0	9
326-1	Turar-joy	2 742	2 652.0	-90.0	42
326-3	Turar-joy	198	196.7	-1.3	11
326-4	Turar-joy	383	385.9	+2.9	15
326-6	Dehqonchilik	340	332.4	-7.6	14
325-71	Yo‘l	1 923	1 767.0	-156.0	35

Manba: [3] dan olingan ma’lumotlar asosida tuzilgan.

Jadvaldan ko‘rinib turganidek, 325-71 raqamli yo‘l generalizatsiyaga uchraganda ro‘yxatdagi va haqiqiy maydon o‘rtasidagi farq 156 m² ga yetgan bo‘lib, bu toleransdan ancha oshib ketadi. Bunday holat, generalizatsiya noto‘g‘ri bajarilganda, kadastr noaniqligi va huquqiy nizolarga olib kelishini ko‘rsatadi.

Avtomatlashtirilgan va an’anaviy generalizatsiyaning taqqoslanishi. An’anaviy kartografiyada generalizatsiya asosan sub’ektiv jarayon bo‘lib, individual kartograflarning mahoratiga tayanadi. Kompyuter texnologiyalarining kirib kelishi bilan avtomatlashtirilgan generalizatsiya raqamli topografik xaritalar yaratishda muhim komponentga aylandi. [2]

Avtomatlashtirilgan generalizatsiya mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshiradi. Digital topografik xaritalar uchun 1:25 000 masshtabdagi to‘rtta list avtomatik ravishda birlashtirilib, 1:50 000 masshtabdagi bitta list hosil qilinadi; shu tartibda 1:50 000 → 1:100 000 va 1:100 000 → 1:200 000 qayta ishlanishi ham amalga oshiriladi. [2]

Biroq, avtomatlashtirilgan generalizatsiyaning o‘z cheklovlari mavjud. GIS yechimlar asosidagi masshtab effekti usuli faqat qisman muammoni hal eta oladi, chunki u sehrli obyektlar ko‘rinmasligini ta’minlaydi, ammo haqiqiy generalizatsiya talablarini to‘la qondirmaydi. [2]

Kadastr sohasida avtomatlashtirilgan generalizatsiyaning eng katta cheklovi — hududiy geografik xususiyatlarni hisobga olish imkoniyatining

ISSN 3030-3907

yo‘qligidir. Siyrak aholili hududlarda past sinfli yo‘l ham muhim rol o‘ynaydi, ammo avtomatlashtirilgan dastur uni masshtab qoidalari asosida olib tashlashi mumkin. [2]

Kadastr xaritalarining funksiyalari va generalizatsiya talablariga ta’siri. Kadastr xaritasi foydalanuvchilari va vazifalari xilma-xilligi generalizatsiya talablarini ham farqlantirib beradi. Williamson va Enemark (1996) yer bozori, yer solig‘i, kommunal xizmatlar boshqaruvi, shahar va qishloq yer boshqaruvi hamda ko‘p maqsadli raqamli xarita uchun kadastr xaritasining olti xil atributini taqqoslaydi. [4]

Yer bozori nuqtai nazaridan Avstraliyada kadastr tizimi faqat yer bozori ehtiyojlarini qondirish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, xaritadan ko‘ra alohida kadastr o‘lchov planlari ustunligi saqlanadi. [4] Bunday hollarda generalizatsiya darajasi minimal bo‘lishi talab etiladi.

Ko‘p maqsadli raqamli kadastr ma’lumotlar bazasi uchun esa yuqori aniqlik, to‘liqlik, raqamli shaklda mavjudligi, topografik ma’lumotlar bilan integratsiya va serhisob kadastr tekshiruvlari talab etiladi. [4] Bu talablar generalizatsiyani maksimal ehtiyotkorlik bilan bajarishni zarur qiladi.

Daniya tajribasi bu masalani aniq ko‘rsatib beradi: Daniyaning raqamli kadastr xaritasi grafik xarita bo‘lib, koordinatalar cheklardagi nuqtalarni faqat grafik xaritada ko‘rsatadi. Shuning uchun parsel maydonlari va o‘lchamlarini aniq hisoblash uchun ushbu koordinatalardan foydalanib bo‘lmaydi. [4]

Ko‘p qatlamli ma’lumot tizimlarida generalizatsiya muammolari. Ko‘pgina GIS loyihalari bir nechta ma’lumot qatlamlaridan iborat bo‘lib, ulardan birida amalga oshirilgan generalizatsiya boshqa qatlamlarga ham tarqatilishi kerak, shunda barcha qatlamlar o‘zaro mos va vertikal jihatdan to‘g‘ri mos keladi. [1]

Masalan, daryo chizig‘i soddalashtirilganda, qirg‘og‘idagi shahar yoki yer uchastkalari poligonlari ham shunga muvofiq siljitilishi zarur. Aks holda daryo shahar ichidan o‘tib qolishi yoki parsel chegara yo‘lning ustiga tushishi mumkin. Bu kadastr xaritalarida ayniqsa muhim — chunki bunday xatolar huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Hozirgi holatda generalizatsiya operatorlarining ko‘pchiligi faqat alohida qatlamlar uchun ishlab chiqilgan va boshqa qatlamlar haqida hech qanday ma’lumotga ega emas. Ko‘p qatlamli generalizatsiya odatda individual qatlamlar generalizatsiya qilingandan so‘ng xatolarni tuzatuvchi keyingi ishlov berish orqali amalga oshiriladi. [1]

O‘zbekiston kadastr tizimi kontekstida bu muammo yanada dolzarb bo‘lib, chunki yer kadastri, tabiiy resurslar kadastri va qurilish obyektlari reestri ko‘pincha alohida platformalarda yuritiladi. Ular orasidagi generalizatsiya

ISSN 3030-3907

muvofiqligi kadastr ma’lumotlarining yaxlitligi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA.

Olingan natijalar ko‘rsatmoqdaki, kartografik generalizatsiya kadastr xaritalari tuzilishida faqat texnik muammo emas, balki huquqiy-iqtisodiy oqibatlari bor murakkab qaror qabul qilish jarayonidir. Generalizatsiya darajasi va usulining noto‘g‘ri tanlanishi kadastr noaniqligi, yer nizolari va iqtisodiy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin.

Daniya va Koreya tajribasi generalizatsiya bilan bog‘liq huquqiy muammolarning qanchalik jiddiy ekanligini ko‘rsatadi. Daniya kadastr xaritasini raqamlashtirish jarayonida ro‘yxatdan o‘tgan kadastr chegaralarini topografik xaritalar bilan solishtirishda o‘zboshimchalik bilan chegaralarni siljitish, ro‘yxatdan o‘tgan huquqlarda qabul qilib bo‘lmaydigan o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. [4]

Generalizatsiyaning kadastr xaritalariga ta’sirini baholashda amaliy yondashuv zarur. Generalizatsiya aniqlik va to‘g‘rilikni kamaytirishi mumkin. Tahlilchilar generalizatsiyadan keyingi ularning ish uchun maqbulmi-yo‘qligini hal qilishlari kerak. [1]

Avtomatlashtirilgan generalizatsiya usullari samaradorligini oshiradi, biroq kadastr sohasida inson nazoratini to‘liq almashtira olmaydi. Chunki kadastr xaritasidagi har bir chegara — bu faqat grafik element emas, balki huquqiy me’yor. Shuning uchun generalizatsiya qarorlari nafaqat kartografik, balki huquqiy jihatdan ham asoslanishi zarur.

XULOSA.

Ushbu tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Kartografik generalizatsiya kadastr xaritalari tuzilishining ajralmas qismi bo‘lib, masshtab o‘zgarishi va xaritaning maqsadiga qarab turli darajada qo‘llanilishi zarur. Generalizatsiya darajasini noto‘g‘ri belgilash kadastr ma’lumotlarining huquqiy kuchiga ta’sir etishi mumkin.

Generalizatsiya operatorlari (soddalashtirish, silliqlashtirish, aggregatsiya, ko‘chirish, tipifikatsiya va boshqalar) kadastr amaliyotida turlicha qo‘llaniladi. Eng muhimi — ularni masshtab va hududiy xususiyatlarga mos ravishda tanlash.

Generalizatsiya noto‘g‘ri bajarilsa kadastr noaniqligi yuzaga keladi. Koreya misolida ko‘rsatilganidek, haqiqiy yer egallash bilan xaritadagi chegaralarning mos kelmasligi jiddiy iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarga olib keladi.

Avtomatlashtirilgan generalizatsiya mehnat unumdorligini oshiradi, ammo hududiy xususiyatlarni hisobga ola olmaydigan algoritmlarga to‘liq ishonib bo‘lmaydi. Kadastr xaritalarida inson nazorati va mutaxassis qarorlari muhim rol o‘ynashda davom etadi.

ISSN 3030-3907

Ko‘p qatlamli kadastr GIS tizimlarida generalizatsiya qatlamlar o‘rtasidagi moslikni ta’minlash uchun holistic va kontekstual yondashuv talab etadi — faqat alohida qatlam darajasidagi generalizatsiya yetarli emas.

Raqamli kadastr ma’lumotlar bazalarini yaratishda generalizatsiya standartlarini editorial ko‘rsatmalarga kiritish zarur. Ushbu ko‘rsatmalar hududiy xususiyatlarni, obyektning kadastr-huquqiy ahamiyatini va foydalanuvchi talablarini aks ettirishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Map Generalisation. Unit III, Semester II, Paper Code: GIS 08, Computer Cartography. PG Diploma in RS & GIS. Dr. Shyama Prasad Mukherjee University, Ranchi
2. Minashkina, N., Valieva, A., Ibraimova, A., Rakhimbabayeva, M., & Islamova, Z. (2025). Process of cartographic generalization in maps digitalization. BIO Web of Conferences, 173, 03025. https://doi.org/10.1051/bioconf/202517303025
3. Choi, W., Lee, M., & Sim, W. (n.d.). Cadastral Maps – How to Make Digital from Graphical. Korea Cadastral Survey Corporation, Training & Research Institute, Yongin, Korea.
4. Williamson, I., & Enemark, S. (1996). Understanding cadastral maps. The Australian Surveyor, 41(1), 38–52. https://hdl.handle.net/11343/34005
5. Brassel, K. E., & Weibel, R. (1988). A Review and Conceptual Framework of Automated Map Generalization. International Journal of Geographical Information Science, 2(3), 229–244.
6. Douglas, D. H., & Peucker, T. K. (1973). Algorithms for the Reduction of the Number of Points Required to Represent a Digitized Line or its Caricature. Cartographica, 10(2), 112–122.
7. Töpfer, F., & Pillewizer, W. (1966). The Principles of Selection. The Cartographic Journal, 3(1), 10–16.
8. International Cartographic Association (ICA). (1967). Multilingual Dictionary of Technical Terms in Cartography. Franz Steiner Verlag, Wiesbaden.

ISSN 3030-3907